



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/4 (13)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сайдова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сайдов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зокидов Азамат Азамжонович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSILOGIYA

Zaitov E.X. O‘zbekistonda mahalla institutining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi.....	4
Imomnazarov H.I. Yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlar: muammolar va ularning yechimi	9
Usmonova R.M. Xotin-qizlarning norasmiy bandligini ijtimoiy jihatdan tadqiq etishdagi ilmiy yondashuvlar	15
Abdiraimova Sh.A. Uzoq umr ko‘ruvchilarga xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari	22

OILA VA JAMIYAT

Saydivaliyeva X.X. “Ayollar huquqlari” va “gender tengligi” tushunchalari: o‘zaro munosabat va farqlar.....	29
Abdullaxo‘jayev A. Ibrat matbaachiligining vujudga kelishi va jadid g‘oyalarining yoyilishidagi ahamiyati.....	37
Xolmuratova M.M. O‘smirlarning pulga bo‘lgan munosabatida jamiyatning ijtimoiy-psixologik ta’siri.....	45
Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning faol shakllari va ijtimoiy-huquqiy himoyasi tizimi.....	50
Sattarova Sh.Q. Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning ilmiy-nazariy asoslari	55

PSIXOLOGIYA

Mahkamova D.B. Xotin-qizlar professional ijtimoiy moslashuvining psixologik aspektlari.....	60
Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari	68
Askarova G. Development of coping behavior	73
Nazarova M.Y. Zo‘ravonlikka uchragan ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	77
Jumabekov Z.X. G‘arb faylasuflari qarashlarida hasad muammosining o‘rganilganlik holati.....	83
Sadullayeva J.I. Tadqiqotlarda ayollar migratsiyasining oilaviy munosabatlarga ta’siri o‘rganilganligi.....	90

PEDAGOGIKA

Mavlonov B.B. O‘smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlanishida oiladagi tarbiya usullarining o‘rni.....	94
Nomozova O‘.A. Oilada er va xotin nutqidagi gender jihatlarining oilaviy munosabatlarga ta’siri	100
Qurbonova B.N. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	105
Axmedova D.X. Interfaol ta’lim jarayonida rag‘batlantirishning gender yondashuvi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	111
Yakubov O.T. Farzand tarbiyasida ota-onaning asosiy vazifalari va funksiyalari	119

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Abdulazizova N.B. Ayollarning pensiya ta’minoti masalasini yechish yo‘llari: ilg‘or tajriba va zamonaviy tendensiyalar.....	124
--	-----



Zaitov Elyor Xolmamatovich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
"Sotsiologiya" kafedrasida dotsenti (PhD)
e-mail: e.zaitov@nuu.uz

O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda mahalla institutining rivojlanishi, uning mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimidagi noyob roli hamda ijtimoiy barqarorlik va demokratiyani ta'minlashdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Mahalla ananaviy qadriyatlar boshqaruvining zamonaviy talablari bilan uyg'unlashtirgan, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqa rolini o'taydigan noyob ijtimoiy institut sifatida taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, ijtimoiy institut, davlat, fuqarolar, xalq, tahlil, boshqaruv, qadriyatlar, oila, jamoa, ijtimoiy adolat, urf-odatlar, mustaqillik.

Аннотация. В статье рассматривается развитие института махалли в Узбекистане в годы независимости, его уникальная роль в системе местного самоуправления и значение в обеспечении социальной стабильности и демократии. Махалла представлен как уникальный социальный институт, сочетающий в себе традиционные ценности с современными требованиями управления, играющий роль связующего звена между государством и обществом.

Ключевые слова: махалла, социальный институт, государство, граждане, народ, анализ, управление, ценности, семья, сообщество, социальная справедливость, обычаи, независимость.

Annotation. The article examines the development of the mahalla institution in Uzbekistan during the years of independence, highlighting its unique role in the local self-governance system and its significance in ensuring social stability and democracy. Mahalla is presented as a unique social institution that combines traditional values with modern management requirements, serving as a bridge between the state and society.

Keywords: mahalla, social institution, state, citizens, people, analysis, management, values, family, community, social justice, customs, independence.

Kirish. O'zbekistonda mahalla instituti mustaqillik yillarida muhim ijtimoiy institut sifatida qayta tiklanib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadigan tuzilma sifatida shakllandi. Mahalla nafaqat jamiyatdagi turli qatlamlarni birlashtiruvchi institut, balki davlat va fuqarolar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida ham namoyon bo'ldi. O'zbekistonda mahalla "fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi" sifatida ilmiy va huquqiy

kategoriya bo'lib, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy tizimida muhim o'rin tutadi. Mahalla mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritib, xalqqa eng yaqin ijtimoiy institut sifatida jamiyat manfaatlarini himoya qilish, muammolarini joyida hal qilish hamda aholi va davlat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi.

Mahalla xalq demokratik institutlarining asosiy namunasi sifatida xalqning ehtiyojlariga xizmat qilish va uning manfaatlarini himoya qilishda muhim

o‘rin tutadi. Shu bois mahalla nafaqat ijtimoiy institut, balki ijtimoiy adolat va birdamlikning ramzi sifatida ham ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mahalla tizimi O‘zbekistonning noyob va xalqchil instituti ekanini ta’kidlab, uning jamiyatdagi ahamiyatini doimo yuqori baholaydi. Uning fikricha, mahalla davlatning tayanchi bo‘lib, mahalla obod bo‘lsa, mamlakat ham obod bo‘ladi. Shuningdek, Prezident mahalla tizimini dunyoda o‘xshashi yo‘q, xalqchil xususiyatga ega institut sifatida ta’riflaydi. Uning ta’kidlashicha, mahalla fuqarolarning muammolarini hal qilishda, ijtimoiy himoyani ta’minlashda va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi¹.

Mahalla, oila, jamoa va davlat o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Xorijlik olimlar Mishel Salinas² va Parviz Morviy³lar o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston mahalla tizimini “noyob ijtimoiy institut” sifatida ta’riflaganlar. Ular mahallaning xalqqa yaqinligi, uning ko‘p qirrali ijtimoiy vazifalari va o‘zining qadimiy hamda zamonaviy xususiyatlarni uyg‘unlashtirishiga yuqori baho berganlar.

Mahalla nafaqat oila va jamiyat, balki davlat bilan ham yaqin aloqada bo‘lib, ular o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini o‘taydi. U demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish, aholining faol ishtirokini ta’minlash orqali ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, mahalla fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi sifatida ham e’tirof etiladi.

Maqsad va uni asoslash. O‘zbekistonda mahalla institutining mustaqillik yillaridagi rivojlanishini tahlil qilib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalaridagi roli hamda ahamiyatini yoritishga harakat qilinadi. Mahalla institutini

¹ Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarning izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot rejasini yaratish barqaror taraqqiyot kafolatidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning O‘zLiDePning VIII syezdidagi ma’ruzasi, 19.10.2016 yil.

² Salinas M. “Mahalla - oila institutini mustahkamlashning muhim omili” // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2012-yil 4-dekabr. // http://www.oldxs.uz/yuzma/133-bugun-sonda/3339-mahalla_xalqaro.html

³ Mahalla institutining Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi taqdimoti // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2014-yil 13-iyun. // <http://xs.uz/index.php/homepage/khorizhda/item/1386>

zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish hamda uning xalqaro maydondagi maqomini kuchaytirish maqsadida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rnini belgilash.

2. Ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faoliyatini aniqlash.

3. Davlat va aholi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatidagi ahamiyatini oshirish.

4. Milliy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlashdagi hissasini yoritish.

5. Xalqaro me‘yorlarga muvofiq rivojlanish istiqbollari aniqlash.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Mahallaning huquqiy maqomi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash va ularga yordam ko‘rsatish;

- aholining kundalik turmushiga tegishli masalalarni tezkor va samarali hal qilish;

- jamiyatda milliy qadriyatlar va oilaviy an‘analarni mustahkamlash;

- davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini nazorat qilishda fuqarolarning ishtirokini oshirish;

- hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.

Mahalla aholi bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning kundalik turmush tarzini chuqur tushunadi. Bu esa mahalliy darajada paydo bo‘lgan muammolarni joyida hal qilish imkoniyatini beradi. Mahallaning mazkur xususiyati aholining ehtiyojlariga javob berish va ularning manfaatlarini himoya qilishda samarali mexanizm yaratadi.

Mahallada qaror qabul qilish jarayonlari fuqarolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirokiga asoslanadi. Fuqarolar o‘zlari saylagan organlar orqali mahalliy masalalarni muhokama qilishadi, bu esa jamoatchilik manfaatlariga muvofiq qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Mazkur jarayon mahallaning demokratik institut sifatidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Mahalla oila va jamoalar o‘rtasida hamjihatlikni ta’minlab, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. U ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy muhokama va hamkorlik orqali hal

etishga ko‘maklashadi. Bu esa mahallaning nafaqat boshqaruv tizimi, balki jamoatchilikni birlashtiruvchi markaz sifatidagi o‘rnini belgilaydi.

Mahalla milliy an‘analari, ma‘naviy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qadriyatlarini jamiyatda keng yoyish va ularni rivojlantirishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, mahalla aholining ma‘naviy tarbiyasi va madaniy hayotini boyitishda alohida ahamiyatga ega.

Bu xususiyatlar mahallaning faqat boshqaruv tizimi emas, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi noyob ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Mahalla xalq bilan yaqin hamkorlik qilib, jamoatchilikka xos muammolarni tezkor va samarali hal qilish imkonini yaratadi.

Xorijiy tadqiqotchilar mahalla institutini demokratik qadriyatlarning yorqin namunasi sifatida baholaydilar⁴. Ular mahalla tizimini boshqa mamlakatlarda joriy etish bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish imkoniyatini ta‘kidlab, uni jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda o‘ziga xos tajriba sifatida ko‘rishadi. Xorijiy mamlakatlarda mahalliy boshqaruv organlari, odatda, davlatning ma‘muriy apparati tarkibida bo‘lib, markaziy hokimiyatga hisobot beradi. Ular davlat tizimining bir qismi sifatida harakat qiladi.

O‘zbekistondagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ya‘ni mahalla instituti, davlat hokimiyati tizimiga kirmaydi. U mustaqil faoliyat yuritib, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan⁵. Bu uni boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, xalqchil institutga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligida mahalla institutining huquqiy maqomi aniq belgilangan⁶. Uning faoliyati davlat himoyasida bo‘lib, huquqiy kafolatlar bilan ta‘minlangan. Mahalla instituti jamiyatda milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini va an‘analarni saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, u ijtimoiy integratsiyani ta‘minlaydi va aholi o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi asosiy farq – ularning davlat

hokimiyatidan mustaqilligida. Mahalla instituti mahalliy aholining tashabbuslariga tayangan holda faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston mahalla instituti nafaqat boshqaruv mexanizmi, balki jamiyatni birlashtiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ahamiyati iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda, aholining turmush darajasini yaxshilashda, shuningdek, jamiyatdagi demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashda yaqqol ko‘rinadi.

Mahalla institutining ushbu xususiyatlari uni O‘zbekistonning demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining muhim poydevorlaridan biriga aylantiradi. O‘zbekistonda mustaqillik yillari mahalla institutining rivojlanishi va ahamiyatini oshirishda yangi bosqich bo‘ldi. U xalq va davlat o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida nafaqat mahalliy darajada, balki milliy rivojlanishning muhim elementi sifatida yangicha mazmun va funksiyalar bilan boyidi.

Huquqshunos Sh.Jalilovning fikriga ko‘ra, mahalliy boshqaruv aholining manfaatlarini ifodalaydigan, saylov orqali tayinladigan organlar va ularning ma‘muriy apparati orqali amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarish tizimidir. Ushbu ta‘rif mahalliy boshqaruvning asosiy tamoyillarini, ya‘ni aholining faolligi, saylanadigan vakillik organlari va mahalliy darajadagi mas‘uliyatli boshqaruv mexanizmini o‘z ichiga oladi⁷. Bu tizim, bir tomondan, davlatning ma‘muriy-hududiy tuzilmasida samarali boshqaruvni ta‘minlasa, ikkinchi tomondan, aholining o‘z ehtiyoj va manfaatlarini o‘zlari hal qilish imkoniyatini beradi.

Ko‘pchilik davlatlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, odatda, “munisipalitetlar” deb ataladi. “Munisipal” tushunchasi “mahalliy” degan ma‘noni anglatadi. Rim imperiyasi davrida “municipium” atamasi o‘zini o‘zi boshqarish huquqiga ega bo‘lgan shaharlarga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, bu shaharlarda aholi o‘z vakillarini saylash orqali boshqaruvda ishtirok etgan. “Municipium” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “munis” (mas‘uliyat) va “sario” yoki “geserio” (bo‘ynimga olaman) ma‘nosini bildiradi⁸.

⁷ Jalilov Sh.I. O‘zbekiston Respublikasining o‘zini o‘zi boshqarish huquqi (Darslik) – Toshkent: Voris, 2007. – B. 82

⁸ Ollamov Ya , Saidova X. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish huquqi: nazariy va amaliyot masalalari. – Toshkent: TDYuI, 2006. – B.96.

⁴ Ollamov Ya, Saidova X. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish huquqi: nazariy va amaliyot masalalari. – Toshkent: TDYuI, 2006. – B.96.

⁵ Jalilov Sh.I. O‘zbekiston Respublikasining o‘zini o‘zi boshqarish huquqi (Darslik) – Toshkent: Voris, 2007. – B. 82.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B. 60-63.

Bu atama mahalliy aholi tomonidan o'z hududida maxsus masalalarni boshqarish mas'uliyatini bo'yniga olishni anglatgan. Shu tariqa, munitsipal boshqaruv aholi manfaatlarini ifodalovchi hamda boshqaruvni jamoaviy mas'uliyat asosida amalga oshiruvchi tizim sifatida shakllangan. Boshqacha qilib aytganda, "munitsipalitet" tushunchasi nemischa "munizipalitat", lotincha "municipium" va fransuzcha "municipalisat" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u ko'pgina davlatlarda saylash yo'li bilan tashkil etilgan o'zini o'zi boshqarish va boshqaruv organlarining yig'indisini ifodalaydi.

Mustaqillik davrida mahalla o'zining xalqchilligi, demokratik qaror qabul qilish jarayonlaridagi faoliyati bilan fuqarolarning ijtimoiy jihatdan faollashuviga xizmat qildi. Mahalla xalqning muammolarini davlat organlariga yetkazishda, shuningdek, davlat siyosatini aholi o'rtasida targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi. U turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda davlat va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi uchun poydevor yaratdi. Mahalla nafaqat kundalik muammolarni hal etish, balki ijtimoiy zaif qatlamlar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lganlar va yoshlar bilan ishlashda davlat organlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mahalla institutining huquqiy maqomi aniq belgilangan. Uning mustaqil faoliyati Konstitutsiya bilan kafolatlangan⁹. Shu bilan birga, "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risida"gi Qonunlar orqali uning vakolatlari kengaytirildi, moliyaviy mustaqilligi va tashkilotchilik salohiyati oshirildi.

Mahalla instituti mustaqillik yillarida ijtimoiy adolat va aholini qo'llab-quvvatlashning muhim tuzilmasi sifatida shakllandi. Hozirgi kunda mahallaning ijtimoiy yordam ko'rsatishdagi roli sezilarli darajada kuchaytirildi.

Jumladan:

- kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, nafaqa tayinlash va moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda;

- yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lganlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun maqsadli dasturlar tashkil etilmoqda.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – B. 60-63.

Mahalla instituti aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadida ishsizlikni kamaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda faol ishtirok etmoqda.

Bunda quyidagi vazifalarni bajarishda faol ishtirok etmoqda:

- davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik dasturlarini mahalliy darajada joriy qilish;

- kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va maxsus treninglar orqali yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash;

- mahalla hududida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish.

Mahalla institutining vakolatlarini kengaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholining hayot sifati va farovonligini oshirishda muhim qadamlar qo'yilmoqda. U nafaqat ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmi, balki iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashuvchi vosita sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining davlat boshqaruv tizimidagi roli qayta ko'rib chiqildi. Mahalla markaziy davlat hokimiyatidan mustaqil tuzilma sifatida shakllandi. Hozirgi kunda mahalla o'zining aholini birlashtirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va mahalliy masalalarni hal etishdagi roli bilan muhim institut sifatida mustahkamlandi. Davlat va jamoat o'rtasidagi ishonchli ko'priksifatida faoliyat olib bormoqda.

Mahalla nafaqat boshqaruvning mahalliy darajasidagi muhim bo'g'ini, balki jamiyatda milliy va ma'naviy birlikni ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. U quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- milliy qadriyatlar va urf-odatlarini asrash. Mahalla milliy an'analar, urf-odatlar va ma'naviy merosni davoniyligini ta'minlash va rivojlantirishda asosiy mexanizm vazifasini bajaradi;

- demokratik qarorlar qabul qilish. Mahalla aholining o'zini o'zi boshqarishdagi ishtirokiga imkon yaratish bilan demokratik jarayonlarni joriy qiladi. Fuqarolar mahalliy masalalarni muhokama qilishda hamda ular yuzasidan qarorlar qabul qilishda bevosita qatnashadilar;

- hamjihatlik va birdamlikni mustahkamlash. Aholining turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy birlikni ta'minlash, o'zaro ko'mak va hamkorlik muhitini yaratish, jamoatchilikni umumiy manfaatlarini himoya qilishga safarbar qilishda muhim o'rin tutadi.


Alohida ta'kidlash lozimki, mahalla instituti o'zining ijtimoiy faollikka qaratilgan vazifalari va xalqchilik xususiyati orqali jamiyatda muhim rol o'ynaydi. U fuqarolarning turmush darajasini oshirish, ularning demokratik jarayonlardagi ishtirokini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yetuk fuqarolik jamiyati instituti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yakuniy qism. Mahalla institutining qayta ko'rib chiqilgan vazifalari va ijtimoiy funksiyalari uni davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shuvchi mustaqil ijtimoiy tuzilma sifatida shakllantirdi. U milliy qadriyatlarni asrash, aholining ijtimoiy faolligini oshirish va demokratik jarayonlarni joriy etishda o'z ahamiyatini tobora oshirmoqda. Mustaqillik

yillarida mahalla instituti jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishining ajralmas qismi sifatida shakllandi. U nafaqat mahalliy darajada, balki milliy rivojlanish jarayonida ham muhim o'rin tutib, jamiyatni demokratlashtirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan islohotlarda asosiy institutsional bo'g'in sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda mahalla institutining rivojlanishi milliy qadriyatlarni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Uning mustaqillik yillaridagi transformatsiyasi mahallani zamonaviy talablarga javob beradigan, jahon tajribasi bilan uyg'unlashgan xalqchil institutga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarning izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot rejasini yaratish barqaror taraqqiyot kafolatidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning O'zLiDePning VIII syezdidagi ma'ruzasi, 19.10.2016-yil.
2. Salinas M. "Mahalla – oila institutini mustahkamlashning muhim omili" // "Xalq so'zi" gazetasi, 2012 yil 4 dekabr // http://www.oldxs.uz/yuzma/133-bugun-sonda/3339-mahalla_xalqaro.html
3. Mahalla institutining Amerika Qo'shma Shtatlaridagi taqdimoti // "Xalq so'zi" gazetasi, 2014-yil 13-iyun // <http://xs.uz/index.php/homepage/khorizhda/item/1386>.
4. Ollamov Ya., Saidova X. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi: nazariy va amaliyot masalalari. – Toshkent: TDYuI, 2006. – B.96.
5. Jalilov Sh.I. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqarish huquqi; darslik – Toshkent: Voris, 2007. – B. 82.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – B. 60-63.
7. Jalilov Sh.I. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqarish huquqi (Darslik) – Toshkent: Voris, 2007. – B. 82
8. Ollamov Ya , Saidova X. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi: nazariy va amaliyot masalalari. – Toshkent: TDYuI, 2006. – B.96.



Imomnazarov Hasan Ixtiyor o'g'li,

*Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
mustaqil izlanuvchisi (PhD)*

e-mail: hasanboyimomnazarov@gmail.com

YOSH OILALARDA IJTIMOYIY MUNOSABATLAR: MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh oilalarda oilaviy munosabatlar, oila institutiga oid muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalar, oilaviy munosabatlarda kuzatiladigan muammolar va ularning yechimi o'rganilgan. Shuningdek, yosh oilalarda rollarga moslashuv, ota-onalar bilan munosabatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari hamda yosh oila a'zolarining farzand tarbiyasiga doir tartib, odob-axloq qoidalarni, muloqot va kelishuv madaniyatini rivojlantirish faoliyati tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: yosh oila, ijtimoiy munosabat, rollar, moslashuv, barqarorlik, ijtimoiy institut, muloqot, madaniyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семейные отношения в молодых семьях, важные приоритеты государственной политики в отношении института семьи, проблемы, наблюдаемые в семейных отношениях, и пути их решения. Также проанализированы актуальные вопросы адаптации к ролям в молодых семьях, формирования отношений с родителями, а также деятельность по развитию культуры порядка, этикета, общения и согласия молодых членов семьи в вопросах воспитания детей.

Ключевые слова: молодая семья, социальная установка, роли, адаптация, устойчивость, социальный институт, общение, культура.

Annotation. This article examines family relationships in young families, important priorities of state policy regarding the institution of family, problems observed in family relationships, and ways to solve them. It also analyzes current issues of adaptation to roles in young families, formation of relationships with parents, as well as activities to develop a culture of order, etiquette, communication and consent of young family members in matters of raising children.

Keywords: young family, social attitude, roles, adaptation, stability, social institution, communication, culture.

Kirish. Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, Kavlodlarning davomiyligini, boshlang'ich tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, jamiyatning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy guruhdir. Har bir inson oilada shakllanadi, rivojlanib kamol topadi. Zero, oila – mehr-muhabbat, e'tibor va hurmat, birdamlik hamda mehribonlik manbai. Har bir rivojlangan jamiyat aynan shu qadriyatlariga tayanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridanoq oila instituti bilan bog'liq barcha masalalarga katta e'tibor qaratilib, farovon oilani barpo etish borasidagi islohotlar so'nggi yillarda izchil tus oldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oilalarni mustahkamlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish hamda g'amxo'rlik qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda milliy

qadriyatlarga asoslangan hamda xalqaro huquq normalari va talablariga javob beradigan nikoh va oilaviy munosabatlar hamda oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan davlat dasturlari oilani mustahkamlashga qaratilmoqda. Mamlakatimizda oilani qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"¹gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"³gi qarori³ qabul qilindi.

Maqsad va uni asoslash. Butun dunyoda oila institutini rivojlantirish, oilalarni ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham bu boradagi ishlarni tizimlashtirish va samaradorligini yanada oshirishga doir Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan. Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan 7 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsadning barchasining zamirida oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorligi, tinchligi va farovonligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, ushbu taraqqiyot strategiyasining

70-maqsadi⁴ aynan "Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish"ga, 71-maqsadda esa "Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash" kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Shunday ekan, yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlar muammolari ko'p jihatdan oilaning yangi bosqichga o'tishi va yoshlarning oila hayotiga moslashuv jarayoni bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Bu muammolar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va psixologik omillarga asoslangan bo'lib, ular oilaviy hayotning barqarorligiga ta'sir ko'rsatish bilan birga, endigina turmush qurgan yosh oilaning parokanda bo'lishiga ham olib kelishi mumkin. Ushbu masalalarni hal qilish orqali yosh oilalarning jamiyatda ijtimoiy moslashuvi va ularning barqarorligini ta'minlash davlat va jamoat tashkilotlarining oldidagi eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston hukumati oila masalasiga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" masalasiga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra, Konstitutsiyaning 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" – deya ta'kidlab o'tilgan.

XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Fitratning "Oila" asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati

¹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4494849>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, № 06/22/87/0198 // <https://lex.uz/docs/-5899498>

³ O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3797625>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”⁵ – deb yozadi.

Oilani jamiyatning ravnaq topilishida tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlari va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni “Oila yili” deb e’lon qildi. Shunga ko‘ra, oila manfaatlarini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to‘g‘risida davlat dasturi ishlab chiqildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” qabul qilindi.

Olimlar tomonidan yosh oilalar borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar natijalari yangi maqom va munosabatlarni shakllantirishda yosh oilaning barqarorligi, asosan, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi bilan bog‘liqligini tasdiqladi. Farzandni tarbiyalashdagi yondashuvlar yosh oilalardagi munosabatlarning qanday barpo bo‘lganiga qarab shakllantiriladi.

Yosh oila mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim M.Inomova yosh oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatgan:

- yosh oila o‘ziga xos va takrorlanmas ta’sirga ega;

- yosh oilada bola uchun yoshlar o‘ziga xos “ko‘zgu” bo‘lib, ota-onaning shaxsiy namunasi va ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;

- yosh oila o‘ziga xos hissiyotlar olamidani iborat bo‘lib, unda ijobiy va ba’zan salbiy his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi;

- yosh oila sharoitida oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;

- yosh oila – er-xotinlik va ota-onalik vazifalarini o‘zida aks ettiradi.

Yosh oila a’zolarining ijtimoiy munosabatlari ota-ona sifatida bir-biriga bo‘lgan muhabbati bolaga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin⁶.

Yosh oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo‘lishi,

⁵ Fitrat Abdurauf. “Oila va oilani boshqarish tartiblari”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 166 b.

⁶ Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999. – 20-21-betlar.

uning a’zolarining ijtimoiy faoliyatining o‘ziga borish ko‘lami va tavsifi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Rus olimlaridan V.A.Slastenin va E.N.Isayevlarning fikricha, yosh oila jamiyat va shaxsga munosabati bo‘yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi. Ularning asarlarida yosh oilaning tuzilishiga, uning rivojlanish bosqichlariga va olib boriladigan ijtimoiy munosabatlarida hayot aylanish jarayonini tahlil qiladilar. Shuningdek, ular tomonidan yosh oilalarda oilaviy tizimning xususiyatlari o‘rganilib, shaxslararo munosabatlarni baholash borasi o‘z fikrlarini bayon etgan.

Tadqiqot usullari. Yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlar mavzusini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan yosh oilalar haqida pedagogik, iqtisodiy, huquqiy adabiyotlarni hamda statistik ma’lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi. Shuningdek, olimlarning ilgari surgan fikrlari, yosh oilalarning rivojlanishi bo‘yicha bugungi kundagi muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarini o‘rganish uchun aralash usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida umumlashtirish, taqqoslash va ilmiy-tadqiqot usullaridan, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oila – kishilar hayotining eng muhim qismi, har bir fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasidir. Shaxs kamolotini ro‘yobga chiqarishga asos bo‘ladigan hamda uni ta’minlaydigan muhim omillardan biri yosh oila a’zolarining oilaviy munosabatlar omilida namoyon bo‘ladi. Yosh oilalarning ijtimoiy munosabatlarida mehr-muhabbatning yuzaga kelishi va hukm surishi uchun quyidagi shartlarning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

- yosh oila a’zolarining bir-birini qadrlashi;

- yosh oila a’zolarining bir-biriga ishonishi va himoyalashi;

- yaqinlik va o‘zaro yordam haqida yoshlar bilan o‘y-fikrlarni o‘rtoqlashish;

- mas’uliyatni his qilishlari (ota-onalarning o‘z burch va mas’uliyatlarini his etishi);

- qiyinchiliklarga qarshi birgalikda kurashib, ularni hal qilishi;

- o‘zligini ifoda eta olish va baxtli yashash uchun munosib muhit yarata olishi;

- sog‘lom moddiy va ma’naviy hayotga ega bo‘lishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ehtiyojlar yosh oila muhitida qondirilmog‘i lozim. Keling, dastlab mavzu yuzasidan “ijtimoiy munosabatlar” haqida to‘xtalib o‘tsak. *Ijtimoiy munosabatlar* – bu jamiyatdagi shaxslar yoki guruhlar o‘rtasida shakllanadigan, ma’lum qoidalarga asoslangan hamkorlik va o‘zaro ta’sir jarayonidir. Ular jamiyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, insonlarning kundalik hayotida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, insonning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqalar jarayonida yuzaga keladigan turli xil barqaror o‘zaro bog‘liqliklar faoliyati va ularning ijtimoiy maqomlari hamda ijtimoiy rollarini amalga oshirish jarayoni ham tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy norma, qadriyatlar va o‘zaro hurmat asosida shakllanadi, bir-birlarining manfaatlarini hisobga olish, shuningdek, mas’uliyat tamoyillariga tayanadi.

Yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlar – bu yangi tashkil etilgan oilada ichki va tashqi ijtimoiy muloqot jarayonlari bo‘lib, ular oilaning barqarorligi va jamiyatdagi o‘rniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yosh oilalar oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro muloqotdan tashqari, kengroq ijtimoiy guruhlar (qarindoshlar, qo‘shnilar, ish joyi, jamiyat) bilan ham muloqotga kirishadi. Bu munosabatlar oilaning ijtimoiy va psixologik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ular bilan bog‘liq qator muammolar ham mavjud. Bular:

Yosh oila a’zolarida o‘zaro muloqotning yetarli bo‘lmasligi:

a) yosh oilalarda, ayniqsa, yangi qurilganlarida, bir-birining ehtiyojlari va qarashlarini yetarli darajada tushunmaslik;

b) oila qurish yangi hayot tarzi va mas’uliyatlarni olib kelishi, bu esa yosh oilalarda stress va tushkunlikni yuzaga keltirishi;

c) muloqot yetishmasligi va muammolarni hal qilishda tajriba yo‘qligi mojarolarga olib kelishi;

d) oila a’zolari o‘rtasidagi muloqotdagi kamchiliklar nizolar va tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi.

Yosh oila a’zolarining qarindoshlari bilan bog‘liq muammolar:

a) ota-onalar yoki boshqa qarindoshlarning yosh oilaning ichki hayotiga aralashuvi;

b) yosh oilaning ota-onalari bilan yaqin aloqada yashashi. Qarindoshlar bilan o‘zaro tushunmovchilik va mojarolarning yuzaga kelishi;

c) ota-onalarning oilaviy qarorlar qabul qilishdagi aralashuvi yosh oilaning mustaqilligiga to‘sqinlik qilishi;

d) yosh oilalarning qarindoshlar bilan munosabatlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishi.

3. Yosh oilalardagi moliyaviy muammolar:

a) yosh oilaning barqaror iqtisodiy holatga ega emasligi moliyaviy bosimni kuchaytirishi, bu esa ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi;

b) yosh oila a’zolarining daromadlari past bo‘lishi yoki barqaror ish o‘rinlari yo‘qligining moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi;

c) uy-joy masalasi, yosh oilalarning aksariyati ijarada yashashi yoki o‘z uyini sotib olish imkoniyatiga ega emasligi.

4. Yosh oilalarning oilaviy rollarga moslashuv:

a) er-xotin o‘rtasida oilaviy rollarni taqsimlashda kelishmovchiliklar paydo bo‘lishi;

b) an’anaviy va zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, masalan, kim asosiy daromad keltiruvchi yoki kim uy yumushlarini bajarishi kerakligi borasidagi tushunchalar.

5. Farzand tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar:

a) farzand tug‘ilishi bilan yosh oilaning moddiy va psixologik yuklari oshishi;

b) farzand tug‘ilgandan keyin er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarishi, bu esa yangi mas’uliyatlarni taqsimlashda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi;

c) yosh oilalarning farzand tarbiyasida tajriba va bilim yetishmasligidan aziyat chekishi;

d) farzand tarbiyasi va mas’uliyatini bo‘lishish masalasida er-xotin o‘rtasida kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi;

6. Yosh oila va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar:

a) yosh oilalarning jamiyatdagi faoliyatida qarama-qarshiliklar va kamsitilish holatlari uchrashi;

b) uy-joy masalalari va ijtimoiy yordamdan foydalana olmaslik muammosi.

Bugungi kunda yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oilalarning mustahkamligi va jamiyatdagi o‘mini ta’minlashning yangicha yechimi sifatida oilalarda sog‘lom ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, oilaning ichki muhitini yaxshilash, jamiyat bilan bo‘lgan o‘zaro ta’sirni

mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan qo'llab-quvvatlash vositalari bilan yanada samarali amalga oshiriladi deb o'ylaymiz.

Hozirda yosh oilalardagi ijtimoiy munosabatlarda kuzatilayotgan muammolarni hal etishda yosh kelin-kuyovlarimizga er-xotinlik vazifalarini, xususan nikohning buzilishiga sabab bo'ladigan masalalarni mukammal tushuntirish ishlari olib borilishi lozim.

Yosh oilalarda har tomonlama sog'lom muhitni qaror toptirishda, ulardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda quyidagi ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik-psixologik, ma'naviy-madaniy mezonlarga amal qilishni tavsiya sifatida maqsadga muvofiq, deb yondashishimiz mumkin:

- ✓ yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan maxsus dasturlar joriy etish ishlari ko'paytirilishi kerak. Masalan, uy-joy sotib olish uchun subsidiyalar, soliq imtiyozlari yoki arzon kreditlar;

- ✓ yosh oilalarga barqaror daromad manbalari yaratish uchun bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari tashkil etilishi;

- ✓ er-xotinlar bir-birining huquq va mas'uliyatlarini hurmat qilishi, o'zaro rollarni ochiq muloqot orqali taqsimlashi;

- ✓ oilaviy psixologlar va maslahat markazlaridan foydalanish, oilaviy rollarga moslashuvni osonlashtirish;

- ✓ yosh oilalar o'z oilaviy mustaqilligini saqlash uchun ota-onalar bilan sog'lom chegaralarni o'rnatishi;

- ✓ qarindoshlar o'rtasida o'zaro hurmat va yordam tamoyillariga asoslangan munosabatlarning rivojlantirilishi;

- ✓ yosh oilalar uchun farzand tarbiyasiga oid maxsus seminarlar va treninglarning tashkil etilishi;

- ✓ farzandlar bilan vaqt o'tkazish va ularning rivojlanish ehtiyojlarini tushunishga e'tibor qaratish;

- ✓ yosh oilalar uchun psixologik yordam ko'rsatadigan xizmatlar va maslahat markazlarini tashkil qilish;

- ✓ stressni boshqarish uchun oilaviy dam olish, sport va boshqa birgalikdagi faoliyatlarga vaqt ajratish;

- ✓ er-xotinlar o'rtasidagi ochiq va sog'lom muloqotni rag'batlantirish va bu orqali muammolarni hal qilish va tushunmovchiliklarning oldini olish.

Sanab o'tilgan barcha talab va takliflar amalga oshirilgandagina har bir oila mustahkam, tinch-totuv, osoyishta va albatta, baxtli hayot kechiradi.

Yakuniy qism. Yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlar doir muammolar jamiyatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy sharoitlar va madaniy qadriyatlarga bog'liq. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat, jamiyat va oila darajasida har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish muhimdir. Barqaror va baxtli yosh oilalar jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur"⁷.

Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va mas'uliyatli ijtimoiy missiya yuklangan bo'lib, oilada ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarni kamolga yetkazish ekani barchamizga ayon. Yosh oilalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish uchun davlat, jamiyat va oilaning o'zaro hamkorligi muhimdir. Ichki muloqotni yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va jamiyat bilan uyg'un aloqalarni rivojlantirish oilaning mustahkamligi, farovonligi va jamiyatdagi ijobiy mavqeyiga xizmat qiladi. Shu yo'nalishda amalga oshiriladigan har bir chora oilalarning baxtli va barqaror hayot kechirishi uchun asos bo'ladi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 14-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisdagi nutqi // <https://kun.uz/news/2017/01/16/mirzиеv-eslarni-aellarni-dardi-bilan-sugullanmaapmiz?ysclid=m3ogiiipmx8907789321>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4494849>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, № 06/22/87/0198 // <https://lex.uz/docs/-5899498>
3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3797625>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. Fitrat Abdurauf. "Oila va oilani boshqarish tartiblari". – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 166 b.
6. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.



Usmonova Rohila Mardonkulovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi

XOTIN-QIZLARNING NORASMIY BANDLIGINI IJTIMOIY JIHATDAN TADQIQ ETISHDAGI ILMIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada aholi bandligi tushunchasi, rivojlangan mamlakatlarda bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning modellari o'rganib chiqilgan. Mazkur davlatlar tajribalaridan mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ta'minlash bo'yicha imkoniyatlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: aholi bandligi, ishsizlik, mehnat bozori, bandlik dasturlari, bandlikni tartibga solish modellari, xorijiy tajriba.

Аннотация. В статье рассматриваются понятие занятости, модели занятости и регулирования рынка труда в развитых странах. Освещены возможности использования опыта этих стран для снижения безработицы в нашей стране и увеличения занятости населения общественно необходимым трудом.

Ключевые слова: занятость населения, безработица, рынок труда, программы занятости, модели регулирования занятости, зарубежный опыт.

Annotation. The article examines the concept of employment, employment models and labor market regulation in developed countries. The possibilities of using the experience of these countries to reduce unemployment in the Republic of Uzbekistan and increase the employment of the population with socially necessary labor are highlighted.

Keywords: employment, unemployment, labor market, employment programs, employment regulation models, foreign experience. vanced foreig.

Kirish. Jahonda xotin-qizlarning norasmiy bandligini sotsiologik va ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarb ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ayollar global ishchi kuchining 40 %dan ortig'ini tashkil qilib, rivojlangan mamlakatlarda ayollarning taxminan 70 % hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda 60 % ish bilan ta'minlangan¹. Ammo jahon mehnat bozorida

¹ Женская занятость: Глобальные тенденции и действия материалы МОТ. – Нью-Йорк, 2005. – С. 10. //

xotin-qizlar o'z o'rmini topishda jiddiy to'siqlarga duch kelmoqdalar.

Norasmiy bandlikning o'sib borishi, shu jumladan, xotin-qizlarni ushbu sektorda bandligi, haq-huquqlari hamda xavfsiz mehnat sharoitida ishlashini ta'minlash, turli xil ijtimoiy zo'raonliklar va tajovuzlardan himoyalash tizimining tashkil etilishi hamda amalga oshirish imkoniyati

ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@europe/@ro-geneva/@sro-moscow/documents/publication/wcms_312616.pdf

yaratilmagan. Xotin-qizlarning norasmiy bandligi sabablarini, uning iqtisodiyotga va jamiyatga ta'sirini o'rganishning ijtimoiy nuqtayi nazardan dolzarb ahamiyat kasb etishi bois, hozirda dunyoning nufuzli aql markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ma'lumotlarining dastlabki tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi har 10 ish o'rining deyarli 4 tasi (39%) norasmiy bo'lib, 2022-yilda jami iqtisodiy faol aholining 13,7 mlndan 6,5 mln (47 foiz) nafari rasmiy sektorda mehnat qiladi². Shu munosabat bilan ijtimoiy va mehnat munosabatlarining muvozanatli rivojlanishini ta'minlash sharti sifatida davlat tomonidan tartibga solinishining ahamiyati ortib bormoqda.

Zamonaviy O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlar sharoitida norasmiy bandlikni qisqartirish muammosi o'ta dolzarb tus olmoqda, chunki mehnat unumdorligining inklyuziv o'sishini ta'minlamasdan turib, bu maqsadga erishishning imkoni mavjud emas. Ammo norasmiy ish bilan band bo'lganlar duch keladigan muammolarni yaxshiroq tushunish, iqtisodiyotdagi yangi tendensiyalar sharoitida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish nuqtayi nazaridan ijtimoiy munosabatlarni o'rganish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shu o'rinda qayd etish mumkinki, so'nggi yillarda mamlakatimizda bandlik sohasiga qaratilgan e'tibor o'laroq, respublikamizda ishsizlik darajasi so'nggi olti yilda 9,5 foizdan 8,1 foizga kamayishiga erishilgan. Xususan, **“O'zbekiston – 2030” strategiyasida** bandlik ko'lamini oshirish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali mehnat bozorining barqarorligini ta'minlash masalasi alohida o'rin egallagan³. Ushbu hodisani sotsiologik jihatdan tadqiq etish hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish norasmiy ish bilan band bo'lgan xotin-qizlar duch keladigan muammo va omillarni aniqlash va tushunishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda O'zbekistonda bandlik va mehnat bozorini tartibga solish va xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan

² Норасмий бандликни қисқартиришга қаратилган Қонун маъқулланди. – Тошкент, 2023. // <https://senat.uz/oz/plenary-sessions/post-807>

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида Фармони // <https://lex.uz/docs/6600413>

“Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi, “Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, “Ayollar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kasblar va ish o'rinlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi, “Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora tadbirlari” hamda “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu sohalaridagi tadqiqotlar turli jamiyatlarda va sharoitlarda norasmiy bandlikning rivojlanishi va ishlashini belgilaydigan mexanizmlar va omillarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Maqsad va uni asoslash. Zamonaviy jamiyatda aholi bandligini ta'minlash muhim masala bo'lib, bu aholi turmushining iqtisodiy va ijtimoiy himoyasi bilan birga, davlatning barqarorligida muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish sohasida norasmiy bandlik muammosi va uning mehnat bozoridagi amal qilish xususiyatlari nisbatan yaqin yillar ichida o'rganila boshlandi. Rivojlangan mamlakatlarda bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning modellari, mazkur davlatlar tajribalaridan mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Norasmiy bandlik tushunchasi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan turlicha yondashuvlar tarzida berilgan. Xususan, Ye.Varshavskaya norasmiy bandlikni “odamlar yuridik rasmiylashtirmasdan ma'lum bir ishni bajarishi, shunga mos ravishda ishhaqini naqd pul bilan olishi va uni deklaratsiya qilmasdan amalga oshirish holati”⁴ deb hisoblaydi. Bunday faoliyat davlat tomonidan hech qanday tarzda nazorat qilinmaydi va tartibga solinmaydi. Shuning uchun bu yerda band bo'lgan odamlar juda zaif ahvolga tushib qoladi, ularning mehnat huquqlari hech qanday himoya qilinmaydi.

Aholining norasmiy bandligini, shu jumladan, xotin-qizlar norasmiy bandligini ijtimoiy jihatdan tadqiq etishning turli nazariyalari va yondashuvlari

⁴ Варшавская Е.Я. и др. Непостоянная занятость: российский вариант // Управление персоналом. – 2008. – № 13. – С.41

mavjud bo‘lib, bu tadqiqotchilar va siyosatchilarga norasmiy sektor dinamikasini yaxshiroq tushunishga, rasmiy iqtisodiyotni tartibga solish hamda integratsiya qilish bo‘yicha yanada samarali choralarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Jahonda norasmiy bandlik masalasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘rganila boshlangan bo‘lib, rivojlangan jamiyatlarda mehnat bozorini barqarorlashtirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarda iqtisodiyotning norasmiy sektorini tashkil etuvchi “holat” sifatida o‘rganilib kelingan.

Iqtisodchi olimlar M.Mirzakarimova va Sh.Olimjonovalarning tahlillariga ko‘ra, hozirgi kunda norasmiy bandlik barcha mamlakatlarga xos bo‘lib, u quyidagi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, uning rasmiy statistika tomonidan to‘laqonli hisobi yuritilmaydi va “norasmiy bandlar”, odatda, rasmiy idoralar tomonidan tan olinmaydi.

Ikkinchidan, bu sohada band bo‘lganlarning katta qismi unchalik katta bo‘lmagan kapitalga ega bo‘lib, mehnat unumdorligi va daromadlari nisbatan past hisoblanadi.

Uchinchidan, norasmiy band bo‘lgan aholi qatlamining aksariyat qismi bozorga chiqish, kredit muassasalari xizmatlaridan foydalanish, zamonaviy texnologiyalar, sifatli ta‘lim va kasbiy-texnik o‘qishdan amalda foydalanishi cheklangan darajada ega bo‘ladilar.

To‘rtinchidan, bu sohadagi bandlar, odatda, ijtimoiy himoya qilinmagan, mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi me‘yorlari bilan ta‘minlangan bo‘ladilar⁵.

Shu nuqtayi nazardan aholi bandligini tadqiq etishning asosiy nazariyalari va yondashuvlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Mehnat bozori nazariyasi. Ushbu nazariya tarafdorlari mehnat bozorini rasmiy va norasmiy sektorlarga bo‘lishni taklif qiladi va unda rasmiy sektor ijtimoiy kafolatlariga ega barqaror maoshli ish o‘rinlari bilan ajralib tursa, norasmiy sektor ijtimoiy kafolatlariga ega bo‘lmagan beqaror va kam maoshli ishlari bilan ko‘zga tashlanadi. Ushbu nazariyaning asosiy namoyondalari bo‘lgan P.Maykl, P.Doyeringerlarning fikriga ko‘ra, “mehnat

bozorida ikkita segment mavjud: birlamchi (rasmiy) va ikkilamchi (norasmiy). Ya‘ni birlamchi sektor yaxshi ish sharoitlari va yuqori ishhaqi bilan barqaror ish o‘rinlarini taklif qilsa, ikkilamchi sektor beqarorlik, kam daromad va ijtimoiy kafolatlarining yo‘qligi bilan ajralib turadi”⁶. Shuningdek, ular mehnat bozorining tuzilishini o‘rganib, ish o‘rinlari va mehnat sharoitlarining notekis taqsimlanishiga e‘tibor qaratdi.

2. Mehnat moslashuvchanligi nazariyasi (egiluvchanlik). Ushbu nazariya zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar va xodimlarning moslashuvchanligi zarurligini ilgari surib, xodimlar uchun huquqlar va ijtimoiy kafolatlar berilgan holda vaqtinchalik shartnomalar va uyda ishlash kabi moslashuvchan ish sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Tadqiqotchilar Gyunter Shmid va Lars Svanengardlar global ishlab chiqarish tarmoqlari nuqtayi nazaridan norasmiy iqtisodiyotga yondashib, norasmiy iqtisodiyotni global ishlab chiqarish tarmoqlari va ta‘minot zanjirlariga integratsiyalashga e‘tiborni qaratadi. Unda globallashuv va transmilliy korporatsiyalar norasmiy bandlikning o‘sishi va faoliyatiga qanday ta‘sir qilishini tahlil qilinib, xulosa va takliflarni beradi.

3. Platforma iqtisodiyoti nazariyasi. Mazkur nazariya vakillari – Nik Sherman (Nik Srnicek) va Julia Tic (Julia Tic) norasmiy bandlikning yangi shakllarini yaratayotgan “Uber and Airbnb” kabi raqamli platformalarning o‘sishini nazarda tutib, ushbu platformalar odamlarga moslashuvchan soatlarda ishlashga imkon berishini qayd etadi.

4. Jamiyatda yashab qolish (omon qolish) nazariyasi. Mazkur nazariya namoyondalari bo‘lgan Hartig (Hart) va De Sotolar norasmiy bandlik bu rasmiy sektorda ish topa olmaydigan odamlar uchun omon qolish vositasi sifatida paydo bo‘lgan fenomen sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, rasmiy mehnat bozori barcha ish o‘rinlarini ta‘minlay olmaydigan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, Xartig Afrikadagi norasmiy bandlikni o‘rganish jarayonida birinchi marotaba fanda “norasmiy iqtisodiyot” atamasini qo‘llagan bo‘lsa, De Soto o‘z kitobida Lotin Amerikasidagi norasmiy

⁵ Мирзакаримова М.М., Олимжонова Ш.О. Нормасий бандлик ва уни легаллаштириш масалалари // Экономика и финансы. – Тошкент, 2014. – Б. 52. №12 // <https://cyberleninka.ru/article/n/norasmiy>

⁶ Сегментация рынка труда. Курсовая работа. – Новосибирск, 2009. – С. 8. // <https://www.turboreferat.ru/sociology/segmentaciya-rynka-truda/44347-233985-page2.html>

iqtisodiyotni tahlil qilib, bu mehnat bozorini haddan tashqari tartibga solish va byurokratiya natijasidir, degan xulosaga kelgan.

5. Institutsional nazariya. Bunda aholi bandligini ta'minlashda norasmiy sektorni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda institutlar (davlat, qonunlar, ijtimoiy normalar)ning rolga e'tibor qaratiladi. Ushbu nazariya vakillari qonunlar ustuvorligi ta'minlanmagan, byurokratiya va korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan yoki samarasiz huquqiy tizimlarga ega bo'lgan mamlakatlarda norasmiy bandlik rivojlanganligini qayd etishadi. Nobel mukofoti sovrindori Duglas Nort davlat va nodavlat institutlarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini o'rganib, norasmiy amaliyotlar ko'pincha samarasiz rasmiy muassasalar tomonidan yaratilgan vakuumni to'ldirishini ko'rsatib bergan bo'lsa, ushbu nazariya tarafdorlardan yana biri De Soto norasmiy sektor rasmiy institutlar mulk huquqi va shartnomalarini himoya qila olmaydigan muhitda rivojlanishini ta'kidlaydi.

6. Neoklassik yondashuv – norasmiy sektorni bozor kuchlari natijasida ko'rib chiqadi, bu yerda ishchilar kam xarajatlar (masalan, soliqlar) va katta moslashuvchanlik tufayli norasmiy sektorda ishlashni tanlaydilar. Ushbu yondashuv tarfdorlaridan bo'lgan Gari Bekker norasmiy bandlikni bozor munosabatlari kesimida ko'rib chiqadi va bu yerda ish beruvchilar xarajatlarning pasatligi va tez moslashuvchanlik xususiyatidan kelib chiqib norasmiy bandlik foydasiga oqilona tanlov qilishini qayd etadi. U norasmiy bandlikni soliqlar va ijtimoiy badallar kabi xarajatlarni optimallashtirish natijasida soddalashtirish mumkinligini ko'rsatib bergan.

7. Strukturaviy yondashuv – jamiyatda norasmiy sektorning mavjudligi uchun sharoit yaratadigan iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarga e'tibor qaratadi. Masalan, jamiyatda iqtisodiy beqarorlik yoki deindustrializatsiya kabi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida norasmiy bandlik ko'payishi mumkin. Ushbu yondashuv namoyondalari bo'lgan Vilyam Julius Uilson (William Julius Wilson) va Manuel Kastels (Manuel Castells) kabi olimlar iqtisodiyotda norasmiy sektorning mavjudligi hamda uning rivojlanishi uchun qulay muhit va shart-sharoit yaratadigan keng iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalariga e'tibor qaratgan. Xususan, V.Uilson deindustrializatsiya

kabi tarkibiy o'zgarishlarning mehnat bozoriga ta'sirini va norasmiy bandlikning o'sishini o'rganib chiqqan bo'lsa, M.Kastells globallashtirish va texnologik o'zgarishlarning moslashuvchan va norasmiy bandlikni shakllantirishga ta'sirini tahlil qilgan. Mazkur olimlar ishlab chiqarish quvvatlarini boshqa mamlakatlarga ko'chirish va avtomatlashtirish kabi tarkibiy iqtisodiy o'zgarishlar rivojlangan iqtisodiyotlarda norasmiy bandlikning oshishiga olib kelishini hamda norasmiy sektor jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydi.

8. Inson kapitaliga asoslangan yondashuv – ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini aniqlashda ta'lim va ko'nikmalarning rolga e'tibor qaratib, xodimlarning ta'lim va malaka darajalarini rivojlantirib borishni nazarda tutadi. Jumladan, jamiyat a'zolarining ta'lim darajasi va malakasi past bo'lgan ishchilar rasmiy ish joylariga kirish imkoniyati cheklanganligi sababli o'zlarini norasmiy sektorda topish ehtimoli nisbatan yuqori hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarfdorlari –Teodor Shuls va Gari Bekkerlar inson kapitaliga investitsiyalarning iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'sirini o'rganib, ta'lim va tarbiya mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali norasmiy bandlik ulushini kamaytirish hamda ish samaradorligini oshirishning muhim omillari ekanligini isbotlashga harkat qilishgan. Jumladan, ularning fikricha, norasmiy bandlik darajasini pasaytirish uchun, avvalambor, davlat ta'lim tizimini va kasb-hunar ta'limi dasturlarini takomillashtirishi zarur hisoblanadi.

Mazkur masalaning dolzarbligi va muhimligini dunyo bo'yicha bir qator nufuzli ilmiy markazlari tomonidan sohaga doir tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hisobotlarida norasmiy iqtisodiyotdagi ayollar va erkaklarning ulushi, shu jumladan, butun dunyo bo'ylab norasmiy bandlik holati, gender tenglik masalalari va ijtimoiy tengsizlikka ta'siri qamrab olingan. Shuningdek, nufuzli tadqiqot markazlari tomonidan “Keniyadagi norasmiy korxonalar” (2020), COVID-19 sharoitida norasmiy bandlik bo'yicha tadqiqotlar”, “Covid-19 ning norasmiy ishchilarga ta'siri” (2021), “Hindistonda norasmiy ish bilan ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar”, “Hindistonda norasmiy bandlik: sabablari, oqibatlarini” (2020), “Lotin Amerikasidagi norasmiy iqtisodiyot bo'yicha

tadqiqotlar” “Lotin Amerikasidagi norasmiy iqtisodiyot: afsonalar va haqiqatlar” olib borilgan. Ushbu zamonaviy nazariyalar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, norasmiy bandlik uni tushunish va tartibga solish uchun kompleks yondashuvni talab qiladigan muhim va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib qolmoqda. Norasmiy bandlikni o‘rganishga zamonaviy yondashuvlar va nazariyalar global iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, texnologik yangiliklar va ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda rivojlanishda davom etmoqda.

Shuningdek, norasmiy bandlikni o‘rganishga konseptual (strukturalistik va legalistik) yondashuvlar o‘rganilib, ushbu yondashuvlarning asosiy xususiyatlari aniqlangan. Yondashuvlar bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkazilib, uning asosida o‘rganish obyektining rivojlanishi to‘g‘risida xulosa chiqarilgan. Norasmiy bandlikni har tomonlama o‘rganish zaruriyati, shuningdek, ushbu “holat”ning xususiyatlari va uni tartibga solish zaruriyati asoslangan. Tadqiqotda norasmiy bandlikning yashirin tabiati, aniqlash chegaralarining aniq belgilanmaganligi, ishonchli ma’lumotlarning yetishmasligi, “norasmiylik” uchun aniq mezonlarning mavjud emasligi uning holati va darajasini baholashda ma’lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu ilmiy ishlar norasmiy bandlik va iqtisodiy rivojlanish sohasidagi fundamental tadqiqotlarni aks ettirib, ular norasmiy iqtisodiyotning turli jihatlarining chuqur tushunilishni ta’minlab, keyingi tadqiqotlar va siyosatni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu zamonaviy nazariyalar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, norasmiy bandlik uni tushunish va tartibga solish uchun kompleks yondashuvni talab qiladigan muhim va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib qolmoqda.

Ushbu holatlarlarning mavjudligi norasmiy iqtisodiyot sektorida band bo‘lgan norasmiy bandlar faoliyatini legallashtirish, rasmiy bandlar bilan bir qatorda mavjud imkoniyatlardan foydalanish hamda majburiyatlarni bajara oladigan statusga keltirish zarurligini bugungi kundagi mehnat bozoridagi dolzarb masalalardan biriga aylantiradi. Yuqoridagi holatlar milliy iqtisodiyotda norasmiy bandlik holatini nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatgan va shu nuqtayi nazardan maqolada milliy mehnat bozoridagi norasmiy

bandlikning holati hamda uning xususiyatlari o‘rganilgan.

Iqtisodiyotda norasmiy bandlikning yuzaga kelish sabablari hamda unga ta’sir etuvchi omillarning bog‘liqlik holatini o‘rganish asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Norasmiy sohada bandlik barcha mamlakatlarbozor iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan belgilarning mavjudligi norasmiy iqtisodiyot sektorida band bo‘lgan norasmiy bandlar faoliyatini legallashtirish hamda rasmiy bandlar bilan bir qatorda mavjud imkoniyatlardan foydalanish hamda majburiyatlarni bajara oladigan maqomga keltirish zarur ekanligi bugungi kundagi mehnat bozoridagi dolzarb masalalardan biriga aylantiradi.

2. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) yondashuviga binoan, norasmiy bandlikning kelib chiqishi norasmiy sektor o‘shishiga asosiy sabab bo‘lgan ortiqcha ishchi kuchining unga bo‘lgan past talab bilan uyg‘unligi natijasi hisoblanadi.

3. Peru iqtisodchisi Ernando de Soto yondashuvi (legalistik yondashuv) tarafdorlarining fikriga ko‘ra, norasmiy sohada band bo‘lganlar jamiyat uchun og‘ir yuk emas, balki ular milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladilar, chunki ular byurokratik tartibga solishning qiyin sharoitida o‘z yo‘llari bilan kurashayotgan tadbirkorlardir⁷.

4. Tadbirkorning norasmiy bandlik tarqalishiga moyilligiga ta’sir qiluvchi omillarni baholash murakkabligi uning ko‘zdan yashirinligi, chegaralarni aniqlash qiyinligi, rasmiy ma’lumotlar hamda aniq mezonlar hamda parametrlarning mavjud emasligi holatlari bilan izohlanadi.

5. Amaldagi qonunchiligimizga asosan ishsizligi va ish bilan ta’minlashga yordam ko‘rsatish mazmunida hududiy bandlik idoralariga murojaat etgan ishsizlar rasmiy ishsiz maqomida hisobga olinadi. U holda, mantiqiy jihatdan olganda, mavjud mehnat resurslari sonidan iqtisodiy faol aholi soni chiqarib tashlangandan hosil bo‘lgan farq sifatida olingan mehnat resurslari qismi norasmiy bandlar sifatida qaralishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan xulosa qilish mumkinki, aholining norasmiy bandligi, asosan, iqtisodiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan bo‘lib, uning

⁷ Де Сото Эрнандо. Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. – Москва: Catallaxy. 1995.

ijtimoiy jihatlarini, muammo va sabablari hamda oqibatlarini chuqur o'rganilmagan.

Ushbu muammoning sotsiologik jihatlarini o'rganish va tadqiq etish muhim hisoblanib, uning quyidagi jihatlarini misol qilish mumkin:

1. Ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlik jihatlarini norasmiy bandlikning jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikka ta'sirini tahlil qilish bilan birga, norasmiy sektorda ishchilar uchun cheklangan ish imkoniyatlari va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishga olib keladigan omillarni o'rganish.

2. Gender tenglik jihatlarini. "Norasmiy iqtisodiyotda ayollar va erkaklar: statistikasi" xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan norasmiy bandlikning jamiyatdagi gender tengsizligiga ta'sirini tahlil qilish bilan birga norasmiy sektorda erkaklar va ayollar o'rtasidagi ishaqi, mehnat sharoitlari va resurslardan foydalanish farqlarini o'rganish.

3. Ijtimoiy-madaniy jihatlarini. Afrikadagi norasmiy iqtisodiyot: chekkadan markazga" (2012) Meri Njeri Kinyanjui tomonidan "madaniy va ijtimoiy qadriyatlarining norasmiy bandlikni shakllantirish va rivojlantirishga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar va turli jamiyatlarda madaniy amaliyotlar va norasmiy faoliyat turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish.

4. Migratsiya jihatlarini. "Norasmiy iqtisodiyotning soyasi: Jahon iqtisodiyotidagi norasmiy va noqonuniy iqtisodiy faoliyatni tushunish" (2005) Kolin C.Uilyams tomonidan migratsiyaning norasmiy bandlikning shakllanishi va faoliyatiga ta'sirini tahlil qilingan. Norasmiy mehnat bozorlarini yaratishda migratsiyaning roli va muhojirlar va mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish.

5. Siyosiy jihatlarini. "Norasmiylik va qonun ustuvorligi: ikkilamchi normativ tizimlar iqtisodiy rivojlanishni qanday shakllantiradi" (2019) Kennet Roberts tomonidan siyosiy institutlar va huquqiy normalarning norasmiy bandlikni shakllantirish va tartibga solishga ta'sirini tahlil qilish. Iqtisodiyotning norasmiy sektorini rivojlantirish yoki bostirish uchun sharoit yaratishda huquqiy va siyosiy omillarning rolini o'rganish.

6. Ta'lim va tarbiyaviy jihatlarini. "Norasmiy sektorda ta'lim va ish" (2009) Shahin Yaqub tomonidan norasmiy sektorda ta'lim darajasi va bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish. Norasmiy

bandlik xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim dasturlari va treninglarning rolini tahlil qilish.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda norasmiy bandlik darajasi mehnat bozori barqarorligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar hamda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi natijasida 2000–2018-yillar davomida sezilarli darajada qisqarib borgan va 2018-yilga kelib, bu ko'rsatkichning mehnat resurslari sonidagi ulushi 22,2 foizni tashkil etgan. Ushbu tendensiyaning yuzaga kelishiga norasmiy bandlik darajasiga ta'sir etuvchi hududiy va makro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning sifat jihatidan o'zgarishi sabab bo'lmoqda.

Fikrimizcha, mamlakatimiz mehnat bozorida mavjud bo'lgan norasmiy bandlik holatini legallashtirish uchun quyidagi yo'nalishdagi faoliyat talab etiladi deb hisoblaymiz:

1. Norasmiy bandlik maqomini amaldagi huquqiy-me'yoriy baza orqali legallashtirish.

2. Soliq va pensiya tizimida imtiyozlarni kengaytirish orqali norasmiy bandlarning rasmiy sektorga o'tishini rag'batlantirish.

3. Huquqiy shahs maqomidagi korxonalar uchun ishchi kuchini norasmiy jalb etilish holatlariga qo'llaniladigan iqtisodiy va ma'muriy jazo choralarini kuchaytirish.

4. Norasmiy bandlik sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda mintaqalar orasidagi tafovutni hisobga olgan holda tabaqalashgan va egiluvchan yondoshuvni qo'llash.

5. Hududlarda norasmiy bandlikni legallashtirishda unga bilvosita ta'sir etuvchi omillarni samarali boshqarish orqali norasmiy bandlarni rasmiy mehnat bozoriga ko'chib o'tishini ta'minlash. Ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlardagi faoliyat natijasida mamlakatimizda norasmiy bandlik holatining legallashtirish ma'lum darajada tezlashadi.

Buning uchun ishchilarni yangi ish sharoitlariga moslashtirish, ish beruvchilar, davlat va xodimlarning ijtimoiy va mehnat munosabatlari tizimidagi manfaatlarining muvozanatini ta'minlash uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun mehnat bozorida nostandart bandlik o'sishining hozirgi tendensiyalarini o'rganish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ““Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Женская занятость: Глобальные тенденции и действия материалы МОТ. – Нью-Йорк, 2005. // ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@europe/@ro-geneva/@sro-moscow/documents/publication/wcms_312616.pdf
3. Норасмий бандликни қискартиришга қаратилган Қонун маъқулланди. – Тошкент, 2023 // <https://senat.uz/oz/plenary-sessions/post-807>
4. Варшавская Е.Я. и др. Непостоянная занятость: российский вариант // Управление персоналом. – 2008. – № 13.
5. Мирзакаримова М.М., Олимжонова Ш.О. Норасмий бандлик ва уни легаллаштириш масалалари // Экономика и финансы. – Тошкент, 2014. – №12 // <https://cyberleninka.ru/article/n/norasmiy>
6. Сегментация рынка труда. Курсовая работа. – Новосибирск, 2009. // <https://www.turboreferat.ru/sociology/segmentaciya-rynka-truda/44347-233985-page2.html>



Abdiraimova Shaxnoza Abdugappar qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchi
e-mail: shakhnoza.abdiraimova@mail.ru

UZOQ UMR KO'RUVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzoq umr ko'ruvchilarga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, uzoq umr ko'ruvchilarga xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish, keksalarning huquqlari himoyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus departamentlar faoliyati, ularga beriladigan "ijtimoiy kafolat", ijtimoiy yordam, uy sharoitida yordam ko'rsatish, tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: uzoq umr ko'ruvchilar, keksalar, qariyalar, ijtimoiy yordam, ijtimoiy kafolat, tibbiy-ijtimoiy xizmat, ijtimoiy ta'minot.

Аннотация. В статье рассматривается передовой опыт зарубежных стран в развитии сферы услуг для пожилых людей. Также проанализирована система создания обслуживания для пожилых людей, деятельность специальных ведомств, занимающихся защитой прав пожилых людей, предоставляемых им «социальных гарантий», социальной помощи, ухода на дому, системы медицинского и социального обслуживания.

Ключевые слова: долгожители, престарелые, пожилые люди, социальная помощь, социальное обеспечение, медико-социальное обслуживание, социальное обеспечение.

Annotation. The article examines the best practices of foreign countries in developing the sphere of services for the elderly. The system for creating services for older people, the activities of special departments involved in protecting the rights of older people, the "social guarantees" provided to them, social assistance, home care, and the medical and social service system were also analyzed.

Keywords: long-livers, elderly, old people, social assistance, social security, medical and social services, social security.

Kirish. Ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan uzoq umr ko'ruvchilarga deyarli har bir mamlakatda ijtimoiy institutlar tomonidan xizmatlar ko'rsatiladi. Mazkur turdagi institutlar XIX asrning oxirlariga kelib shakllana boshlagan. Aynan shu davrdan boshlab barcha rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy xizmatlar faol ish yurita boshlagan, uzoq umr ko'ruvchilarga xizmat qiluvchi ijtimoiy xizmatlarning shakllari va turlari rivojlanib borgan.

Har bir mamlakatda uzoq umr ko'ruvchilarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda o'ziga xos

yondoshuvlar mavjud. Shuningdek, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrda "O'zgalар parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 декабрдаги "Ўзгалар парваришига мухтож кексалар ва ногиронлиги бўлган шахсларга ижтимоий хизмат ва ёрдам кўрсатиш тизimini такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-410-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/6725077>

PQ-410-sonli qarori katta ahamiyatga egadir. Ayrim mamlakatlarda aynan uzoq umr ko'ruvchilarga turli yordam xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan markazlarga e'tibor kuchli qaratilgan bo'lsa, boshqalarida mazkur xizmat turlari barcha toifa kishilariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot va muassasalarga katta e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda respublika, ayniqsa, uning hududlarida uzoq umr ko'ruvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ijtimoiy himoya qilish borasida yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, aholining uzoq umr ko'rish darajasini o'rganish, xalqaro mezonlar bo'yicha O'zbekiston aholisining uzoq umr ko'rish darajasini baholash, unga ta'sir etuvchi demografik omillarni aniqlash, ilg'or xorijiy mamlakatlarning ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha tajribalarini o'rganish, sog'lom va faol uzoq umr ko'rish strategiyasini ishlab chiqish va mazkur muammolarni kompleks tadqiq etishni talab qilmoqda.


Maqsad va uni asoslash. Uzoq umr ko'ruvchilar uchun ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ularga xizmat ko'rsatish masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Uzoq umr ko'ruvchilarga xizmat ko'rsatish usullarini huquqiy jihatdan boshqarish turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Masalan, Avstriya, Kamerun, Kosta-Rika, Finlyandiya, Germaniya, Hindiston, Isroil, Mali, Meksika, Filippin, Polsha, Portugaliya, Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Venesuela va boshqa bir qator mamlakatlarda maxsus ijtimoiy qonunlar mavjud. Ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada garchi maxsus qonunchilik ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, yuqoridagi masalalar sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlar ko'rsatishga oid qonunlar tarkibida mavjud.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. 2020-yilda dunyo bo'ylab 147 mlndan ortiq inson 80–99 yosh oralig'ida bo'lib, bu dunyo aholisining atigi 1,9 foizini tashkil qiladi. Garchi bu foiz unchalik katta bo'lmasa-da, 1950-yilda ushbu demografik ma'lumotlar aholining atigi 0,05 foizini tashkil etgan, ya'ni bizning dunyomizda 70 yil oldingiga qaraganda keksa odamlar soni sezilarli darajada yuqorilagan².

² <https://ourworldindata.org/age-structure>

Keksa avlod vakili turli xil guruhga mansub bo'lib, unga bir xil yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Ularning boshqa toifa guruhdagilar singari xilma-xilligi, yoshi, jinsi, millati, ma'lumot darajasi, daromadi va sog'lig'i holati jihatidan tan olinishi muhimdir.



1-rasm. Dunyo aholisining yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Keksa yoshdagi har bir toifaning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlari bor, ular maxsus tanlangan dasturlar va tadbirlar orqali qondirilishi kerak³. Shuni inobatga olgan holda ularning ehtiyojlaridan kelib chiqib imkoniyatlar yaratish lozim.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida uzoq umr ko'ruvchilar uchun xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish ularning huquqlari bilan shug'ullanuvchi maxsus departamentlar orqali amalga oshiriladi. Bu tizimlar sog'liqni saqlash yoki ijtimoiy ta'minot vazirliklari qoshida tashkil etiladi. Ularning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- ularning muammolari haqida ma'lumot bazasini shakllantirish;
- ular uchun ijtimoiy himoya (shu jumladan, kafolatlangan xizmatlarni o'z ichiga oluvchi)ga oid davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni mamlakat hukumati hamda parlamentiga taklif etish;
- dasturlarni moliyalashtirishni nazorat qilish;
- maxsus ijtimoiy xizmatlar va uzoq umr ko'ruvchilar uchun maxsus ishlab chiqariluvchi mahsulotlarga oid hukumat buyurtmalarini taqsimlash;
- ularga tibbiy-ijtimoiy yordam va ushbu yordam chegarasida maxsus xizmatlar tashkil etish, shuningdek, mazkur xizmatlar ko'rsatilishini nazorat qilish;
- ularga xizmat ko'rsatishga qiziqish bildirgan boshqa tashkilotlarning faoliyatlarini birlashtirish.

³ Ageing in the twenty-first century: a celebration and a challenge. NY: UNFPA, 2012. - 192 p.

– ular uchun geriatrik rehabilitatsiya va boshqa sohalardagi xizmatlarni tashkil qilish bo'yicha faoliyatni ijtimoiy sug'urta yoki boshqa ijtimoiy xizmatlar markazlari amalga oshiradi. Mazkur tashkilotlar mahalliy munitsipalitet qoshida tashkil etiladi.

Keksalarga xizmat ko'rsatish usullarini huquqiy jihat boshqarish turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Masalan, Avstriya, Kamerun, Kosta-Rika, Finlyandiya, Germaniya, Hindiston, Isroil, Mali, Meksika, Filippin, Polsha, Portugaliya, Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Venesuyela va boshqa bir qator mamlakatlarda maxsus ijtimoiy qonunlar mavjud. Ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada garchi maxsus qonunchilik ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, yuqoridagi masalalar sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlar ko'rsatishga oid qonunlar tarkibida mavjud.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyasiga muvofiq, keksalar, mazkur mamlakatning boshqa fuqarolari ega bo'lgan barcha huquqlarga ega. Mazkur fuqarolarga yo'naltirilgan siyosat asosan:

– jamiyatda avtonom shaxs sifatida uzoq vaqt mobaynida ijobiy hayot kechirishiga imkoniyat yaratish;

– yosh bo'yicha va sog'lig'i tufayli sodir bo'lgan turli o'zgarishlar hisobidan vujudga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish va shu tariqa ularga jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkonini berishdan iborat.

Ijtimoiy qonunlarda har bir jismoniy va ruhiy nuqsonga ega, shuningdek, nogiron bo'lib qolish xavfi yuqori bo'lgan keksalarga manzilli xizmat olishga "ijtimoiy kafolat" berilgan bo'lib, bu quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– hayot faoliyati va ijtimoiy holatiga ta'sir etuvchi cheklovlarni bartaraf etish, uning oqibatlarini haqida ogohlantirish va ularni yumshatish;

– jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash uchun o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sharoit yaratish.

Yevropa ittifoqining aksariyat mamlakatlarida uzoq umr ko'ruvchilarning ijtimoiy himoyasi tibbiy xizmatlar, keksalik davrida olinuvchi pensiya, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha minimal ijtimoiy kafolatlar qatoriga kiruvchi boshqa ijtimoiy to'lovlardan iborat. Umuman olganda, ularga

taqdim qilinuvchi ijtimoiy xizmatlar rivojlangan mamlakatlar (Belgiya, Daniya, Buyuk Britaniya, Portugaliya, Irlandiya)da ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam tarkibida ko'rsatiladi. Ayrim mamlakatlarda esa ushbu xizmatlarga yana qo'shimcha xizmatlar ham qo'shiladi. Xizmat ko'rsatish sug'urta, ta'minot va garov tamoyillariga asoslanadi. Sug'urta tamoyilini tavsiflovchi asosiy jihatlardan biri taqdim etilayotgan xizmatlarni oldindan amalga oshirilgan to'lov badallari hisobidan bo'lishidadir (to'langan to'lovlar va ko'rsatiluvchi xizmatlar bir biriga ekvivalentdir). Sug'urtalangan shaxslar to'lov badali shaklida o'zlarining oylik ish haqlaridan ma'lum bir miqdordagi to'lovlarni amalga oshiradi va o'z mehnat faoliyatlarini yo'qotganlarida (masalan, keksalik yoki nogironlik) o'z to'lov badallariga muvofiq ravishda kompensatsiya oladi. Mazkur holatda asosiy e'tibor adolatli taqsimotga qaratilishi lozim. Ko'rsatilgan tamoyil asosida pensiya sug'urta tizimi va yollanma mehnat bilan band bo'lgan xodimlarga turli to'lovlar, shuningdek, individual mehnat bilan band bo'lganlarga ajratiladigan to'lovlardan tashkil topadi. Mazkur ta'minot, asosan, soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi. Ko'rsatiladigan yordam oldindan qilingan badallarga bog'liq bo'lmay, avvaldan belgilangan miqdor bo'yicha amalga oshiriladi; yordam qabul qiluvchi shaxsning qo'shimcha daromadlari va mulki e'tiborga olinmaydi. Ko'rsatiladigan ko'mak yordamga muhtoj insonning individual ehtiyojlariga ko'ra davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Taqdim etiladigan xizmatlarning miqdori va shakli amalga oshirilgan to'lovlarga bog'liq bo'lmaydi. Mazkur xizmat shaxsning o'ziga mustaqil yashash minimumini shakllantira olmasligi yoki shunga o'xshash boshqa sabablariga ko'ra ko'rsatilishi mumkin. Ko'rsatiladigan xizmatlar oldin mazkur xizmatlarga ehtiyoji bo'lgan shaxsning iqtisodiy ahvolini o'rganadi va bu holat ijtimoiy kafolatlarini minimallashtirish uchun yo'naltirilgan. Ko'pgina mamlakatlar asosiy e'tiborni sug'urta tamoyiliga qaratadi. Ushbu tamoyil bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi asosiy tamoyillardan hisoblanadi. Aytish joizki, ijtimoiy huquqlar konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan mamlakatlar sirasiga Italiya, Gollandiya, Fransiya, Portugaliya va Ispaniya kiradi. Mazkur mamlakatlarning konstitutsiyalarida mehnat qilishga layoqatsiz bo'lgan va hayot

kechirish uchun zarur miqdordagi vositalarga ega bo'lmagan shaxslarning ijtimoiy huquqlari aniq belgilab qo'yilgan. Bir qator mamlakatlarda ijtimoiy masalalarga oid maxsus ijtimoiy qonunchilik, xususan maxsus kodekslar ishlab chiqilgan. Bunga biz Germaniya (Ijtimoiy kodeks), Fransiya (Ijtimoiy himoya kodeksi), Irlandiya (Ijtimoiy farovonlik akti), Portugaliya (Ijtimoiy himoya to'g'risidagi akt) va Ispaniya (Ijtimoiy himoya to'g'risidagi akt) kabi mamlakatlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bir qator mamlakatlar (Belgiya, Buyuk Britaniya va Gretsiya)da o'rganilayotgan sohaning qonuniy asoslari ijro etuvchi hokimiyat tomonidan ishlab chiqiladi. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy himoya va unga kiritilgan ijtimoiy xizmatlar tizimi uchun yordam ko'rsatiladigan shaxs aholining qaysi qatlamiga mansubligini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda majburiy (Belgiya, Gollandiya) va ixtiyoriy (Germaniya) ijtimoiy sug'urtani amalga oshirish vaqtida nafaqat sug'urta badallarini to'lovchi shaxs, balki uning oila a'zolari ham umumiy ravishda sug'urtalanadi. Bir toifa xodimlar, shu jumladan, yollanma ishchilar, ijtimoiy sug'urtalanovchilar qatoridan chiqarilgan (masalan, Belgiya qonunchiligiga ko'ra, uy xizmatchilari, ishlovchi talabalar, boshqaruvchi xodimlar va hokazolar shular jumlasidan) yoki cheklangan (ya'ni sug'urtaning faqatgina ayrim shakllaridan foydalanish) sug'urta asosida sug'urta qilinishlari mumkin.

Ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy yordam asosan quyidagi ikki shaklda ko'rsatiladi:

- tovar va xizmatlar;
- pullik to'lovlar.

Qaysi yordam shaklidan foydalanishni tanlashda mazkur yordam qaysi maqsadda ko'rsatilayotgani asosiy ahamiyat kasb etadi. Pulli to'lovlar ko'rinishidagi yordam, asosan, daromadni yo'qotish (ishsizlik, kasallik, nogironlik, keksalik), shuningdek, alohida shaxs yoki oila budjetiga haddan ziyod og'irlik tushgan holatlarda ko'rsatilsa, tovar va xizmatlar ko'rinishidagi ijtimoiy yordam pulli yordam ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan paytlarda amalga oshiriladi (asosan tibbiy va ijtimoiy xizmatlarda namoyon bo'ladi).

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qonun bilan belgilangan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirish uchun turli tashkilot va muassasalar

tizimi mavjud. Ular har bir keksa uchun zarur bo'lgan ijtimoiy yordamni, har bir alohida holat bo'yicha aniqlash, uning shakli va miqdorini belgilashga yordam beradi. Ijtimoiy yordamga muhtoj insonlarni har bir holat bo'yicha alohida o'rganish, ularga taqdim etiladigan yordamni aniq belgilash, uzoq umr ko'ruvchilarning salomatligidagi o'zgarishlar va ular olib borishi mumkin bo'lgan natijalar haqida atroflicha tasavvurga ega bo'lish va salbiy natijalarni imkon fadar bartaraf etishda katta ahamiyatga ega.

Mazkur xizmat ko'rsatish turlaridan asosiy maqsad, bir qator xizmatlar kompleksini aniqlash, ularni bir-birini to'ldirishiga erishish, individ uchun jamiyatda o'z o'rini saqlab qolishga ko'maklashish va ijtimoiy felligining yo'qolmasligiga harakat qilishdan iborat.

Qonunchilikda keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda maxsus mutaxassislar bilan uchrashib zarur maslahatlar olish ham ta'kidlab o'tilgan. Bu maslahatlar nafaqat keksalarning o'zlari, balki ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qilgan vakillarga ham ko'rsatilishi aytib o'tilgan. Mazkur holatlarning barchasi ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojmand fuqarolarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatish va undan maksimal ijobiy natija olishga qaratilgan.

Ko'pgina mamlakatlarda texnik va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish holatlari ham qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan.

Ularga ko'rsatiluvchi maxsus xizmatlarning me'yorda ko'rsatilishi uchun geriatrik rehabilitatsiya markazlarining asosiy shiori "Zaruratga ko'ra – ijtimoiy yordam" hisoblanadi. Boshqa so'z bilan aytganda, uzoq umr ko'ruvchilarning aksariyat qismini oddiy ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tashkilotlariga yo'naltirish lozim bo'lib, zarurat tug'ilgandagina ularga yana qo'shimcha maxsus ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi kerak. Agar ularga zarur xizmatlar ko'rsatish imkoniyati bo'lmasa yoki ko'rsatiluvchi xizmatlar ularni qoniqtirmasa, unda mazkur insonlarni maxsus markazlar va geriatrik rehabilitatsiya markazlariga yo'naltirish lozim bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Yevropa mamlakatlarining aksariyati qo'shimcha tibbiy xizmatlar uchun xarajatlarni o'z hisobidan amalga oshiradi.

Nogiron hisoblangan keksalarga ko'rsatiluvchi xizmatlar qator ijtimoiy ("Xodimlarni sug'urta qilish", "Ijtimoiy ta'minot", "Ijtimoiy yordam to'g'risida"gi va h.k.) qonunlar asosida amalga oshiriladi. Nogironlar va aynan keksa nogironlar bo'yicha mas'uliyatning katta qismini davlat o'z zimmasiga oladi. Mazkur toifa insonlarga ko'rsatiluvchi maxsus xizmatlarning barchasi ularni jamiyat hayotidagi ishtirokini maksimal darajada uzaytirishga qaratilgan. Nogironlarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus tashkilotlarga mazkur vakolat qonun bilan berilgan.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda ishlovchi mutaxassislar, doimiy ravishda o'zlarining malakalarini oshirib boradilar. Buning uchun doimiy ravishda moliyalashtirish manbalari belgilab beriladi, markazlashgan o'quv seminarlari o'tkazib boriladi. Keksalarga xizmat ko'rsatishda yana bir asosiy e'tibor berish zarur bo'lgan jihatlardan biri – ularni axborot bilan ta'minlab borish. Axborot xizmatlari maslahat xizmatlari orqali ko'rsatib boriladi. Mazkur axborot xizmatlari orqali keksalarga ijtimoiy va maxsus xizmatlar olish to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish, ularni qiziqtirgan boshqa savollarga to'liq javob berish nazarda tutiladi. Mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlarda maxsus axborot va maslahat markazlari tashkil etilgan.

Bir qator mamlakatlarda har bir alohida holat bo'yicha ko'rsatilgan yordam miqdorini baholashga katta e'tibor qaratiladi. Ko'rsatiluvchi yordam miqdorini baholash uchun avvalo mazkur yordamdan qanday maqsad ko'zlanganini aniqlab olish zarur: yordam so'rab murojaat qilgan insonning ehtiyojini qanchalik qondirish ham aynan ushbu hisob-kitoblar natijasida belgilanadi. Odatda, yordam ko'rsatishda avval insonning boshqa daromad manbalari bor yoki yo'qligiga e'tibor qaratiladi.

Ko'pgina mamlakatlarda uzoq umr ko'ruvchilarga turli ijtimoiy to'lovlarni taqdim etishdan oldin quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- yordam oluvchiga (boshqa daromad manbalari mavjud bo'lmagan taqdirda) individual yondashish;
- yordam oluvchining sug'urta badallarini e'tiborga olish;
- yordam oluvchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda (ayniqsa, dori-darmon, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda).

Buyuk Britaniyada qariyalarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy mas'uliyat mahalliy hokimiyatga yuklatilgan bo'lib, moliyaviy mablag'ning katta qismini ham u ajratadi. Mamlakatda tibbiy yordam sohasida umumiy amaliyot vrachi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida "hamshiralik ishi menejeri" lavozimi ta'sis etilgan. Bu mutaxassis yordam ko'rsatish jarayonini muvofiqlashtiradi va zarur xizmatlar bo'yicha maslahatlar beradi⁴.

Yevropaning ko'plab mamlakatlarida uzoq umr ko'ruvchilarga uy sharoitida yordam ko'rsatish tashkil qilingan. **Vengriya**da qariyalar uchun maxsus kunduzgi muloqotda bo'lish va muolaja olish uylari faoliyat ko'rsatadi, **Fransiyada** yolg'iz keksalar oila homiyiligiga olingan, **Boltingbo'yi** mamlakatlari **Litva, Latviya va Estoniyada** esa qariyalarga uy sharoitida yordamning patronaj xizmati keng rivojlangan. Shuningdek, bu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodimlar uzoq umr ko'ruvchi bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig'ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va suhbatdosh bo'ladi⁵.

Maltada qariyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning oilaviy shakli rivojlangan. Bundan 50 yil oldin mamlakatda ko'pchilik oilalar kengaytirilgan tipga tegishli edi. Hozirgi kunda oilaning bunday shakli qishloq joylarida keng tarqalgan. Bu yerda nikoh qurish an'anasiga ko'ra, yosh oilalar odatda ota-onalari bilan qo'shni bo'lib yashaydi. Bu esa, o'z navbatida, keksalarga oilaviy yordamning ko'p bo'lishini bildiradi. Maltada davlat qariyalarni boqish uchun asosiy xizmatni ta'minlovchi hisoblanadi. Mamlakatda 1987-yilda keksalarning muammolari bilan shug'ullanuvchi departament tuzilgan. Departament jamiyatdan ajralmagan holda qariyalarga quyidagi qator xizmatlarni taqdim etadi:

⁴ Кайлова О. Различия в системах социальной защиты в странах Европейского Союза // Современные проблемы старения населения в мире: тенденции, перспективы, взаимоотношения между поколениями. – Москва: Макс Пресс, 2004. – С.218-220.

⁵ Бахметова Г.Ш., Иванкова Л.В. Демографическое старение в России: ситуация, факторы и взаимоотношения поколений // Современные проблемы старения населения в мире: тенденции, перспективы, взаимоотношения между поколениями. – Москва: Макс Пресс, 2004. – С.86-109.

1-jadval

Qariyalar muammolari bilan shug'ullanuvchi departament xizmati

❖ kunduzgi muloqotda bo'lish markazlari – qariyalarga ijtimoiy yolg'izlikdan xalos bo'lishda yordam beradi;
❖ uy sharoitida yordam ko'rsatish – ovqat tayyorlash, xaridlar qilish, uy tozalash va idish yuvish, dorixonaga borib kelish va hokazolar;
❖ usta xizmati – uyda ta'mirlash xizmatlarini taqdim etadi;
❖ tibbiy xizmat ko'rsatish – bu xizmat, asosan, xususiy muassasalarda, qisman MMDNA tibbiyot hamshirasi assotsiatsiyasida ko'rsatiladi.
❖ “Kartanjan” xizmati – qariyalarga turli xizmat va tovarlar haqini to'lash uchun diskont kartalar taqdim etadi;
❖ vaqtinchalik parvarish qilish – qariyaning qarindoshlarini ma'lum muddatga biror yoqqa chiqishiga zarurat tug'ilganda uning “St Vincent de Paule” qariyalar uyida yoki xususiy muassasalarda vaqtinchalik turishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Yakuniy qism. O'zbekiston Respublikasida aholining uzoq umr ko'ruvchilarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar berildi:

– uzoq umr ko'ruvchilarning hayot sifatini, jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, depressiya, jamiyatdan izolyatsiya va ularga xos bo'lgan boshqa muammolar ehtimolini keskin kamaytish maqsadida, shuningdek, keksalar orasida faol va sog'lom uzoq umr ko'rishni targ'ib qilishning ideal vositasi sifatida “sog'lom va faol keksalik markazlari”ni tashkil etish taklif etildi. Ular bir xil yoshdagi odamlar bilan birgalikda yangi ko'nikmalarni o'rganishlari, tajriba almashishlari, turli tadbirlarni tashkil qilishlari va shug'ullanishlari, shuningdek, yangi tushunchalar va g'oyalar bilan tanishishlari mumkin bo'lgan joy hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

– uzoq umr ko'ruvchilarni zamonaviy hayot tarziga moslashtirish, ularning to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash maqsadida ularga yangi texnologiyalarni, shaxsiy kompyuter, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishni o'rgatish lozim. Buning uchun uzoq umr ko'ruvchilarga zamonaviy kompyuterlar va dasturlarda ishlash ko'nikmalarini o'rgatuvchi maxsus kurslar tashkil etish talab etiladi.

Mazkur kurslarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan uzoq umr ko'ruvchilar:

Birinchidan, dunyoning turli burchaklaridagi o'z yaqinlari bilan internet va boshqa aloqa vositalari orqali bemalol muloqotga kirisha oladi.

Ikkinchidan, o'zlariga zarur mahsulot va xizmatlarni uyda o'tirib buyurtma qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, malakali tarjimonlik, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash, saytlarni yuritish, ijtimoiy tarmoqlardagi bahs-mulohazalarga javob qaytaruvchi sifatida bandligi ta'minlanadi.

Eng muhimi – buning uchun ularga alohida ofis yoki ish joylari, mehnat shartnomasi tuzish ham talab qilinmaydi.

Uzoq umr ko'ruvchilarning ijtimoiy izolyatsiyasi, ya'ni odamlarga qo'shilmasdan uyda yolg'iz yashashi, muloqot qilmasligi ularning sog'ligi va ruhiyatiga katta zarar yetkazadi. Oila a'zolari va boshqa insonlar bilan yaxshi va faol muloqotlar esa ularning kayfiyatini ko'taradi va salomatligini mustahkamlaydi. Shuning uchun ular o'rtasida jismoniy faollik, bir-biriga yordam berish, turli o'yinlar o'ynash, quvnoq muloqot o'tkazish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni doimiy yo'lga qo'yish tizimini ishlab chiqish va joriy etish lozim bo'ladi. Ushbu tizim ularning ijtimoiy faolligi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
2. Abduramanov X.X. O‘zbekistonda aholining keksayish jarayoni va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron ilmiy jurnal. 2022 yil 6-son. – Toshkent, 2022. – 51-60-b.
3. Золотарева Т.Ф. Современное общество и проблемы социального обслуживания пожилых людей по месту жительства // Матер. 9-х научных чтений МГСУ, Москва, 2003, – С. 190-192.
4. Ирина К. Старение и населения взаимоотношения поколений в США // Современные проблемы старения населения в мире: тенденции, перспективы, взаимоотношения между поколениями. – Москва: Макс Пресс, 2004. – С. 139-160.
5. Xodjayev S., Sodiqov F., Rashidov SH., Nurullayeva U. Keksalari e’zozlangan yurt. Risola. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – 52 b.
6. Холостова Е.И. Пожилой человек в общества. – Москва: Социально-технологический институт, 1999. – 320 с.
7. Ageing in the twenty-first century: a celebration and a challenge. NY: UNFPA, 2012. - 192 p.



Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,

*yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), katta ilmiy xodim*

*Oila va gender ilmiy tadqiqot
instituti bo'lim boshlig'i*

“AYOLLAR HUQUQLARI” VA “GENDER TENGLIGI” TUSHUNCHALARI: O‘ZARO MUNOSABAT VA FARQLAR

Annotatsiya. Maqolada “ayollar huquqlari” va “gender tengligi” tushunchalari huquqiy, ijtimoiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu tushunchalarning kelib chiqishi, tarixi va hozirgi davrda amaliyotdagi ahamiyati ochib beriladi. Muallif ayollar huquqlarini ta'minlashda gender tengligiga erishishning o'ri va ahamiyatini tahlil qiladi, shu bilan birga, ushbu tushunchalarni ajratib turadigan asosiy jihatlarga e'tibor qaratadi. Maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikdan kelib chiqib, gender tengligi tamoyillarini amalga oshirishda ayollar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tahlillar natijasida ayollar huquqlari va gender tengligi tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda farqlari haqida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar keltiriladi.

Tayanch so'zlar: ayol, huquq, gender tengligi, kamsitish, himoya, tenglik, inson huquqlari, xalqaro huquq, qonunchilik, gender, huquqiy mexanizmlar, gender tamoyillari.

Аннотация. В статье анализируются понятия «права женщин» и «гендерное равенство» с правовой, социальной и философской точек зрения. Раскрываются происхождение, история и значение этих понятий в современной практике. Автор анализирует роль и значение достижения гендерного равенства в обеспечении прав женщин, при этом обращая внимание на ключевые аспекты, отличающие эти понятия. В статье рассматриваются механизмы защиты прав женщин при реализации принципов гендерного равенства на основе международных правовых документов и национального законодательства. В результате анализа приводятся научные выводы и практические предложения о взаимосвязи и различиях понятий прав женщин и гендерного равенства.

Ключевые слова: женщина, право, гендерное равенство, дискриминация, защита, равенство, права человека, международное право, законодательство, гендер, правовые механизмы, гендерные принципы.

Annotation. The article analyzes the concepts of “women’s rights” and “gender equality” from a legal, social, and philosophical perspective. The origin, history, and significance of these concepts in modern practice are revealed. The author analyzes the role and significance of achieving gender equality in ensuring women’s rights, while focusing on the key aspects that distinguish these concepts. The article examines the mechanisms for protecting women’s rights in implementing the principles of gender equality based on international legal documents and national legislation. As a result of the analysis, scientific conclusions and practical proposals are presented about the interdependence and differences between the concepts of women’s rights and gender equality.

Keywords: women, rights, gender equality, discrimination, protection, equality, human rights, international law, legislation, gender, legal mechanisms, gender principles.

Kirish. Gender tengligiga erishish bugungi xalqaro hamjihat oldida turgan barqaror rivojlanish maqsadi hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur tenglikka erishish va uni ta'minlash masalasi jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashganda ayollar huquqlari bilan gender tengligi tushunchalarini bir xil ma'noda qo'llash, ushbu tushunchalar atrofida tor doiradagi fikrlashlar, "keskin feminizm" g'oyalari bilan bog'lash holatlari ham uchraydi.

Gender tengligi mavzusi bilan bog'liq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gender tengligi va ayollar huquqlari tushunchalari atrofida yagona ta'rif yoki yakdil yondashuv shakllanmagan. Ko'p holatlarda gender tengligi tushunchasi tarkibida ayollarning kamsitilishi yoki ayollar huquqlarining himoyasi masalasida ham fikr yuritilishi urfga kirgan, kam holatlarda erkaklar mavzusiga ahamiyat beriladi.

Maqsad va uni asoslash. "Ayollar huquqlari" va "gender tengligi" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va farqlarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdir. Asosiy e'tibor ushbu tushunchalarning huquqiy va ijtimoiy mazmuniga qaratilgan bo'lib, ularning milliy qonunchilik va xalqaro huquqdagi huquqiy asoslari ochib beriladi. Maqolada jamiyatda gender tengligiga erishish uchun ayollar huquqlarini himoya qilish va kafolatlashning ahamiyati izohlanadi. Shu orqali ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotda teng ishtirokini ta'minlash, ularga nisbatan har qanday diskriminatsiyaning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ilmiy doirada gender tushunchasini birinchi marotaba psixanalitik Robert Stoler ishlatgan¹. U 1958-yilda fanga "gender" (genderning ijtimoiy ko'rinishlari yoki "ijtimoiy jins") atamasini kiritdi. 1963-yilda u Stokgolmda bo'lib o'tgan psixanalitiklar kongressida nutq so'zladiki hamda jinsni o'rganish, albatta, biologiya va fiziologiyaning predmeti hisoblanishini, uni ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilish esa psixologlar va sotsiologlar tomonidan olib boriladigan tadqiqotlar, madaniy va tarixiy hodisalarni tahlil qilishning predmeti sifatida

qaralishi mumkinligini aytib o'tdi. R.Stollerning gender bilan bog'liq masalalarni o'rganishda biologik va madaniy komponentlarni ajratish taklifi zamonaviy gumanitar bilimlarda alohida yo'nalish – gendershunoslilik yoki gender tadqiqotlari shakllanishiga turtki bo'ldi².

Bugungi kunga kelib, "gender" bir necha ijtimoiy gumanitar fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanib, har bir sohada o'z ta'rifiga ega.

Biz quyida gender tengligi va ayollar huquqlari tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochish orqali ular o'rtasidagi farqlar va o'zaro munosabatini ko'rsatib beramiz.

Ko'plab ilmiy nazariy adabiyotlarda gender tengligiga ta'riflar keltiriladi, ahamiyatli jihati shundaki, keltirilgan ta'riflarda ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Sotsiolog olim Entoni Giddens ta'rifiga ko'ra, gender – erkak va ayol o'rtasidagi fizik farqlar emas, balki ayollik va erkaklikning ijtimoiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatidir³.

Gender bu oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqlar tengligi hamda jamiyatda va shaxsiy hayotda erkaklar va ayollarning ijtimoiy roli, mavqeyi va vazifalarini ifodalovchi tushunchadir⁴.

Gender tengligi tushunchasi "ayollar va erkaklar huquqlari tengligi"dan kengroq, chunki u ushbu huquqlardan foydalanish imkoniyatlari tengligini ham qamrab oladi⁵. Bundan tashqari, bu barcha shaxslar o'zlarining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish va qat'iy gender rollari cheklovlarisiz tanlov qilish erkinligini anglatadi; ayollar va erkaklarning turli xulq-atvori, intilishlari va ehtiyojlari hisobga olinib, teng ravishda baholanishi – bu ayollar va erkaklarning ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan foydalanishidagi tenglikdir⁶.

² Stoller, R. (1968), Sex and Gender: On the Development of Masculinity and Femininity. London: Hogarth Press.

³ Гидденс Э. Социология / При участии К.Бердсолл: пер.с англ. Изд.2-е. – М.: Едиториал УРСС, 2005. – С. 101-102.

⁴ Холикова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан конунга кадар: Услубий қўлланма. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 11-13.

⁵ Словарь гендерных терминов [Электронный ресурс] / под ред. А.А.Денисовой; Региональная общественная организация «Восток-Запад: Женские Инновационные Проекты». Режим доступа: <http://www.owl.ru/gender/index.htm>

⁶ Gender Mainstreaming for the Legal Sector [Электронный ресурс]: A Toolkit / National Commission

¹ Лушников А., Лушникова М, Тарусина Н. Гендер в законе: Монография. – Москва: Проспект, 2021. – С. 22.

Gender tengligi ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar uchun teng huquq, mas'uliyat, imkoniyat, qadriyat va natijalardir. Gender tengligi faqat ayollarga taalluqli masala bo'lmasdan, u erkaklarning huquq va majburiyatlarini ham anglatadi⁷.

Erkaklar va ayollar, o'g'il bolalar va qizlarga nisbatan adolatli bo'lish jarayoni va eng muhimi, natijalar va natijalarning tengligi. Gender tengligi tarixiy yoki tizimli tarafkashlik yoki kamsitishni qoplash uchun vaqtinchalik maxsus choralarni qo'llashni o'z ichiga olishi mumkin. Bu adolatli va gender rollari yoki me'yorlari yoki jinslar o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadigan noto'g'ri yoki kamchilikka ijobiy javob beradigan differensial muomalaga ishora qiladi. Tenglik ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarning teng imkoniyatga ega bo'lishini nafaqat boshlang'ich nuqtada ta'minlaydi, balki marraga yetib kelganda ham. Bu erkaklar va ayollarning turli ehtiyojlarini, madaniy to'siqlarni va muayyan guruhning (o'tmishdagi) kamsitishlarini hisobga oladigan har ikki jins vakillariga adolatli munosabatda bo'lish demakdir⁸.

Gender tengligi – imkoniyatlar, resurslar yoki imtiyozlarni taqsimlashda yoki xizmatlardan foydalanishda jinsga qarab kamsitishning yo'qligi. Shunday qilib, bu erkaklar va ayollarning inson huquqlaridan to'liq va teng ravishda foydalanishidir. Gender nomutanosibliklari jinsga asoslangan tengsizlik yoki farqlardir.

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik (gender tengligi) mavjud ijtimoiy munosabatlarni tavsiflovchi ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, subyektlarning jamiyat va davlat uchun teng ahamiyatlilik darajasini, fuqarolar o'rtasida teng huquqlar, erkinliklar va majburiyatlar mavjudligini, shuningdek, jinsidan qat'i nazar, ularni amalga oshirish imkoniyatlarini bildiradi⁹.

Yuqorida gender tengligiga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqdik, ushbu ta'riflarni umumlashtirgan

for the Promotion of Equality. Malta, 2008; Gender Equality Glossary [Электронный ресурс] / Gender Equality Commission; Council of Europe, 2016. Режим доступа: <https://www.coe.int/en/web/genderequality/publications>

⁷ Исломда гендер тенгликнинг ўзига хос тамойиллари. Қўлланма / Тузувчилар Т.Ж.Юсупова, Б.Б. Мамадиев, М.М.Хайдаров. – Тошкент: Бактрия пресс, 2022. – 21 с.

⁸ Glossary of Terms and Concepts // <https://www.unicef.org/rosa/media/1761/file/Genderglossarytermsandconcepts.pdf>

⁹ Зайков Д.Е. Принцип равных прав и свобод мужчин и женщин: современное состояние и перспективы // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2020. – № 4. – С. 25–42.

tarzda aytish mumkinki, gender tengligi ham erkak, ham ayol uchun jamiyatning barcha sohalarida yaratilgan imkoniyat, erkinlik hamda qonun bilan belgilangan huquqlardan foydalanish hisoblanadi.

Ayol huquqlari esa inson huquqlarining tarkibiy qismi bo'lib, u jamiyatda ayol uchun yaratilgan huquq va imkoniyatdan foydalanishini ta'minlab borish orqali tenglikka erishilishi mumkinligiga qaratilgan choralarni o'z ichiga oluvchi tushunchadir. Quyida ayollar huquqlariga oid ta'riflarga ahamiyat qaratsak.

Ayol huquqlari – insonning umumiy huquqlari, shuningdek, biologik xususiyatlari, ijtimoiy va oilaviy ahvolidan o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan huquq va erkinliklar majmuyi¹⁰.

Ayollar huquqlari – bu ayolning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy maqomini ta'minlovchi huquqlardir. Ular ayollarni jinsi bo'yicha kamsitishdan himoya qilishga qaratilgan¹¹.

Ayollar huquqlari inson huquqlaridir. Ular hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi – sog'liq, ta'lim, siyosatda ishtirok etish, iqtisodiy farovonlik, zo'ravonlikdan xoli bo'lish hamda ayollar o'zlarining barcha inson huquqlarini to'liq va teng ravishda amalga oshirish huquqiga ega va kamsitishning barcha shakllaridan ozod bo'lishlari lozim. Bu mavjud inson huquqlarini amalga oshirish, tinchlik va xavfsizlikka erishish, barqaror rivojlanish uchun asosiy ahamiyatga ega. Xususan, BMT Nizomi ayollar va erkaklarning teng huquqlarini kafolatlaydi. Barcha asosiy xalqaro inson huquqlari to'g'risidagi hujjatlar jinsiy kamsitishni to'xtatishni nazarda tutadi. Deyarli barcha mamlakatlar “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi Konvensiyani ratifikatsiya qildilar, bu xalqaro ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun loyihasi sifatida qaralib kelinadi¹².

Ayollar huquqlari bir qator xalqaro anjumanlar va konferensiyalarning markazida bo'lib keldi¹³.

¹⁰ Большой юридический словарь / Додонов В.Н., Ермаков В.Д., Крылова М.А и др - изд Инфра. – М., 2001. – 790 с.

¹¹ <http://nhrc.uz/ru/menu/hotin-izlar-uulari>

¹² Каширкина А.А., Морозов А.Н. Права женщин в современном обществе: результат генезиса или объективная необходимость? // Женщина в российском обществе 2020. – № 1. С. 3–16

¹³ Права женщин – это права человека Нью-Йорк и Женева, 2014 год // <https://www.ohchr.org/ru/publications/special-issue-publications/womens-rights-are-human-rights>

1975-yil Xalqaro xotin-qizlar yili deb eʼlon qilinib, Mexiko Butunjahon konferensiyaga mezbonlik qildi, Butunjahon harakatlar rejasi qabul qilindi. 1975–1985-yillar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar uchun oʻn yilligi sifatida belgilandi. 1980-yilda Kopengagenda ayollar boʻyicha yana bir xalqaro konferensiya boʻlib oʻtdi hamda “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida”gi Konvensiya imzolanish uchun yoʻl ochdi. 1982-yilda Ayollar boʻyicha uchinchi Butunjahon konferensiyasi Nayrobida boʻlib oʻtdi, unda Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qoʻmitasi oʻz ishini boshlagan. Ushbu uchta jahon konferensiyasi favqulodda faollikka guvoh boʻldi, butun dunyo boʻylab ayollar tomonidan va 1990-yillarda ayollar huquqlarini hal qilish boʻyicha jahon konferensiyalari, shu jumladan, 1995-yilda Pekinda boʻlib oʻtgan Ayollar boʻyicha toʻrtinchi Jahon konferensiyasi uchun zamin yaratdi. Bundan tashqari, alohida guruhlarga mansub ayollarning huquqlari, keksa ayollar, etnik ozchilikni tashkil qilgan ayollar yoki nogironligi boʻlgan ayollar, shuningdek, Qarish boʻyicha xalqaro harakat rejalarini (Vena, 1982 va Madrid, 2002), Durban deklaratsiyasi va Harakat dasturi kabi boshqa xalqaro siyosiy hujjatlarda ham ayollar huquqlari koʻrib chiqilgan.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterresh 2019-yil 11–17-martda boʻlib oʻtgan BMT Xotin-qizlar ahvoli boʻyicha komissiyasining 63-sessiyasida qayd etganidek, “Qayerdagi siyosat va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan boʻlsa, oʻsha joyda iqtisodiyot oʻsmoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda”. Bu yerda ham koʻrish mumkinki, BMT ayollar huquqlarini taʼminlagan holda tenglikka erishish mumkinligini hamda buning bir necha yoʻnalishlarda amalga oshirilishida deb biladi.

Ayollar huquqlarini taʼminlashda uzoq vaqt ayollarning siyosiy huquqlarga erishishi boʻlib kelgan, bugungi kunga kelib ham ayollarning siyosatda ishiroki va muhim qarorlar qabul qilishda qatnashishi bu boradagi yutuqlardan biri deb tan olinadi. Avvalambor, qayd etish joizki, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining bir qator hujjatlarida (Madrid, 1983; Vena, 1989; Moskva, 1991; Istanbul, 1999; Maastrixt, 2003; Sofiya, 2004; Lyublyana, 2005; Afina, 2009) davlatlarning erkaklar va ayollar oʻrtasida tenglikni qoʻllab-quvvatlash, qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollar

rolini oshirish, ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, sud va ijroiya barcha organlarida gender mutanosibligi maqsadlariga erishish uchun aniq choralarni koʻrish, saylab qoʻyiladigan davlat lavozimlarida gender vakillik mutanosibroq boʻlishiga erishish maqsadida ayollar va erkaklarning siyosiy partiyalarda teng ishtirok etishlariga yordam koʻrsatish, erkaklar bilan xotin-qizlar uchun nafaqat yuridik, balki amaldagi tenglikka ham erishish boʻyicha majburiyatlar belgilangan.

Xotin-qizlar faoliyatining ushbu jihatini tartibga soluvchi eng muhim xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Avvalo, bu BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1952-yil 20-dekabrda qabul qilingan, 1954-yil 7-iyulda kuchga kirgan “Ayollarning siyosiy huquqlari toʻgʻrisida”gi BMT konvensiyasidir. Konvensiya ayollarning barcha saylovlarda ovoz berish, davlat saylovlarini talab qiladigan milliy qonunchilikda belgilangan barcha institutlarga saylanish huquqini, ayollarning erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishsiz davlat xizmatida lavozimlarni egallash huquqini eʼlon qildi.

Siyosat sohasida gender tengligini xalqaro huquq darajasida mustahkamlash ham nazariy asosga ega. Olimlarning fikriga koʻra, ayollarning hokimiyat munosabatlarida ishtirok etishi jamiyatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, muvaffaqiyati uchun shartdir. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, davlatda erkaklar va ayollar nisbatiga (70% dan 30% gacha) erishilgandagina, xususan, ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijobiy dinamika boʻlishi mumkin. Sotsiologlarning fikriga koʻra, 33% – bu hayotning har qanday sohasida yangilanishni taʼminlaydigan sehrli raqam¹⁴.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida”gi Konvensiyasi ishtirokchidavlatlarni ayollarning erkaklar bilan teng sharoitlarda hukumat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish hamda davlat lavozimlarini egallash huquqiga ega boʻlishini taʼminlashga chorlaydi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi Xalqaro Pakt (1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh

¹⁴ Акмалова А.А., Капицын В.М. Женщины во власти и самоуправлении <https://istina.msu.ru/>

Assambleyasining 21-sessiyasida qabul qilingan) unda ishtirok etuvchi davlatlarni erkaklar va ayollarning barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishda teng huquqliligini ta'minlashga majbur qildi. Nayrobining 2000-yilgacha Ayollarni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli strategiyasi 372 ta bandda ayollar faoliyatining to'liq spektrini qamrab olgan.

1995-yilda Pekin Jahon konferensiyasida Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasini qabul qilgan 12 ta asosiy muammoli yo'nalishlar, jumladan, hokimiyatni taqsimlash va barcha darajadagi qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlik belgilandi. Harakatlar platformasida ko'plab siyosiy partiyalar va davlat tuzilmalari xotin-qizlarning jamiyat va siyosiy hayotdagi ishtirokiga to'sqinlik qilishda davom etayotgani qayd etilgan. Ayrim mamlakatlarda qonun chiqaruvchi organlardagi ayollar soni sezilarli darajada kamaygan.

Harakatlar platformasi quyidagilarni tavsiya qiladi:

- ✓ ayollar va erkaklar teng vakilligiga erishish, shu maqsadda barcha davlat boshqaruv lavozimlarida, zarur hollarda, kvota kiritish orqali ayollar sonini sezilarli darajada oshirish;

- ✓ saylov tizimlari doirasida siyosiy partiyalarni ayollarni saylanadigan va tayinlanadigan davlat lavozimlariga erkaklar bilan bir xil nisbatda va bir xil sharoitlarda jalb etishni rag'batlantirish choralarini ko'rish;

- ✓ saylov tizimlarining xotin-qizlarning saylanadigan organlardagi siyosiy vakilligiga differensial ta'sirini hisobga olish va zarurat tug'ilganda ushbu tizimlarni tuzatish yoki isloh qilish masalalarini ko'rib chiqish;

- ✓ ayollar va erkaklarning siyosiy ishtirok etish va uyushmalar erkinligi, shu jumladan, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalariga a'zolik bo'yicha teng huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish, majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish mexanizmini yaratish.

Ushbu Platformada siyosiy partiyalarga gender masalalarini o'z siyosiy dasturlariga kiritish va ayollarning siyosiy partiyalar yetakchiligida erkaklar bilan teng ishtirok etishini ta'minlash choralarini ko'rish tavsiya etiladi.

Ko'rib turganingizdek, ushbu hujjatlar ayollarning ijtimoiy mavqeyini yaxshilash va

haqiqiy gender tengligini ta'minlash bo'yicha bir qator juda aniq majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. 30 mingdan ortiq faollar ishtirok etgan konferensiya natijasida 189 davlat vakillari bir ovozdan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasini qabul qildi¹⁵. Harakatlar platformasi qabul qilinganidan buyon xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishda ma'lum yutuqlarga erishildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi o'rinbosari, BMT – Ayollar tashkiloti ijrochi direktori Phumzile Mlambo ta'kidlaganidek, “1945-yilda BMTning tashkil etilishi juda muhim va jasoratli qadam bo'ldi. O'sha paytda hukumat va davlatlar rahbarlari orasida birorta ham ayol yo'q edi. 1995-yilda Pekin deklaratsiyasi qabul qilingan vaqtda hukumatlar va mamlakatlarni boshqargan ayollar soni 12 nafar edi.

Xotin-qizlarning siyosat va saylov jarayonlaridagi ishtirokiga oid me'yoriy baza, birinchi navbatda, xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Masalan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da ayollarning siyosiy va saylov jarayonlarida teng ishtirok etishi kamsitilmaslik va siyosiy huquqlardan teng foydalanish tamoyillari asosida belgilab qo'yilgan bo'lsa, “Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida”gi konvensiya va boshqa bir qator Mintaqaviy konvensiyalarda bunday huquqlar amalga oshirilishi gender belgisiga ko'ra bo'linmasdan ta'minlanishi kerakligi belgilab qo'yilgan. O'z navbatida, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro paktning 25-moddasida barcha fuqarolar nafaqat ommaviy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etish, balki haqiqiy davriy saylovlarda ham ovoz berish va saylanish huquqiga ega ekanligi aniqlangan. “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi konvensiya ayollarning “davlat mansablarini egallash va hukumatning barcha darajalarida barcha davlat funksiyalarini bajarish” huquqini yana bir bor tasdiqlaydi¹⁶. Bundan tashqari, ushbu konvensiyaning 7-moddasida ishtirokchi davlatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish

¹⁵ Участие женщин Узбекистана в политической жизни и избирательных процессах расширяется

<https://xs.uz/ru/post/uchastie-zhenschin-uzbekistana-v-politicheskoy-zhizni-i-izbiratelnykh-protsessakh-rasshiraetsya>

¹⁶ Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml

uchun barcha zarur choralarni ko'rishlari belgilab qo'yilgan. Xususan, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda va umumxalq referendumlarida ovoz berish, davlat tomonidan saylanadigan barcha organlarga saylanish, davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish huquqini ta'minlash.

Umumjahon deklaratsiyasida bayon etilgan fuqarolik va siyosiy huquqlar 1966-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va 1976-yilda kuchga kirgan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktda o'z aksini topgan. Mazkur hujjatning 25-moddasida har bir fuqaroning "umumiy va teng saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladigan va saylovchilarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishini ta'minlaydigan haqiqiy davriy saylovlarda saylash va saylanish huquqi" e'lon qilingan.

Bu qoidalar davlatlar tomonidan niyat bayonotlari sifatida emas, balki qonuniy majburiy bo'lgan odatiy qoidalar sifatida ko'rilgan. Hujjat ishtirokchi davlatlar uchun majburiy edi. 28-modda Xalqaro paktida e'tirof etilgan huquqlarni monitoring qilish va amalga oshirish choralarni ko'rish uchun mas'ul Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tashkil etilishini nazarda tutgan.

"Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning 1- va 2-moddalarida: "Ayollar barcha saylovlarda erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishsiz ovoz berish huquqiga ega. Xotin-qizlar erkaklar bilan teng shartlarda, hech qanday kamsitishsiz, milliy qonunchilikda belgilangan, ommaviy saylovlarni talab qiluvchi barcha institutlarga saylanishi mumkin", deb belgilangan.

Ko'rib turganimizdek, ayol huquqlari ko'proq inson huquqlarining ajralmas elementi hisoblanib, ko'p holatlarda e'tibor markaziga ayollarga qarshi qaratilgan har qanday kamsitishni bartaraf etishga qaratilgan. Gender tengligi esa bu insoniyat erishishga intilayotgan erkaklar va ayollarning teng huquq va imkoniyatlari majmuyidir. Shu jihatdan gender tengligi bu erishilishi lozim bo'lgan maqsad hisoblansa, unga erishishda ko'proq kamsitishga uchrayotgan jins vakillari, ya'ni ayollar huquqlarini ta'minlagan holda erishish vosita bo'lib hisoblanmoqda. Gender tengligini bir strategiya deb olib qaraydigan bo'lsak, ayollar huquqlarini ta'minlash uning asosiy choralardan biri hisoblanadi.

Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrda Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, 17 ta maqsadga erishish bo'yicha 169 ta maqsadli vazifa tasdiqlangan. Bevosita barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishishdan iborat.

Shuningdek, gender tengligi borasida davlatlarda olib borilayotgan siyosatni baholash hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida ko'plab xalqaro indekslar ishlab chiqilib, e'lon qilinib kelinmoqda. Gender tengligi bo'yicha Jahon Bankining "Ayollar, biznes va qonun indeksi", AQShning Jordjtaun instituti tomonidan "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi", Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlanadigan global hisoboti "Global gender tafovuti", BMTning Barqaror rivojlanish dasturlari doirasida "EM2030 BRD Gender indeksi", "Gender notenglik indeksi", Yevropa Gender tengligi institutining "Gender tengligi indeksi" hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Ijtimoiy institutlar va gender indeks"lari yuritilib, davlatlarning bu boradagi reytinglari e'lon qilinib kelinmoqda.

Bugungi kunda gender tengligiga erishishning 4 ta modeli kuzatiladi¹⁷:

Gender integratsiyasi modeli ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi (Daniya, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiya). Gender tengligi tamoyilining integratsiyasi tenglik to'g'risidagi muayyan qarashlarning barcha sohalarda siyosatning bir qismiga aylanishini nazarda tutadi.

Gender tengligi kuch va resurslarni adolatli taqsimlashni, shuningdek, erkaklar va ayollarning harakatlari hamda ehtiyojlarini teng baholashni o'z ichiga oladi. Amalda, bu shuni anglatadiki, ayollarning huquqlari, shartlari va ijtimoiy mavqeyi erkaklarning tegishli huquqlari, shartlari va maqomiga nisbatan hisobga olinishi kerak. Genderga yo'naltirilgan byudjetlashtirish ko'plab Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda amalga oshiriladi va davlat

¹⁷ Толстокурова А. Основные этапы формирования концепции гендерной политики и модели паритетной демократии в Украине. Известия Дальневосточного федерального университета. Экономика и управление, Выпуск. 2009. – № 2.

byudjetining ta'sirini baholash vositasidir, bu davlat xizmatlarida erkaklar va ayollar uchun imkoniyatlar tengligiga erishishga qaratilgan jinsga yo'naltirilgan ajratmalarni tahlil qilishni ta'minlaydi.

Kesishish modeli o'z siyosatini ayollarga nisbatan ijobiy harakatlar an'alariga asoslaydigan Yevropa mamlakatlariga (Belgiya, Fransiya) xosdir. Ushbu modelga uchta mamlakat kiradi: Fransiya, Belgiya va Ispaniya.

Bu mamlakatlar turli xil yondashuvlarga egaligi bilan farqlanadi. Fransiyada tashabbus to'g'ridan to'g'ri fuqarolik jamiyatidan hokimiyat institutlariga, Belgiyada esa hokimiyat institutlaridan jamiyatga o'tadi. Masalan, Belgiyada Ijtimoiy erkinlik bo'yicha davlat kotibi lavozimi ikki maqsad bilan joriy qilingan: erkaklar va ayollar o'rtasida teng imkoniyatlarni ilgari surish, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha hukumat bilan maslahatlashish. Vaziyatni erkaklar va ayollar tengligi nuqtayi nazaridan kuzatadigan erkaklar va ayollar tengligi instituti, shuningdek, teng imkoniyatlar Federal Kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Fransiyada ayollar va erkaklar tengligi bo'yicha Oliy Kengash mavjud.

Jinsdan tashqari tenglik modeli tengsizlik faqatgina jins bilan bog'liq emas, balki undan ham tashqarida bo'lishi mumkin, degan mazmuni aks ettiradi. Boshqa mezonlarni ham qamrab oladi: yoshi, ijtimoiy holati, millati va boshqalar, bu ham muvozanatlashtirilishi kerak, degan g'oyani aks ettiradi (Buyuk Britaniya). Ushbu model iqtisodiy rivojlanish va gender tengligining o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish ayollar uchun mehnat bozorida imkoniyatlar kengayishi, ayollarning tadbirkorlikdagi ishtirokini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlashdan teng foydalanish tufayli yuzaga keladigan gender mehnat taqsimotini vujudga keltiradi.

Hamkorlikni rag'batlantirish modeli – bu “pastdan” (ayollar tashkilotlari va jamoalari) va “yuqoridan” – xalqaro tashkilotlar, moliya, investitsiyalar talablariga javoban paydo bo'lgan yangi model. Ushbu model davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik orqali erkaklar va ayollar tengligiga erishishni hamda bu jarayonga nodavlat tashkilotlarning keng ishtirokini kiritishni nazarda tutadi.

Gender tengligini ta'minlash borasida xalqaro hujjatlar quyidagilar bo'lib, ularni jahonning 100 dan ortiq mamlakatlari ratifikatsiya qilgan:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil.

2. Inson huquqlari va fundamental erkinliklar to'g'risida Yevropa Konvensiya 1950-yil.

3. Erkaklar va ayollar uchun teng qiymatli ish hamda teng haq to'lash to'g'risidagi Konvensiya 1951-yil.

4. Qullikni bekor qilish, qul savdosi va qullikka o'xshash institutlar va odatlar to'g'risidagi qo'shimcha Konvensiya 1956-yil.

5. Nikohga rozilik berish, nikoh yoshi va nikohlarni qayd etish to'g'risidagi Konvensiya 1962-yil.

6. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt 1966-yil.

7. Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarning davlat kafolatlari to'g'risidagi namunaviy Qonun (MDHga a'zo davlatlar parlamentlararo assambleyasining 2005-yil 18-noyabrda yigirma oltinchi yalpi majlisda qabul qilingan).

Umuminsoniy xarakterga ega xalqaro standartlar orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosiy o'rinni egallaydi, unda (21-modda) har bir fuqaroning o'z mamlakatining davlat ishlarini boshqarishda saylangan vakillar orqali yoki bevosita erkin ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. Xalq irodasi hokimiyatning asosi bo'lishi kerak. Bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan saylovlarda o'z ifodasini topishi, saylovlar umumiy va teng saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi, saylovchilarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishini ta'minlashi shart. Deklaratsiyada har kim o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish chog'ida faqat boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari munosib tan olinishi va hurmat qilinishini ta'minlash, jamiyatning adolatli talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklashlarga yo'l qo'yilishi mumkinligi ta'kidlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitilmaslik tamoyilini tasdiqladi va barcha insonlar erkin va qadr-qimmat jihatidan teng bo'lib tug'ilishlarini e'lon qildi. Huquqlar va har kim hech qanday farqlarsiz, shu jumladan, jinsi bo'yicha farqlanmasdan, unda ko'rsatilgan barcha huquq va erkinliklardan foydalanishi kerak. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar ishtirokchi-davlatlar zimmasiga erkaklar va ayollarning barcha

fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan foydalanishda teng huquqliligini ta'minlash majburiyatini yukladi¹⁸.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, "ayollar huquqlari" va "gender tengligi" tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ammo bir-biridan

¹⁸ Николаева Т.А. Правовое закрепление политических прав женщин и гарантий их реализации. // <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-zakreplenie-politicheskikh-prav-zhenschin-i-garantiy-ih-realizatsii>

huquqiy mazmuni va amaliy qo'llanishi jihatidan farq qiladi. Ayollar huquqlari inson huquqlarining bir qismi bo'lib, jamiyatda ayollarning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Gender tengligi esa barcha jins vakillarining teng huquqlarini himoya qilishni ko'zlaydigan keng tushuncha bo'lib, u ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlovchi huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gender Mainstreaming for the Legal Sector [Электронный ресурс]: A Toolkit / National Commission for the Promotion of Equality. Malta, 2008; Gender Equality Glossary [Электронный ресурс] / Gender Equality Commission; Council of Europe, 2016. Режим доступа: <https://www.coe.int/en/web/genderequality/publications>
2. Glossary of Terms and Concepts // <https://www.unicef.org/rosa/media/1761/file/Genderglossarytermsandconcepts.pdf>
3. Stoller, R. (1968). Sex and Gender: On the Development of Masculinity and Femininity. London: Hogarth Press.
4. Акмалова А.А., Капицын В.М. Женщины во власти и самоуправлении <https://istina.msu.ru/>
5. Большой юридический словарь / Додонов В.Н., Ермаков В.Д., Крылова М.А и др - изд Инфра. – М., 2001. – 790 с.
6. Гидденс Э. Социология / При участии К.Бердсолл: пер.с англ. Изд.2-е. – М.: Едиториал УРСС, 2005. – С. 101-102.
7. Зайков Д.Е. Принцип равных прав и свобод мужчин и женщин: современное состояние и перспективы // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2020. – № 4. – С. 25–42.
8. Исломда гендер тенгликнинг ўзига хос тамойиллари. Қўлланма / Тузувчилар Т.Ж.Юсупова, Б.Б. Мамадиев, М.М.Хайдаров. – Тошкент: Бақтрия пресс, 2022. – 21 с.
9. Каширкина А.А., Морозов А.Н. Права женщин в современном обществе: результат генезиса или объективная необходимость? // Женщина в российском обществе 2020. – № 1. С. 3–16
10. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml
11. Лушников А., Лушникова М, Тарусина Н. Гендер в законе: Монография. – Москва: Проспект, 2021. – С. 22.
12. Николаева Т.А. Правовое закрепление политических прав женщин и гарантий их реализации. // <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-zakreplenie-politicheskikh-prav-zhenschin-i-garantiy-ih-realizatsii>
13. Права женщин – это права человека Нью-Йорк и Женева, 2014 год // <https://www.ohchr.org/ru/publications/special-issue-publications/womens-rights-are-human-rights>
14. Словарь гендерных терминов [Электронный ресурс] / под ред. А.А.Денисовой; Региональная общественная организация «Восток-Запад: Женские Инновационные Проекты». Режим доступа: <http://www.owl.ru/gender/index.htm>
15. <http://nhrc.uz/ru/menu/hotin-izlar-uulari>
16. Участие женщин Узбекистана в политической жизни и избирательных процессах расширяется <https://xs.uz/ru/post/uchastie-zhenschin-uzbekistana-v-politicheskoy-zhizni-i-izbiratelnykh-protsessakh-rasshiryatsya>
17. Холикова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар: Услубий қўлланма. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 11-13.



Adhamxo'ja Abdullaxo'jayev,
Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
e-mail: adhamxojaabdullaxojayev@gmail.com

IBRAT MATBAACHILIGINING VUJUDGA KELISHI VA JADID G'OYALARINING YOYILISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada Turkiston matbaachiligining shakllanishi, rivoji va milliy uyg'onish g'oyalari bilan sug'orilgan demokratik va gumanistik qarashlari hamda modernizatsiya jarayonini boshdan kechirayotgan o'zbek matbuotining shakllanishida jadid matbuotining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Milliy istiqlol, ozodlik, hurfiylik, tenglik, adab va ilm-u ma'rifat, til va madaniyat sohalarini yuksaltirish uchun milliy matbuotni rivoj toptirish nechog'li muhim masala ekani Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi prizmasida ochib berilgan. Zamonaviy dunyoning yangi manzarasida milliy mentalitetni asrash, urf-odatlariga sodiqlik, vatanparvarlik va istiqlol fidoyilarini tarbiya qilishda gazeta, jurnal, kitob va boshqa ommaviy axborot vositalarining jahonshumul vazifasi, milliy matbuotning porloq tarixi va buyuk istiqboli, jahon madaniyatining bir qismiga aylangan noyob durdonalari ijtimoiy-falsafiy talqin etilgan.

Tayanch so'zlar: matbuot, ma'rifatparvarlik, gazeta, jurnal, uyg'onish harakati, "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Matbaai Is'hoqiya", "Madaniyat", til va adabiyot, milliy ong va ruhiyat.

Аннотация. В статье анализируется становление и развитие Туркестанской печати, её демократические и гуманистические взгляды, пропитанные идеями национального возрождения, а также роль и место «джадидской» прессы в формировании узбекской прессы, переживающей процесс модернизации. Статья рассматривает, насколько важным является развитие национальной прессы для достижения национальной независимости, свободы, свободомыслия, равенства, повышения уровня образования, языка и культуры. Эта проблема раскрывается с позиции стратегии развития Нового Узбекистана. В контексте современного мира рассматривается важность сохранения национального менталитета, преданности традициям, патриотизма и воспитания преданных идеалам независимости в свете общемировой роли газет, журналов, книг и других средств массовой информации. В социально-философском аспекте анализируется богатая история национальной прессы, её выдающиеся достижения, которые стали частью мировой культуры.

Ключевые слова: пресса, просветительство, газета, журнал, движение возрождения, "Садои Туркистон", "Садои Фаргона", "Матбаи Исхакия", "Культура", язык и литература, национальное сознание и менталитет.

Annotation. This article analyzes the development of Turkestan printing industry, its democratic and humanistic views imbued with national revivalist ideals, and the role of the Jadid press in the formation of Uzbek press during its modernization. The article examines the crucial role of a flourishing national press in achieving national independence, freedom, open-mindedness, equality, and the advancement of literature, education, language, and culture, all within the framework of the New Uzbekistan's development strategy. Within the contemporary global landscape, the article explores the universal function of newspapers, journals, books, and other media in preserving national identity, upholding traditions, fostering patriotism, and educating citizens devoted to independence. The article provides a socio-philosophical interpretation of the vibrant history and promising future of the national press, highlighting its unique contributions to world culture.

Keywords: press, enlightenment, newspaper, journal, revival movement, "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Matbaai Is'hoqiya", "Culture", language and literature, national consciousness and mentality.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalaridagi o‘zgarishlarda aks etmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi doirasida matbuot, axborot va kitob mahsulotlarining sifati, soni va raqobatbardoshligini ta’minlash, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi ishlarda milliy jadid ma’rifatparvar ziyolilari ilgari surgan milliy matbuot va gezeta, ilm-u irfon, madaniyat, siyosiy faollik, faol fuqarolik va gumanistik qarashlar bilan hamohang rivojlangan.

Chor hukumati mutasaddilari va sobiq sho‘ro matbuotchilarining “Ommatan savodsiz xalqni “savodli” ziyoli qilishdek” harakati zamirida millatning asl fidoiy farzandlari yaratgan boy xazinaning kulini ko‘kka sovurish, qalamlarini “charxlash”, o‘zlikni anglashga da’vat qilgan ovozlarni o‘chirish bo‘lganki, “aksilma’rifatparvarlik” g‘oyalari milliy matbuot rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Jadidlar matbuoti masalasi ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ldiki, asl haqiqatning tiklanishi bevosita milliy istiqloqlarning ro‘yobga chiqishi bilan mushtarakdir. Sobiq sho‘ro mafkurasining tazyiqi ostida matbuot, xususan, XIX asrning oxiri hamda XX asr boshlaridagi milliy matbuotning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari O‘zbekistonning mustaqillikni qo‘lga kiritishigacha “yopiq” doirada bo‘lgan.

Matbuot chinakam ma’noda milliy uyg‘onishga “da’vat maydon”iga aylanishining o‘ziga xos ijtimoiy-falsafiy yo‘li bor. Turkiston matbuoti tarixiga nazar tashlansa, mustamlakachilik davrida “mustabid” sho‘ro mafkurachilari tomonidan jadidlar faoliyati qoralanib, “millatchilik g‘oyasi”ni targ‘ib etganlikda ayblangan. Bu masalada yana bir haqiqatni e’tibordan qochirmaslik qochirmaslik kerakki, avval sho‘rolar jadidlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan tasavvurni vujudga keltirgan. Jadidlar bundan ruhlanib, sho‘ro mafkurasining bosqinchilik siyosati, jumladan, rus tilining keng targ‘ib etilishi, rus-tuzem maktablarining Turkiston muzofotida yoyilishi, Rossiya bilan Turkistonni bog‘lab turuvchi temir yo‘l qurilishi kabi jarayonlarni xursandchilik bilan kutib olishgan. Millat oydinlari “oq” bilan “qora”ni ajratib, sho‘ro mafkurasining jirkanch

maqsadini anglagach, o‘z pozitsiyalarini tubdan o‘zgartirishga uringanlar.

XX asrning 80–90-yillarida milliy matbuot jonkuyarlari jadidchilikning tub maqsad-mohiyatini ochib berish, sho‘ro mafkurachilari “tamg‘a” qo‘ygan “ayb”lardan xalos qilish, ularning to‘g‘ri va ilmiy bahosini berish uchun maqolalar, davra suhbatlari berib borgan. O‘sha davr matbuotida jadid maorifchilari va ma’rifatparvarlarining faoliyatini yoritishda jiddiy muammolar ko‘tarib chiqilgan maqola va tezislar, konferensiya va anjumanlar ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Maqsad va uni asoslash. Turkistonda jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, uning asosiy targ‘ibot vositasi sifatida milliy uyg‘onish davri matbaachiligini rivoj topishi bir qator mahalliy va xorijiy olim va jadidshunoslar, faylasuf-olimlar ijodi falsafiy, madaniy, diniy adabiyotlarda, jumladan, jadid adabiyotlarida ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos uslubda, o‘z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirishimiz hamda ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to‘liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, jadidlar ijodiy faoliyatini har tomonlama yorituvchi amerikaliklar Adib Xolid¹, E.Olvort, fransiyalik A.Benningson, germaniyalik I.Baldauf², fransiyalik professor E.Lazzeri, yaponiyalik H.Komasu kabi sharqshunoslar, tarixchi olimlarning jadidshunoslikka oid tadqiqotlarida u yoki bu tarzda bayon etilgan. MDH davlatlarida A.Maniyozov, G.Ashurov, M.Shukurov, O.Sayfullaev, R.Hodizoda, A.Mirahmedov, I.Nurillin kabi tadqiqotchi va olimlar tomonidan jadidlarning adabiy-tarixiy faoliyati tadqiq qilingan. O‘zbekistonlik tarixchi olimlardan D.Alimova³, D.Rashidova, D.Ziyayeva, R.Sharipov, R.Shamsuddinov, Q.Rajabov va H.Sodiqovlar, adabiyotshunoslardan A.Aliyev, B.Qosimov, B.Nazarov, B.Do‘stqorayev, I.Sulton, M.Xudoyqulov, N.Karimov, O.Sharafiddinov,

¹ Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998

² Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001)

³ Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джаидов и их проекция будущего Туркестана // Туркестон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Тошкент: Фан, 1996

P.Ravshanov, S.Qosimov, Sh.Rizayev, E.Karimov, G'.Maxmudov va H.Boltaboyevlar tomonidan tarixiy va adabiy jihatdan tadqiq etilgan. Jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari faylasuf olimlar A.Jalolov, A.Aliyev, G.Maxmudova, J.Yaxshilikov⁴, Z.Ahrorova, N.Avazov, S.Ahmedov, U.Dolimov, Sh.Turdiyev, E.Yusupov, H.Saidov, Z.Isaqova⁵larning tadqiqot ishlari, risolalari va maqolalarida aks etganini misol qilib keltirishimiz mumkin. Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, germeneytik tahlil, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, jadid falsafasi va unga bo'lgan fikr-mulohazalarni boyitishga, jadid matbaasi xususida tahliliy tafakkurni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Ilmiy muammoning tasnifi va yechimi.

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston ziyolilarining xalq orasida ozodlik, demokratiya, madaniy-ma'rifiy g'oyalarni ommaviy targ'ib qilish va amalga oshirishga qaratilgan milliy taraqqiyparvarlik harakatidir. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati – huquq, milliy davlatchilik va hokimiyat masalalari bilan uzviy bog'liq. Ayni shu paytda maktab va maorif isloh qilina boshlandi. Milliy matbuot yo'lga qo'yildi. Teatr paydo bo'ldi. Yangi adabiyot shakllandi. Bir so'z bilan aytganda, yangi tafakkur "maydon"ga keldi. Bu millatning o'zligini anglash va milliy tiklanish, hurriyat mafkurasi edi. Bu davrni tarixning "pardalangan" XVII-XVIII asrlariga nisbatan chin ma'noda progressiv o'sish, tarixiy taraqqiyotning "burilish nuqtasi" sifatida baholash ayni haqiqatdir. Bu millatning keyingi uch-to'rt asrlik tarixiy taraqqiyotida misli ko'rilmagan hol edi. Bu uzoq turg'unlikdan keyingi yangi bosqich boshlanishi, "uyg'onish"dan dalolat berar edi.

Jadidlar matbuoti sho'ro davridagi kabi bir yoqlama mafkuraviy qolipdagi matbuot emas, balki millatni ma'rifatga "otlantirgan" matbuot edi. Jadidlar matbuoti to'g'risidagi haqiqatning tiklanishi bevosita milliy istiqloqlarning ro'yobga chiqishi bilan uzviy bog'liq. Jadid matbuotining vujudga kelishi

o'lkada milliy g'oyaning tarqalishida muhim rol o'ynaydi.

Jadidlarning milliy ma'rifatchilik g'oyasida ikki masala asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi: birinchisi, millatni dunyoning ma'rifatli xalqlari darajasiga ko'tarish; ikkinchisi, Turkistonda milliy-demokratik davlat qurish. Ularning davlat va jamiyat haqidagi qarashlarida bu ikki masala bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan. Chunki, millat ma'rifatli bo'lishi uchun o'z yo'li bilan o'zgalarga tobe bo'lmay rivojlanishi lozim. Buning uchun millat, eng avvalo, ilm-ma'rifatni puxta egallashi kerak.

XX asr boshlarida mintaqada islohotchilik g'oyalarining tarqalishi, Turkistondagi siyosiy vaziyat va intellektual muhit nafaqat Rossiya imperiyasi hukumat doiralarida, balki rus va musulmon davriy nashrlari sahifalarida ham muhokama mavzusiga aylandi. Xususan, Rossiya imperiyasida nashr qilingan "Tarjimon" (1883–1918) hamda "Vaqt" (1906–1918) gazetalari bilan bir qatorda Turkiyadagi 1908-yil 2-konstitusiyaviy inqilobidan keyin paydo bo'lgan islomchilik va turkchilik yo'nalishidagi yangi turk matbuoti ham Turkiston musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoriga ko'proq e'tibor bera boshladi. Bu davriy nashrlar o'zlarining siyosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, ko'p hollarda axborot xarakteridagi tahliliy va taqriz materiallar hamda mintaqa ziyolilari tomonidan yuborilgan turli ma'lumotlarni chop etdi. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan, o'sib kelayotgan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishi va ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi"⁶. Jadidlar g'oyasi o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki yangicha fikrlovchi yoshlarni o'z ortidan ergashtira oladi. Jadidlar millat yoshlarini

⁴ Яхшиликков Ж. Жади́дчи́лик ва Бехбудий. –Тошкент: "Фан", 2004.

⁵ З.Исақова.Ибрат.-Т.: "Ф.Фулум",2018.

⁶ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qura miz.T:O'zbekiston.1999.B.385

Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo‘lib yetishishlari kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo‘lishlarini ta’kidladilar. Misol uchun, Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon yo‘llardan qaytargan, uning oqibatlaridan o‘quvchilarni ogoh qilgan, asoratlarini esa, erta baholab, milliy tanazzulni asosi shularda ekanini sezgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga olgandi. Uning fikricha, bunday do‘konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo‘lib, bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog‘lom va barkamol qilib o‘stirishga chorlagan. Sog‘lom, aqlli, bilimli farzandlarimiz o‘z ulg‘ayib, o‘qib, ilm egallab, Turkiston ravnaqiga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini orzu qilgan. Sog‘lom farzandlarni tarbiyalash uchun o‘qib-o‘rganib, ilmi, ma’rifatli va eng asosiysi ota-onalar o‘z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarni egallashga yordam berishlari lozimligini bot-bot ta’kidlagan.

Millat fidoyisi Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, o‘z farzandining ma’rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligidan katta kuch olgan. Jadidlar ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini aytib o‘tganlar. Maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari lozimligini uqtirgan. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o‘quv yurtlari va dorulfununida farang, olmon va ingliz tillarida o‘qitilishi, yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining mavjudligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e’tiqod qilgan bo‘lib, Turkistonning taraqqiyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar, yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy inqiroz va qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug‘ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo‘lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatini

Ovropa darajasiga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni chet elning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblagan. Yoshlarning xorijda o‘qib kelib, o‘z yurtiga foydasi tegishi borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” jurnalida quyidagicha yozgan: “To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni..., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar etishdurmoqg‘a sa’y qilinsun. Ma’lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan. U o‘zining “Jamiyati Xayriya” nomli yordam tashkiloti “ilk maktablarni bitirgandan so‘ngra Turkiya, O‘rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi”⁷. Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o‘rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e’tibor qilaylik: “Ey, g‘ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,millat yo‘lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g‘urur emas. muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz”⁸.

Jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Is’hoqxon To‘ra Ibrat o‘z davrining oydinlari, buyuk daholaridir.

Jadidlarning matbuot haqidagi qarashlarida hozirgi davr ta’lim-tarbiya sohasidagi qator muammolar aks etgan. Millatning o‘zligini ko‘rsatadigan xususiyatlardan biri til va maorifdir. Bu ikkisi bo‘lmasa, millat mustaqil bo‘la olmaydi. Buni ziyraklik bilan anglagan Abdulla Avloniy “Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamoq bir tarafda tursin, kundan-kun unutmak va yo‘qotmakdadamiz”⁹ deb bong urgan.

Taraqqiyparvarlar targ‘ib etgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganki,

⁷ M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109

⁸ M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109

⁹ Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq. 2-tab’i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent,Tip. Lit. «Par. Sots. revolyuts» 1917g.

xalqni ma'rifatli qilish, madaniyatini yuksaltirish, xalqning o'z kuchiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligi haqidagi ilg'or fikrlar hozir ham o'z kuchini saqlab qolgan. Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topishi uchun jahon ilm-fan yangiliklari, umuminsoniy g'oyalar bilan hamohang bo'lishi kerak. Faqat muhim shart bilan, ya'ni umuminsoniy g'oyalar jadidlar ilgari surgan fikr va g'oyalar millatning qalbi va ongidan o'tmog'i, "milliylashmog'i" lozim.

Jadidlar millat taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor, vatanparvarlik, ilm-fan yuksalishi, inson kapitali, insonga daxldor bo'lgan barcha masalalar kafolatini milliylikda ko'rganlar. Ziyolilar, bir tomondan, Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib borgan bo'lsalar, ikkinchi tarafdin, Turkistonda demokratik huquqiy jumhuriyat qurishga intilganlar. Bu kurashni, jadidchilik mafkurasining asosini tashkil qilgan, deb baholash o'rinli.

Yurt ma'rifatparvarlarining ota yurt – Turkistonga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat tuyg'usi, uning kelajagi haqidagi o'ylar, yurtning istiqboldagi taraqqiyot yo'llari rejasini tuzish, Sharq va G'arb ilg'or madaniy an'analarini birlashtirish haqidagi qarashlari zahirida jadidlarni bu yo'lga undagan yuqorida tilga olingan muhim omillar mujassam.

Turkistondagi milliy harakatning asosida tarixiy xotirani tiklash va uni nes-nobut qilmay kelajakka yetkazish maqsad qilingan edi. Milliy o'zlikni bilmoq, uni turli ta'sir va ta'ziyqlardan saqlamoq har bir millat fidoiysining burchi sanaladi. Bu vazifani teran anglagan ma'rifatchilar Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvarqori, Ibrat kabi taraqqiyparvar ziyolilar asarlarida milliy g'oyaning asosiy bo'g'ini – Turkistondagi barcha mahalliy xalqlarni birlashtirish lozimdagi ko'rishgan. Jadidlar milliy birlik, ittifoqchilik, islohotchilik, ma'rifatchilik, ziyolilarni milliy oydini sifatida odimlashlarini orzu qilganlari bugungi mustaqil va obod, ona Vatanimizda kechayotgan Yangi O'zbekiston-marifatli jamiyat g'oyasi bilan hamohangdir.

Milliy taraqqiyotchilar ilgari surgan bunyodkor g'oyalarning tarkibiy qismlaridan biri tarixiy ongni rivojlantirish, tarixdan saboq chiqarish bo'lgan. Abdurauf Fitrat 1917-yilda bu haqida shunday yozgan edi: "Tarix millatlarning o'tmishini,

taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir"¹⁰

Jadid ma'rifatparvarlari Turkistondagi idora usuli, boshqaruv shakllari, davlatchilik nazariyasi va amaliyoti bilan faol shug'ullanganlar. "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" partiyalari, "Sho'royi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon" kabi jamiyatlar dasturlarida davlatchilik masalalariga alohida e'tibor berilgan. Bu jadidchilikning ma'rifatdan siyosatga tomon ilg'or yurishini aks ettirish bilan birga, ilg'or taraqqiyparvar fikrni milliy ozodlik g'oyasida birlashtirish va mustaqillikni milliy mafkura darajasiga ko'tarish bo'lgan. Bu, ilg'or qarashlar jamiyatni tubdan o'zgartirish, mamlakatda mustaqillikka erishish uchun kurash boshlanganidan dalolat edi. Milliy uyg'onish uchun ongning uyg'onishi shart va muhimdir.

Maorif va madaniyatning ravnaq topishi, xalq ongining shakllanishi va rivojlanishida gazetaning ulkan ahamiyatini tushungan Is'hoqxon To'ra Ibrat 1908-yili "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasini tashkil etadi. Turkistonni eng oliy hududlaridan birida shaxsiy mablag'i xisobidan matbaachilik tamal toshini qo'ygan Ibrat domla bu yangilik albatta, Turkistonni uyg'onishiga o'z xissasini qo'shishiga ishongan:

Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm kasri,

Ham qo'ymoqqa asarlar yod ovari jahona...¹¹

Ibrat o'zining "Tarixi chopxona" she'rida tabdili zamon va mavjud qiyinchiliklar hususida atroflicha fikr-mulohaza yuritadi. Xijriy 1326-sanada Ibrat bosmaxonasi o'z faoliyatini boshlaydi, zamonaga tashakkurlar aytgan Ibrat xalqqa ma'lumlari yana ma'lum, noma'lumlari esa olam yuzini ko'rar degan niyat bilan ishni davom ettiradi. Ilmni qoldirishda albatta kitob, gazet va jurnal katta ahamiyatga ega. Millatni yangiliklar sari boshlashda ham bu soha muhim vazifa bajaradi. Ibrat tili bilan aytganda:

Gazet ko'rmagan, bexabar xalqlar

Misli o'lgandur va yo uxlagon¹².

Ijtimoiy tuzum jaholati Is'hoqxon To'raning ma'rifatga intilishiga to'siq bo'lgan. Bosmaxonada milliy gazeta nashr qilishga ruxsat bo'lmagan.

¹⁰ Abdurauf Fitrat. Muhtasar islom tarixi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdurauf-fitrat-1886-1938/abdurauf-fitrat-muxtasar-islom-tarixi>

¹¹ Исхоқхон Ибрат. Илми Ибрат. - Тўрақурғон: Матбааи Исҳоқия, 1909, 14-бет.

¹² Бегали Қосимов. Ибрат Исҳоқхон Тўра/Танланган асарлар— Т.: «Маънавият», 2005. - 58 б.

Is'hoqxon To'ra Ibrat shaxsiyatidagi go'zal fazilat "qo'lni qovushtirib o'tirish" emas, inson toki tirik ekan, harakat qilishi kerak, degan tamoyilda aks etgandi. Is'hoqxon To'ra Ibrat uyidagi kutubxonani kengaytirib, "Kutubxonayi Is'hoqiya" deb atadi. Is'hoqxon To'ra Ibratga tegishli arxivlar shundan dalolat beradiki, kutubxonada mavjud kitoblar ro'yxati katta miqdorda bo'lgan. Kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, turk, tatar, rus, fors-tojik tillarida bitilgan ko'plab kitoblar bo'lgan, qishloq aholisi ulardan unumli foydalangan. Is'hoqxon Ibrat o'zi tashkil etgan jadid maktabi o'quvchilarini ham o'zi darsliklar bilan ta'minlagan.

Kutubxonada Ismoilbek Gaspiralinining "Xo'jai sibyon", Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Asbobi ta'limi savod", "Kitobat ul-atfol" kabi yuzlab nomdan ortiq darslik va qo'llanmalar, ta'lim-tarbiyaga oid risolalar bo'lganini arxiv materiallari tasdiqlaydi.

Kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, tatar, turk, arab, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblardan qishloq aholisi unumli foydalangan. Afsuski, bir necha ming kitob, qo'lyozmalar, gazeta va jurnallar boylamlarini o'z ichiga olgan noyob kutubxona 1917–1920-yillar "inqilob" deb atalmish ur-yiqitlar, undan so'ng, 1937-yilning mash'um qatag'on zulmini tortgan.

Turkistonning ilk matbaachilaridan biri sifatida Is'hoqxon To'ra Ibrat ma'rifatparvarlik va islohotchilik faoliyati bilan o'lka ma'rifatparvarlari, maorifchilari faoliyatini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. "Matbaa"da savod chiqarishga oid risolalar, darsliklar, plakatlar, majmualar nashr etilgan. Mutafakkirning o'zi "Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm qasri" deb ta'kidlaganidek, "Matbaayi Is'hoqiya" faoliyatini ilm-ma'rifat tarqatishdan boshlagan. Bosmaxonadan 1908-yilda ilk bor savod chiqarishga bag'ishlangan "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" asarini nashr etilgan. Asar savod chiqarishda, husnixat namunalarini o'rgatishda jadid va qadim maktablarida "Mufradot" darsligi sifatida qo'llangan. "Matbaayi Is'hoqiya"ning ilm-ma'rifat tarqatish maqsadida tashkil qilinganligining yana bir go'zal ifodasi matbaa peshtoqiga nur taratayotgan quyosh tasvirini ishlab, uning ichiga "ilm" so'zini yozdirilgani bilan izohlanadi.

Is'hoqxon To'ra Ibrat ramziy ma'noda ilmni nur taratayotgan quyoshga o'xshatgan. Bu simvolik

tasvir – emblema o'sha davrlarda bosmaxonada chop etilgan barcha kitoblarda muhrlangan. Is'hoqxon To'ra Ibrat bosmaxona ishga tushirilgan yiliyoq uni kengaytirish, o'lkada eng ko'zga ko'ringan bosmaxonalardan biriga aylantirish uchun harakat qilib, muhim va kerakli anjomlar bilan ta'minlagan. Xalq o'rtasida kitob va turli risolalarga talabning ortishi natijasida matbaa 1910-yilda Namangan shahriga ko'chirilib, tipolitografiyaga aylantirilgan. Namangan shahridagi hozirgi Is'hoqxon Ibrat nomidagi matbaa-bosmaxona "Matbaayi Is'hoqiya" asosida tashkil etilgan.

Is'hoqxon To'ra Ibratning husnixatga, xat-savod chiqarishga bag'ishlangan "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" (1908) o'quv qo'llanmasi, "Ilmi Ibrat" (1909) nomli she'rlar to'plami, yozuvlar tarixiga bag'ishlangan "Jome'ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") kabi asarlari o'z bosmaxonasida nashr ettirgan.

XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolar jadid matbuotida keng o'rin olgan. Jumladan, "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Ulug' Turkiston", "Turon", "Xurshid" kabi gazetalarda e'lon qilingan hajviy va publisistik maqolalarda o'sha davrning qoloqligi, chor ma'muriyatining to'rachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga 5 so'm iona (ehson) qilish o'rniga, besh yuzlab so'mni restoranlarda fohishalarga sochayotgan axloqsiz sarmoyadorlar qattiq tanqid ostiga olingan. Is'hoqxon To'ra Ibrat zamondoshlari, hammaslklari va hammaorifchilar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jayev, Obidjon Mahmudovlar nashr etgan gazeta va jurnallarda ham ilg'or g'oyalar va yangiliklar aks etgan maqola va she'rlari bilan faol ishtirok etgan.

Is'hoqxon To'ra Ibrat faoliyatini keng ommaga yetkazish maqsadida 1913-yilda "Matbaayi Ishoqiya" qoshida "At-tijoral an-Namangon" nomida gazeta chiqarish uchun hukumatdan ruxsat so'rab ariza bergan. Biroq arizaga ijobiy javob berilmagan. Lekin o'z davri uchun milliy ma'rifat matbaada, kitobda, ilmida ekanligi teran anglagan Ibratning say'i-harakatlarini "Vaqt" gazetasida alohida e'tirof etiladi: "Namangon. Mo'tabarindin Is'hoq qozi hazratlari "Al-tijor al-Namangon" isminda bir gazeta chiqararg'a so'rab ariza berdi. Bu zot 1908-yilda Namangonda bir matbaa ochgan edi. Bu yil "Kutubxonai Is'hoqiya"

isminda kutubxona ochib, turk, tatar, o'zbek, rus tillarida bo'lg'on adabiyot kitoblari oldirdi. Hozir gazeta chiqarmoq xaddindadir. Chin ko'nguldan muvaffaqiyat tilaymiz"¹³ Bu milliy ziyolilarimiz faoliyatiga berilgan xalqaro yuksak baho edi.

Jadidlarning qo'llab-quvvatlashlari qanchalik e'tiborga sazovor bo'lmasin, millatni ma'rifatli qilishdek, gazeta chiqarishdek buyuk maqsad orzulgicha qolgan. Har qancha harakat qilsa ham, Is'hoqxon To'ra Ibrat gazeta chiqarishga muvaffaq bo'la olmagan.

Xullas, tarixiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, jadid ma'rifatparcharlari asrlar davomida oilalari, millatlari, vatanlari, muqaddas tuproqlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar va an'alariga sodiq qolishni ulug' ish deb hisoblashgan. Bu daxlsiz urf-odatlarining buzilmasligi uchun xalqimizning ming-minglab sodiq o'g'lonlari hayotlarini qurbon qilganlar, yurt mustaqilligi uchun bo'lgan janglarda shahid ketganlar.

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingan vaqtdan beri to'xtamagan milliy-ozodlik harakati xalqning milliy o'zligini anglashida, o'z Vatani va millatining ozodligi, mustaqilligi uchun uning vatanparvarlik intilishlarini mustahkamlashda ulkan ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo'li bilan parlament orqali erishishni ko'zlab, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy mentaliteti, uning samimiyligi, bag'rikengligi, sabr-toqati, bardoshi va chidamini ham hisobga olgan holda tinch yo'l bilan hokimiyatni qo'lga olishga intilganlar. Jadidlar ilgari surgan milliy g'oya keyinchalik jahon ahamiyatiga molik hodisaga aylanib, Hindiston va boshqa mamlakatlardagi milliy-ozodlik kuchlari yo'l boshchilari tomonidan yanada rivojlantirildi. Ibrat tomonidan o'rta tashlangan "Befikr o'sang, ey do'st, muhtoji non o'lursan!"¹⁴ shiori millat matbuotida va jadid ziyolilari orasida zamona chaqirig'iga aylandi. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining haquhuqlarini kurash orqali qo'lga kiritdi. Lekin, Ibrat milliy mustaqillik uchun to'ntarilishsiz, faol islohot-buyuk kamolot g'oyasi asosida erishish lozim deb hisoblagan. Mustaqillik va ozodlik uchun, Turkistonda muxtoriyat o'rnatish uchun, millatni

¹³ «Вакт» газетаси, 1913 йил, 1324-сон.

¹⁴ U.Dolimov.N.Jabborov.Ibrat.Tanlangan asarlar.-T.: "Ma'naviyat", 2020.-43 b.

yangi zamon bilan hamnafas yashashini istagan oydinlar otildi, bosmachi, xoin, millat dushmani va inqilobchi degan malomatlar bilan bolsheviklar tomonidan ta'qibga uchradi. Chor hukumatidan so'ng Turkistonda yakka mafkuraga tayangan sovet rejimi qaror topdi. Biroq, milliy mafkura va milliy g'oya yurtimizda sovet davrida ham o'lmadi, yashashda davom etdi, mustaqillik bilan unga yana yangi hayot va yangi ruh kirdi.

Yakuniy qism. Jadidchilik milliy ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat. Bu jadidlarning boshqa ijtimoiy harakat turlaridan ajratib turuvchi alohida jihat, muhim aspektidir. Jadidlarning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qilgan. Jadid ziyolilari erk, istiqloqga erishish uchun milliy ongni o'stirish zarurligini ko'p bor aytganlar, gazetalarda maqolalar bilan o'z qarashlarini isbotlashga uringanlar, xalqni jaholat uyqusidan uyg'otishga intilganlar. Millat fidoiylaridan Cho'lpon aytganidek: "Millatni uyg'otmoq-uyg'onganlarning vazifasi"¹⁵dir.

Shu ma'noda, Uchinchi Renessans istiqbolida jadidlarning ma'rifatchilik va islohotchilik g'oyalaridan hamda hayotiy pozitsiyalaridan foydalanish o'rindir. Jadid matbuotida ozodlikka, mustaqillikka qon to'kishlarga olib keluvchi to's-to'polon, qirg'in-barot urushlar bilan emas, balki ilm-ma'rifat, ya'ni aholi savodini chiqarish, ma'rifatni ko'tarish, yurtda kechayotgan siyosiy hayotning bir qismi ekanliklarini eslatish orqali qaramlikdan qutulish g'oyalari ilgari surilgan. Mazkur g'oyalarni hozirgi zamon ruhiyatiga moslashtirgan holda rivojlantirish zarur.

Jadid matbuotida qanday odamlar millatga foyda keltirishlari mumkinligi haqida ko'p fikr yuritganlar. Ular kasblar va hunarlarning o'ziga xosliklarini chuqur tahlil qilib, kishilarning tabiatlarini ham o'rganganlar. Jadidlarning nodir ilmiy-ijtimoiy merosi, serqirra faoliyati, mazkur mezonidagi boy maqolalarini chuqur o'rganish va hayotga tadbiiq etish borasidagi aniq, istiqbolli takliflar, g'oyalar tizimi majmuini ishlab chiqish muhim va kechiktirib bo'lmas vazifalardandir.

¹⁵ Otabek Hasanov. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2024-yil 30-avgust, 175-son.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Abduazizova N. O‘zbekiston jurnalistikasining shakllanishi va ravnaqi. – Toshkent, 1997. – 32 b.
3. Abduazizova N. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. Akademiya, 2007. – 53 b.
4. Dolimov Ulug‘bek. Adabiyot milliy uyg‘onish – Is‘hoqhon Ibrat-1862-1937.
5. Sulaymonov J.B. (2021). Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida davlat tushunchasiga yondashuvlar talqini. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.
6. Sulaymonov J., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)* ISSN: 2278-3075, Volume 9 Issue 1, November, 2019.
7. Sulaymonov J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar // *Falsafa va huquq jurnali*. 2019-yil 1-soni.
8. Sulaymonov J.B. Ibn Xaldun qarashlarida geografik determinizm ildizlari // *Sharqshunoslik jurnali*. 2018-yil 4-soni.
9. “Vaqt” gazetasi, 1913-yil, 1324-son.



Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna,
 Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
 Pedagogika va psixologiya fakulteti
 Amaliy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

O'SMIRLARNING PULGA BO'LGAN MUNOSABATIDA JAMIYATNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatida jamiyatning ijtimoiy-psixologik ta'siri o'rganilgan. O'smirlarning iqtisodiy tushunchalarini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy omillar, oilaviy muhit, ta'lim tizimi va atrof-muhitning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ularning pulga bo'lgan shaxsiy munosabati va bu munosabatga ta'sir etuvchi jamiyatning ijtimoiy va madaniy jarayonlari o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: o'smirlar, pulga munosabat, ijtimoiy-psixologik ta'sir, iqtisodiy ong, jamiyat, oilaviy muhit, ijtimoiy omillar.

Аннотация. В статье изучено социально-психологическое влияние общества на отношение подростков к деньгам. Проанализированы основные социальные факторы, формирующие экономические представления подростков, включая семейную среду, систему образования и окружающую среду. Также изучено их личное отношение к деньгам и социальные и культурные процессы в обществе, влияющие на это отношение.

Ключевые слова: подростки, отношение к деньгам, социально-психологическое влияние, экономическое сознание, общество, семейная среда, социальные факторы.

Annotation. The article examines the socio-psychological influence of society on adolescents' attitudes toward money. The main social factors that shape the economic perceptions of adolescents, including the family environment, the education system and the environment are analyzed. Additionally, their personal attitudes toward money and the social and cultural processes in society affecting these attitudes are explored.

Keywords: adolescents, attitude toward money, socio-psychological influence, economic consciousness, society, family environment, social factors.

Kirish. Insonlarning hayotida pulning paydo bo'lishi iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy hayotning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Avvalgi zamonlarda odamlar o'zaro almashinuvni tovarlar yoki xizmatlar orqali amalga oshirgan bo'lsa, pulning yaratilishi bu jarayonni yanada soddalashtirdi va samarali qildi. Pulning paydo bo'lishi insoniyatga iqtisodiy sivilizatsiyaning yangi bosqichiga o'tish imkoniyatini berdi, bu esa mehnatni taqsimlash, kooperatsiya va kapitalning rivojlanishiga yo'l ochdi. Bugungi kunda pulning

turli shakllari – naqd pul, plastik kartalar, elektron pul tizimlari va raqamli valyutalar insonlar hayotiga chuqur kirib borib, iqtisodiy faoliyatni osonlashtirishga xizmat qilmoqda¹.

Yuqoridagi iqtisodiy funksiyalar bilan birga, pul odamlarning psixikasiga ta'sir ko'rsatib, uning

¹ Полухина О.П. Психология денег как объект психологических исследований // Финансы России в условиях глобализации. Материалы IV Международной научно-практической конференции, приуроченной ко «Дню финансиста – 2019». — 2019. — С. 26-31.

kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o'zgartirdi va natijada ular iqtisodiy psixologiya kabi soha predmetiga aylanadi². Psixologik nuqtayi nazardan olib qaralganda, pul odamlarning onglari orqali mavjud bo'lgan, ularni subyektiv shaxsiy ma'nosi bilan to'ldirgan, verbal tarzda ifodalangan, emotsional ranglangan va obyektivlashtirilgan tasavvurlar, belgilar hisoblanadi.

Pul psixologiyasi iqtisodiy psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lib, odamlarning pullarga bo'lgan munosabatining psixologik jihatlarini, moliyaviy qarashlar va xulq-atvor modellari shakllanishini o'rganadi. Ushbu bilim sohasi hozirgi kunda O.S.Deyneka, A.B.Fyenko, L.B.Salixova, V.P.Poznyakov va E.V.Poznyakova, A.O.Rabinovich, S.A.Svetkova, M.A.Vinokurov, A.D.Karynshev, T.D.Burmenko, E.A.Ivanova, E.I.Gorbacheva, N.A.Juravleva, A.B.Kupreychenko, M.Yu. Semyonov va boshqa zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan faol ravishda ishlab chiqilmoqda.

Pul psixologiyasi iqtisodiy psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lib, odamlarning pulga bo'lgan munosabatining psixologik jihatlarini, moliyaviy qarashlar va xulq-atvor modellari shakllanishini o'rganadi. Ushbu bilim sohasi hozirgi kunda O.S.Deyneka, A.B.Fyenko, L.B.Salixova, V.P.Poznyakov va E.V.Poznyakova, A.O.Rabinovich, S.A.Svetkova, M.A.Vinokurov, A.D.Karynshev, T.D.Burmenko, E.A.Ivanova, E.I.Gorbacheva, N.A.Juravleva, A.B.Kupreychenko, M.Yu. Semyonov va boshqa zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan faol ravishda ishlab chiqilmoqda.

O'smirlik davri — shaxsiyat rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda o'smirlar o'zining dunyoqarashi, ijtimoiy mavqeyi, qadriyatlar va o'zini anglashida muhim o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Bu davrda shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida turli omillar, jumladan, oilaviy va jamiyatdagi iqtisodiy sharoitlar, madaniy qadriyatlar va shaxsiy xususiyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'smirlarning pulga bo'lgan munosabati va bu munosabatning shakllanishi, ularda iqtisodiy ongning rivojlanishi jamiyat va ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro aloqaning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. O'smirlarning pulga bo'lgan munosabati

² Голубева Е.В. Отношение к деньгам у людей с разным уровнем дохода // Омский научный вестник. — 2010. — № 3. — С.136-139.

nafaqat shaxsiy ehtiyojlar va iqtisodiy farovonlikni ta'minlash vositasi sifatida, balki ijtimoiy mavqe va o'zini ifoda etish, o'z shaxsiyatini boshqalar bilan solishtirish va o'z o'rnini topish usuli sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'smirlik davrida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik rivojlanishiga bo'lgan ta'sirlar, albatta, murakkab va ko'p qirrali bo'ladi. Bir tomondan, o'smirlar hayotida oilaviy ta'sirlar, ota-onaning moliyaviy holati va ularning iqtisodiy qarashlari katta rol o'ynaydi. Ikkinchi tomondan, o'smirlarning jamiyatdagi o'rni, ularning do'stlari, tengdoshlari bilan aloqalari, ommaviy axborot vositalarining ularning iqtisodiy ongiga ta'siri kabi ijtimoiy omillar ham o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlarning barchasi ularning pulga bo'lgan munosabatini hamda iqtisodiy faoliyatni tushunish darajasini belgilaydi³.

Maqsad va uni asoslash. O'smirlarning pulga bo'lgan munosabatini o'rganishning maqsadi — bu yoshlarning pulga bo'lgan munosabati va tasavvurlari qanday shakllanishini, bu tasavvurlarning ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishdir⁴.

O'smirlik davri shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalari shakllanadigan eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Pulga bo'lgan munosabat faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, bu o'rganish orqali o'smirlarning shaxsiy rivojlanishi va ularning iqtisodiy faoliyatga bo'lgan munosabatini chuqurroq tushunish imkoni yaratiladi. Shuningdek, nazariy tadqiqot jamiyatdagi oilaviy muhit, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy madaniyat kabi omillarning o'smirlarning pulga bo'lgan qarashlariga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan. Bu, o'z navbatida, ularning iqtisodiy ongini shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'smirlarning pulga bo'lgan munosabati ularning o'zaro aloqalariga, ijtimoiy mavqelarini anglashlariga hamda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Bu jarayonlar yoshlarning psixologik va shaxsiy rivojlanishiga katta ahamiyatga ega.

³ Лазарев В. (2018). Влияние семейных ценностей на формирование финансовых представлений у подростков. Психология и семья, 11(2), 78-85.

⁴ Робертсон А. (2020). The role of socio-economic factors in adolescent financial socialization. International Journal of Social Psychology, 48(6), 150-165.

Shu bilan birga, o'smirlarning pulga bo'lgan munosabati va tasavvurlari, ularning oilaviy ta'limi, jamiyatdagi iqtisodiy vaziyat va o'smirlarning ijtimoiy doirasi kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu omillar ularning pulni qanday tushunishi va uning hayotdagi o'rnini qanday baholashi haqida ma'lumot beradi.

Bir qator xalqaro va rus olimlari o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Masalan, rossiyalik olim M.S.Smironova o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatini ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi mavqeyi bilan bog'lab o'rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'smirlar pulni o'z ijtimoiy holatini mustahkamlash vositasi sifatida qaraydilar. O'smirlarning iqtisodiy tasavvurlari ularning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishga hamda jamiyatda o'z o'rnini muvaffaqiyatli topishga yordam beradi⁵.

B.Yu.Karpov o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlarini o'rganib, bu tasavvurlar ularning kommunikativ ko'nikmalari va shaxsiy o'sishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan. U o'smirlarning pulni jamiyatdagi muvaffaqiyatning ko'rsatkichi sifatida ko'rishlari, ularning shaxsiy motivatsiyasi va o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirishi mumkinligini aniqlagan⁶.

Shuningdek, N.S.Frolov ham o'smirlar orasida pulga bo'lgan munosabatni o'rganib, bu munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlagan. Uning fikricha, o'smirlarning pulga bo'lgan tasavvurlari ularning kelajakdagi ijtimoiy mavqeyi va iqtisodiy faoliyatini shakllantiradi⁷.

Nazariy tahlilimizning maqsadi – o'smirlarning pulga munosabati hamda pul haqidagi tasavvurlarini o'rganish, ularning bu tasavvurlarni qanday shakllantirishini va ular orqali shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni tushunishdir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

O'smirlik davri – insonning shaxsiy va psixologik

⁵ Смородина, М.С. (2019). Социально-психологическое восприятие денег среди подростков. Вестник психологии, 18(3), 92-104.

⁶ Капов, Б.Ю. (2020). Психология финансового поведения подростков: факторы и мотивация. Психология образования и воспитания, 25(4), 42-56.

⁷ Фролов, Н.С. (2018). Психологические особенности восприятия финансов подростками. Психология и экономика, 22(1), 56-70.

rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda o'smirlar o'zligini anglash, o'zaro munosabatlar va jamiyatdagi o'zni haqida aniq tasavvurlarga ega bo'la boshlaydilar. Bu jarayonda pulning roli va o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlari katta ahamiyatga ega. O'smirlar uchun pul, nafaqat moddiy qiymatga ega bo'lgan resurs, balki ijtimoiy mavqe, o'z-o'zini anglash va kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatning ko'rsatkichi sifatida ham qaraladi.

Jamiyatning o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatiga ta'siri shundaki, iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonida ular pulga nisbatan ijtimoiy normalar, qadriyatlar va qarashlarni o'zlashtiradilar.

O'smirlarning pulga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi ba'zi omillar:

1. Yashash joyi. Periferik hududlarda yashash pulni zavq va ishonch hissini beruvchi obyekt sifatida qabul qilishga olib keladi. Katta shaharlar o'smirlarining moliyaviy jihatdan odatda xotirjam va ishonchli bo'lishi kuzatiladi.

2. Jinsiy qarash. Qizlar uchun pul ko'proq terapevtik funksiyani bajaradi, o'g'illar esa pullar tufayli xavotirni his qilishadi va ularga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishadi.

3. Ota-onalar. Ota-onalar iqtisodiy ijtimoiylashuvning muhim agentlari hisoblanadi, ular moliyaviy manbalar manbayi sifatida faoliyat yuritib, sarf-xarajatlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

4. To'langan mehnat tajribasi. To'langan mehnat faoliyati tajribasiga ega bo'lgan o'smirlarda pulga bo'lgan munosabatdagi ziddiyatlar darajasi o'zi daromad topmagan o'smirlarga qaraganda pastroq bo'ladi.

Shuningdek, o'smirlar uchun jamiyatning yuqori ahamiyati iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonida ularning iqtisodiy xulq-atvorining mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi⁸.

Birinchiidan, o'smirlar pulni moddiy qiymat va to'lov vositasi sifatida ko'rishadi, biroq bu tasavvurlar ularning o'zaro ijtimoiy aloqalari va

⁸ Миронова Т.Ю. Социально-психологические особенности экономической социализации подростков и юношей. Специальность: 19.00.05 – социальная психология. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. – Курск, 2013.

shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. O'smirlar o'ziga ishonch hosil qilish va jamiyatda o'z o'rnini topishda pulni bir vosita sifatida qabul qiladilar. Ularning pul haqidagi tasavvurlari oilaviy ta'lim, jamiyatning iqtisodiy vaziyati, o'z atrofidagi odamlarning pulga bo'lgan munosabati va boshqa tashqi omillarga asoslanadi.

Ikkinchidan, o'smirlarning pulga bo'lgan tasavvurlari turli ijtimoiy va psixologik omillar orqali shakllanadi. Masalan, oilaviy sharoitlar, jamiyatdagi iqtisodiy ta'sirlar, o'smirning shaxsiy qiymatlari va uning pulni qanday qabul qilishi bu jarayonlarni belgilaydi. O'smirlar pulni o'zining ijtimoiy mavqeini belgilovchi vosita sifatida ko'rishlari mumkin, bu esa ular uchun iqtisodiy faoliyat va jamiyatdagi muvaffaqiyatni ta'minlashning asosiy mexanizmi bo'lishi mumkin⁹.

O'smirlarning pul haqidagi tasavvurlarini o'rganish va tahlil qilishda bir nechta yondashuvlar mavjud. Ularning har biri o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillarni tushunishga yordam beradi.

O'smirlarning pul haqidagi tasavvurlarini o'rganishda psixologik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv o'smirlarning ichki dunyosini, o'z-o'zini anglashi hamda pulni ijtimoiy muvaffaqiyatni ta'minlash vositasi sifatida qabul qilishini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, psixologik nuqtayi nazardan, o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlari ularning shaxsiy o'sishiga, ijtimoiy aloqalariga va kelajakdagi iqtisodiy faoliyatlariga qanday ta'sir qilishini o'rganish muhimdir¹⁰.

Pul haqidagi tasavvurlar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy omillarga ham bog'liq. Jamiyatdagi iqtisodiy vaziyat, oilaviy ta'lim va o'smirlarning ijtimoiy doirasi ular uchun pulning ijtimoiy qadriyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlari ijtimoiy kontekstda tahlil qilinishi kerak¹¹. Tadqiqotlarda o'smirlarning oilaviy sharoitlari, jamiyatdagi iqtisodiy muhit va ularning o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik tahlil amalga oshirilishi lozim.

⁹ O'sha joy.

¹⁰ Смит, М. (2019). Money attitudes and their development in adolescents: A psychological perspective. *Journal of Adolescent Psychology*, 45(2), 215-227.

¹¹ Федоров, С. (2019). Роль культуры и образования в формировании отношения подростков к деньгам. *Психология образования*, 34(3), 93-100.

O'smirlarning pul haqidagi tasavvurlarini empirik jihatdan o'rganish, ularning o'zaro munosabatlari va qarorlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarda so'rovnomalar, intervyular, psixologik testlar va boshqa metodlardan foydalanish mumkin. Bu usul yordamida o'smirlarning pulga bo'lgan munosabati va bu munosabatlarning ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini aniqlash mumkin bo'ladi.

O'smirlarning pul haqidagi tasavvurlari ularning kelajakdagi iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiladi. Pulning o'smirlarning hayotidagi o'zni va qiymati ularning shaxsiy o'sishiga va ijtimoiy rivojlanishiga ham bog'liq. Shuning uchun o'smirlarning pul haqidagi tasavvurlarini o'rganishda ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatish zarur.

Yakuniy qism. O'smirlarning pulga bo'lgan munosabatida jamiyatning ijtimoiy-psixologik ta'siri katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonida o'smirlar jamiyatdagi iqtisodiy normativlar, qadriyatlar va jamiyatda pulning roli to'g'risidagi tasavvurlarni o'zlashtiradilar. Bu jarayon, o'z navbatida, ularning pulga nisbatan munosabati va moliyaviy xulq-atvorlarini shakllantiradi. Jamiyatning iqtisodiy tizimi, ijtimoiy muloqot, oilaviy qadriyatlar va turmush sharoitlari kabi omillar o'smirlarning pulga bo'lgan qarashlarini, unda qanday funksiyalar ko'rishlarini belgilaydi.

Shuningdek, jamiyatda o'smirlar o'rtasida pulning roli va ahamiyati haqida mavjud bo'lgan ijtimoiy normativlar va qoidalar ular uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi. O'smirlar o'zlarining moliyaviy odatlarini, xulq-atvorlarini va iqtisodiy qarorlarini shakllantirishda jamiyatning boshqa a'zolari, jumladan, ota-onalari, do'stlari, ustozlari va boshqa ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar bilan muloqot orqali ko'plab o'rnaklarni o'rganadilar.

Bundan tashqari, o'smirlarning iqtisodiy ijtimoiylashuvi va jamiyatning ta'siri ularning moliyaviy ongini, pulga bo'lgan hissiy munosabatlarini va stressni bartaraf etishdagi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun jamiyatda ongli va ma'naviy yo'nalishlar, ijtimoiy dasturlar, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan

tashkil etilgan qo'llab-quvvatlash tizimlari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatning ijtimoiy-psixologik ta'siri, shuningdek, o'smirlarning moliyaviy qobiliyatlari va ularning kelajakdagi iqtisodiy muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smirlarning to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish va ularning kelajakdagi pulga bo'lgan munosabatini sog'lom tarzda shakllantirishda jamiyatning roli nihoyatda katta.

Olimlarning tadqiqotlari, o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatining o'ziga xos ijtimoiy va psixologik omillarga asoslanganini ko'rsatadi. Ushbu omillar o'smirlar o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish va shaxsiy qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlardan kelib chiqadigan xulosalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar pulga nisbatan ijobiy


va salbiy munosabatlarni o'rganishda oila, ta'lim, va jamoat muhitiga alohida e'tibor qaratishi zarur. Pulning ijtimoiy ahamiyati – uning atrofdagi munosabatlarga, shaxsning rivojlanishga ta'sirini tushunish, o'smirlar uchun qiyinchiliklardan saqlanish va muvaffaqiyatga erishishda muhimdir.

Shuningdek, o'smirlar pulni faqat moddiy ahamiyatga ega manba emas, balki ijtimoiy ifoda va shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni belgilaydigan muhim resurs sifatida qabul qilishlari kerak. Bu, o'z navbatida, ularning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Umuman olganda, o'smirlarning pulga bo'lgan tasavvurlarini shakllantirishda ijtimoiy va psixologiyaviy omillarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar bu tasavvurlarni to'g'ri shakllantirish, o'smirlarning umumiy ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini dastaklashda muhim bir qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Капров Б.Ю. (2020). Психология финансового поведения подростков: факторы и мотивация. *Психология образования и воспитания*, 25(4), 42-56.
2. Ким Х. (2020). The impact of social environments on adolescents' financial perceptions. *Journal of Youth and Society*, 10(4), 103-118.
3. Лазарев В. (2018). Влияние семейных ценностей на формирование финансовых представлений у подростков. *Психология и семья*, 11(2), 78-85.
4. Миронова Т.Ю. Социально-психологические особенности экономической социализации подростков и юношей. Специальность: 19.00.05 – социальная психология. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. – Курск, 2013.
5. Полухина О.П. Психология денег как объект психологических исследований // Финансы России в условиях глобализации. Материалы IV Международной научно-практической конференции, приуроченной ко «Дню финансиста – 2019». — 2019. — С. 26-31.
6. Робертсон А. (2020). The role of socio-economic factors in adolescent financial socialization. *International Journal of Social Psychology*, 48(6), 150-165.
7. Смит М. (2019). Money attitudes and their development in adolescents: A psychological perspective. *Journal of Adolescent Psychology*, 45(2), 215-227.
8. Смирнова М.С. (2019). Социально-психологическое восприятие денег среди подростков. *Вестник психологии*, 18(3), 92-104.
9. Федоров С. (2019). Роль культуры и образования в формировании отношения подростков к деньгам. *Психология образования*, 34(3), 93-100.
10. Фролов Н.С. (2018). Психологические особенности восприятия финансов подростками. *Психология и экономика*, 22(1), 56-70.



Hashimova Gulsina Ismoyilovna,
Farg'ona davlat universiteti
Ijtimoiy ish kafedrası dotsenti
e-mail: ismoilovnagulihonim@gmail.com

HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIIY-HUQUQIY HIMOYA QILISHNING FAOL SHAKLLARI VA IJTIMOIIY-HUQUQIY HIMOYASI TIZIMI

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy ijtimoiy ishning huquqiy asoslari, harbiy ijtimoiy ish doirasidagi huquqiy ta'limga bo'lgan ehtiyoj, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi asosiy va eng qiyin muammo ularning huquqlarini qonun bilan ta'minlash bilan emas, balki harbiy xizmatchilarning huquqiy tayyorgarligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini etarli darajada ta'minlash ekanligi ta'kidlangan. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik, harbiy ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatilib, harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini amalga oshirishda ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash eng muhim shart ekanligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: huquqiy asos, huquqiy ta'lim, harbiy ish, ijtimoiy himoya, huquqiy normalar, imtiyozlar, ijtimoiy kafolatlar, davlat xavfsizligi, qonunchilik, harbiy huquq, vatanparvarlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые основы военно-социальной работы, необходимость правового воспитания в рамках военно-социальной работы, основной и наиболее сложной проблемой в области социальной защиты военнослужащих является не обеспечение их прав законом, но правовая подготовка и правосознание военнослужащих и подчеркивается, что это достаточное обеспечение правовой культуры. Показано, что сотрудничество с органами государственной власти и местного самоуправления в решении социальных проблем военнослужащих является одной из основных задач военно-социальной работы, а также выявлено, что обеспечение правовой и социальной защиты военнослужащих является важнейшей задачей. состояние реализации правовой культуры военнослужащих.

Ключевые слова: правовая база, юридическое образование, военная работа, социальная защита, правовые нормы, льготы, социальные гарантии, государственная безопасность, законодательство, военное право, патриотизм.

Annotation. In this article, the legal foundations of military social work, the need for legal education within the framework of military social work, the main and most difficult problem in the field of social protection of military personnel is not the provision of their rights by law, but the legal training and legal awareness of military personnel. and it is emphasized that it is sufficient provision of legal culture. Cooperation with state authorities and local self-government bodies in solving the social problems of military personnel is shown to be one of the main tasks of military social work, and it is revealed that ensuring the legal and social protection of military personnel is the most important condition in implementing the legal culture of military personnel.

Key words: legal framework, legal education, military work, social protection, legal norms, benefits, social guarantees, state security, legislation, military law, patriotism.

Kirish. Zamonaviy sharoitda mamlakati-mizda huquqiy va ijtimoiy davlat tamoyili davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni oshirish yo'lida mamlakatimiz qonunchiligining rivojlanishini oldindan belgilab beradi. Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish qonun ustuvorligining asosiy maqsadi bo'lib, uning samaradorligi, fuqarolarning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshirayotgan ijtimoiy siyosat bilan tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasining nazariy-huquqiy asoslari deyilganda, harbiy huquq tushunchasiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Harbiy huquq soha sifatida milliy qurolli kuchlarni tashkil etish, qo'shinlarning hayoti va faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuyi sifatida tavsiflanadi.

Maqsad va uni asoslash. Bugungi kunda O'zbekistonda insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoit yaratish fuqaroning o'zining sof shaxsiy ishi emas, balki milliy siyosat darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, armiyada amalga oshirilayotgan harbiy islohot tashqi siyosat va ichki ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari chaqiriqlariga javob berishga mo'ljallangan bo'lib, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, harbiy ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini zamon talabiga mos ravishda rivojlantirish, harbiy xizmatchilar turmushining farovonlik darajasini ko'tarishda qonun ustuvorligini ta'minlash davlat tomondan olib boriladigan ijtimoiy siyosatga bevosita bog'liq. Bunday siyosatning asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va "Harbiy xizmatchilarning maqomi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari jamiyat hayotining muhim bo'lagi bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizomlarning talablariga asoslanadi.

Harbiy huquq soha sifatida milliy qurolli kuchlarni tashkil etish, qo'shinlarning hayoti va faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuyi sifatida tavsiflanadi.

Harbiylar va ularning ijtimoiy himoyasi, shuningdek, vatanparvarlik, ma'naviyat masalasi qadimdan ijtimoiy fan vakillarining e'tiborida bo'lgan. IX–X asrda Beruniy, Al-Farobiy, Tabariy, Narshaxiy; XIV asrda Alisher Navoiy, Bobur; XIX asrda Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida ko'tarilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining shakllanishi, professional tizimga o'tish tarixi, harbiy vatanparvarlik tarbiya nazariyasi, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq sohalarda S.Y.Ahrorov, I.Y.Inoyatov, A.T.Zamonov, I.S.Saifnazarov, R.Y.Qurbonov, R.S.Samarov, K.X.Usmonov, N.J.Eshnaye'v, B.T.To'yuchiyev, U.S.Temirova, Z.Sh.Alimardonov, A.K.Redjaboyev¹ kabi faylasuf, huquqshunos, sotsiolog olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorij olimlaridan Ў.П.Юрченко "Институционализация военно-социальной работы в Вооружённых Силах Российской Федерации" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida [harbiylik kasbining o'ziga xos tomonlarini, harbiy ijtimoiy sohasini institutlashtirishni tahlillar asosida yoritib bergan. Rus harbiy nazariyotchisi Корякин В.М. "Правовые основы военно-социальной работы в Вооружённых Силах Российской Федерации." nomli dissertatsiya ishida esa harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini, umuman, harbiy tashkilotning asosiy ijtimoiy muammolarini tahlil qiladi va harbiy jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal qilishning asosiy yondashuvlarini asoslaydi. Harbiy ijtimoiy ishning murakkab, katta hajmli va o'ta muhim vazifasi harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasini amalga oshirishdan iborat. Bu esa harbiy xizmatchilardan huquqiy ta'lim yuksak darajada bo'lishini talab qiladi. Huquqiy ta'lim deganda, ularda chuqur va barqaror huquqiy g'oyalar, e'tiqod va tuyg'ularni shakllantirish, ularda yuksak

¹ Ватан ҳимояси – муқаддас бурч / Тузувчилар: Иноятлов И.Ю., Абилов М.Х. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 59 б.; Саифназаров И.С. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. – Тошкент: Мехнат, 1997; Тўйчиев Б.Т. Проблемы патриотического воспитания будущих офицеров на этапе становления независимого Узбекистана. – Ташкент, 1996. – 78 с.; Реджабоев А.К. Ёшларни миллий истиқлол ғояси асосида ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш (Ўзбекистон Республикаси Президенти, Республика Қуrollи Кучлари Олий Бош Қўмондони, академик И.А.Каримов асарларида илгари сурилган ҳарбий ватанпарварлик ғоялари асосида). Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 150 б.

huquqiy madaniyat, qonuniy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini shakllantirish maqsadida ularning ongi, hissiyotlari va psixologiyasiga maqsadli va tizimli ta'sir ko'rsatish tushuniladi². Harbiy ijtimoiy ish doirasidagi huquqiy ta'limga bo'lgan ehtiyoj, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi asosiy va eng qiyin muammo ularning huquqlarini qonun orqali ta'minlash bilan emas, balki harbiy xizmatchilarning huquqiy tayyorgarligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini etarli darajada ta'minlanishi bilan bog'liq. Huquqiy ta'limning asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarning har doim va hamma joyda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, Harbiy qasamyodni, Nizomlarni, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga qat'iy va aniq rioya qilishni bilishini va ularni amalga oshirishda faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat.

Huquqiy ta'lim o'z mazmuniga ko'ra quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- huquqlarini himoya qilish;
- harbiy xizmatchilarni huquq sohasida zarur bilimlar bilan qurollantirish;
- ularda qonunga hurmat, qonuniylik, ko'nikma, qonuniy xulq-atvor odatlarini shakllantirish;
- qonunlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, faol harakat qilishga tayyorligi va qobiliyati.
- harbiy xizmatchilarni huquq sohasida zarur bilimlar bilan qurollantirish;
- ularda qonunga hurmat, qonuniylikni shakllantirish;
- qonuniy xulq-atvor ko'nikmalarini, odatlarini singdirish;
- qonun buzilishiga murosasizlikni tarbiyalash;
- o'z huquqlarini faol himoya qilishga tayyorlik va qobiliyat.

Huquqiy ta'lim bilan chambarchas bog'liqlik harbiy ijtimoiy ishning yana bir vazifasi komandirlarga bo'ysunuvchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini o'rgatishdir³.

Qonun chiqaruvchi organlar tizimida mudofaa, xavfsizlik, faxriylar ishlari va ijtimoiy siyosat bo'yicha qo'mitalari harbiy xizmatchilarni ijtimoiy

himoya qilish muammolari bilan shug'ullanadi. Mudofaa tizimi ushbu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. U harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish uchun qonunchilik bazasini yaratishda asosiy rol o'ynaydi⁴.

Ijro etuvchi hokimiyat tizimida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish bo'yicha faoliyatni umumiy boshqarish hukumat tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy ijtimoiy ishlarni bevosita qo'shinlarda tashkil etishda etakchi rol harbiy qism komandiriga tegishli. O'ziga berilgan huquqlardan foydalangan holda va o'ziga yuklangan vazifalarni bajargan holda qism komandiri buyruqlar va harbiy boshqaruvning boshqa hujjatlarini chiqaradi, ular orqali harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshiradi. Shu maqsadda qo'mondon o'zi chiqargan aktlarda qonunlarning aniq ijrochilari va ularga nima buyurilganini ko'rsatadi, shuningdek, berilgan vazifalarni bajarish muddatlari va ularni amalga oshirishda bo'ysunuvchilarning harakatlari tartibini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash va uni takomillashtirish barcha darajadagi qo'mondonlarning (boshliqlarning) eng muhim vazifalaridan biridir. Bu qonunlar harbiy Nizomlar bilan belgilanadi va shaxsiy tarkibni tarbiyalash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini mustahkamlash, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi va jangovar qobiliyatini oshirishning zarur va muhim omilidir.

Demak, har bir qo'mondon qo'l ostidagilarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha aniq harakatlarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini aniq bilishi, shuningdek, bu harakatlar olib kelishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlardan xabardor bo'lishi kerak.

Qo'mondonlar va mansabdor shaxslarni rasmiy faoliyatning huquqiy asoslariga o'rgatishning samarali shakli huquqni qo'llash amaliyotini, xususan, harbiy sudlarning hukmlari va qarorlarini o'rganish hamda tahlil qilishdir. Harbiy-ijtimoiy ish holatini tekshirish natijalari, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish, shuningdek, ushbu faoliyatdagi eng yaxshi tajribalarni umumlashtirish natijalari bilan qo'shinlarga sharhlar tayyorlash va

² Корякин В. М. Правовые основы военно-социальной работы в Вооруженных Силах Российской Федерации. – Москва, 1998. – 257 с.

³ Тўйчиев Б.Т. Проблемы патриотического воспитания будущих офицеров на этапе становления независимого Узбекистана. – Ташкент, 1996. – 78 с..

⁴ Саифназаров И.С. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. – Тошкент: Мехнат, 1997.

muntazam ravishda tarqatish ham katta amaliy ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, har bir harbiy xizmatchi komandirlarning yoki boshqa harbiy xizmatchilarning o'ziga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlari, qonunlarda belgilangan huquq va imtiyozlar buzilganligi, shuningdek, o'z burchidan noroziligi to'g'risida shaxsan shikoyat qilishga haqli. Qo'mondon murojaatlarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va ular bo'yicha chora ko'rilishi uchun shaxsan javobgardir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilar hamda boshqa fuqarolarning ko'rsatmalari, xatlari, arizalari, shikoyatlari bajarilishi ustidan nazoratni yaxshi yo'lga qo'yish bilan harbiy ijtimoiy ish sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarning muhim manbayiga aylanadi.

Nazarimizda, ko'plab ijtimoiy muammolarni bevosita joylarda – harbiy qismlarda, qo'shinlarda va ko'pincha qo'shimcha moddiy resurslarsiz hal qilish mumkin, faqat yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida ochib, vaziyat o'zgarishiga sezgir munosabatda bo'lish zarur.

Ijtimoiy vaziyatni o'rganishda muammoni hal qilishning ahamiyati shundan iboratki, harbiy qo'mondonlik va nazorat organlari, ularning yuridik bo'linmalari ma'lum bir harbiy guruhning ijtimoiy muammolari to'g'risida obyektiv ma'lumotlarga ega bo'lib, ularni hal qilishning tegishli vositalarini topish uchun har doim ma'lum bir harbiy garnizonning, muayyan vaziyatda eng samarali shakl va usullarini ishlab chiqadi.

Biz harbiy ijtimoiy ish faoliyatida sotsiologik tadqiqotlarni qo'shinlardagi ijtimoiy vaziyatni o'rganishning yuqori samarali shakli, deb hisoblaymiz. Sababi sotsiologiya fanida mavjud bo'lgan barcha vositalar arsenalidan ijtimoiy ish faoliyatida foydalaniladi: so'roq qilish, individual suhbatlar, kuzatishlar, hujjatlarni o'rganish, davriy nashrlarning mazmunini tahlil qilish, mustaqil tavsiflarni umumlashtirish, ekspert so'rovi monitoringi va boshqalar.

Fikrimizcha, harbiy ijtimoiy ish tomonidan hal qilinadigan vazifalar orasida qo'shinlarda qonun-tartibot va harbiy intizom holatini tahlil qilish va ularni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish alohida o'rin tutadi. Chunki intizom, qonun va tartib orqali harbiy kiyimdagi fuqaroning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqlari amalga oshiriladi.

Armiyadagi ijtimoiy ta'minot, jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlik ishlarning holati jamiyat tomonidan baholanadigan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Armiyadagi jinoyatlar va huquqbuzarliklar nafaqat Qurolli Kuchlarga, balki butun jamiyatga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadigan eng xavfli beqarorlik omili, deb belgilanadi. Jamoat tashkilotlari va birlashmalari harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Shu sababli harbiy xizmatchilarning huquq va imtiyozlarini amalga oshirishda hamkorlikni yo'lga qo'yish va davlat institutlarining faoliyatini muvofiqlashtirish harbiy ijtimoiy ish muammolarning ajralmas qismidir.

Qurolli Kuchlardagi jamoat tuzilmalari, armiya hayotini tartibga soluvchi Nizomlarga muvofiq harbiy xizmatchilarning turli manfaatlarini amalga oshirish vositasi sifatida vujudga kelgan, mustaqil, o'zini o'zi boshqaradigan ixtiyoriy birlashmalar bo'lib, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, jangovar tayyorgarligini oshirish manfaatlaridan kelib chiqib, o'z a'zolarining faolligi va ijtimoiy himoyasi davlat hokimiyati hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadi⁵.

Nazarimizda, harbiy ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri harbiy xizmatchilarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikdir.

Harbiy ijtimoiy ish hal qilishga chaqiriladigan vazifalar qatorida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining shikoyatlari, arizalarini ko'rib chiqish, aniq ijtimoiy va huquqiy muammolarni hal qilish uchun harbiy xizmatchilarga individual psixologik, huquqiy, moddiy yordam ko'rsatiladi.

- Harbiy xizmatni o'tashda qiynalayotgan harbiy xizmatchilarga, fuqarolik xizmatchilariga muassasalari va korxonalarida xizmat vazifalarini bajarishda ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish.

- Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, fuqarolik xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini oshirish, harbiy va mehnat jamoalarida salbiy omillarga o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish, ulardagi nervopsixik stressni kamaytirish.

Qurolli Kuchlardagi ofitserlarning doimiy faoliyatdagi jamoat tashkiloti. Ular brigadalarda, alohida bo'linmalarda tuziladi. Ofitserlar uchrashuvlari ofitserlar jamoasidagi munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi:

⁵ Иноятлов И.Ю. Харбий хизматнинг маънавий ва ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 56.

- ofitser sha'ni va qadr-qimmatiga rioya qilish to'g'risida;
- ofitserning eng yaxshi an'alarini qayta tiklash;
- yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, umumiy va harbiy madaniyatni yuksaltirish;
- moddiy va maishiy masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish;
- ofitserlar va ularning oila a'zolarining madaniy hordiq chiqarishini tashkil etish.

Ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilarning huquqiy holatini amalga oshirishning eng muhim sharti ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlashdir.

Harbiy xizmatchilar uchun qonun huquqiy va ijtimoiy himoya qilishning yagona tizimini, shuningdek, ular egallab turgan harbiy lavozimlarni, harbiy unvonlarni, harbiy xizmatning umumiy davomiyligini, shu jumladan, harbiy xizmatni hisobga olgan holda moddiy va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlash tizimini belgilaydi.

Armiyada harbiy ijtimoiy xodim rolini bo'linma komandirining tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari bajaradi. U ijtimoiy ish va huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy ishlarning holati va tashkil etilishi, harbiy intizomni mustahkamlash va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgardir. Harbiy qismning ijtimoiy ish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha xodimi:

– harbiy va fuqarolik xodimlari o'rtasidagi ijtimoiy jarayonlarni o'rganadi, salbiy ijtimoiy hodisalarning oldini olish bo'yicha qo'mondonga takliflarni ishlab chiqadi va amalga oshirishda ishtirok etadi;

– harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, fuqarolik xodimlarining ehtiyojlari, so'rovlarini

bilishi, bu haqda komandirini xabardor qilishi va boshqa mansabdor shaxslar bilan birgalikda ijtimoiy va maishiy muammolarni o'z vaqtida hal etish choralari ko'rishi shart;

– komandirining yuridik ishlar bo'yicha yordamchisi bilan birgalikda shaxsiy tarkibni huquqiy tarbiyalashda, unda intizom va itoatkorlikni shakllantirishda, qo'mondonlik birligini mustahkamlashda ishtirok etadi;

Yakuniy qism. Zamonaviy sharoitda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining manfaatlarini to'liqroq hisobga olish, ular bilan samarali faoliyat yurituvchi ijtimoiy ish institutini tashkil qilish talab etiladi. Shundagina harbiy xizmatchilar o'z harbiy burchini yanada faol va qiziqish bilan bajarishlari mumkin bo'ladi.

Harbiy ijtimoiy ishning huquqiy asoslari harbiy xizmatchilarning asosiy huquq va erkinliklarini, ularni barcha turdagi nafaqalar, imtiyozlar va kompensatsiyalar bilan qondirishni ta'minlaydigan qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan huquqiy normalar majmuyini tashkil qiladi. Qonunlar harbiy xizmatchilarning haqiqiy holatini emas, balki uning ideal mazmunini, qonun chiqaruvchi u yoki bu normativ hujjatni qabul qilishda nimaga intilishini aks ettiradi. Demak, Qurolli Kuchlar jamiyat hayotining muhim bo'lagi hisoblanib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy bo'g'indir. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizolarning talablariga asoslanadi. Harbiy huquq soha sifatida milliy qurolli kuchlarni tashkil etish, qo'shinlarning hayoti va faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuyi sifatida tavsiflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Иноятов И.Ю. Ватан химояси – муқаддас бурч. – Тошкент: “Шарқ”, 2001. – Б. 176.
2. Иноятов И.Ю. Ҳарбий хизматнинг маънавий ва ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 56.
3. Корякин В.М. Правовые основы военно-социальной работы в вооруженных Силах Российской Федерации. Москва, 1998. – 257 с.
4. Тўйчиев Б.Т. Проблемы патриотического воспитания будущих офицеров на этапе становления независимого Узбекистана. – Ташкент, 1996. – 78 с.
5. Саифназаров И.С. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. – Тошкент: Мехнат, 1997. – Б. 167.



Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna,
Nizomiy nomidagi TDPU "Amaliy psixologiya"
kafedrasi dotsenti, ps.f.f.d. (PhD)

PEDAGOGLAR FAOLIYATIDA POZITIV FIKRLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglar faoliyatidagi pozitiv fikrlash, pozitiv kayfiyat va bugungi kundagi zamonaviy pedagoglar faoliyatidagi o'z-o'ziga bo'lgan munosabat tushunchalari yoritilgan. Mualliflar tomonidan pozitiv fikrlashning salomatlikka ta'siri hamda kundalik hayotda pozitiv fikrlashning ish faoliyatida muvafaqqiyatga erishish bilan bog'liq masalalari ham yoritilgan. Shu bilan birga, shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini anglash va boshqalarga nisbatan optimistik hayrihohlik munosabati, faoliyat va kundalik hayot muammolarini muvafaqqiyatli hal qilish bilan bog'liq fikrlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: pozitiv fikr, ichki farovonlik, barqaror salomatlik, muvafaqqiyatli ijodiy faoliyat, optimism va pessimizm, muvafaqqiyatsizlik sababi, me'yordan ortiq kasbiy kuyunchaklik, qo'rquv va vahima.

Аннотация. В данной статье описаны понятия позитивного мышления, позитивного настроения и самооценки в работе современных педагогов. Авторы также затронули влияние позитивного мышления на здоровье и вопросы, связанные с успехами в работе. В то же время присутствуют идеи, связанные с личностным и профессиональным самосознанием и оптимистическим доброжелательностью по отношению к другим, деятельности и успешному решению повседневных жизненных задач.

Ключевые слова: позитивное мышление, внутреннее благополучие, стабильное здоровье, успешная творческая деятельность, оптимизм и пессимизм, причина неудач, чрезмерный профессиональный энтузиазм, страх и паника.

Annotation. This article discusses the concepts of positive thinking, positive mood, and self-esteem in the work of today's educators. The authors also discuss the impact of positive thinking on health and the role of positive thinking in everyday life in achieving success in work. At the same time, they present ideas related to personal and professional self-awareness and an optimistic and benevolent attitude towards others, successful resolution of work and everyday life problems.

Keywords: positive thinking, inner well-being, stable health, successful creative activity, optimism and pessimism, the cause of failure, excessive professional enthusiasm, fear and panic.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichi fuqarolik jamiyatining jadal shakllanishi, maqsadli rivojlanishi, mamlakat hayotida turli sohalar faoliyatining sifat jihatidan yangi darajaga erishishi bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor

qaratilayotganining ahamiyati beqiyos. Pedagog o'z faoliyatida ilmiy-texnika taraqqiyotining ishonchli, ilg'or yutuqlaridan foydalanib, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashga davat etadi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda pedagog nafaqat kasbiy kompetentli bo'lishi, balki yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish, baholash, o'z o'quvchilariga samarali

psixologik yordam berish va qo‘llab-quvvatlash, pozitiv fikrlashda shaxsiy namuna bo‘lish, voqealarni obyektiv baholash asosida pozitiv fikrlay olishi kerak. O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati va talablari ta‘lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat‘iy talablarini qo‘ymoqda. Zero, “... bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma‘naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi”. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy oliy ta‘lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni shaxsiy insonparvar yondashuv tamoyili asosida tashkil etilishi hamda bo‘lajak pedagoglarda yangicha pozitiv innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

Shunday qilib, pozitiv fikrlashni inson hayotining asosi deya e‘tirof etgan holda, uni majburiy ijodiy xarakterga ega deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, ommaviy ongda bu ibora hali birmuncha ommalashgan xarakterga ega ekanligini qayd etish o‘rinli. Ko‘pincha bu holat o‘rganilayotgan hodisa va hayotiy voqelikni haqqoniy idrok etish, hayot qiyinchiliklarini inkor etish va boshqalar sifatida talqin qilishga olib keladi. Shuningdek, teran va keng qamrovli pessimizm sog‘likka hech qanday zarar ko‘rsatmaydi, chunki azob-uqubatlar muhim ishlar manbayi, shuning uchun u kuchlarni faollashtiradi va ixtirochilikka undaydi, degan fikr ham bor.

Maqsad va uni asoslash. Pozitiv fikrlash muammosini ko‘plab olimlar tadqiq etishgan, jumladan G.S.Uliskaya, T.O.Gordeeva, V.Bobriskaya, N.B.Kuklina, N.V.Pil, T.G.Guruleva, Ye.A.Burkova, O.V.Shevchishena, J.V.Siderenko va boshqalar. Pozitiv fikrlash – ichki keskinlikni pasaytirib, ichki ziddiyatlar kelib chiqishini imkonsiz qiladi, insonga o‘z hissiy holatini nazorat qilish, o‘z ehtiyojlari va istaklarini nazorat qilish va tartibga solish imkonini beradi, psixologik qiyinchiliklar, kasbiy kuyunchaklikning rivojlanishini psixosomatik kasalliklardan ogohlantiradi. Pozitiv fikrlash har qanday insonning psixologik farovonligi, jismoniy salomatligi va umumiy farovonligini ta‘minlashning asosiy shaxsiy vositasidir. Pozitiv fikrlash bu bir insonning nimani xohlamasligi emas, balki haqiqatan

nimani xohlashi haqidagi fikrdir. Pozitiv fikrlash insonning o‘z fikrlarini ongli ravishda nazorat qilishi va salbiy hukm, fikr va hissiyotlarga berilib ketmaslikka yo‘l qo‘ymasligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, u o‘ziga, yakuniy muvaffaqiyatga ishonadi va har qanday sharoitda optimist bo‘lib qoladi. Pozitiv fikrlash – shaxsning pozitiv “Men” konsepsiyasi uchun belgi va asos bo‘lib, o‘zida shakllantirishi va rivojlantirishi mumkin bo‘lgan shakllangan va rivojlangan ko‘nikmalar majmuyidir. Pozitiv fikrlash qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi boshlanishida inson o‘zida irratsional fikr va stereotiplarga ega bo‘lish haqiqatini ongli ravishda idrok etishi kerak bo‘ladi.

T.O.Gordeeva, umuman, fikrlash shaxs tuzilmasida markaziy o‘rinni egallashi, uning xatti-harakatlarini aniqlashi, voqealar rivojini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini ko‘rsatishini ta‘kidlaydi.

Pozitiv fikrlashni shakllantirish jarayoni hayotga ijodiy munosabat, o‘z mulohazalari va hissiyotlarini ongli ravishda nazorat qilish, kichik narsalardan quvonch topish, qiyin vaziyatlarni hal qilishda qo‘rquv va vahimaga berilmaslik, o‘z kuchiga ishonish, muvaffaqiyatga erishish nuqtayi nazari va imonini saqlab qolishdan iborat.

V.Bobriskayaning ta‘kidlashicha, salbiy fikrlash psixik va ichki ziddiyatlarning kuchayishi, muammoli vaziyatlarga stereotipik reaksiyalarning shakllanishi, muammolarni destruktiv yo‘llar bilan hal qilishga moyillik, shuningdek, psixosomatik darajadagi sog‘liq buzilishiga olib keladi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish muallifga salbiy fikrlovchi pedagogning psixologik portretini ochib berish imkonini berdi. Shunday qilib, bunday mutaxassis kundalik voqelikning pozitiv jihatlariga diqqatni qarata olmaydi, o‘zi va atrof-muhit bilan uyg‘unlikka intilmaydi, hissiy begonalashuvga moyillashib, pozitiv va salbiy emotsiyalarni aniq ajrata olmaydi, kechirishga qodir bo‘lmaydi va buni xohlamaydi, kundalik hayotning haqiqatlarini salbiy prizma orqali qabul qilishga moyil bo‘ladi. Tajribali pedagogning tafakkurini tuzatish o‘z-o‘zini refleksiylash madaniyatining pastligi, o‘z-o‘ziga yuqori baho berish va jizzaki xarakter xususiyatlarining mavjudligi tufayli qiyin bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, pedagogning innovatsion tafakkurini rivojlantirish darajasining pastligi intellektual va ijodiy salohiyatdan noadekvat foydalanishga zamin yaratadi. O‘z navbatida,

pozitiv fikrlash psixikaning sog'lomlashishi, psixoenetrik salohiyatni to'plash, shaxsning o'z-o'zini takomillashtirishi, o'z-o'zini tartibga soluvchi vositalar va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini konstruktiv yo'llar bilan kengaytirish imkonini beradi.

N.B.Kuklina, mohiyatan, pozitiv fikrlashni optimizm tushunchasi bilan bog'lash orqali ochib beradi, bu esa, o'z navbatida, insonning baxt va kelajakka bo'lgan ishonchini ifodalaydi. Bu jihatdan olim hayot uchun o'z mas'uliyatini taqdir irodasiga o'tkazadigan odamlarni, o'z hayoti va xulq-atvorini o'zi boshqarishga ishonadiganlarni farqlashni taklif qiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

N.V.Pil tadqiqotlariga ko'ra, pozitiv fikrlash deganda insonning qanday fikrlashi, nimani o'ylayotgani, nimaga ishonchi komilligi, o'zini qanday his qilayotganini tushunish nazarda tutiladi.

I.A.Karpova amerikaliklarning lisoniy ongida pozitiv fikrlashni o'rganib chiqqach, bu hodisa mavjud vaziyatda zarur resurslarni topishga qaratilgan yuqori faollikni ta'minlaydigan evolyutsion mulk sifatida qaralishi mumkin, deb hisoblaydi. Bu ma'naviy, yuksak va tegishli dunyoqarash, tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash bilan bog'liq quvonchlarni izlashda namoyon bo'ladi. Agar kishi dunyoga ochiq ko'z bilan qarasa, o'ziga ishonsa, ijobiy fikr yuritsa, u muvaffaqiyatsizlik holatida umidsizlik va tushkunlikka tushmaydi. Ijobiy tafakkurning ildizida insonning kelajak haqidagi mulohazalari turadi, agar inson oldindan ko'ra boshlasa, u paydo bo'ladi.

T.N.Slobodyan pozitiv fikrlashni individual fikrlash sifati deb hisoblaydi, bu esa, o'z navbatida, muammoli masalalarni hal qilishning maqbul yo'llarini topishda shaxsning ijobiy-optimistik yo'nalganligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, olim bu hodisani atrof-dagi voqelikning muhim xususiyatlari, yuzaga kelayotgan hayot muammolarini hal qilish yo'llarini oldindan biladigan, insonning faol bilish va ijtimoiy harakatlarini amalga oshirishga tayyorligi orqali olamni idrok etish va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi sifatida tasvirlash mumkinligini qayd etadi.

K.Fridmutter pozitiv fikrlash har doim insonning o'z baxti uchun shaxsiy mas'uliyatga asoslangan, deb hisoblaydi. Farovonlikning eng muhim omillari

har bir inson ichidadir. Insonning ichki dunyosi qanchalik barqaror va ishonchli bo'lsa, shuncha yaxshi. Bu holatdagi odamlarga tashqi omillar ta'sir qilish juda qiyin. N.B.Pravdinaning tadqiqotlariga ko'ra, bugungi kunda yagona axborot makoni vaziyatida nafaqat kattalar, balki o'smirlar va bolalar ham quvonch va optimizm yetishmovchiligini his qilmoqda. Odatda, odamlarning o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonchi kamayib, pessimizm o'sishi kuzatilmoqda, depressiv holatlar dolzarblashmoqda. Emotsional doirada charchoq, tushkunlik, loqaydlik va chorasizlik tuyg'ulari ustunlik qilmoqda. Televideniye va internet vositalari orqali kirib kelayotgan salbiy axborotlar girdobida g'azab va norozilik sezilarli darajada oshib bormoqda. Ushbu omillar xavotirli tafakkurga ega insonni tarbiyalashga xizmat qiladi, ularga atrof-muhitni salbiy qabul qilish xos bo'lib, shaxsiy resurslarini hayotiy barqarorlik, kayfiyati, psixologik sog'iligi va faollik manbalarini yaxshilashga undaydi. Pozitiv tafakkur, o'z navbatida, istalgan kelajakni amalga oshirish yo'lidagi har qanday to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. "Inson tafakkurini shakllantirish uzoq muddatli va murakkab jarayon" ekanligini ta'kidlagan psixolog-olim E.G'.G'oziyev quyidagi fikrni keltirib o'tadi: "Axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar bolaning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, shaxs dunyoqarashini tubdan qayta qurish, tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish masalasiga alohida e'tibor berish zarur". Shu sababli bugungi kunda pedagoglar oldiga yuqori mas'uliyat hamda ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda o'z o'quvchilarining axloqiy tarbiyasi bilan ham mas'ul ekanliklari haqida ta'kidlab o'tilmoqda. T.G.Guruleva o'rganilayotgan tushuncha ma'nosini izohlab, u o'z mohiyatiga ko'ra biror-bir kishining pozitiv g'oyasini aks ettirishi, bu unga o'z hayotini o'zgartirish, to'g'rilash, istiqbol haqida ijobiy o'ylash imkonini beruvchi kuch va qobiliyatlarini aks ettirishini ta'kidlaydi. E.A.Burkova fikriga ko'ra, inson hayot faoliyatining asosi madaniyatning emotsional-pozitiv asosi bo'lgan ijobiy fikrlash tamoyili bo'lsa, jamiyat rivojlanishi mumkin. Bu hodisani o'rganish insonni axloqiy va estetik mazmunga tayangan holda o'zini to'laroq namoyon eta oladigan madaniyat subyekti sifatida chuqurroq anglash imkonini beradi. Ijobiy yoki salbiy fikrlash atrof-muhitni bilishdagi ikki turli qarash, ikki nuqtain nazar, ikki usuli sifatida optimizm va pessimizmga asoslanadi:

– pessimizm – qora ko‘zgu orqali qarash, barcha yuz berayotgan hodisalarda faqat salbiy jihatlar ko‘riladi;

– optimizm – insonga, asosan, pozitiv idrok etish imkonini beruvchi qarash. Shu bilan birga, optimizmni hayot mazmuni bilan birlikda insonga tegishli bo‘lgan muayyan jamiyatda zavq, lazzatlanish, muvaffaqiyat, tan olish deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

O.V.Shevchishena tadqiqot natijalariga asoslanib, zamonaviy pedagogning fikrlashi hayot va kasbiy sharoitlarning ustunligi bilan emas, balki o‘z fikrlarini nazorat qilish istagi bilan ajralib turishi kerak, degan xulosaga keldi. Pedagogning salbiy fikrlashi uning ruhiyatini ancha susaytiradi, o‘zini-o‘zi ayblashga, o‘zini-o‘zi yo‘q qilishiga olib keladi. Pedagogning ijobiy fikrlashga ustaligi emotsional o‘z-o‘zini tartibga solish va emotsional holatni barqarorlashtirishga yordam beradi. O‘qituvchining pozitiv fikrlashi kasbiy faoliyatda ham, kundalik hayotda ham muhim voqealar ustidan samarali nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

T.Yu.Artyuxovaning ta’kidlashicha, pozitiv fikrlash aqliy munosabat bo‘lib, inson o‘zi uchun pozitiv natijalarni kutadi. Pozitiv fikrlashning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- kundalik stressni kamaytiradi;
- tegishli kasalliklar xavfini qisqartiradi;
- muvozanatli o‘z-o‘ziga ishonchni oshiradi;
- hayot farovonligini anglashning yuqori darajasini baxsh etadi;

– kommunikabellikning muvozanatli darajasini oshiradi.


J.V.Sidorenko tomonidan olib borilgan tadqiqot muammolari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning nazariy va uslubiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, pozitiv tafakkur tushunchasi XX asrning oxirida psixologiya fanining amaliyotiga kiritilgan.

Yakuniy qism. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pozitiv fikrlashni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi, deb xulosa qilish mumkin, chunki bu hodisa atrofdagi voqelik va dunyoqarashga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish, emotsiyalarni boshqarish jarayonini sezilarli darajada optimallashtirish, inson faoliyati, shu jumladan, ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ilmiy-amaliy ishlarda bu yo‘nalishda empirik tadqiqotlar hamda ijobiy fikrlashni o‘rganishga turli yondashuvlarning mavjud emasligi kuzatilmoqda. Shunday qilib, ayrim olimlar bu hodisaning mohiyatini insonning atrofdagi voqelikka konstruktiv va ijobiy munosabati orqali ko‘rib chiqish pozitsiyasiga rioya qiladilar, boshqalari esa fikrlarning hayotga jismoniy ifodasi haqidagi qoidalarni shakllantiradilar. Pozitiv tafakkurni insonning obyektiv voqelikni noreal idrok etish prizmasi orqali talqin qiluvchi tadqiqotchilar ham bor. O‘z mohiyatiga ko‘ra, pozitiv tafakkur voqelikning emotsional, ijodiy, realistik in’ikosi resurslariga tayanadi. Ushbu asos kundalik hayotda muammoli vaziyatni o‘zlashtirishda o‘zgaruvchan yondashuv, moslashuvchanlik va samaradorlik, hissiy va realistik fikrlarni amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni.
2. Артюхова Т.Ю. Роль и значение позитивного мышления в жизнедеятельности человека. // Проблемы теории и практики современной психологии. Всероссийской (с международным участием) научно-практической конференции. 2016. – С. 143-145.
3. Бобрицкая В. Мышление и здоровье человека: размышления о положительном, критическом и негативном мышление. // Психолог. – №12, 2004. – С. 11–16.
4. Буркова Е.А. Позитивное мышление как ресурс сохранения психологического здоровья человека. // VI Международная научно-практическая конференция «Психологическое здоровье человека: жизненный ресурс и жизненный потенциал». – 2019. – С. 62-70.
5. Гордеева Т.А. Оптимистическое мышление студента как составляющая личностного потенциала. // Психологическая диагностика. – №2, 2006. – С. 42-50.

6. Гурулева Т.Г. Значение формирования позитивного мышления с целью улучшения физического здоровья. // Научный альманах. Учредители: ООО «Консалтинговая компания Юком». – Тамбов, 2020. – С. 58-60.
7. Karimova V.M. Mustaqil fikrlash. – Toshkent: Sharq, 2000.
8. Карпова И.А. Концепт «позитивное мышление» в американском языковом сознании: понятийная, образная и ценностная составляющие. // Сборник материалов научной сессии по итогам выполнения научно-исследовательской работы на факультет иностранных языков Московского педагогического государственного университета за 2008–2009 гг. – Москва: Изд-во «Прометей», 2009. – С. 48-51.
9. Кашицына Ю.Н. Позитивное мышление в системе социальных и профессиональных отношений. // Геопатогенные зоны и здоровье подрастающего поколения. – Уфа: РИЦ Баш-ГУ, 2014. – С. 122-129.
10. Куклина Н.Б. Позитивное мышление развивающейся личности как социокогнитивный фактор духовной жизни общества. // Развитие личности в системе непрерывного образования: Тезисы докладов 11 международной конференции. Часть вторая. – Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2000. – С. 167-169.
11. Мацко Л.А. Позитивное мышление как возможность улучшения психологического здоровья молодежи технического вуза. – М, 2005. – С.67-71.
12. Пил Н.В. Новое позитивное мышление. – Минск: Попурри, 2014. –159 с.
13. Правдина Н.Б. Азбука позитивного мышления. – Москва: «ОЛМА Медиа Групп», 2007. – 182 с.
14. Сидоренко Ж.В. Позитивное мышление: сущность и история понятия. // Аллея науки, 2015. – С. 301-308.
15. Слободян Т.Н. Техника позитивного мышления – рефрейминг. // Студенческая практика - основа будущего профессионализма. Крымский федеральный университет имени В.И. Вернадского в г. Армянске. 2018. – С. 144-149.
16. Улицкая Г.С. О дефиниции понятия позитивное мышление. // Педагогика и психология профессионального образования. – №3, 2010. – С. 53-59.
17. Фридмуттер К. Сила позитивного мышления: используй энергию подсознания для счастливой жизни. – Москва: Эксмо, 2020. – 302 с.
18. Хилл Н. Ключи к позитивному мышлению: 10 шагов к здоровью, богатству и успеху. – Москва: Диля, 2007. – 186 с.
19. Шевчишена О.В. Позитивное мышление и эмоциональная саморегуляция учителя в контексте профессиональной деятельности. // Проблемы образования. – К: Хмельницкий областной институт последипломного педагогической образования, 2001. – Вып. 22. – С. 279-285.
20. 20. G‘oziyev E. G‘. Tafakkur psixologiyasi – Toshkent: Universitet, 1990. – 76 b.



Mahkamova Dilfuza Baxtiyarovna,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
"Xodimlar bilan ishlash" boshqarmasi boshlig'i

XOTIN-QIZLAR PROFESSIONAL IJTIMOY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Xizmatga moslashish deganda, biz yangi tayinlangan xodim, uning aqliy faoliyati va xulq-atvori mehnat muhiti qoidalari va talablariga muvofiq shaxsiy rivojlanishini nazarda tutuvchi professional muhit o'rtasida faol va uyg'un o'zaro munosabatlarni o'rnatishni tushunamiz. Davlat xizmatiga xos bo'lgan yuqori nevropsixik stress, ko'p qirrali vazifalar hamda vaqt yetishmasligi xodimning moslashuvchan resurslariga yuqori talablarni qo'yadi. Shu munosabat bilan, davlat xizmatlari xodimlari yangi avlodining psixologik xususiyatlarini o'rganish davlat xizmatlarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash va saqlash, moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ularning innovatsion fazilatlarini tushunish zarurati bilan belgilanadi. Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga moslashishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni tadqiq etish bugungi kunda ayollarning faol "karyeraviy o'sish" elementlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: integratsiya, shaxslararo munosabatlar, moslashuv, davlat xizmatlari, internallik.

Annotation. By adaptation to the service, we understand the establishment of active and harmonious interaction between the newly appointed employee and the professional environment, which involves the personal development of his mental activity and behavior in accordance with the rules and requirements of the working environment. Adaptation of women to public services is a multifaceted process, the study of which is of great importance today in determining the elements of active "career growth" of women. The high neuropsychic stress, multifaceted tasks and lack of time inherent in the civil service place high demands on the employee's flexible resources. In this regard, the study of the psychological characteristics of the new generation of public service employees is determined by the need to understand their innovative qualities in order to strengthen and maintain the personnel potential of public services and effectively use financial opportunities. The article analyzes the results of empirical research on this problem.

Key words: integration, interpersonal relations, adaptation, public services, internality.

Аннотация. Под адаптацией к службе мы понимаем установление активного и гармоничного взаимодействия вновь назначенного работника с профессиональной средой, что предполагает личностное развитие его психической деятельности и поведения в соответствии с правилами и требованиями рабочей среды. Адаптация женщин к государственной службе – многогранный процесс, изучение которого имеет сегодня большое значение при определении элементов активного «карьерного роста» женщин. Высокая нервно-психическая нагрузка, многогранность задач и нехватка времени, присущие государственной службе, предъявляют высокие требования к гибким ресурсам работника. В связи с этим исследование психологических особенностей нового поколения работников государственной службы определяется необходимостью понимания их инновационных качеств в целях укрепления и поддержания кадрового потенциала государственной службы и эффективного использования финансовых возможностей. В статье анализируются результаты эмпирических исследований по данной проблеме.

Ключевые слова: интеграция, межличностные отношения, адаптация, государственные услуги, интернальность.

Kirish. Jahonda mahalliy boshqaruvning barcha darajalarida ayollar va erkaklar teng huquqligi uchun doimiy qoidalarni joriy etish ortib bormoqda. Mehnat bozori hamda iqtisodiy hayotning barcha sohalarida erkak va ayollarning muvozanatli ishtiroki, siyosiy va hukumat qarorlarini qabul qilishda xotin-qizlar ulushini oshirish jadallashmoqda¹. Bugungi kunda davlat xizmatlarida ayollarning 11,3 foizi yetakchi, 9,8 foizi esa hukumat boshliqlari hisoblanadi. Ayollar siyosatning boshqa muhim yo'nalishlarida atrof-muhit muhofazasida 32%, davlat boshqaruvida 30%, ta'limda 43% ayollar yetakchilik qilmoqda². Davlat xizmatlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, siyosiy qarorlarni qabul qilishda ularning ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan mexanizmni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda xotin-qizlarning davlat ishlarida ishtirok etish huquqini ta'minlash bo'yicha so'nggi xalqaro tadqiqotlar globallashib borayotgan dunyoning murakkab muammolarini hal etishda ayollar iste'dodidan foydalanish jamiyatga naf keltirishini tasdiqlamoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlarning borligi yangicha urg'u va yangi masalalarning siyosiy kun tartibiga kiritilishiga olib keladi. Siyosiy qarorlarni qabul qilishda gender muvozanatini yaxshilash orqali ish unumdorligini oshirish, samarali natijalarga erishish mumkinligi isbotlanmoqda. Xotin-qizlarni davlat xizmatlarida faoliyat yuritishi, ularning mehnat maskanlariga moslashishi hamda samarali mehnat natijasiga erishishga oid muammolarni ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tadqiq etish zaruratini ilgari surmoqda. Moslashuv murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida uni ko'rib chiqishga turli yondashuvlar asosidagi konseptual asosning mazmuniga ma'lum talablarni qo'yadi. Birinchidan, "moslashish" tushunchasining mazmunini aniqlash kerak, chunki turli mualliflar bu bilan moslashish predmeti va adaptogen vaziyatdagi o'zgarishlarning turli tomonlarini nazarda tutadilar. Shunga asoslanib, nafaqat tashkilot va korxonalar rahbarlarining, balki xodimlarning martabasi rivojlanishining ushbu bosqichida boshqaruv moslashuvi muammosini hal

¹ <https://online.zakon.kz/>

² <https://eca.unwomen.org/ru/stories/novosti/2023/04/zhenschiny-u-vlasti-v-2023-godu-novye-dannye-pokazyvayut-progress-no-bolshie-razryvy-v-dannykh-po-regionam>

qiladigan menejerlarning shaxsiy fazilatlarini ko'rib chiqish muhimdir.

Maqsad va uni asoslash. Moslashuv tahlili ushbu murakkab hodisaning barcha o'lchovlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bunday asosiy o'lchovlar sifatida biz moslashishni yangi shakllanishlarni (aqliy sifatlarni) shakllantirish jarayoni, natijasi va asosi sifatida ko'rib chiqishga qaratamiz.

Moslashuvning protsessual jihati, birinchi navbatda, uning vaqtinchalik xususiyatlarini – moslashuvning uzunligi va bosqichlarini aniqlashga asoslanadi. Ushbu yo'nalish doirasida moslashuv jarayonining asosiy elementlari aniqlangan, yagona mantiqiy hamda vaqt ketma-ketligiga bog'langan. Shu bilan birga, psixologik nazariya va amaliyotning turli sohalarida (ijtimoiy moslashuv bosqichlaridan moslashuvning psixofiziologik mexanizmlarigacha) moslashuv jarayonining turli jihatlarini o'rganilgan. Moslashuvning samarali jihati an'anaviy ravishda, umuman, adaptiv jarayonlarning muvaffaqiyatini baholashda asosiy element sifatida qo'llanadi, shuning uchun samarali mezon eng oddiy dixotomiyadan (moslashish – noto'g'ri adaptatsiya) moslashish fenomenining ko'pgina zamonaviy tasniflari uchun asosdir. A.N.Jmirikov tasnifiga muvofiq faoliyatning chiqish parametrlarining mezonlari, shaxsning mikro va makro muhit bilan integratsiyalashuvi darajasi, shaxsiy potensialni ro'yobga chiqarish darajasi hamda farovonlikning hissiy foni, moslashuv natijalarining to'rt darajali shkalasida asoslanadi³.

Moslashuvning yakuniy natijalarini tizimlashtirishni taklif qiladigan so'nggi ishlarimizdan biri ikki o'lchovli tavsifini o'z ichiga oladi⁴. Ijtimoiy moslashish modelining ortogonal o'lchovlari sifatida, insonning haqiqiy xatti-harakatlarining ijtimoiy muhit talablariga ("tashqi mezon" deb ataladigan) muvofiqligi, shuningdek, tahdid hissi yo'qligi va shaxsiy qulaylikka erishish ("ichki mezon" deb ataladigan) taklif etiladi. Moslashuvni ko'rib chiqish aspekti, uning davomida turli xil yangi qirralarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir tarzda ilgari aniqlangan ikkita yondashuvni (protsessual va samarali) birlashtiradi. Yangi shakllanishlar

³ Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПбГУ. Сер. Экономика, философии, психологии, права. 1995. – №3. – С. 74-79.

⁴ Психология менеджмента / Под ред. Г.С.Никифорова. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 1997.

yig'indisi nafaqat moslashuv subyektidan olingan va ishlab chiqilgan ko'plab bilimlar, ko'nikmalar, balki kasbiy va ijtimoiy muhit bilan shaxslararo o'zaro munosabatlarning murakkab tizimini ham o'z ichiga oladi⁵.

K.Lorensning evolyutsion-genetik konsepsiyasiga muvofiq inson naslining yashashi va moslashishi jarayonida kollektivizm, qurbonlik, axloqiy me'yorlar kabi shaxsiy xususiyatlar, lekin eng avvalo agressiya shakllanadi⁶. Evolyutsiya, genetika va inson xulq-atvori bo'yicha ko'plab empirik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda adaptiv jarayonlar zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq namoyon bo'ladigan va mustahkamlangan genetik dasturlar, "tabiiy moyilliklar" asosida rivojlanadi.

Agressiyaning moslashuvchan tabiati haqidagi tezis amaliy jihatdan ham (zamonaviy sivilizatsiya agressiya-raqobatli o'zaro ta'sirni ijtimoiy moslashuv xavfi yuqori bo'lgan hayot strategiyasi sifatida rivojlantiradi), nazariy jihatdan ham tasdiqlanmagan.

Bizning fikrimizcha, o'z-o'zini identifikatsiya qilish tamoyiliga amal qilish, birinchi navbatda, moslashish jarayoni subyektini faoliyatining rolini kamaytirish orqali (asosan, adaptiv reaksiyalar bosqichida) moslashuv rasmini biroz yomonlashtiradi. Inson individualligining turli darajalarida moslashuv subyektidan tomonidan shakllangan yangi o'zgarishlarni aniqlash uning rivojlanishidagi moslashish jarayonini to'liqroq ko'rib chiqishga imkon beradi. V.T.Kudryavsev ta'kidlaganidek, har qanday darajadagi rivojlanish har doim yangi narsalarni yaratishdir⁷.

N.N.Vasilevskiy uch toifadagi subyektlarning mavjudligini eksperimental va statistik jihatdan asoslab berdi, uning tasnifini nerv va somato-vegetativ funksiyalarning moslashuvchanligi, plastikligi darajasiga asosladi: adaptiv (yuqori plastiklik, hayotning yangi sharoitlariga qayta konfiguratsiya qilish qobiliyati bilan), o'rtacha moslashuvchanlik (asab tizimining o'rtacha

moslashuvchanligi, yangi sharoitlarda somatik reaksiyalar) va mos kelmaydigan (tashqi muhitda sezilarli o'zgarishlar bilan past moslashuvchanlik yoki hatto reaktiv dinamikaning yo'qligi)⁸.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va rolini o'rganish, ayniqsa, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ega bo'lgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida ayollarning jamiyatdagi mavqeyi bilan bog'liq muammolar kuzatilmadi. Biroq bugungi kunda dunyoni qamrab olgan inqiroz, birinchi navbatda, ayol va oilaga ta'sir qildi. Shunday qilib, ishlab chiqarishda ayollarning ikkinchi, ijtimoiy jihatdan kamroq obro'li bo'lgan joyga ko'chirilishi bilan ikkita mehnat bozorini ajratish tendensiyasi aniqlik edi. Qashshoqlikni feminizatsiya qilish jarayoni kam maoshli, ishsiz, kam daromadlilar orasida ayollarning ustunligida davom etmoqda.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bir qator ko'rsatkichlar bilan belgilangan ayollarning asosiy maqom pozitsiyalari qisqacha tavsiflangan. Ulardan asosiylari quyidagilardir: ma'muriy-siyosiy hokimiyat; mulkning hajmi va xususiyati (tovar yoki kapital, ya'ni iqtisodiy kuch); daromadning hajmi va xarakteri; axloqiy mukofot, obro', ta'sir (ma'naviy kuch); ish sharoitlari; vertikal yuqoriga yo'nalgan ijtimoiy harakatchanlik istiqbollari; bo'sh vaqt. Mazkur keltirilgan tasnifdan jamiyat faoliyatining asosi sifatida inson huquq va erkinliklarining gender jihatini ko'rib chiqish kerakligi ma'lum bo'ladi. Gender omilini hisobga olmasdan turib, insoniyatning haqiqiy rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas. Bundan tashqari, deyarli barcha mamlakatlarda ayollar aholining yarmini yoki hatto ko'p qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ular erkaklarnikiga nisbatan iqtisodiy va siyosiy hayotda ko'p imkoniyatlardan mahrum⁹.

Erkaklar va ayollar haqidagi stereotiplar tufayli jamiyatda gender tengsizligi saqlanib qolmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya

⁵ Реан А.А. Психологический анализ проблемы удовлетворенности избранной профессией // Вопросы психологии. 2008. – №1. – С. 83-88.

⁶ Lay C.H., Edwards J.M., Parker James D.A., Endler N.S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an examination period // Eur. J. Pers. 2009. – №3.

⁷ Rogers C.R. Dealing with psychological tensions // Inter personal dynamics. Essays and readings on human relation / W.G. Bennis et al. The Dorsey Press. USA, 2003.

⁸ Абульханова-Славская К.А. Личностные типы мышления личности // Когнитивная психология. – М.: Наука, 1986. – С. 154-172.

⁹ Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – М.: Изд-во МГУ, 1984. – С. 111-126.

qilingan bo'lishiga qaramay, haqiqatdan ham jamiyatda, oilada va ishda ayollar huquqlari doimiy ravishda poymol etilmoqda. Genderga asoslangan huquqlarni buzish shakllari juda xilma-xil bo'lib, teng huquqlarni to'g'ridan to'g'ri buzish, masalan, ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ayollarning o'z huquqlaridan foydalanishiga aniq to'siqlar yaratishgacha kabi shakllarda davom etmoqda. Ayollar huquqlari bilan bog'liq vaziyat, ayniqsa, jamiyatda davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida, ularning erkaklarga nisbatan aniq tengsizligining salbiy tendensiyalari paydo bo'lganda yomonlashdi:

– siyosatda: ayollarning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tuzilmalaridan siqib chiqarilishi;

– iqtisodiyotda: ish haqi, shuningdek, ishga olish va ishdan bo'shatishda kamsitishning kuchayishi;

– madaniyat va ommaviy axborot vositalarida: ayollarning “tabiiy taqdiri” mafkurasiga asoslangan jinslar o'rtasidagi patriarxal munosabatlarni mustahkamlash, bir tomondan, uning burchlariga an'anaviy munosabat, bir tomondan, jinsiy hayotdan ommaviy ravishda ekspluatatsiya qilish, boshqa tomondan, ayol tanasining tijoratlashuvigacha¹⁰.

Ayollarning raqobatbardosh pozitsiyalarining zaifligi nafaqat bandlik, balki ishsizlik xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar ishdan bo'shatilgan taqdirda birinchi bo'lib azob chekishadi, shuning uchun ish joyini yo'qotish xavfi ular uchun jiddiy muammodir. Ishlayotgan ayollarning aksariyati ishini yo'qotishdan qo'rqishadi va deyarli yarmi o'zlari ishlayotganidan yomonroq ish topishlari mumkinligiga umuman ishonchlari komil emas. Shu bilan birga, ishni yo'qotishdan qo'rqish darajasi va boshqa ishga kirishga bo'lgan ishonch ayolning yoshi va uning bilimiga bog'liq. Ish bilan bog'liq qo'rquvning eng yuqori nuqtasi pensiya yoshiga to'g'ri keladi. Ayollarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlovchi omillardan biri ayollar mehnatining arzonligi bo'lib qolmoqda¹¹.

Guruhga, xodimlarga munosabat hamda o'z pozitsiyasini saqlash kabi moslashish elementlarida

¹⁰ Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. 1997. – №31.

¹¹ Бандура А., Уолтере Р. Принципы социального научения // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – М: Изд-во МГУ, 1984. – С. 55-60.

davlat xizmatida ish faoliyatini boshlagan ayollar yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Bu esa bizda davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarning ish jarayoniga kirishib ketishlarida o'zlarining guruh hamda unda faoliyat olib boruvchi xodimlar bilan munosabatlari va o'zi egallab turgan o'rinlaridan qoniqish hosil qilish ehtiyojlari ijtimoiy moslashishga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi indikativ belgilar bo'lishi haqida xulosalarni vujudga keltiradi.

1-jadval


Xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini aniqlash (R.X.Ismailov) so'rovnomasining tafovutlari

Shkalalar	O'rta rang		Statistik ko'rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Guruhga munosabat	166,60	183,27	13433,5	0,119
Xodimlardagi munosabatlar	165,15	185,09	13153	0,063
O'z pozitsiyasidan qoniqish	173,35	174,81	14736	0,892
Kollektivizmni baholash	164,09	186,43	12947,5	0,038*
Mehnatga munosabat	180,53	165,81	13600	0,171
Mehnat sharoitlaridan qoniqish	171,45	177,19	14369,5	0,592
Kichik guruhga munosabat	168,44	180,97	13788	0,245
Ishda o'zidan qoniqish	166,88	182,93	13486	0,136
Rahbarga munosabat	173,62	174,47	14788,5	0,937
Yolg'on shkalasi	176,84	170,44	14312,5	0,553

Izoh: * – p<0.05

Mehnatga munosabat va yolg'on shkalasida biroz ustunlik xususiy sektorda ishlovchi ayollarda qayd etildi. “Issiqqina joylashgan o'rnini” yo'qotib qo'ymaslik uchun ba'zida mavjud vaziyatni inobatga olgan holda yolg'on gapirish xususiy tashkilotlarda ishlovchi ayollarning professional faoliyatlarida kuzatilib turar ekan. Mehnat sharoitlaridan qoniqish, kichik guruhga munosabat, ishda o'zidan qoniqish rahbarga munosabat kabilarda davlat tashkilotlari

xodimlarida biroz ustunliklar kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, ularning moslashuv jarayonlarida ushbu ko‘rsatkichlar muhimlik jihatdan yuqori o‘rinlarda turar ekan.



2-rasm. Xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar nisbati

Kollektivizmni baholash jihatidan esa ishonchli tafovutlar qayd etilib ($U=12947,5, p<0,05$), davlat tashkilotlaridagi ayollarda egoistik ruhga nisbatan kollektivistik ruh ish jarayoniga bevosita ta‘sir qilishi yana bir bor o‘z isbotini topdi. Shuningdek, jamoaviy hamkorlik prinsipining davlat tashkilotlari an‘analarida saqlanib qolgani ham yangi ishga kiruvchilarda jamoaviy ruh bo‘yicha oldindan stereotipni barqaror shakllantirishga olib kelishi bilan ham izohlanadi.

2-jadval

Subyektiv nazorat darajasini aniqlash (Dj. Rotter) metodikasining tafovutlari

Internallik turlari	O‘rta rang		Statistik ko‘rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Umumiy internallik	175,92	171,59	14490,5	0,690
Muvaffaqiyatda	174,11	173,86	14839	0,981
Muvaffaqiyatsizlikda	177,73	169,32	14141	0,437
Oilaviy munosabatlarda	173,78	174,28	14818,5	0,963
Ishlab chiqarishda	171,46	177,18	14371,5	0,597
Shaxslararo munosabatlarda	171,58	177,04	14393	0,612
Salomatlik bo‘yicha internallik	175,63	171,95	14546	0,733

Tadqiqotdan o‘rin olgan navbatdagi tahlil shaxsning internallik darajasini anqilashga qaratilgan bo‘lib, mavjud ko‘rsatkichlarning aksariyatida ishonchli farqlar qayd etilmadi. Xususan, umumiy internallik ($U=14490,5, p>0,05$), muvaffaqiyatda internallik ($U=14839, p>0,05$), muvaffaqiyatsizlikda internallik ($U=14141, p>0,05$), oilaviy munosabatlarda internallik ($U=14818,5, p>0,05$), ishlab chiqarishda internallik ($U=14371,5, p>0,05$), shaxslararo munosabatlarda internallik ($U=14393, p>0,05$), salomatlik bo‘yicha internallik ($U=14546, p>0,05$).

Dj.Rotterning “Subyektiv nazorat darajasi” metodikasining tashkilot shakli jihatidan tafovuti bo‘yicha tahlil amalga oshirilganda barcha shkalalar ko‘rsatkichlari bo‘yicha sinlavchilarning natijalari o‘rtasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jihatni esa ulardagi faoliyatning bir xilligi, ya‘ni professional ish davridagi o‘zgarishlar, ish bosimi va topshiriqlarga ulgurish jarayonida deyarli o‘xshash xulq-atvorni namoyon etayotganliklari natijasi deb baholashimiz mumkin. Shaxsning yetukligi, uning axloqiy rivojlanish darajasi va muvaffaqiyatining ko‘rsatkichlaridan biri internallik va motivatsiyadir. Ular insonning o‘z hayotidagi voqealar uchun javobgarlik darajasini belgilaydi. Internallik deganda, insonning, asosan, o‘z hayotida sodir bo‘layotgan voqealarning sabablari: o‘z qobiliyatlari, harakatlari, xarakter xususiyatlari va boshqalar sifatida ko‘rishga moyilligi tushuniladi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmasdan xususiy tashkilotda ishlovchi ayollarda nisbatan biroz farq borligi aniqlandi. Bundan xususiy tashkilotda ishlovchi ayollarda davlat xizmatidagi ayollarga qaraganda faoliyat samaradorligiga erishishda mas‘uliyat hissi yuqori bo‘lishi natijasida ularning o‘zini subyektiv nazorat qilishida javobgarlik darajasi yuqori bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin. Muvaffaqiyatda internallik ko‘rsatkichida ham xususiy tashkilotda ishlovchi ayollar biroz ustunlik qayd etib, davlat xizmatidagi ayollarga qaraganda bir harakat ustida uzoq o‘tirishlari, muvaffaqiyat qozonishga bo‘lgan motivlari aynan ish davridagi kasb motivatsiyasi va karyera qurish kabi istaklarning kombinatsiyalashuvi asosida kechgani bois ularda o‘z kuchiga ishonish, harakatlarini yuqori baholash va o‘z ichki potensial darajalarini real vaziyatda ishga solishni ta‘minlab

beruvchi muvaffaqiyatga internallik yuqori ko‘rinish olgan, deya izohlashimizga zamin yaratdi.

Muvaffaqiyatsizlikda internallik ko‘rsatkichida ham xuddi yuqorida bo‘lgani kabi xususiy sektor vakillarida biroz ustunlik qayd etilib, barcha mas‘uliyatni “o‘z bo‘yniga olish” sifatlarining yuqori bo‘lishi, amaliy faoliyatga bevosita tatbiq etilishi yuzasidan ham ularda ko‘proq barcha “ko‘rguliklarning” asl sababchilari sifatida o‘zlarini ko‘rishi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ushbu muvaffaqiyatsiz onlarda ham ular aybni atrofdegilardan emas, ko‘proq o‘zlaridan qidirishadi va yechim topishda ham o‘z kuchlariga ishonishadi. Internal shaxslar nafaqat tashqi ta‘sirga qarshilik ko‘rsatishadi, balki imkon berilsa, boshqalarning xatti-harakatlarini boshqarishga harakat qilishadi. Internallik yuqori bo‘lganlarda, shuningdek, manipulyatsiya qila oladigan odamlarni yoqtirish va ular ta‘sir qila olmaydiganlarni yoqtirmaslik ham kuzatiladi. Internallik ko‘rsatkichi baland bo‘lganlar boshqalarga qaraganda muammolarni hal qilish qobiliyatiga ko‘proq ishonadilar va shuning uchun boshqalarning fikridan mustaqildirlar.

Oilaviy munosabatlarda internallik ko‘rsatkichida davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda oilaviy burch, oilaviy sadoqat hamda oiladagi barcha ro‘zg‘or ishlariga mas‘uliyatni tubdan his qilish yuqoriroq ifodalangan. Ishlab chiqarish munosabatlari bo‘yicha internallik ko‘rsatkichida davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda yaqqol ustunlik kuzatilib, ularning ontogenezdagi faoliyatlarida bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga hamohang kechgani uchun ham ish jarayonida stressli vaziyatlarni yengib o‘tish, ishdagi barcha topshiriqlarni bajarishda o‘zini nazorat qilish hamda mas‘uliyatlilikni obdon his qilish kabilar yuqori bo‘ladi.

Shaxslararo munosabatlarda internallik ko‘rsatkichlarida vaziyat aksincha tus olgan deyish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichda deyarli tenglik qayd etildi. Ma‘lumki, ayollar emotsional kechinmalarga tez beriluvchan tabiatda bo‘lib, biror kimsa bilan tortishib yoki janjallashib qolgudek bo‘lsa, ko‘proq o‘sha inson bilan qayta “til topishishga” urinishadi, garchi bu holat yashirin tusda kechsa ham. Shu sababli ayollarda shaxslararo munosabatlarda ko‘proq o‘zini barcha bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga majbur kabi prinsiplar ustunlik qiladi. Natijada ularda muloqot jarayonida hissiy


kechinmalarni anglash, empatiya, simpatiya kabi hissiy belgilar bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlanib boraveradi.

Salomatlik bo‘yicha internallik ko‘rsatkichida ham xususiy sektor vakillarida ustunlik qayd etildi. Bundan xususiy tashkilotlarda ishlayotgan ayollarda sog‘lik bilan bo‘ladigan ishlarda o‘ziga ancha e‘tiborli bo‘lish yuqori degan xulosalarga kelinadi. Ayollarda sog‘ligi uchun majburiyatni his qilish biroz balandligi, barchaning, shu qatorida, o‘zining ham sog‘ligi uchun faqat o‘zi javob berishi haqidagi tasavvurlarning ijtimoiy ustanovka tarzida singib ketgani bilan ham xarakterlidir. Oila bekasi bo‘lishni real idrok qilgan ayollarda oiladagi mehribon, parvarishgo‘y ona timsoli yaqqol yetakchilik qiladi, shu sababli ularda sog‘lik, salomatlik bo‘yicha munosabatlarda mas‘uliyatni his qilish darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Ushbu hodisaning mohiyati shundaki, odamlar o‘zlarining muvaffaqiyatlari sabablarini o‘zlarining qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarini, sa‘y-harakatlarida ko‘rishadi, ya‘ni ular ichki nazorat o‘chog‘idan foydalanadilar va aksincha, muvaffaqiyatsizliklarni tashqi ta‘sir bilan bog‘laydilar. Shu bilan birga, bu xatoning ijtimoiy qiymati ahamiyatsiz bo‘lgan hollarda ham kuzatiladi.

Shunday qilib, insonning o‘z maqsadlariga erishishdagi faollik darajasi, uning xatti-harakatlarining mustaqilligi o‘lchovi insonning eng muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Insonda sodir bo‘layotgan voqealar uchun shaxsiy javobgarlik tuyg‘usining rivojlanish darajasi turli xil hayotiy vaziyatlarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi: shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, oilaviy va ishlab chiqarish xarakteridagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usuli. Insonda vaziyatni o‘zgartirishga, o‘zgaruvchan dunyo sharoitlariga tez moslashishga qodir emaslik hissi stressni, surunkali charchoq sindromini, depressiyani keltirib chiqaradi, ojizlik va samarasizlik tuyg‘usini shakllantiradi. Nazorat qilish qobiliyati, aksincha, samarali qarorlar qabul qilish va maqsadlarga erishish, salbiy oqibatlarni bartaraf etish imkoniyatlarini topish bilan bog‘liq.

Umumiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash yuzasidan xususiy hamda davlat tashkilotlarida ishlovchi ayollarning natijalari solishtirilganda, umumiy samaradorlikka intilish, kollektivistik shaklda natijalarni qayd etish, shuningdek, yutuqlarga hamkorlikda erishish hamda “yolg‘iz

otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas” maqoliga monand ravishda el bilan birga bo‘lish motivi ko‘proq davlat xizmatlarida faoliyat yurituvchi ayollarning samaradorlik indekslarida namoyon bo‘lar ekan ($U=10846, p<0,01$).



2-rasm. Umumiy hamda ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining nisbati

Ijtimoiy samaradorlik jihatidan holat aksincha ko‘rinish olgan bo‘lib, xususiy tashkilot vakillarida ko‘proq jamoadagi umumiy maqsad hamda niyatlarda ijtimoiy faollik yaqqol ko‘zga tashlanmas ekan. Ulardagi barqarorlik ko‘rsatkichi, asosan, introspektiv shaklda bo‘lib, o‘zining subyektiv samaradorlik ko‘rsatkichi, ijtimoiy holati yaxshilanishi umumiy samaradorlik indeksiga monand takomillashib borishi aniqlandi.

3-jadval

Martaba motivatsiyasi (A.Noë, R.Noë, J.Bachhube, Y.A.Mogilevkin) metodikasining tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rta rang		Statistik ko‘rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Martabaga nisbatan intuitsiya	166,37	183,56	13389	0,112
Martabaga nisbatan motivatsiya	182,25	163,66	13269	0,085
Martaba barqarorligi	151,94	201,65	10603	0,000**

Izoh: ** – $p<0,01$

Karyeraga nisbatan motivatsiya ham xodimning yangi tashkilotga moslashishida muhim elementlardan hisoblanishi hech kimga sir

emas. Moslashuvning muvaffaqiyatli kechishiga ma’lum ma’noda shaxsning karyeraga nisbatan motivatsiyasining shakllanganlik darajasi ham ta’sir etmasdan qolmaydi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda martabaga nisbatan motivatsiya darajasi xususiy hamda davlat sektorida o‘z faoliyatlarini boshlagan xotin-qizlar misolida taqqoslanganda martabaga nisbatan intuitsiya ($U=13389, p>0,05$), martabaga nisbatan motivatsiya ($U=13269, p>0,05$) ko‘rsatkichlarida ahamiyatli farqlar qayd etilmadi. Nazdimizda, ushbu jihat ayollarda kasbiy o‘shish hamda karyerada muvaffaqiyatlar qozonish borasidagi motivlarning rivojlanish dinamikasi o‘xshashligi tufaylidir.

Shuningdek, martabaga nisbatan intuitsiyada biroz ustunlik davlat tashkilotlarida ishlovchi ayollarda kuzatildi. Bu davlat tashkilotlaridagi doimiy ish o‘rinlarining mavjudligi, harakatga yarasha rag‘bat tamoyilining tatbiq etilgani hamda mavjud ish o‘rnini saqlab qolish orqali professional muvaffaqiyat qozonish mumkinligi borasidagi qarashlarning davlat xizmatida faoliyat yurituvchi ayollarda stigmatik ustanovka shaklida barqaror rivojlanib borishi natijasi sifatida qarashimizga imkoniyat eshigini ochadi. Martabaga nisbatan motivatsiya darajasi esa xususiy tashkilotlarda ishlovchi ayollarda yuqoriroq ekan. Buni biz ko‘proq moddiy rag‘batlantirish motivi orqali ayollarda martabaga nisbatan istaklarning tomir yoyish tezligi o‘tkirroq tus olgani bilan izohlashimiz mumkin. Davlat xizmatida ishlovchi ayollarda esa martabaga nisbatan motivatsiya ko‘rsatkichi ko‘proq statik ko‘rinishga ega ekanligi oydinlashmoqda. Bu ulardagi davlat xizmatlariga nisbatan eskicha qarashlarning ijtimoiy ong ta’sirida qotib qolgani bilan tavsiflanadi. Biroq global o‘zgarishlar sharoitida har kimning mehnatiga yarasha mukofotlanishi tamoyiliga muvofiq davlat xizmatlariga qadam qo‘yayotgan xotin-qizlarda kasbiy rivojlanish sur’ati moddiy ehtiyoj bilan to‘g‘ri proporsionallik kasb etadi.

Yakuniy qism. Hozirgi vaqtda har qanday tashkilot rahbariyati doimiy ravishda samarali moslashish tizimini shakllantirish zaruratiga duch keladi, shu jumladan, korxonada xodimiga o‘zi uchun ham minimal yo‘qotishlar bilan yangi lavozimga muvaffaqiyatli kirishga imkon beradigan chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatida ijtimoiy-


psixologik moslashuv, barqarorlik muvaffaqiyatli moslashish omillaridan biri sifatida dolzarblik kasb etadi. Shaxsning ishlab chiqarish faoliyatiga ijtimoiy-psixologik moslashuvi – bu jamoadagi bevosita ijtimoiy muhitga, jamoaning an’analari va yozilmagan me’yorlariga, rahbarlarning ish uslubiga, jamoada shakllangan shaxslararo munosabatlarning xususiyatlariga moslashishdir. Bu xodimning barcha a’zolari tomonidan qabul qilingan teng huquqli sifatida jamoaga kiritilishini anglatadi¹². Yuqorida olingan empirik tadqiqot

natijalariga asoslanib, xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli bo‘lishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar sifatida shaxsning psixologik qirralari, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, turli vaziyatlarda internallik ko‘rsatkichi, o‘z pozitsiyasidan va kollektivistik faoliyatdan qoniqish darajasi kabilarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

¹² Водопьянова И.Е. Активная жизненная позиция личности и профессиональная адаптация в условиях социально-экономического кризиса // Психологические проблемы самореализации личности. Вып. 2. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 1998. – С. 144-153.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://online.zakon.kz/>
2. <https://eca.unwomen.org/ru/stories/novosti/2023/04/zhenschiny-u-vlasti-v-2023-godu-novye-dannye-pokazyvayut-progress-no-bolshie-razryvy-v-dannykh-po-regionam>
3. Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПбГУ. Сер. Экономика, философии, психологии, права. 2005. – №3. – С. 74-79.
4. Психология менеджмента / Под ред. Г.С.Никифорова. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2007.
5. Реан А.А. Психологический анализ проблемы удовлетворенности избранной профессией // Вопросы психологии. 2008. – №1. – С. 83-88.
6. Lay C.H., Edwards J.M., Parker James D.A., Endler N.S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an examination period // Eur. J. Pers. 2009. – №3.
7. Rogers C.R. Dealing with psychological tensions // Inter personal dynamics. Essays and readings on human relation / W.G. Bennis et al. The Dorsey Press. USA, 2003.
8. Абульханова-Славская К.А. Личностные типы мышления личности // Когнитивная психология. – М.: Наука, 2006. – С. 154-172.
9. Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – М.: Изд-во МГУ, 2014. – С. 111- 126.
10. Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. 2007. – №31.
11. Бандура А., Уолтере Р. Принципы социального научения // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – М.: Изд-во МГУ, 2014. – С. 55-60.
12. Водопьянова И.Е. Активная жизненная позиция личности и профессиональная адаптация в условиях социально-экономического кризиса // Психологические проблемы самореализации личности. Вып. 2. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2018. – С. 144-153.



Ishonkulova Norbiye Islamovna,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

OILAVIY MUNOSABATLARDA DESTRUKTIV NIZOLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi ota-onalar, ularning turmush tarzi, bir-birlariga va farzandlarga nisbatan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari, oiladagi nizo va uning asosiy sabablari, oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan masalalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, an‘analar, nizo, nizo sabablari, nizo turlari, maqsad, ishonch, turmush tarzi.

Аннотация. В статье рассматриваются негативные и конфликтные отношения родителей к друг другу, их образ жизни, влияние конфликтов в семье на взаимоотношения детей и его основные причины, а также указаны проблемы в этих взаимоотношениях, которые могут привести к серьезным последствиям.

Ключевые слова: семья, традиции, конфликт, причины конфликта, виды конфликта, цель, доверие, образ жизни.

Annotation. The article examines the negative and conflictual attitudes of parents towards each other, their lifestyle, the impact of conflicts in the family on the relationships of children and its main causes, as well as problems in these relationships that can lead to serious consequences are identified.

Keywords: family, traditions, conflict, causes of conflict, types of conflict, purpose, trust, lifestyle.

Kirish. Har bir davlatning kelajagi uchun jismoniy va ma’naviy jihatdan sog‘lom avlodni tarbiyalash, shakllantirish hamda uning axloqiy asoslarini mustahkamlashda oila institutining o‘rni g‘oyatda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, oila shaxsning ijtimoiy, diniy va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. Oila inson hayotining tarixan shakllangan qismi bo‘lib, nikoh yoki qarindoshlik asosidagi munosabatlar, hayotning birligini mujassamlashtirgan kichik ijtimoiy guruh hisoblanadi. Oilaviy kelib chiqishi bo‘yicha sinflar, millatlar va davlatlar, hatto ibtidoiy davrda ham sodir bo‘lgan jaroyondir. Insonga hayot, dunyo va

qadriyatlar haqidagi birinchi asosiy bilimlarni ham beradigan mikrojamiyat bu oiladir. Bolalar oiladagi ijtimoiy munosabatlar haqida hamma narsani aynan oilada o‘zlashtiradi, umri davomida ularda chuqur iz qoldirgan amaliy ko‘nikmalarga ham aynan oilada ega bo‘ladilar. Oila bu inson, uning ichki va psixologik dunyosi, shaxsiy xususiyatlarini belgilaydigan asosiy makon sanaladi.

O‘zbekistonning buguni, ertasi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy turmush tarzi va uni yuksak darajaga ko‘tarish ham aynan o‘sha oilalarda tarbiya topgan yoshlar qo‘lida. Modomiki, shunday ekan, oilaviy tarbiya asosida endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday

tushunchani singdirish kerakki, ular davlatimiz o'rtaga qo'yayotgan muammolarni bajarish, avvalo, ularning kuch-quvvatlariga, bilim va sabotlariga, g'ayrat shijoatlariga, fidokorliklari va mehnatsevarliklariga bog'liq ekanligini tushunib yetsin. Oila so'ziga ilmiy manbalarda turlicha ta'rif beriladi. Oila – arabcha “oil” so'zidan olingan bo'lib, u “ayolmand”, “niyozmand” degan ma'nolarni bildiradi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”ning uchinchi kitobida bu so'z “er-xotun, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlari yashovchi xonadon”, “Bir maqsad bilan birlashgan kishilar” ma'nosini anglatadi, deya ta'rif berilgan.

“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!», deya ta'kidlagan edi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹. Mazkur fikrdan ko'rinib turibdiki, oilalar tinchligidan jamiyat ham manfaatdor.

Dunyodagi barcha mavjudot juft-juft etib yaratilgani, juft bo'lib yashash zamirida xayotning davomiyligi yotadi, inson uchun esa nafaqat juft bo'lib yashash, balki oila qurib yashash baxtiga musharraf bo'lgan, chunki jufti-xaloli, farzandlari va qarindosh urug'lar bilan bir umr uzilmas rishtalar bilan bog'lanib yashash faqat insongagina xos fazilatdir. Ko'p asrlik tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning haqiqiy boyligi - inson, inson avlodidir. Shuning uchun ham ajdodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab kelganlar. Shu tariqa tilimiz va dinimizni asrab-avaylab kelganlar. Chunki har bir oqil insonning muqaddas vazifasi, hayotining ma'nosi - qobil farzandalar o'stirish, kamolini ko'rish, ota-onasiga, oilasiga, jamiyatga, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishda oila va ota-ona muhim o'rin tutadi.

Yosh avlodni har tamonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa ota-ona zimmasida. Chunki bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, xulq, atrof-muhitga munosabat, e'tiqod

¹ Sh. Mirziyoyevning 2018-yil, 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi.

va qarashlar vujudga keladi. Ana shulardan kelib chiqib, turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Ma'lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliigi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruh “oila” deyiladi². Oila murkkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababli turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy va iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Maqsad va uni asoslash. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi doim tadqiq etilgan dolzarb masalalardan sanaladi. Bu masalada olimlar turli fikrlarni bildiradilar. Masalan, nemis faylasufi G.Gegel “Nikoh faqat oila tushunchasining bevosita ta'siridir”, deya ta'kidlanagan. Rossiyalik etnograf olim L.Ya.Shterbergning yozishicha, erkak va ayol o'rtasidagi jinsiy munosabatni nikoh, deb atash uchun u jamiyat tomonidan rasmiy tasdiqlangan hamda tomonlar to'la teng huquqli bo'lishi lozim. Platon ham “Har bir nikoh davlat uchun foydali bo'lishi kerak”, deb yozgan edi. Aristotelning fikricha, “Har bir oddiy odamning tabiati, uning siyosiy tizimga kirishganligi bilan belgilanadi, har bir oila esa, davlatning bir qismini tashkil etadi”. Jan Jak Russo o'zining alohida demokratik qarashlari bilan ajralib turgan va jinslararo tengsizlikning qonuniyligini rad qilgan. Russo ular orasidagi tabiiy funksional va ijtimoiy farqlarga katta ahamiyat berib, ayol va erkakning alohida xususiyatlariga differensial yondoshishni taklif qilgan.

Nemis faylasufi Kant va Fitxening oila va nikoh qarashlari haqidagi fikrga oila va nikoh muammolariga erkak va ayol orasidagi huquqlarning tabiiy tengsizligi nazariyasidan kelib chiqib yondoshganlar. Ular “nikoh – ma'naviy va huquqiy institut, uni qonun bilan boshqarish kerak” deb hisoblashgan.

Buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy o'zining “Yodgorliklar”, “Hindiston”, “Kitob as-Saydoni”, “Al-Qonuni al-Mas'udiy” kabi asarlarida oila, oilada

² Shoumarov G'. B va bosh. Oila psixologiyasi T.:2008.-254 b.

ota-ona tarbiyasi xususida qimmatli fikrlar bildirgan. Abu Ali ibn Sinoning “Ishoroat”, “Donishnoma”, “Tib qonunlari”, “Tadbiri manzil” va boshqa asarlarida oila va oila tarbiyasi masalasida qimmatli fikrlari mavjud. Uning ta’kidlashicha, “Agar oilada, oila boshlig’i tajribasizlik, no’noqlik qilsa, u oila a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natijalar kelib chiqadi”.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da keltirilgan oila va nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g’oyatda qimmatli fikrlar bugun ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan³. Demak, ushbu ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, oila va oilaviy munosabatlar har doim o’rganilishi talab etiladigan psixologiya tarmog’i hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oila a’zolarining bir-birlariga g’amxo’rlik qilishi, o’zaro ishonch asosida fikr va tuyg’ularni baham ko’rishi, kerak bo’lganda o’zaro yon berish, dono va oqilona yashashdan kelib chiqadi. Oilaviy munosabatlarda katta-kichik masala yo’q... O’z-o’zidan kichik hisoblangan masalani kattalashtirish, jiddiy mojaro darajasiga olib chiqish yoki katta ziddiyatlarni sabr va vazminlik bilan hal qilish mumkin. Binobarin, yoshlar o’z oilasi yaxlitligini saqlash yo’lida jamiyat oldida jiddiy mas’uliyat borligini anglashi kerak. Chunki nikohning asosi muhabbat, burch va mas’uliyat tuyg’ularining birligidir.

Oilaviy munosabatlarda oila a’zolarining muloqot ko’rinishlari quyidagicha tuzilishiga ega:

1. Bobo-buvi hamda oilaning boshqa barcha a’zolarining aloqasi.
2. Ota-onaning o’zaro munosabatlari.
3. Ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot.
4. Farzandlarning o’zaro munosabatlari.
5. Kelinning barcha oila a’zolari bilan munosabati.
6. Kelinlarning (ovsinlar) o’zaro muloqot odoblari.

Demak, bundan ko’rinadiki, oila a’zolarining muloqot va munosabatlarida turli ziddiyatli holatlar va nizolar uchrab turadi. Oilada o’zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik munosabati “nizo” deyiladi. Agarki, nizo hech qanday sababsiz bo’lsa, ya’ni hech qanday asosga ega bo’lmasa, unda

³ Hasanov S. Olam ko’zguisi. – Xorazm ma’rifati “O’qituvchi”, 1996. –304 b

bu holatda yuzaga keladigan nizo “destruktiv nizo” deyiladi. Bunday nizolar oila a’zolari o’rtasidagi munosabatlarni barbod etadi. Oilada jiddiy sababga ega bo’lmagan nizolar uchrab turishi tabiiy, biroq bunday nizolar ko’payib borsa va o’z vaqtida ularning oldi olinmasa, konstruktiv nizo destruktiv nizoga aylanadi, ya’ni oilada oila a’zolarining bir-biridan nafratlanish, nafrat holatlarini oshkora namoyish etish, bo’lar-bo’lmasga janjal uyishtirish, har bir so’zdan salbiy ma’no izlash, bir-birlarining qadr-qimmatini yerga urish, kamsitish, o’z fikrini zo’rlab boshqalarga singdirish, muammolarni hal qilishdan bosh tortish harakatida bo’laveradi.

Turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, ruhiy iliq ta’siri natijasida oila a’zolarida kamtarlik, ko’ngilchanglik, iltifot, sabr, uyatchanglik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga mas’uliyat, ozodalik, izzat-nafs, tejab terqash kabi shaxs xislatlari tarkib topadi. Agarda oilalardagi turmush munosabatlari qo’pollik va andishasizlik negiziga qurilgan bo’lsa, u oila a’zolarining ruhiy dunyosida kekkayish, pismiqlik, ko’pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik, ma’sulyatsizlik, ifloslik, bag’ritoshlik, shuhratparaslik va dimog’dorlik illatlari unib chiqadi.

Oilaviy nizolar uchun ota-onaning pedagogik bilimi, ma’lumoti, madaniyati, moddiy yetishmovchilikning yo’qligining o’zi yetarli emas. Oiladagi muhit yaxshilansagina yuqoridagi faktlar ma’lum rol o’ynaydi. Shunday qilib, janjallar va kelishmovchiliklar, jahldorlik va o’z-o’zini boshqara olmaslik muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada o’zaro kelishmovchiliklar, asosan, er-xotinning ma’lum bir talabining qondirilmaganligidan kelib chiqadi.

V.A.Sisenko janjallarning sabablarini quydagilarda deb ko’rsatadi:

1. O’zining “men”ining tan olinmaganligi, hurmat va e’tiborning yetishmasligidan kelib chiqadigan nizolar.

2. Jinsiy qoniqmaslik oqibatida kelib chiqadgan janjallar, tushunmovchiliklar.

D. Berns oilaviy munosabatlarning salbiy rivojlanishida quydagi sabablarni keltiradi:

– bir-biriga qat’iyan qarama-qarshi fikr bildirish (oq va qora);

– hodisa va turmushda yuzaga keladigan voqealarni yuzga solish;

– turmush o‘rtog‘ini doimi tanqid qilish, uning kamchiliklarini eslatib turish;

– hamma narsaga salbiy qarash, teskari burish;

– atrofda sodir bo‘ladigan ishlarga his-tuyg‘u bilan javob berish.

Ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, oilalardagi nizolarning sabablari: iqtisodiy muammolar, er-xotinning oilasi bilan munosabatlari, muloqot shakllari, qaror qabul qilish, er-xotin xarakterining moslik darajasi, ulardagi yosh tafovutlari, er-xotinning ehtiyojlari, ularning tarbiyasi, o‘zaro huquq va burchlari, oiladagi mehnat taqsimoti, bolalarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, moliyaviy sabablar (oilani qo‘llab-quvvatlash, pul sarflash, uy-joy muammosi) va boshqa ko‘p mavzularga misol keltirishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda oila munosabatlarida yuzaga keladigan noxush hodisalar, turli jinoyatlar, birovning joniga qasd qilish, rashk oqibatida er-xotin o‘rtasidagi qotilliklar, o‘z joniga qasd qilish, tan jarohatlari, asab tizimi bilan bog‘liq xastaliklar, xiyonat, bolalar tarbiyasining buzilishi va shu kabi qator ko‘ngilsizliklarning aksariyati oilalarga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham yoshlarimiz turmush qurishdan oldin hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari, oilaning vazifalari, er-xotin munosabati, er-xotin o‘rtasidagi nizolar, oilaviy nizolar va oila psixologiyasiga oid ma‘lumotlarga ega bo‘lishlari zarur. Yoshlarimiz esa er-xotin nizolarini jiddiy, ayanchli oqibatlarga olib keluvchi: ajratuvchi “men” xarakteridagi “chegaralanmagan” turlaridan ogoh bo‘lishi, o‘z hayotlarida shu toifa nizolarni yuzaga keltirmaslik, ularning oldini olish va bartaraf etishda yetarlicha ma‘lumotlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Oilaviy munosabatlar psixologlarning doimiy diqqat markazida bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Jumladan, A.A.Kronik va S.A.Kroniklar oilaviy munosabatlarni o‘rganib, ularning munosabatidagi hissiyotlar ijobiyligini saqlashda quydagilarni taklif qiladi:

1. Birgalikda o‘tkazilgan yaxshi munosabatlar va yaxshi kunlar haqidagi xotiralarni asrash.

2. Birgalikda o‘tkazilgan yillarga, kunlarga va daqiqalarga ijodiy yondoshish, hozirgi kun bilan yashash.

3. Birgalikda kelajakka intilish, umumiy rejalar tuzish, birgalikdagi hayot qiziqarli, yorqin va mustahkam bo‘lishiga intilish.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oilaviy munosabatlarda ziddiyatlar yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri muloqot jarayonida yuzaga keladigan to‘siqlar ekan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oila a‘zolarining muloqoti jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarning quyidagi turlarini farqlash mumkin: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to‘siqlar. Psixologik to‘siq – bu suhbatlashayotgan kishiga ma‘qul tushmay qolishdan qo‘rqish, u tomondan inkor etilish va fikrlarini kalaka qilinishdan qo‘rqish, suhbatdoshining qo‘pollik bilan javob berishi ehtimoli mavjudligidan xavotirlanish kabilar tufayli fikrlarini bayon etishdan qo‘rqish. Vaziyatli to‘siqlar suhbat jarayonida oila a‘zolarining bir xil vaziyatni turlicha tusunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog‘liq. Mazmuniy to‘siqlar – bu vaziyatda suhbatdoshini tushunmaslik sababli uning fikri qanday ma‘noda aytilgani, u qanday fikrni va nimani nazarda tutgani va bu nimaga olib borishi hamda shu kabi mulohazalarga borishi tufayli yuzaga keladi. Motivatsion to‘siqlar shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o‘zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ular (asosiy motiv) ni yashirishga harakat qilayotgan bo‘ishi mumkin.

Shu bilan birga, muloqotga to‘siq bo‘lib, suhbatdoshlarning psixologik madaniyatlilik nuqsonlaridan biri – ularning na eshitishni va na tinglashni bilmasligi, “qayta aloqaning” yo‘qligi xizmat qilishi mumkin.⁴

Shuningdek, oila sog‘lom ma‘naviy muhitga ega bo‘lishi, er-xotin ma‘naviy jihatdan bir-biriga munosib bo‘lishi lozim. Aslida, ma‘naviy tengsizlik ijtimoiy tengsizlikning bir bo‘lagi hisoblanadi. Oila muhiti mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, tinch-totuvlik, eng avvalo, oilaning ma‘naviy dunyosiga borib taqaladi. Ma‘naviy nokomillik bilan moddiy farovonlikka erishish qiyin, negaki, notinch xonadondan fayz-baraka tez ko‘tariladi.

⁴ Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog‘inov va boshq.; G‘.B.Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi. - T.: «Sharq», 2008. -296 b.

Yakuniy qism. Oilaviy munosabatlarda nizolar namoyon bo'lishining oldini olish va oilaning mustahkamligini ta'minlashda quyidagi takliflarni berish o'rinli:

- er-xotinning oilani saqlashga birdek intilishi;
 - oila manfaati yo'lida kelishib, bamaslahat ish qilish;
 - oilaviy ishlarda tashabbus ko'rsatish, o'z hissasini er-xotinning ikkisi ham baravar qo'llashi;
 - mavjud muammolarga, oilani unutmagan holda, birgalikda yechim topish;
 - qiyin va og'ir kunlarda birga bo'lish, bir-birini qo'llab-quvvatlash;
 - er-xotin tashqi ko'rinishida estetik jozibani saqlash;
 - oiladi o'zini tuta bilish;
 - oilada ishonch, quvonch va mehr-oqibat sharoitini yaratish;
- Shu bilan birga, oilani mustahkamligini ta'minlashda:
- oilada ota-ona obro' va e'tiborining yuqori darajada bo'lishi;
 - oilada oilaviy muammolar va bola tarbiyasi masalasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi;
 - ota-ona va farzandlar o'z burchlarini to'g'ri anglashlari;

– oilada ota o'z yetakchilik vazifasini talab doirasida o'tashi;

– onaning mehribon, yaxshi tarbiyachi, vafoli yor, mehr-shavqatli, farosatli, tejamkor va yaxshi pazanda bo'lishi;

– oilada milliy va islomiy qadriyatlarga to'liq amal qilinishi;

– farzandlarni milliy urf-odatlar va marosimlar bilan tanishtirib borish va aynan shu ruhda tarbiyalash;

– oilaning mahalla, qo'ni-qo'shnilar va maktab bilan yaqin aloqada bo'lishi;

– oilada muomala munosabatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi va boshqa shunga o'xshash omillarga e'tibor qaratilishi.

Fikrimizni yakunlar ekanmiz, yurtimizda o'sib, ulg'ayib kelayotgan yoshlarni mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, yetuk shaxs sifatida shakllanishlari, jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun, avvalo, oilada osoyishtalik, inoqlik, toza psixologik muhitni barqarorlashtirishimiz lozimligini eslatib o'tmoqchimiz. Zero, bularning barchasi farzandlarimizning o'ziga, kelajagiga bo'lgan ishonch hissini uyg'otishga asosiy omil bo'lib xizmat qilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. Mirziyoyevning 2018-yil, 19-yanvardagi Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi.
2. Shoumarov G'.B. va bosh. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2008. – 254 b.
3. Hasanov S. Olam ko'zgusi. "Xorazm ma'rifati", "O'qituvchi", 1996. –304 b.
4. Oila psixologiyasi: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. / G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov va b.; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: Sharq, 2008. – 296 b.
5. Cəmilə Köçəri qızı İsbəndiyarova. Ailə dəyərlərini simvollaşdıran kultlar. Bakı, "Elm və təhsil" nəşriyyatı, 2018, 64 səh.



Askarova Gulrukh,
Lecturer at the Department of Practical Psychology
Faculty of Psychology and Pedagogy,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

DEVELOPMENT OF COPING BEHAVIOR

Annotatsiya. Maqolada R.Lazarus tomonidan ilgari surilgan koping xulq-atvorining rivojlanish tarixi ko'rib chiqiladi. Kognitiv, hissiy va xulq-atvorni o'z ichiga olgan xatti-harakatlarni tushunish, shuningdek, ularning odamning stressli vaziyatlarga moslashishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: koping xulq-atvor, koping, stressni idrok qilish, adaptivlik, o'zaro ta'sir.

Аннотация. В статье рассматривается история развития копинг-поведения, представленная Р.Лазарусом. Анализируется развитие понимания копинг-поведения, включая когнитивные, эмоциональные и поведенческие аспекты, а также их влияние на адаптацию человека к стрессовым ситуациям.

Ключевые слова: копинг-поведение, копинг, восприятие стресса, адаптивность, взаимодействие.

Annotation. This article discusses the history of the development of coping behavior, presented by R. Lazarus. The development of an understanding of coping behaviors, including cognitive, emotional and behavioral aspects, as well as their impact on a person's adaptation to stressful situations is analyzed.

Keywords: coping behavior, coping, perception of stress, adaptability, interaction.

Introduction. A significant part of the research in the 60–70s, stress is a nonspecific, stereotypical, phylogenetically ancient reaction of the body in response to various environmental stimuli, preparing it for physical activity (for example, escape, etc.)

The term «stressor» was introduced by the Canadian physiologist Hans Selye. He used this term to describe factors that cause stress, including physical, chemical, and psychological influences that the body must overcome to maintain homeostasis¹.

The concept of “coping” comes from the English “sore” (to overcome). In Russian psychological literature it is translated as adaptive “coping

behavior” or “psychological overcoming”. Note that according to Vladimir Dahl’s dictionary, the word “coping” comes from the Old Russian “lad” (to get along) and means to cope, to put in order, to subjugate. Figuratively speaking, “cope with the situation” means to subjugate circumstances, cope with them, culture and environment, and is aimed at satisfying needs or reducing threats².

The theory of “coping” has received wide recognition, especially in the development of R.Lazarus. In 1966, he defined “coping” as psychological defense mechanisms created by a person to overcome traumatic events and influence situational behavior.

² Bandura, A. (1977). “Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change.” *Psychological Review*, 84(2), 191-215.

¹ Selye, H. (1959). “Stress and the General Adaptation Syndrome.” *Journal of Clinical Endocrinology*, 19(2), 155-165.

The term “coping” began to be actively used in American psychology in the early 60s to study individual behavior in stressful situations. These studies became the part of the cognitive movement, which was formed in the 60s under the influence of the works of such scientists as I.Jams, M.Arnold, D.Mechanic, L.Murphy, J.Rotter, R.Lazarus.

Many studies emphasize that the lack of development of constructive forms of coping behavior can increase the pathogenicity of life events, which in turn can become a “trigger” for the occurrence of psychosomatic and other diseases.

The change in the concept of stress proposed by G.Selye gradually occurred as a result of the publication of the book by R.Lazarus “Psychological Stress and the Coping Process”³. In this work, the emphasis has shifted to viewing coping as a central element of stress, that is, as a stabilizing factor that helps maintain psychosocial adaptation during periods of stress.

Lazarus, limiting himself to the psychological aspect, defines stress as the result of the interaction of the individual with the outside world, assessed by the individual⁴. This state largely depends on cognitive processes, thinking, situation assessment, awareness of personal resources, level of management training and the choice of adequate strategies in extreme conditions.

Lazarus highlights the cognitive assessment of stress, emphasizing that stress is not only the result of an objective stimulus, but also depends on its subjective assessment. Stimuli can be perceived as neutral, positive, or stressful, and their effects vary across individuals and situations. Thus, the key point in Lazarus’s approach is to view stress as the result of a subjective assessment of a noxious stimulus.

R.Lazarus and his colleagues pay particular attention to two cognitive processes, stress appraisal and stress management, which are important interacting aspects of human interaction with the environment. The term “evaluation” in this context refers to determining the value or quality of an object, while “coping” (or “sorting”) involves the application of behavioral and cognitive efforts to satisfy external and internal demands. Coping is activated in situations where the complexity of the task requires additional effort beyond the energetic

capacity of normal reactions and requires new strategies, as opposed to routine.

In the course of research, comparing two extreme groups of subjects (resistant and unstable to stress), significant differences were identified in their personal characteristics. Those who were vulnerable to stress showed intense feelings of inferiority, lack of self-confidence, fearfulness and significant impulsive behavior. In contrast, stress-resistant individuals were less impulsive and fearful, had greater stability in overcoming difficulties, activity, energy and cheerfulness.

Purpose and rationale. The concept of “critical perception of life experiences”, introduced by T.Holmes and R.Rahe, emphasizes that a stressful event begins with the perception of an internal (for example, thought) or external (for example, reproach) factor. This may be a macrostressor, which is a strong and short-term irritant that disrupts emotional balance⁵.

E.Heim made a significant contribution to the study of coping behavior among patients with somatic diseases. In her study of coping processes in cancer patients, she defined coping as the desire to reduce the pressure of the disease, both intrapsychically (emotionally-cognitively) and through goal-directed actions. She identified 26 forms of coping behavior in the cognitive, emotional and behavioral spheres⁶.

Coping, according to Heim, manifests itself in active actions and emotional processing, providing adaptive responses to stressors. An important factor is the flexibility and variety of forms of coping available to an individual to successfully cope with the disease.

The term “coping” first appeared in 1962, when L. Murphy used it while studying how children overcome developmental crises. In 1966, R.Lazarus, in his book Psychological Stress and Coping Process, defined “coping” as the desire to solve problems, activated by significant demands for well-being. “Coping” is perceived as the activity of maintaining a balance between the demands of the environment and resources aimed at adapting to the situation and meeting the requirements.

Thus, “coping” is viewed as an individual strategy to maintain balance, meet environmental

³ Lazarus R. S. Psychological stress and the coping process // Me-Graw Hill, № 4, 1996. – 29 p.

⁴ Lazarus, R., & Folkman, S. (1984). “Stress, Appraisal, and Coping.” Springer Publishing Company.

⁵ Holmes, T., & Rahe, R. (1967). “The Social Readjustment Rating Scale.” Journal of Psychosomatic Research, 11(2). pp. 213-218.

⁶ Heim E. Coping und Adaptivitat: Gibt es geeignetes oder ungeeignetes Coping, Psychother., Psychosom., med. Psychol. – 1988. – № 1. pp.8-17.

demands and ensure well-being, physical and mental health, as well as satisfaction with social relationships.

R.Lazarus identifies two general styles of responding to stress, despite significant individual diversity. The first, problem-focused style, is focused on the rational analysis of a problem and includes the creation and implementation of a plan to resolve a difficult situation. This style manifests itself through independent analysis of events, seeking help from others, and seeking additional information. The second style, emotion-focused, arises as a result of an emotional response that is not accompanied by specific actions. It is expressed in the desire to avoid thinking about the problem, involving others in one's experiences, and also in attempts to alleviate negative emotions through sleep, drinking alcohol, drugs, or compensating with food. Emotion-focused coping refers to cognitive, emotional, and behavioral efforts aimed at reducing emotional stress.

There is disagreement in assessing the effectiveness of emotionally expressive forms of coping with stress. Expressing feelings is generally considered as an effective way to cope with stress, with the exception of overt expression of aggression due to its antisocial nature. However, holding in anger, according to psychosomatic research, can pose a risk to a person's psychological well-being.


R.Lazarus emphasizes that the interaction between the individual and the environment is regulated by two main constructs - cognitive assessment and coping. He distinguishes two types of cognitive activity: primary and secondary. The initial assessment allows the subject to determine whether the stressor poses a threat or well-being by answering the question "what does this mean for me personally?". The initial assessment is followed by stressful emotions such as anger, fear, depression and hope.

Secondary cognitive assessment, according to R.Lazarus, plays a key role and is a major part of the stress response process. This stage is expressed in the question: "What can I do in this situation?" and includes an assessment of one's own resources and capabilities to solve the problem. The secondary assessment complements the primary assessment by determining methods of influencing negative events, their outcome, and the choice of resources to overcome stress. This stage involves more complex behavior regulation processes such as goals, values, and moral attitudes. The individual consciously

chooses and initiates actions to overcome a stressful event. Primary and secondary assessments can occur independently and in parallel.

Description and solution of scientific problems. R.Lazarus argues that both assessments influence the form of stress, as well as the intensity and quality of the subsequent reaction. An individual's cognitive appraisal measures the level of stress generated by an event or situation. The "polarizing filter" is the first step in the cognitive appraisal process and can enhance or weaken the significance of an event. The same events can have different stress loads depending on their subjective assessment.

After a cognitive assessment of the situation, the individual begins to develop mechanisms for coping with stress, that is, he engages in coping. In case of unsuccessful coping, the stressor persists, and there is a need for further attempts at coping.



The structure of the coping process, according to R.Lazarus, begins with the perception of stress, followed by cognitive assessment, development of coping strategies and evaluation of the results of actions. A.Bandura emphasizes that beliefs in personal effectiveness influence initiative and persistence in buying behavior. The subjective assessment of an event as controllable or uncontrollable determines the functionality of the coping reaction. If it is possible to influence the situation, an attempt to change it is considered adequate coping; in the absence of control - avoidance or cognitive reappraisal⁷.

A distinction has been made between coping into anticipatory and restorative coping. Anticipatory coping is an anticipatory response to an expected stressful event, while restorative coping helps to restore psychological balance after unpleasant events have occurred.

The effectiveness of coping behavior depends on the context. Instrumental strategies are appropriate when the subject can control the situation, while

⁷ Folkman S., Lazarus R.S. If it changes, it must be a process: a study of emotion and coping during three stages of a college examination // Journal of Personality and Social Psychology, 1985. 48. pp. 150-170.

emotional strategies are appropriate when the situation is beyond his control.

Lazarus and Folkman distinguish two types of coping behavior depending on the perception of the situation: active, aimed at changing the environment, and passive, which is a protective mechanism to reduce emotional arousal without changing the situation.

A person is able to imagine himself in various emotional states. The author believes that stress and anxiety increase, especially when the individual believes that he is unable to control the upcoming problems. Assessment of one's own ability to cope with life events is based on previous experiences, self-belief, social support, self-confidence and risk-taking.

In general, most researchers adhere to a single classification of coping methods:

1. Assessment-oriented coping.
2. Problem-oriented coping.
3. Emotion-oriented coping.

The biocybernetic model of coping, proposed by Schönplflug et al. in 1998, is based on the interaction between the environment and the individual, which leads to mutual influence. This model posits that old regulatory processes can be reprogrammed or new regulatory processes can begin to develop that influence the patterns of behavioral regulation.

Research in Japan has shown that active problem-solving coping strategies are associated with a reduction in symptoms, while avoidance and other strategies aimed at reducing emotional distress may increase symptoms.

People under stress often underuse rational cognitive strategies, as researchers in the field of decision-making have noted.

Thus, coping behavior represents the action strategies that a person applies in situations of psychological threat to ensure physical, personal and social well-being. Coping includes cognitive, emotional and behavioral efforts aimed at successful or less successful adaptation.

Conclusion. The analysis of the presented materials allows us to conclude that coping behavior is a complex and dynamic process that includes cognitive, emotional, and behavioral strategies for dealing with stress. We see that R. Lazarus and other authors emphasize the importance of stress appraisal and coping, highlighting global response styles. By considering E. Heim's approach, we have expanded our understanding of coping, particularly among somatic patients, by providing a definition of this concept and identifying various forms of coping behavior.

We observe that rational coping strategies are effective under certain conditions but are not always applicable in the context of stress. Coping in the context of decision-making is assessed as appraisal strategies focused on problem-solving and emotion-oriented approaches.

Thus, the variety of coping strategies provides us with resources to adapt to different situations. Our behavior under stressful conditions depends on our own appraisals, previous experience, and support from others. Overall, these studies help us better understand and appreciate the complex nature of human behavior under stress.

BIBLIOGRAPHY

1. Даль Владимир Иванович // Полунина, Н. М. Коллекционеры России XVII – начала XX вв.: энцикл. словарь. – Москва, 2005.
2. Bandura A. (1977). "Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change". *Psychological Review*, 84(2).
3. Folkman S., Lazarus R.S. If it changes, it must be a process: a study of emotion and coping during three stages of a college examination // *Journal of Personality and Social Psychology*, 1985. 48.
4. Heim E. Coping und Adaptivitat: Gibt es geeignetes oder ungeeignetes Coping, *Psychother., Psychosom., med. Psychol.* – 1988. – № 1.
5. Holmes T., & Rahe, R. (1967). "The Social Readjustment Rating Scale." *Journal of Psychosomatic Research*, 11(2), 213-218.
6. Lazarus, R., & Folkman, S. (1984). "Stress, Appraisal, and Coping." Springer Publishing Company.
7. Lazarus R.S. Psychological stress and the coping process // *Me-Graw Hill*, № 4, 1996. – 29 p.
8. Selye, H. (1959). "Stress and the General Adaptation Syndrome." *Journal of Clinical Endocrinology*, 19(2), 155-165.



Nazarova Muharram Yunus qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
Email: nazarovamuharram96@gmail.com

ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash bugungi xalqaro hamjamiyat oldida turgan ustuvor maqsadlardan biridir. Biroq bu maqsad oldida to'siq bo'luvchi shunday "og'riqli" muammo mavjudki, uni bartaraf etish muammoning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Maqolada zo'ravonlik, uning kelib chiqish sabablari, zo'ravonlikka uchragan ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mutaxassislar uchun zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlash usullari keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: zo'ravonlik, zo'ravonlik sabablari, biologik omil, ijtimoiylashuv omili, kognitiv omillar, vaziyatga bog'liq omillar, Landenberger modeli.

Annotation. Strengthening the position of women in society is one of the priority goals facing the international community today. However, there are "painful" problems that hinder the achievement of these goals, and addressing them requires studying the socio-psychological characteristics of the issue. The article covers violence, its causes, and the socio-psychological characteristics of women who have been subjected to violence. Methods for working with victims of violence are also provided for specialists.

Key words: violence, causes of violence, biological factor, socialization factor, cognitive factors, situational factors, Landenberger model.

Аннотация. Укрепление роли женщин в жизни общества является одной из приоритетных задач, стоящих перед современным международным сообществом. Однако на пути к достижению этих целей существуют такие «болезненные» проблемы, устранение которых требует изучения социально-психологических особенностей данного вопроса. В статье освещаются насилие, причины его возникновения, социально-психологические особенности женщин, подвергшихся насилию. Также приведены методы работы с жертвами насилия для специалистов.

Ключевые слова: насилие, причины насилия, биологический фактор, фактор социализации, когнитивные факторы, ситуационные факторы, модель Ланденбергера.

Kirish. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy iqtisodiy faolligi, ularning qonuniy himoyasini ta'minlash har bir rivojlangan jamiyat oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Afsuski, bugungi kunga qadar zo'ravonlikdan eng ko'p jabr chekuvchi xotin-qizlar soni ortib borayotgani ham sir emas. Birgina 2021-yilning o'zida dunyoda 31% ayollar jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik

qurboniga aylangan. Hayoti davomida 27% ayollar zo'ravonlikning u yoki bu turiga uchragan. Ular ichida 45% ayollar jismoniy shikastlanishgan. 38% qotilliklar ayollarning o'z yaqinlari tomonidan sodir etilgan¹. Zo'ravonlikni boshdan kechirgan ayollar ko'proq depressiya, bezovtalik, rejalashtirilmagan

¹ Факти и цифри: искоренение насилия в отношении женщин <https://eca.unwomen.org/ru>

homiladorlik, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar va OIV infeksiyasidan aziyat chekishadi, bu esa uzoq davom etadigan oqibatlariga olib keladi.

Maqsad va uni asoslash. Zo'ravonlik natijasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy faoliyatiga juda katta psixologik zarar yetadi. Natijada o'zlariga nisbatan ko'rsatiladigan har qanday yaxshi munosabat yoki yordamni o'zlari uchun "xavf" sifatida qabul qilishadi. Zo'ravonlik hodisasi O.K.Goncharenko, T.K.Rostovskaya, N.A.Bezverbnaya, M.V.Ishenko va I.P.Ilin asarlarida huquqiy, ijtimoiy, psixologik tomondan o'rganilgan bo'lsa-da, zo'ravonlikka uchragan ayollarga nisbatan psixologik yordam ko'rsatish tamoyillariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola orqali zo'ravonlik va uning ijtimoiy-psixologik zararlari, zo'ravonlikka uchragan ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy psixologik o'rganish va ular bilan ishlashda asosiy tamoyillar haqida fikr yuritiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan zo'ravonlikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Zo'ravonlik – o'limga, psixologik zararga, noto'g'ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo'luvchi o'ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo'llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazishdir." Psixologik tasnifda zo'ravonlik shaxsga, ijtimoiy kuchga nisbatan qasddan jismoniy kuch yoki ruhiy bosim sifatida belgilanadi va tasodifiy holatda zarar yetkazishdan farqlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ayollarga nisbatan zo'ravonlikka "...jinsiy belgi asosida sodir etiladigan, ayollarga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday zo'ravonlik harakatidir"², deb izoh beriladi. Zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollar turli salbiy omillar – zo'ravonlik oqibatlari ta'siri ostida qoladilar. Bu oqibatlar natijasida uning sog'lig'i va ruhiy holati yomonlashishi, jamiyat a'zosi sifatidagi xulq-atvorining salbiy tomonga o'zgarishi kuzatiladi. Bundan uning kasbiy fazilatlar va boshqalar bilan munosabatlari zarar ko'radi. Ayol bor salbiy his-tuyg'ular yukini o'zida ko'tarib, sog'lig'i yomonlashuvi sababli faoliyatining turli sohalarida – xoh farzand tarbiyasi bo'lsin, xoh kasbiy faoliyat yoki boshqa har qanday

² Насилие в отношении женщин <https://www.who.int/ru/l/violence-against-women>

soha bo'lsin – o'zini to'liq namoyon eta olmaydi. Chunki u zo'ravonlik oqibatlarini bartaraf etish uchun katta kuch sarflashga majbur bo'ladi.

Zo'ravonlik harakatlari sodir bo'lishi haqida psixologik adabiyotlarda keltirilishicha, odatda bu sabablar bir-biriga juda o'xshash to'rtta toifaga bo'linadi:

1. Biologik.
2. Ijtimoiylashuv.
3. Kognitiv.
4. Vaziyatga bog'liq omillar.

Biologik omillar agressiya va zo'ravonlikka ta'sir etuvchi keng ko'lamlil nevrologik, fiziologik yoki kimyoviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Nevrobiologiya sohasidagi so'nggi yutuqlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan biologik omillar shaxs rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan. Ushbu ta'sirlarning aniq mohiyati hamon ko'p jihatdan noma'lumligicha qolmoqda. Bola rivojlanishi bo'yicha tadqiqotchilar turli xil atrof-muhit omillari tufayli yuzaga keladigan tajovuzkorlik va miya shikastlanishi o'rtasidagi aloqani aniqlaganlar. Bular atrof-muhitda uchraydigan zaharli moddalar (masalan, qo'rg'oshinli bo'yoqlar), boshning jiddiy jarohati (bolaga nisbatan zo'ravonlik yoki baxtsiz hodisa natijasida), ovqatlanishdagi yetishmovchiliklar (ayniqsa, homiladorlik davrida), homila rivojlanishining muhim bosqichlarida onaning spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste'mol qilishi va tug'uruq paytidagi travma holatlarini o'z ichiga oladi. Yetishmovchiliklar yuzaga kelgandan so'ng biologik sababni bartaraf etish yoki davolashga urinishlar dori-darmon shaklida faol biologik davolashni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq bundan ham muhimrog'i shuki, qo'llab-quvvatlovchi va malakali ijtimoiy muhit bu biologik omillarning zo'ravonlikka moyillikka ta'sirini bartaraf etishi yoki kamaytirishi aniqlangan.

Ijtimoiylashuv omillari insonning tafakkur, xulq-atvor va his-tuyg'ular namunalarini o'zining ilk hayotiy tajribasidan o'rganadigan jarayonlarni anglatadi. Aniqrog'i, olimlar "ijtimoiylashuv" atamasini bolaning shaxsga aylanish jarayonida muayyan ijtimoiy xulq-atvor qoliplarini, shuningdek, boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni boshqaradigan qoidalar, munosabatlar, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish jarayonini tasvirlash uchun qo'llaydilar. Bu jarayon davomida shaxs ma'lum ijtimoiy xulq-atvorga oid qoliplarni

va qoidalarni o'rganadi hamda boshqalar bilan muloqot qilishda yo'naltiruvchi munosabatlar, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtiradi. Bundan tashqari, bolalar o'z atrofidagi muhim yoki e'tiborga sazovor shaxslarni kuzatish orqali ham shaxsiy tajribalaridan olganidek ko'p narsani o'rganishlari mumkin. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tajovuzkor, antisotsial va zo'ravon xulq-atvorlar ko'pincha muhim shaxslardan (shu jumladan, televideniye, kino yoki badiiy asarlardagi qahramonlardan) o'zlashtiriladi va muayyan ijtimoiy vaziyatlarga javoban qo'llash uchun xotirada saqlanib qoladi. X.Vilfing tomonidan oilalarda qo'pollik va shafqatsizlik xususiyatlari ortib borishi stressli ijtimoiy omillar ta'sirida kuchayib borayotganini ta'kidlaydi. U "moddiy va maishiy muammolar, oila muammolari, og'ir turmush sharoiti, ishsizlik, bola tarbiyasidagi muammolar, ijtimoiy hayotdagi, mehnatdagi muammolar, biznes bilan bog'liq muammolar, shuningdek, insonning hayot qiyinchiliklariga yakkama-yakka qarshi tura olmasligi oilada qo'pollik va shafqatsizlikni qo'llashga moyillik kuchayib borayotganini ilmiy jihatdan asoslab bergan³.

Kognitiv omillar inson umri davomida dunyo bilan o'zaro aloqalar natijasida shakllanadigan g'oyalar, e'tiqodlar va fikrlash qoliqlarini anglatadi. Tadqiqotlar zo'ravon shaxslarning ma'lumotlarni qayta ishlash va talqin qilishning o'ziga xos usullariga ega ekanligini ko'rsatgan. Zo'ravon odamlar ijtimoiy ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni zo'ravonliksiz hal qilish yo'llarini topishda ham kamroq samaradorlik ko'rsatadilar. Ular zo'ravonlikni ko'proq qabul qiladilar va bunday xatti-harakatlarni maqbul deb hisoblaydilar.

Vaziyatli omillar atrof-muhitning stress yoki boshqalardagi tajovuzkorlik kabi zo'ravon xatti-harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki keltirib chiqaruvchi xususiyatlariga ishora qiladi. Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "Biz ko'pincha zo'ravonlik sabablarini shaxsda izlaymiz hamda vaziyatning ta'sir qiluvchi omillarini e'tiborsiz qoldiramiz". Deyarli har qanday noxush vaziyat, masalan, doimiy baland shovqin, yoqimsiz hidlar va gavjum, noqulay turmush sharoitlari – bunday

³ Вильфинг Х. Система социальных мер в Австрии по предупреждению насилия в семье // Вестник психосоциальной и коррекционно реабилитационной работы. 1996. – С. 45

holatlarga duchor bo'lgan shaxslarda tajovuzkorlik va zo'ravonlikni keltirib chiqarishi mumkin⁴.

Zo'ravonlikni boshdan kechirgan ayollarni ikki toifaga ajratish mumkin:

I. Zo'ravonlikni o'z oilasida boshdan kechirgan, ammo ota-onasining oilasida bunday holatni ko'rmagan ayollar.

II. Ota-onalarining bir-biriga yoki farzandlariga nisbatan zo'ravonlik mavjud bo'lgan oilalarda ulg'aygan ayollar.

Zo'ravonlikka uchragan ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida turli tadqiqotlar o'tkazilgan. A.S.Zubriskaya tomonidan zo'ravonlikka uchragan ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bir necha turga ajratilgan:

1. O'zini past baholash, o'z imkoniyatlarini yetarlicha baholay olmaslik. Zo'ravon ayolga uning layoqatsizligi haqidagi ishonchni singdiradi va buni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, ayolni o'ziga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonlik uchun javobgar deb ishontiradi.

2. Qaramlik. Ayol zo'ravondan ketish istagini sezmaydi va hatto ba'zan mazoxistik moyilliklarni namoyon etadi. U ko'pincha o'z shaxsiyatini boshqalar bilan munosabatlari orqali, asosan, unga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxs munosabatlari orqali belgilaydi.

3. Muloqot ko'nikmalari yetishmasligi. Shaxsiy munosabatlarda oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollar samarali munosabat o'rnatish ko'nikmalariga ega bo'lmaydilar. Buning natijasida o'z g'azabini boshqara olmaslik, shaxsiy ehtiyojlarini va ularni qondirish yo'llarini tushunmaslik, nizolarni hal qilish usullarini bilmaslik kelib chiqadi. Bunday ayollar o'zlarining psixologik va jismoniy chegaralarini aniq his qila olmaydilar. Ular yo juda tez odamlarga ishonib qoladilar yoki umuman hech kimga ishonmaydilar.

4. Izolyatsiya. Jabrlanuvchi ayol ko'pincha erining uning ijtimoiy aloqalari ustidan qattiq nazorat o'rnatishi natijasida yakkalanib qoladi. Jamiyatdan ajralib qolib, atrofidagi dunyo haqida hech qanday yangi ma'lumotga ega bo'lmagani uchun ayol qaram bo'lib qoladi. Kaltaklangandan so'ng u uyat va qo'rquv tufayli o'zini hissiy va (yoki) jismoniy jihatdan yakkalashni davom ettiradi.

⁴ Psychology of Violence and Intimidation https://us.sagepub.com/sites/default/files/upm-binaries/64578_Chapter_8.pdf

5. Nochorlik. Bunga tajovuzkorning hukmronligi, uning faol nazorati va jabrlanuvchini boshqarish istagi, atrofdagi dunyodan yakkalanishi sabab bo'lishi mumkin. Nochorlik hissi ko'pincha shunchalik kuchli bo'ladiki, ayol qaror qabul qilishga, o'ziga g'amxo'rlik qilishga va kelajak rejalarini tuzishga qodir bo'lmay qoladi. Bularning barchasi odatda tushkunlik va o'z joniga qasd qilish kayfiyatiga olib keladi. Jabrlanuvchi ayol o'ziga yordam berishga umid qilmaydi, biroq sherigining o'zgarishiga umid bog'lab qolaveradi.

6. Psixologik himoya mexanizmlaridan (masalan, oqlash va inkor etish) faol foydalanish. Hatto o'tmishda ham oilaviy zo'ravonlikni boshdan kechirgan ayol uchun haqiqatni tan olish psixologik jihatdan qiyin, uyatli hisoblangan. Ba'zi holatlarda psixologik himoya mexanizmi jabrlanuvchiga zo'ravonlikni yengib o'tishda yordam beradi. Ammo keyinchalik zo'ravonlik holatlarini kichraytirishga yoki inkor etishga moyillik paydo bo'ladi. Zo'ravonlikni rad etish jarayoni ongsiz ravishda sodir bo'ladi, biroq bu jarayonning o'zi ruhiy va jismoniy sog'liq buzilishiga olib keladi. Shuningdek, o'z his-tuyg'ularini yaxshi ajrata olmaslik va ko'pincha to'liq mantiqiy fikrlash qobiliyati yo'qligi bilan kuzatiladi.

7. Yuqori darajada xavotirlik hissi⁵.

J.Briere ma'lumotlariga ko'ra, zo'ravonlik qurbonlarida xavotirlanish quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

- taxmin qilinayotgan xavfga nisbatan haddan tashqari sezgirlik;
- nazorat qilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayishi;
- aslida, neytral yoki ijobiy bo'lgan shaxslararo ta'sirlarni tahdid yoki xavf sifatida noto'g'ri talqin qilish;
- somatik belgilar⁶.

L.V.Shukshina tomonidan zo'ravonlikka uchragan ayollarda o'tkazilgan tadqiqotlarda zo'ravonlikka uchragan ayollar har qanday turdagi zo'ravonlikni boshdan kechirgandan so'ng qo'rquv, jahldorlik, himoyasizlik hissi, haqorat va tanqid uchun xafa bo'lish (ayniqsa, begonalar oldida), nafrat, g'azabni (ham o'ziga, ham jabrlantiruvchiga nisbatan) his qilganini tasdiqlashgan, chunki

o'zlarini himoya qila olmaganlar. Ba'zilar hatto o'zlarini aybdor his qilishgan, chunki bunga loyiq ekanliklarini o'ylashgan. Bularning barchasi ularda frustratsiya, stress, tushkunlik, ichki bo'shliq va ma'naviy ezilish hissini keltirib chiqargan. Shuningdek, "qurbon" ayollar uchun har qanday salbiy ijobiy hissiyotlarni namoyon etmaslik xosligi aniqlangan. Ular uchun his-tuyg'ularni ko'rsatish, avvalo, "odobsizlik" sifatida qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik odat tusiga aylangan⁷. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi jarayonlarini izohlashga qaratilgan bir nechta yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, hodisani tushuntirishga qaratilgan eng yaxshi nazariyalardan biri Landenberger modelidir⁸. K.Landenberger ayollarning zo'ravonlik munosabatlari sharoitida o'zini baholash hodisasini shuningdek, bunday vaziyatda ayollarning tanloviga shaxsiy idrokning ta'sirini tadqiq etgan. Unga ko'ra, zo'ravonlikning dastlabki bosqichida munosabatlar shakllanish davrida yangilik va sevgi hissi mavjud bo'ladi. Bu davrda zo'ravonlik holatiga duch kelgan ayollar sherigi bilan munosabatlarni yaxshilash va kelajakda zo'ravonlikning oldini olish uchun katta kuch sarflaydilar. Ularning xatti-harakatlari va sherigi bilan muloqot qilish usullari sherigini tinchlantirish uchun zarur bo'lgan mantiqiylik va topqirlik bilan ajralib turadi. Vaqt o'tishi bilan ayol bu muammolarni hal qilishga bo'lgan urinishlarining besamar ekanligini tushunib yetadi va munosabatlar uzoq muddatli bo'lishiga shubha qila boshlaydi.

"Sabr" bosqichida sherik bilan o'zaro munosabatlari tufayli, shuningdek, o'zini zo'ravonlik uchun qisman javobgar deb hisoblashi sababli ayol bu bosqichda yordam izlashga harakat qiladi. Biroq u o'z xavfsizligini yo'qotishdan qo'rqib, muammoning barcha jihatlarini va holatlarini to'liq oshkor etmaydi.

"Ajralish" bosqichida ayol o'z sherigining zo'ravon ekanligini va bunday munosabatga loyiq emasligini anglaydi. Buriilish nuqtasi ayol o'ziga tahdid solayotgan xavfni tushunib yetganda va zo'ravonga nisbatan o'ch olish istagi paydo bo'lganda yuzaga keladi. Ayol faol ravishda sherigidan uzoqlasha boshlaydi. U alohida yashash va o'z xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'radi.

⁵ Зубритская А.С. Особенности психологической помощи женщинам, пострадавшим от домашнего насилия/ с-82 Вестник ТГЭУ. № 3. 2009

⁶ Соловейчик М.Я. Мастерство психологического консультирования: сб. ст. / под ред.А.А. Бадхен, А.М. Родиной. – СПб.: Европейский дом, 2002.

⁷ Шукшина Л.В. Личностные особенности женщин, переживших насилие // Международный научный журнал «Инновационная наука» №3/2016.

⁸ Платонова Н.М. Насилие в семье: Особенности психологической реабилитации / Учебное пособие. 2004. – С.91.

Shu davr mobaynida u zo‘ravonlik munosabatlaridan chiqib ketishi va bir necha bor qaytishi mumkin. Ayolga qadriyatlarini qayta baholash va zo‘ravonlik aloqalarini uzishga to‘sqinlik qilgan to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengish uchun ma‘lum vaqt kerak bo‘ladi. Bu jarayon tugagach, u zo‘ravonlik munosabatlarini uzil-kesil tugatishga erishadi.

“Reabilitatsiya” bosqichida ayol o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik ko‘rsatgan shaxsdan alohida yashaydi. Jabrlanganlarga yordam ko‘rsatayotgan mutaxassislar uchun muhim jihat shuki, ayol nuqtayi nazaridan zo‘ravonlik uning munosabatlari doirasidagi jihatlardan biri bo‘lib, bu munosabatlar ayol uchun ahamiyatli ijobiy tomonlarni ham o‘z ichiga olgan. Shubhasiz, ayol zo‘ravonlikning to‘xtashini istaydi, shu bilan birga, munosabatlarning ijobiy tomonlarini saqlab qolishni xohlaydi. Bu maqsadlar ko‘pincha bir-biriga zid keladi, biroq jabrlanuvchi buni tushunib yetishi uchun doimo vaqt kerak bo‘ladi⁹. Va bunday hollarda ayolga ko‘rsatiladigan har qanday to‘g‘ri ruhiy ko‘mak ayolga zo‘ravonlik oqibatlarini tezroq yengib o‘tishga yordam beradi.

Yakuniy qism. Zo‘ravonlik qurbonlari zo‘ravonlik natijasida nafaqat psixologik, balki ijtimoiy, jismoniy, iqtisodiy zarbaga uchrashadi. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlashda zo‘ravonlikning jabrlanuvchi shaxsiyatiga ko‘rsatgan vayronkor ta‘siri darajasini aniqlash zarur. Shafqatsizlik holatlarini ichki qayta ishlashning murakkablik darajasiga ko‘ra to‘rt bosqichi farqlanadi: stress, frustratsiya, ziddiyat va inqiroz holati. Psixologik stress hayotning shu qadar barqaror davom ettirishning imkonsizligi bilan tavsiflanadi. Ayol boshidan kechirganlarni yengish uchun hissiy javob berish va o‘z xavfsizligini oqilona baholashga asoslangan vositalarga muhtoj bo‘ladi. Frustratsiya holatida yengib bo‘lmaydigan to‘siq tufayli maqsadga erishib bo‘lmaslik his qilinadi. Bunda yengib bo‘lmaslik darajasi subyektiv tarzda bo‘rttirilishi mumkin. Frustratsiyaga uchragan inson maqsadga erishishning yangi yo‘llarini qidirishga majbur bo‘ladi. Stress va frustratsiyadan farqli o‘laroq ichki ziddiyat, mohiyatan, qarama-qarshi intilishlar va qarashlar o‘rtasidagi chuqur kurashni nazarda tutadi. Ziddiyat qanchalik chuqur anglansa, uni ijobiy hal etish ehtimoli shunchalik

⁹ Платонова Н.М. Насилие в семье: Особенности психологической реабилитации / Учебное пособие. 2004. – С. 91.

yuqori bo‘ladi. Inqiroz bu muhim muammoli vaziyatni hal qila olmaslik holati bo‘lib, u kuchli salbiy his-tuyg‘ular bilan kechadi. Bunday tanglik holati kamida ikki hafta davomida saqlanib qolsa, inqiroz deb tashxis qo‘yiladi. Qisqaroq davom etgan hollarda esa frustratsiya, stress yoki ichki ziddiyat haqida so‘z boradi. Inqirozli vaziyatda odatiy moslashuv usullaridan foydalanib bo‘lmaydi, chunki bunday vaziyat notanish bo‘lib, ijodiy yondashuvni talab etadi. Odatda inqiroz favqulodda hodisaga javoban yuzaga keladi, biroq ahamiyatsiz sabablar ham uni keltirib chiqarishi mumkin. N.M.Platonova tomonidan zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlash bo‘yicha bir nechta maslahat turlari ishlab chiqilgan. Aniq maqsadga qarab maslahatning uch turi ajratiladi: ma‘lumot beruvchi va yo‘naltiruvchi, shaxsiy qo‘llab-quvvatlovchi va shaxsiy o‘zgartiruvchi. Axborot va yo‘naltiruvchi maslahat mijozning so‘roviga ko‘ra zarur psixologik ma‘lumotlarni taqdim etishga, shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikni bartaraf etish yo‘llari va vositalarini tanlashga yordam berishga qaratilgan. Shaxsiy qo‘llab-quvvatlovchi maslahat berishning maqsadi shaxsni barqarorlashtirish va uning himoyasini mustahkamlashga yordam berishdir. Shaxsni o‘zgartiruvchi maslahat berish eng murakkab bo‘lib, ichki ziddiyatlarni ishlab chiqish va anglash orqali shaxsni rivojlantirishga qaratiladi¹⁰. Har qanday maslahat shaklini olib borishda mutaxassis betarafligini saqlashi, o‘z his-tuyg‘ularini anglashi va mijozning ochiqroq bo‘lishi hamda o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam beradigan munosabatnigina ifodalashi lozim.

Zo‘ravonlik ijtimoiy muammodir. Zo‘ravonlikka uchragan ayol jamiyat yordamiga tayanib, o‘zi va bolalari haqida g‘amxo‘rlik qila oladi. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlashda nafaqat bir tomonlama maslahat, balki ularning yaqin insonlari bilan muloqot tashkil etish muhim hisoblanadi. Ular yaqinlarining qo‘llab-quvvatlashlariga har tomonlama muhtoj bo‘lishadi. Zo‘ravonlik uchun javobgarlik tajovuzkorning zimmasida bo‘lib, zo‘ravonlikni boshidan kechirgan shaxs aybdor emas. Jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan har qanday himoya vositasi ularga ruhiy ko‘mak beradi.

¹⁰ Платонова Н.М. Насилие в семье: Особенности психологической реабилитации / Учебное пособие. 2004. – С.91.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Факти и сифри: искоренение насилия в отношении женщин <https://eca.unwomen.org/ru>
2. Вильфинг Х. Система социальных мер в Австрии по предупреждению насилия в семье // Вестник психосоциальной и коррекционно реабилитационной работы. 1996. – С. 45
3. Psychology of Violence and Intimidation https://us.sagepub.com/sites/default/files/upm-binaries/64578_Chapter_8.pdf
4. Соловейчик М.Я. Мастерство психологического консультирования: сб. ст. / под ред. А.А. Бадхен, А.М.Родиной. – СПб.: Европейский дом, 2002.
5. Шукшина Л.В. Личностные особенности женщин, переживших насилие: Международный научный журнал «Инновационная наука» №3/2016.
6. Платонова Н.М. Насилие в семье: Особенности психологической реабилитации / Учебное пособие. 2004. – С. 91.



Jumabekov Ziyovuddin Xazratqul o'g'li,
 GulDPI "Pedagogika" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi
 Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
 e-mail: jumabekovziyovuddin795@gmail.com

G'ARB FAYLASUFLARI QARASHLARIDA HASAD MUAMMOSINING O'RGANILGANLIK HOLATI

Annotatsiya. Jahonda rivojlanish davrida oilalarning mustahkamligi va farovonligi har bir shaxsning ijtimoiy pozitsiyasiga hamda shaxs hamjamiyatining sog'lom rivojlanishining ijobiy pozitiv xislatlariga chambarchas bog'liq. Bu kabi ijobiy xislatlar shakllangan bir davrda bazi jamiyat a'zolarida bir qancha salbiy illatlar ham rivojlanib, namoyon bo'lmoqda. Bulardan biri – hasad hissidir. Bu kabi illatlarning oldini olishda jamoatchilikning ahamiyati juda katta. Zero, mahalla, oila va jamiyat – bu shaxs rivojlanishining asosiy maskanlaridir.

Tayanch so'zlar: oila, farzand, hasad, rivojlanish, oilaviy hamkorlik, ijtimoiy omil, psixologik muhit va ijtimoiy psixologik yondashuvlar.

Аннотация. В развивающемся мире прочность и благополучие семьи тесно связаны с социальным положением каждого человека и положительными аспектами здорового развития отдельного сообщества. В то же время при формировании таких положительных качеств, у некоторых членов общества развивается и ряд отрицательных пороков. Одним из таких чувств является зависть. Роль общества в предотвращении такого зла очень важна. Ибо махалла, семья и общество являются очагом личного развития.

Ключевые слова: семья, ребенок, зависть, развитие, семейное сотрудничество, социальный фактор, психологическая среда и социально-психологические подходы.

Annotation. In the developing world, the strength and well-being of the family are closely linked to the social status of each person and the positive aspects of the healthy development of a particular community. At the same time, with the formation of such positive qualities, some members of society also develop a number of negative vices. One of these feelings is envy. The role of society in preventing such evil is very important. Because mahalla, family and society are the center of personal development.

Keywords: family, child, envy, development, family cooperation, social factor, psychological environment and social psychological approaches.uch as suicide, harm to health, and damage to property are committed through the motive of envy.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2909-son qarori e'lon qilindi¹. Mazkur Farmonda Oliy

ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash shart sharoitlari keltirib o'tilgan.

¹ Sh.Mirziyoyev "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari". – Toshkent, 2017.

Hasad hozirgi davrda har bir shaxsga tasir ko'rsatuvchi xis kechinma ekanligi bilan xarakterlanmoqda. Hasad hissining namoyon bo'lish jihati hozirgi davrda rivojlanib bormoqda. Eng ko'p uchraydigan va namoyon bo'lish jihatlari oilada siblinglar o'rtasida kuzatilmoqda va bu bugungi rivojlanishdagi asosiy muammolar hisoblanadi. Oilada kelinlar o'rtasida ham bir-biriga nisbatan hasad hissini ko'plab uchratishimiz mumkin. Bunday jarayonlarni psixokorreksiya qilish bugungi kunning asosiy dolzarbligi hisoblanadi. "Hasadgo'ylar" o'zlarida bor narsaning ular uchun hech qanday ahamiyati yo'q. Asosiysi – qo'shnida bor. Va agar qo'shni ko'proq yoki yaxshiroq bo'lsa, unda hamma narsa... Bunday hasad bilan kurashish kerak. Bunday hasadni o'rganish va qanday psixologik muammolar va insoniy ehtiyojlar haqida gapirayotganini tushunishga harakat qilish kerakmi?

Faylasuflarning hasad haqidagi g'oyalarini tushuntirgan holda, biz juda boshqacha tarixiy davrlarda mutafakkirlar uning kuchli va halokatli boshlanishini qayd etishganini tushunamiz. Faylasuflar asarlarida hasad tuyg'usi inson borlig'i va bilishining asosiy shakliga shaxsning deformatsiyasiga olib keladigan, ijtimoiy munosabatlar tizimida ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan maxsus ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraladi. Ta'kidlanishicha, hasad – bu boshqa odamlar bilan noqulay ijtimoiy taqqoslash natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan jirkanch tuyg'u.

Shunday qilib, hasad muammosini o'rganish bo'yicha tarixiy ekskursiya falsafiy tafakkurning butun rivoji davomida hasad hodisasiga, garchi talqinlari juda xilma-xil bo'lsa-da, unga e'tibor berilganligini ko'rsatadi.

Maqsad va uni asoslash. Albatta, hayotni osonlikcha boshdan kechirganlarning hasadni yengishini "omad" deb atash juda qiyin. Shuning uchun, umuman hasad qilmaslikning imkoni mavjud emas. Lekin nafaqat axloqiy va axloqiy me'yorlar jihatidan, balki bu tuyg'u, hissiyotlarning samarasizligi nuqtayi nazaridan ham doimo hasad qilish noto'g'ri. Ma'lumki, ezilgan his-tuyg'ular halokatli. Agar biz faqat vaqti-vaqti bilan, epizodik tarzda namoyon bo'ladigan hasad haqida gapiradigan bo'lsak, unda bunday hasad, albatta, halokatli emas. Misol uchun, bir qiz do'sti bilan uchrashdi va u undan ancha oldinlab ketganidan xabar topdi.

Qizimiz ham anchadan beri ozishni xohlardi, lekin u buning uddasidan hech chiqa olmadi. U hali ham dangasa edi, sport zaliga borishni kechiktirdi va hokazo. Va do'stini ko'rganida, u shunday deb o'yladi: "Ma'lum bo'lishicha, Svetlananing irodasi bor, lekin men unday emasmi?" Natijada hasad uni harakatga undadi – shunga qaramay, qiz sport zaliga yozildi va diyetaga qat'iy rioya qila boshladi². Misol tariqasida oladigan bo'lsak, bizning muhandis ham buni sinab ko'rishga qaror qildi va odatdagi ish yo'nalishini o'zgartirib, hamkasbidan ustun keldi. Uning rivojlanishi umumiy Yeropa musobaqasiga yuborildi va uning mukofoti hamkasbiga berilganidan oshib ketdi. Albatta, ishlar har doim ham yaxshi ketavermaydi. Ammo, aslida, ichki salohiyati va o'ziga ishonchi yuqori bo'lgan odamlar uchun hasadning epizodik namoyon bo'lishi ularni yangi yutuqlarga undagan vaziyatlar ham kuzatiladi. Bu yuqorida keltirilgan fikrlar barchasi hasad hissining insonga ta'siri misol tariqasida keltirib o'tilgan. Biz endi bugungi ilmiy ishimizda har bir oilada farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar hasad hissi orqali kelib chiqishi hamda uni korreksiya qilish tamoyillarini o'rganamiz. Bu muammolar hozirgi davrda dolzarb hisoblanib, bir qancha tadqiqotchi olimlar va professorlar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Arastu (Aristotel er. av. 384–322 yillar) Iskandar Zulqarnayinga o'z nasihatlarida shunday fikrlarni yozadi: "Sen xohlagan narsa boshqalarda bor bo'lsa, ularga hasad qilma va o'zing yoqirtmagan narsani o'zgalarga ravo ko'rma. O'z nafsingni o'tkinchi havaslardan tiygil, shahvatingga erk berma, qalbingdan hasadni chiqarib tashla. Istak-mayllaring va orzularingning chek-chegarasi bo'lsin. Zero, agar orzularingga keng yo'l ochib bersang, qalbing qattiqlashib, shafqatsiz bo'lishiga sabab bo'ladi va oxirat fikrini qilishingga to'sqinlik etadi". Ushbu mulohazada Arastu hasad salbiy odat ekanini ta'kidlagan. Arastu insonlardagi orzu- ehtiyojning chek-chegarasi yo'qligini ko'p bora ta'kidlab, bu shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuviga ta'sir etishini ko'rsatib bergan. "...o'z hissiyotlaringni mayda orzu-havaslarga ergashishiga odatlantirmagin, zero, ko'ngling ta'ma istab qoladi³. Juda ulkan maqsadlarga

² Адлер А. О нервическом характере. – Санкт-Петербург: Университетская книга, 1997. – 385 с,

³ Baykunosova G. O'smirlik davridagi yoshlarda hasad hissining namoyon bo'lish omillari. – Toshkent, 2019.

yetishsang ham shunday bo'ladi. Odatda, kundalik hayotingda kichik xato qilgach, beparvo bo'lmagil, zero, har bir xatoning ziyoni bordir. Agar sen kamchilingni yoqotib kichik xatolarni tugatsang, u seni katta xatolarga yetaklaydi". Bu yerda ham Arastu hasad jihatining salbiy jihatini yoritib, uning ahamiyatli jihatlari bo'lmasligini qayta-qayta ta'kidlagan. Aristotel olamdagi salbiy his-tuyg'ular orqali yuzaga chiquvchi hodisalarning sabablarini quyidagicha guruhlariga bo'ladi:

- 1) moddiy sabab yoki materiya;
- 2) hissiy sabab yoki aqliy;
- 3) oxirgi sabab maqsad.

Arastu qarashlarida hasad haqida quyidagicha yozilgan: "O'rta asrlar kelishi bilan hasad paydo bo'ldi, uning mavjudligi salbiy jarayonlarni ko'rsatadi, garchi unga qarshi harakatlar olib borishayotgan bo'lsalar-da. O'rta asrlarda hasad "shaxslarga xiyonat" deb hisoblangan. Xristianlar, biron-bir voqeani ko'rib, uni tan olishda cherkovlardan alohida hushyorlikni talab qildilar. Insonparvarlik va ma'rifat davrida mutafakkirlar yana charxlanadi.

Hasad kuzatiladigan yoshlar o'rtasida korreksion ishlarni amalga oshirish, ular o'rtasidagi munosabatni ijobiylashtirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Biz bugungi ilmiy faoliyatimizda har bir hududda oilalardagi farzandlarning hasad yoki havas hissining qay darajada shakllanganini o'rganamiz. Biz bu tadqiqotlarni amalga oshirishda hasadni keltirib chiqaruvchi sabablarni bilishimiz kerak. G'arb faylasuflari qarashlarida hasadning bir necha sabablari bor. G'arb ulamolari mazkur sabablarni o'rganib chiqib, asosiylari oltita ekanini ta'kidlaganlar. Ularni qisqacha o'rganib chiqamiz:

1. Dushmanlik va yomon ko'rish. Bu hasadning eng kuchli sabablaridan biridir. Ikki kishi biror sababga ko'ra urishib qolishi va oralarida kelishmovchilik chiqib bir-birini yoqtirmay qolishi mumkin. G'azabi chiqqan odam o'zining dushmaniga nisbatan qalbida kek saqlab qolsa, u hasadga aylanadi⁴. Dushmaniga o'zi yetkaza olmagan zararni zamondan kuta boshlaydi. Agar dushmaniga biror yomonlik yetsa, xursand bo'ladi va Xudoning O'zi menga yomonlik qilgani uchun uni jazoladi, deydi. Mabodo dushmaniga ne'mat yetsa, uning maqsadiga teskari bo'lgani uchun xafa

⁴ Baykunusova G. O'smirlik davridagi yoshlarda hasad hissining namoyon bo'lish omillari. – Toshkent, 2019.

bo'ladi. Hasadi yana ham ziyoda bo'ladi. Mazkur ne'matning yomon ko'rgan odamidani ketishini istaydi va shu maqsadda ish ham olib boradi.

2. Ko'ra olmaslik. Ba'zi odamlarda boshqaning o'zidan ustun bo'lishini ko'ra olmaslik odati bo'ladi. Ana shu narsa ham hasadning sabablaridan biridir. Odatda, birovni o'zidan past sanab, uni odam o'rnida ko'rmay, nazar-pisand qilmay yurgan kimsa shunday bo'ladi. Doimo o'sha odam unga qaram bo'lishi va yalinib turishini istaydi. Birdan qarasa, haligi odamga ne'mat yetibdi. Hasadchining xayoli boshidan uchadi. O'zini qo'ygani joy topa olmay qoladi. Hasadi o'zini ko'rsatadi.

3. Kibr. Mutakabbir odamlar o'zidan past sanalgan kishilarni doimo masxara qilib, yerga urib, oldilarida maqtanib, sal narsaga kerilib yurgan bo'ladilar. Shuning uchun ulardan past odamlarga ne'mat yetganiga chiday olmay, hasad qilishga o'tadilar.

4. Maqsadiga erisholmay qolishdan qo'rqish. Bu holat bir maqsadga erishish uchun harakat qilayotgan shaxslar orasida bo'ladi. Ulardan biri ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida ne'matga sazovor bo'lsa, boshqasi hasad qiladi. Qo'polroq misol keltiradigan bo'lsak, xuddi kundoshlarga o'xshagan bo'ladi.

5. Shuhratparastlik. Bunga ma'lum bir sohada tengi yo'q bo'lishni orzu qilgan shuhratparast kimsa misol bo'ladi. Agar unga dunyoning narigi burchagida senga teng keladigan odam chiqibdi, deyilsa, o'shaning yo'q bo'lishini orzu qiladi.

6. Odamlarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan tabiati buzuq shaxs hasadchi bo'ladi. O'ziga hech aloqasi bo'lmasa ham, birovga ne'mat yetishini ko'rolmaydi. O'z-o'zidan hasad qilaveradi⁵.

Hasad fenomeni uch darajada namoyon bo'ladi va xuddi shu tarzda o'z-o'zini hurmat qilish va shaxsning xulq-atvoriga ta'sir qiladi:

– ong darajasi – past pozitsiyani bilish, oddiy qabul qilinishi mumkin va og'ir noqulaylik tug'dirmaydi;

– hissiy tajriba darajasi – bunday vaziyat tufayli bezovtalanish, g'azablanish yoki g'azablanish, avto tajovuz, pastlik hissi, mag'rurlikning buzilishi va taqdirning adolatsizligi mumkin;

⁵ Мамедова Эльмира Мамедовна. "Феномен зависти: социальные и личностные основания". – Тверь, 2018.

– haqiqiy xatti-harakatlar darajasi – bu vayron qilish, hasad obyektini yo‘q qilish. Hasadgo‘ylik obyektini hasadgo‘ylar uchun muammo tug‘dirganlikda ayblash mumkin bo‘lgani kabi, tajovuz ham aniq mavzuga qaratilgan. Bu darajada hasad xatti-harakatlarning yetakchi motiviga aylanadi;

– hasad hissi boshqa narsadan kamchilik izlashga majbur qiladi;

– odam qanchalik hasad qilsa, shunchalik o‘z oqibatlarga, boshqalarda bor narsani ololmasligiga ishonadi⁶;

– hasadning namoyon bo‘lishini bizning “ego”ning qandaydir o‘yinlari deb hisoblash mumkin, agar u boshqa odam qandaydir tarzda bizni va boshqa odamning yutuqlarini chetlab o‘tsa, buzilgan deb o‘ylaymiz;

– taqqoslashlar, shundan so‘ng o‘zlarining pastligi, qadrsizligi, o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlar va umumiy adolatsizlik hissi paydo bo‘ladi. O‘zining benuqsionligini saqlab qolish istagi, muvaffaqiyatsizlikni, o‘zini ko‘rishdan qo‘rqqan odam boshqalardan, ayniqsa, hasad qilganlardan kamchilik qidira boshlaydi. “Hasad bu boshqa odamlarning yutuqlari, muvaffaqiyatlariga, axloqiy-ma‘naviy qarashlariga nisbatan “dushmanlaracha”, yoqtirmagan holda munosabat bildirishdir”. Hasad shaxsga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hasadgo‘yda xavotirlik, sirlilik, to‘liqsizlik kompleksidan iztirobga tushush, norozilik kabi xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Bunda har ikki tomon – hasad qilayotgan va hasad qilinayotgan shaxslar ham jabr ko‘radi. Subyekt ijtimoiy hayotdagi hasad muammosiga e‘tiborimizni qaratar ekanmiz, hasad nafaqat o‘zining hayotini, balki o‘zining hayotini buzadi. Sababi hasadgo‘y shaxslilik darajasida ma‘lum destruktiviyalarni boshdan kechirib, unga o‘zini-o‘zi rivojlantirishda real yutuqlarga erishishda xalaqit beradi.

Shunday qilib, hasadni uch darajada namoyon bo‘ladigan fenomen sifatida ko‘rib chiqish mumkin: ong darajasida – o‘zining quyiholatdagi darajasini anglash; hissiy kechinma darajasida bunday holatdan darg‘azab bo‘lish va alam qilish; real xulq-atvor darajasida hasad predmetini yo‘qotish, buzishda namoyon bo‘ladi.

⁶ Фрейд З. Основы психологической

Аристотель Риторика // Античные риторика / Под. Ред. А.А. Тахо-Годи. – Москва.

Mamlakatimizda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yoshlarni barkamol inson etib voyaga yetkazish, ularga ezgu fikrg‘oyalarni singdirish, yot mafkuralar va xurujlardan asrash, ularda turli g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurash ko‘nikmalarini shakllantirish, takomillashtirish, shuningdek, “Jismoniy jihatdan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vataniga sodiq, shijoati mustahkam, qat‘iy hayotiy nuqtayi nazariga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi vazifalari belgilangan. Bu oiladagi yosh farzandlarning ma‘naviy yuksak shaxs, barkamol avlod etib tarbiyalash, ularda hasad hissini susaytirishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi demak. Hasad bilan ajralib turadigan odamlarning o‘ziga xos xususiyati – o‘zlarini boshqa odamlar bilan doimiy taqqoslash. Bundaylar o‘z farzandlarini tanishlarning bolalari bilan, erlarini do‘stlarining erlari bilan, ishdagi muvaffaqiyatlarini boshqalarning yutuqlari bilan solishtirishlari mumkin, shu kabi muammolarni o‘rganish hozirgi davrda yetarlicha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

G‘arb madaniyatida hasad tushunchasini tushunish uning islom ta‘limotidagi ahamiyati va ahamiyatini tan olishni o‘z ichiga oladi. Hasad eng katta gunohlardan biri hisoblangan hasadga ishora qiladi. Islom ulamolariga ko‘ra, hasad o‘z ne‘matlaridan norozilik va boshqalarning ne‘matlaridan mahrum bo‘lishini ko‘rish istagidan kelib chiqadi. Bu shaxs va jamiyat darajasida bo‘linish, adolatsizlik va ma‘naviy tanazzulga olib kelishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi (Iqbol, 2008). Hasadga qarshi kurashish uchun Islom o‘ziga berilgan ne‘matlarga shukr qilishni, boshqalarga hamdard bo‘lishni va bu halokatli xislatdan Allohdan panoh so‘rab, duolar bilan panoh so‘rashni da‘vat etadi. “Hasad” Islomiy atama bo‘lib, boshqalarning ne‘matlari va muvaffaqiyatlariga nisbatan salbiy his-tuyg‘ular bilan birga kelgan hasad yoki hasadni anglatadi. Bu jamoalar ichida zarar va nizolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan halokatli tuyg‘u hisoblanadi⁷.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Hozirgi vaqtda dunyoviy bilimlarni egallagan har

⁷ Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания / Б. Г. Ананьев. – Москва, 1977. – 317 с.

bir oila a'zolarida mafkuraviy ongning to'laqonli shakllarini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan, har bir jamiyatda so'glom raqobat tufayli shaxslar yuksalib kelmoqda, lekin jamiyat ichida hasad kabi salbiy xislatga ega odamlar ham hozirda ko'plab uchramoqda⁸. Biz tomondan bu kabi salbiy xislar o'rganilib, korreksiya qiluvchi tashviqiy choralarni ishlab chiqilmoqda. Hasadning choraviy davosi – bu kabi xastaliklarni faqatgina ilm va amalni kuchaytirish.

Hasadni ilm bilan davolash, avvalo, har bir kishi hasad o'zining din va dunyosiga zararli ekanini yaxshi anglab etmog'i lozim. Shu bilan birga, u hasad qilingan odamning na diniga va na dunyosiga zarar yetkaza olmasligini ham tushunishi kerak. Balki uning hasadidan dushmani foyda oladi. Agar oxiratga va undagi hisob-kitobga iymonni bir tarafga qo'yib turib, aql yuzasidan ish tutganda ham, hasadga o'rin yo'q. Chunki hasadchi o'z hasadi tufayli ich-ichini eydi, qalbi dard-alamga to'ladi. Ammo biror foyda ko'rmaydi⁹.

Ne'mat hasad qilingan odamdan sizning hasadingiz tufayli zavolga uchramaydi. Qanday qilib deysizmi? Unga ne'matni Alloh taolo bergan va Allohning O'zi belgilagan muddatgacha davom etadi. Birovning hasadi tufayli ne'mat tugab qolmaydi. Oxiratda unga zarar yetmasligi aniq. Chunki ne'mat yetgani yoki sizning hasadingiz unga gunoh bo'lib yozilmaydi. Balki hasadingiz sababli mazlum bo'lgani uchun foyda olishi ham turgan gap. Bu dunyoda uning foyda olishi sizning jizg'anak bo'lishingizdandir. Shu sababdan odamlarning xursandchiligining yana biri dushmanining azob chekishi hisoblanadi. Yuqorida zikr qilingan narsalarning barchasi hasadchi o'ziga o'zi dushman va dushmaniga do'st ekanini ko'rsatadi. Bu xuddi dushmanini qatl qilish uchun tosh otayotgan odamga o'xshaydi. Birinchi toshni otganda dushmaniga tegmasdan o'ziga qaytadi va o'ng ko'zini ko'r qiladi. Uning achchig'i yana ham alanga olib, ikkinchi toshni otadi. Ikkinchi toshi ham mo'ljalga tegmay o'ziga qaytadi va chap ko'zini ham ko'r qiladi. U g'azab otiga minib uchinchi toshni otadi. Tosh qaytib kelib, o'zining boshini yoradi. Dushmani esa soppa-

⁸ Ильин Е.П. Психология эмоций/ Е.П. Ильин. – Санкт-Петербург: Питер, 2011. – 224 с.

⁹ Кант И. Критика чистого разума / пер. с нем. Н.Лосского сверен и отредактирован Ц.Г Арзаканяном и М.И.Иткиным; примеч. Ц.Г.Арзаканяна / И.Кант. – Москва: Эксмо, 2006. – 736 с.

sog', kulib, uni tomosha qilib turadi va shaxsning ta'sir etuvchi omillarga bo'lgan munosabatining o'ziga xosligini ta'kidlaydigan shaxsning o'ziga xosxususiyatlarining haddan tashqari intensivligi (yoki kuchayishi) yoki aniq vaziyat...

Masalan, tashvish odatiy namoyon bo'lish darajasidagi xarakterli xususiyat sifatida, g'ayrioddiy vaziyatlarga tushib qolgan ko'pchilik odamlarning xatti-harakatlarida aks etadi. Ammo agar tashvish shaxsning xarakterini ta'kidlash xususiyatlariga ega bo'lsa, unda odamning xatti-harakati yetarli darajada tashvish va asabiylikning ustunligi bilan ajralib turadi. Xususiyatlarning bunday namoyon bo'lishi, go'yo odatdagi va patologiyaning chegarasida, ammo salbiy omillarga duch kelganda, ba'zi aksanlar psixopatiyaga yoki odamning aqliy faoliyatidagi boshqa og'ishlarga aylanishi mumkin. Olim A.E.Lichkoning fikriga ko'ra, shu bilan birga, tanlangan zaiflik mavjud bo'lib, u ma'lum psixogen ta'sirlarga tegishli (hatto yaxshi va yuqori qarshilik holatlarida ham). Qur'oni karim va hadisi shariflarda hasadning bu turidan qaytarilgan. Zero, bunday illat odamni yomon yo'llarga boshlaydi. Qalbida hasad illati bor kimsa harom yo'llar bilan birovga ziyon yetkazishga, shu orqali "alami"dan chiqishga harakat qiladi. Kimdir birovning hashamatli imoratiga yomon ko'z bilan qaraydi, yana kimdir og'aynisining chiroyli xotiniga ko'z olaytiradi, uning taloq qilishini, haligi ayolni o'ziniki qilib olishni istaydi. Yoki mansab kursisiga o'tirgan rahbarni qo'l ostidagilar ichidan ba'zilar ko'rolmaydi, uning har bir ishidan, aytgan gapidan xato topadi, ostiga suv quyish payida bo'ladi. Hasadchilar ichida shunday toifalar ham bor. Ular birovga nasib etgan yutuqlarning o'zida ham bo'lishini istaydi. Agar shunday muvaffaqiyatga erisholmasa, haligi odam qo'lidagi ne'matning yo'q bo'lishini istaydi. Shu bilan orada tafovut bo'lmasligini, ikkisi bir xil holatda, bir xil maqomda bo'lishini "ta'minlaydi". Maqtalgan hasad tilimizda havas deyiladi. Havas birovning yutug'iga yaxshi ko'z bilan qarash, uningdek muvaffaqiyatlarga erishish istagida bo'lish, o'zgalarga g'ayrlik qilmaslikdir. Bunday odam yaxshilik tarafdori bo'ladi, ezigulikka erishishni istaydi.

Ushbularni tafakkur qilgan odamning qalbida hasad olovi so'nishi turgan gap. Hasadni amal bilan davolash quyidagicha:

Bu kabi holatni boshidan o'tkazayotgan shaxslarda korreksion yo'llarni qo'llashimiz maqsadga muvofiq. Misol uchun, aka ukasida kuzatilayotgan rivojlanishlar tufayli ota-onasining unga nisbatan ko'proq e'tiborini his qiladi. Hasadi unga mutakabbirlik qilishni tavsiya qilib, u unga sekinlik bilan salbiy tasir ko'rsatadi.

Hasad juda keng tarqalgan kasallikdir. Undan har doim ehtiyot bo'lish kerak. Inson, avvalo, o'zidan birovlarini hasad qilishdan ehtiyot bo'lsin. Qolaversa, birovlarining hasadidan ham tiyilsin. Hasad nafs kasalliklaridan sanaladi. Hasad illatidan juda oz kishilargina xolidirlar. Pastkash odam hasadining zahrini birovga sochadi, ichida ko'ra olmaslik olovi alanga olayotgani uchun qoni qaynaydi, ko'ziga qon to'ladi, birovlarining yutug'ini ko'ra olmaydi. Ibn Javziy rahmatullohi alayh shunday degan: "Hasad shunday narsaki, inson botini undan butkul xolos bo'la olmaydi. Odam qalbida hasad borligi bilan gunohga botmaydi, balki musulmon birodaridagi ne'matni yo'q bo'lishini xohlashi bilan gunohkor bo'ladi" ("At-tibbur ruhoniyy libnil javziy"). Hasad qilish loyga qorishtirilgandir. Odam bolasi borki, u bilan birga hasad ham dunyoga keladi. Kimdakin ichidagi hasadni so'z yoki amal bilan yuzaga chiqarmasa, hechqisi yo'q ("Soydul xotir"). Shu o'rinda aytish kerak, inson bolasi hasaddan xoli emas. Alloh tarafidan tanlab olingan, maqomlari yuqori ko'tarilgan anbiyolargina bundan mustasnodirlar. Payg'ambarlardan o'zgarlar hasadga nisbatan oshkor etuvchi yoki yashiruvchidirlar. Hasadchilarning ham bir nechta darajasi bo'ladi. Ba'zilarining hasadi qalbini egallab oladi, ammo uning alomati tilida ko'rinmaydi. Yana shunday kimsalar borki, ular ne'matga erishgan odam qarshisida o'zini tutib tura olmaydi, g'azabini jilovlay olmaydi, ko'zini lo'q qilib, suqlanib ne'matga qaraydi, tili bilan ne'matga erishgan odamni g'iybat qiladi. Xullas, hasad eng yomon illatlardan biridir. Mo'min inson bunday qusurdan uzoq yurishga, qalbini isloh qilishga harakat qiladi

Salafi solihlardan ko'plari o'zini g'iybat qilgan shaxs haqida xabar eshitsu, unga hadyalar yuborar edilar.

Hasad qilish tuyg'usi har doim gunohga tenglashadi, chunki bu buzg'unchi tabiatga ega. Qalbingizdagi hasad bilan uni o'rmini egallovchi havas hissining tezlik bilan rivojlanishini o'rganilishi kerak. Bu, avvalo, tuyg'u sabablarini topishingiz

kerak. Ko'pincha, hasadning sababi – bu yutqazish qo'rquv hissi, har kimdan yomonroqdir. Ammo qo'rquv noldan chiqmaydi. Odam o'zini yoqtirmasa, o'zining barcha mohiyatini barcha afzalliklari va kamchiliklari bilan qabul qilmasa, u atrofida bo'lgan kishilardan noloyiq deb hisoblaydigan narsalarni yashirishga harakat qiladi. Komplekslar atrof-muhitdagi odamlarning idealizatsiyasi natijasida paydo bo'ladi. Natijada inson o'z hayotini eng yaxshi narsalarga ega bo'lish, yaxshiroq bo'lish, yaxshiroq yashash istagiga bag'ishlaydi. Bularning hammasini har qanday inson taqqoslash bilan bajaradi va bularning faoliyatidan qoniqish his qila olmaydi. Yaxshi va yomon hasad qilish tushunchalari shartli bo'lib, farq faqat boshqalarga zarar keltirishi mumkinmi? Lekin hasadgo'y kishi uchun qanday hasadning unga zarar yetkazishi muhim emas. Bunday holda qora hasadga qarshi eng yaxshi himoya qilish – o'zini qabul qilishdir. Yomonliklarni o'zingizning eskizlaringiz bilan birga qabul qiling, o'zingiz istagan darajada ideal emasligini tan olishdan qo'rqmang. Biror kishi o'zining mohiyatini qabul qilgandan so'ng, unga ta'sir qilishdan qo'rqib qoladi, kimdirdan yaxshiroq bo'lish istagini qoldiradi. Biror kishi o'zini yaxshi ko'rsa, u hech qanday bo'yluk uchun o'z shaxsiyligining bir qismini almashtirishni xohlamaydi va kimdir yaxshiroq bo'lganini aks ettirmasdan o'zini o'zi tashlamaydi. Aksincha, do'stlaringiz va qarindoshlaringizning har qanday muvaffaqiyati samimiy quvonchni keltirib, odamni baxtli qilishi mumkin bo'ladi.

Yakuniy qism. Hamma shaxslar hasadning "oq" va "qora"ga bo'linishini eshitgan. Bu hissiyotlarning kuchi haqida emas, balki ular bilan konstruktiv yoki halokatli kurashish qobiliyati haqida. "Qora" hasad – bu biz hasad qiladigan odamga yoki o'zimizga qaratilgan buzg'unchi reaksiyalar haqidagi hikoya ("men yutqazdim" uslubidagi o'zini o'zi tanqid qilish). "Oq" – shunga ko'ra, konstruktiv. Bu hasad tuyg'usidan biz yiqilmaymiz, aksincha, maqsadlarimizga erishish yo'lida o'zimizni undan uzoqlashtiramiz. Agar shunday bo'lsa, hasad bizga qadriyatlarimizni tan olishga yordam beradi. Agar siz muvaffaqiyatning bir turiga doimiy ravishda hasad qilsangiz, lekin bu sizning qadringiz bo'lmasa, unda qanday hasad borligini o'rganish yaxshi mavzu. Misol uchun, odam mashhur odamlarga hasad qiladi, lekin mashhur bo'lish uning qiymati emas. Biz buning

ortida nima borligini tekshirganimizda, “mashhur = sevilgan” kognitiv buzilish odamda ishlaydi va “sevilish” inson uchun qadrlil bo‘ladi. Keyin biz hasad emas, balki sevis kerakligi mavzusi bilan ishlaymiz.


Har doim ham boshqa insonlarning muvaffaqiyati bizga o‘xshab ko‘rinmasligiga e‘tibor berishni muhim deb hisoblayman. Biz yana lug‘atga qaraymiz: muvaffaqiyat – bu belgilangan maqsadning eng yuqori yutug‘i, faoliyat natijasi. Biz boshqaning “muvaffaqiyati”ga hasad qilganimizda, tekshirish yaxshi bo‘lardi: bu haqiqatan ham muvaffaqiyatmi yoki bu shunchaki chiroyli rasmmi? Bu odam haqiqatan ham o‘sha maqsadga intilganmi yoki u shu bilan tug‘ilganmi? Yoki bu boshqa maqsadlarga erishishning “tarafi”mi? Bu muvaffaqiyat unga nima qildi? Bunga kim yoki nima hissa qo‘shdi? Masalan, ilgari ortiqcha vaznga ega bo‘lgan odamda vazn yo‘qotishga hasad. Bunga hasad qilishdan oldin, oldingi va keyingi fotosuratlarini taqqoslab, quyidagi fikrlarni aniqlang: bu odamning maqsadi ozish edi va u bunga qanday erishgan? Va qanday qilib u

o‘z yutug‘ini saqlab qolishni rejalashtirmoqda? Bu hayotingizda takrorlamoqchi bo‘lgan narsaga o‘xshaydimi? Agar siz boshqasining maqsadi va yo‘lini bilsangiz, maqsadlaringizni, kelib chiqishingizni va shu natijaga erishmoqchi bo‘lgan yo‘llaringizni tekshiring. Endi his-tuyg‘ularingizni yana bir bor tekshiring. Ehtimol, hasadning izi yo‘q edi yoki uning o‘rnini mutlaqo boshqa tuyg‘ular egalladi.

Hasad hissining rivojlanishini kamaytirish orqali biz oiladagi sibliqlarda munosabatlar oqimini ijobiy tarafga o‘zgartiramiz. Shaxsda havas hissini o‘rganish usullarini rivojlantirish va ushbu hisni susaytirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning turlicha bo‘lgan omillari bilan qiyoslasak bo‘ladi. Hasad hissini emperik tadqiq qilish orqali biz ularning nima sababdan kelib chiqishini o‘rganamiz. Har bir oilada sibliqlar o‘rtasida uchrab turadigan hasad hisini bir qancha omillar tasirida bartaraf etish mumkin. Bularning barchasi shaxsning psixologik yetilshi va rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2010.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: darslik. – Toshkent, 2007.
3. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Davletshin M.G., Do‘stmuxamedova Sh.A., To‘ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2004.
5. Baykunusova G.Y. O‘smirlik davridagi yoshlarda hasad hissi paydo bo‘lishining psixologik omillari. – Toshkent, 2019.
6. Адамян Л.И. Саногенная рефлексия как фактор психологической устойчивости личности: дис. ...канд. психол. наук: 19.00.01 / Адамян Луиза Игоревна. – Москва, 2012. – 172 с.
7. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии / А. Адлер. – Москва, 1993. – 312 с.
8. Кошелева А.Д. Азбука любви: книга для родителей. – Москва: Просвещение, 1996. – 134 с.
9. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – Москва, 1977. – 317 с.



Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchi

TADQIQOTLARDA AYOLLAR MIGRATSIYASINING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI O'RGANILGANLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar migratsiyasining oilaviy muhitga, er-xotin munosabatlariga ijtimoiy-psixologik ta'siri yoritilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, ayollar migratsiyasi tufayli ortda qoldirilgan farzandlarning ruhiyatida yuzaga kelayotgan psixologik o'zgarishlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: migratsiya, ayollar migratsiyasi, oilaviy munosabatlar, farzandlardagi ruhiy o'zgarishlar, er-xotin munosabatlari

Annotation. This article presents an analysis of studies that have studied the socio-psychological impact of women's migration on the family environment and marital relations. It also highlights the psychological changes that occur in children left behind as a result of women's migration for the purpose of work.

Key words: migration, women's migration, family relations, psychological changes in children, marital relations

Аннотация. В статье представлен анализ исследований социально-психологического влияния женской миграции на семейную среду и супружеские отношения, а также освещены психологические изменения, происходящие у детей, оставшихся в результате женской миграции в поисках работы.

Ключевые слова: миграция, женская миграция, семейные отношения, духовные изменения детей, супружеские отношения.

Kirish. Migratsiya ko'p asrlardan buyon shakllanib kelayotgan jarayon bo'lib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning keng qamrovli rivojlanishi natijasida "chegaralarning yo'qolib borishi" kuzatilmogda. XXI asrda migratsiyaning rivojlanishi har qachongidan tez o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lib bormogda. Jahonda migratsiyaning yo'nalishlari, shakllari o'zgarib, keng qamrovli xususiyat kasb etmogda. Jumladan, ayollar migratsiyasi erkaklar migratsiyasi bilan teng raqamlarni tashkil etayotganini statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkin. Ayollar migratsiyasining sabablari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, geografik jihatlar bilan bir qatorda bugungi kunda psixologik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni ham qamrab olmogda¹.

¹ Women's Health In the North. (2022). Unpacking the Determinants: Migrant and Refugee Women's Mental Health. https://www.whin.org.au/wp-content/uploads/sites/2/2022/11/mental-health-report_PDF.pdf

Ayollar migratsiyasi – bu nafaqat shaxsiy, balki jamiyat darajasida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan masala. Ayollar ko'pincha oilaviy va iqtisodiy sabablar bilan migratsiya qilishadi. Biroq migratsiyaning ayollarga bo'lgan psixologik va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qilish, ularning oiladagi roli, psixologik holati va jamiyatdagi o'rni qanday o'zgarishini o'rganish muhimdir.

Maqsad va uni asoslash. Migratsiya jarayonining yo'nalishlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, u jamiyat, oila, inson hayotida tub burilishlar, chuqur o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Jumladan, mehnat migratsiyasi natijasida oilalar o'zini mehnat bandligi bilan ta'minlaydi, iqtisodiy sharoitini yaxshilab oladi. Bu mamlakatlar orasida chet-el valyutalarini ayirboshlashi, mamlakat ichidagi iqtisodiy munosabatlar takomillashib borishi, mamlakatlarning ichki va tashqi dunyo bilan aloqasi kengayib, iqtisodiy barqarorlik ortishiga sa-

bab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ko'plab ijtimoiy-psixologik muammolarga zamin yaratadi. Jumladan,

– oilaviy munosabatlar tizimida; avlodlararo jonli muloqot uzilishi, er-xotin munosabatida psixo-emotsional buzilishlar; ishonchsizlik, ajralishlar, xiyonat, depressiya;

– xiyonat, ota-ona va farzand munosabatlaridagi muammolar. Bunda uzoq vaqt ota-ona mehrini, g'axo'rligini his qilmaslik bolada hissiy-irodaviy sohasi, shaxslararo munosabatlarda muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;

– ota-onalarining har ikkisi yoki birining uzoqdaligi bolada aybdorlik hissi shakllanishiga sabab bo'ladi. Xavotir, o'qish jarayoniga sovuqqon munosabat shakllanishiga olib keladi.

– oilada onaning migratsiyaga ketishi, ayniqsa, qizlar hayotida muhim rolga ega bo'lgani sababli ma'naviy, axloqiy va ruhiy holatida salbiy o'zgarishlar shakllanishiga olib keluvchi omil vazifasini bajaradi.

2018-yil dekabr oyida UNICEF Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan "Janubi-Sharqiy, Janubiy va Markaziy Osiyoda migratsiyadan jabrlangan bolalarni himoya qilish" mintaqalararo yirik loyihasi bilan hamkorlikda "Migratsiyaning O'zbekiston bolalariga ta'siri" mavzusida tadqiqot o'tkazishni boshladi. Mamlakat (shahar, qishloq joylari): Buxoro, Farg'ona, Xorazm va Surxondaryoda ko'p o'lchovli kontekstdagi o'zgarishlarni ko'rib chiqib, mehnat migratsiyasi orqada qolgan bolalarning umumiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rgangan. Tadqiqotda ayollar va erkaklar migratsiyasining oilaga ta'sirini tushunish va ota-onalardan biri yoki ikkalasining uzoq vaqt yo'qligi ta'lim darajasi pasayishiga, rivojlanish pasayishiga va orqada qolgan bolalarning ruhiy-ijtimoiy farovonligi pasayishiga olib kelishi mumkinligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra migratsiya natijasida ortda qolgan oila ma'lum muddat moddiy barqarorlikka erishishi mumkin: oziq-ovqat, tibbiy salomatlik uchun vositalar, to'y-marosim o'tkazish kabi. Ammo migratsiyaning eng katta salbiy ta'siri bu oiladagi farzandlar tomonidan his qilinadi. Birinchi navbatda, bolalar ishonib qoldirilgan vasiylar bilan kelishmovchiliklar natijasida bolalarda vasiylar almashinuvi yoki bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari kuzatilishi mumkin.

Bolalarning psixologik holatiga ta'siri. Uy sharoitida qanday bo'lishidan qat'i nazar, ko'pchilik bolalar ota-onalari yo'qligida ularni sog'inadilar. Shu bois ota-onalar migratsiyasi bolalarning hissiy farovonligiga ham katta ta'sir o'tkazishi aniqlandi. Bolalar ota-onasiz yashaganda, ularning ko'pchiligining kayfiyati yomonlashgani,

jahldorlik, tushkunlikka berilish holatlari aniqlandi. Shuningdek, ota-ona yo'qligi davomiyligi oshishi bilan hissiy farovonlik pasayishi aniqlangan. Bolalar ota-onasini sog'inganda, ularda stress darajasi yuqori bo'lishi, kayfiyati pasayishi va xatti-harakatlarda tajovuzkorlik oshishi ma'lum bo'ldi. Bu esa o'z navbatida, bolalarning psixologik farovonligiga salbiy ta'sir qilishi isbotlangan.

Tadqiqotda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

– O'zbekiston hukumati ayollar migratsiyasining ayollar va bolalar uchun ko'lami hamda oqibatlarini tushunishda ko'proq milliy keng ko'lamli tadqiqotlarni moliyalashtirishni rag'batlantirish. Masalan, qarindoshlar, muassasa, vasiylar tarbiyasida qoldirilgan bolalar va migratsiyadan jabrlangan, zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarga va ayollarga alohida e'tibor qaratish lozim;

– viloyatlar bo'ylab 0 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olishni yaxshilash, onalar bandligini oshirish orqali oilaviy turmush tarzini barqarorlashtirish kabi muammolar uchun yechimlar keltirilgan².

M.S. Latipova ham o'z tadqiqot ishida "Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari"ni o'rgandi. Tadqiqotda jami 722 nafar o'smir yoshdagi sinaluvchilar qatnashgan bo'lib, izlanishlar xulosalariga ko'ra migrant oilalardagi o'smirlar boshqa migrant bo'lmagan oiladagi o'smirlarga nisbatan yuqori darajadagi impulsivlik bilan ajralib turishi aniqlangan. Shu bilan bir qatorda, migrant o'smirlar ko'pincha o'z harakatlari haqida chuqur o'ylay olmaydilar va ma'lum bir vaziyatga tezroq, to'g'ridan to'g'ri munosabatda bo'lishar ekan:

– ota-onalaridan uzoqda ekanligi, ular bilan doimiy muloqot mavjud emasligi migrant oila farzandlarida guruhlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishga doim ham moyil bo'lmaslik, jamoada ishlashni doim ham yaxshi ko'rmaslik, mustaqil ishlashni afzal ko'rish, muloqotda bo'lmaslik, tanishish va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishda cheklanishlarga intilish istagi mavjudligi aniqlandi;

– ota-onasining chet-davlatda ishlashiga sabab sifatida farzand o'zini aybdor hisoblashi natijasida bolaning psixikasida o'zidan nafratlanish, doimiy ichki aybdorlik hissi hosil bo'lishi aniqlangan;

– oilaviy hayotda xavotir bo'yicha hissi baland ko'rsatkich qayd etilib, migrant oila farzandlarida oilaning ertangi kunidan, ota-onasining ahvolidan, sog'ligidan hamda moddiy ta'minlanganlikning

² Full research report on "The impact of migration on children in Uzbekistan", UNICEF (2019) <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2936/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-EN.pdf>

dinamik sur'atda kechish yoki kechmasligidan xavotirlanish vaziyatli hamda shaxsiy xavotir o'chog'i alanga olishiga olib kelishi tadqiqot xulosalarida keltirib o'tilgan³.

M.Bo'riyeva 2023-yilda migratsiyaning er-xotin emotsional munosabatlariga ta'sirini o'rgandi. Tadqiqot Surxondaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi migrant er va xotinlarda o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasi migrant bo'lmagan oilalarga nisbatan past ekanligi aniqlangan. Shuningdek, oilada er mehnt migrant bo'lishi ayolning vazifalari ikki hissa oshishiga sabab bo'lar ekan. Bu, o'z navbatida, psixologik zo'riqishga olib kelishi bilan bir qatorda o'zaro hurmat, bir-birini tushunish omillari pasayishiga ham sabab bo'lishi aniqlangan. Migratsiya muddati ortgani sayin qo'rquv, vahima, o'ziga ishonchsizlik ortib borishi va bu holat oilaviy nizolarga sabab bo'lishi tadqiqotda o'z isbotini topgan. Turmush muddati ortishi an'anaviy oilalarda sevgi, ishonch, o'zaro hurmat tuyg'ularini kuchaytirsam, migrant oilalarda, aksincha, jismoniy va ruhiy sog'likka hamda oilaviy munosabatlarga putur yetishiga sabab bo'lishi aniqlandi⁴.

Bugungi kunda ayollarda moddiy qadriyatlarni ustun qo'yish har qachongidan ham kuchaymoqda, hatto jonidan aziz farzandlarini qarindoshlar qarmog'iga qoldirib, migratsiyaga ketish oddiy holga aylanib ulgurdi. Migratsiya farzandlar kelajagi uchun qilingan harakat bo'lishi mumkin. Ammo farzand psixikasi uchun ota-onasidan uzoqlashish haqiqiy fojiaiy travma bo'lib qolishini unutmaslik kerak

Migratsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, adabiyotlar "migrant oila" xususiyatlarini hamon to'liq ochib bera olgani yo'q. Chunki oila haqida umumiy tushunchalarimizda birga yashaydigan oila a'zolaridan yoki qarindoshlardan tashkil topgan "birlik"ni tushunamiz. Migratsiya jarayoni esa bu qarashlarni tubdan o'zgartirib yuboradi. Oilani birga ushlab turuvchi bog'liqliklarga esa pul o'tkazmalari sifatida iqtisodiy jihatdan baho berilib qolishi ham bugungi kunda kuzatilmoqda. Mehnat migratsiyasi ishtirokchisi bo'lgan ayol yoki erkak migratsiya jarayonida boshqa oila qurish hollari tadqiqotlarda kuzatilmoqda.

³ Saipova M.L. Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari Avtoref. diss. ... psixol. fan. dok. – T., 2022. – B. 30-32.

⁴ Bo'riyeva M. Migrant oilalarda er-xotin emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. – T., 2024. – B. 100-115.

Ayollar migratsiyasining oilaviy rollarga ta'sirini o'rgangan X.Zlotnikni fikricha, migant ayollar har qanday sharoitda va har qanday rivojlangan davlatda muommolarga duch kelishmoqda. Ayollar o'z farzandlarini qoldirib bo'lsa-da, chet-elga uzoq vaqt ishlashga ketishmoqda. Ular ortga qaytib, hammasini oldingidek davom ettirishni xohlashadi, ammo o'z oilasini ham saqlab qola olmaslik holatlari ko'plab uchrayotgani hamda oila kelajagi, ayniqsa, axloqiy-ma'naviy hayot inqiroziga olib kelish xavfi ortishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotlarda ayollar migratsiyasining jismoniy, iqtisodiy, huquqiy taraflari ko'p o'rganilgan. Bugungi kunda psixologik, hissiy qiyinchiliklar mavjud bo'lgan oilalarda rollar almashinuvini atroflicha o'rganish taqozo etilmoqda.⁵

L.B.Shneyder olib borgan tadqiqot ishi natijasiga ko'ra uzoq muddat birga yashamaydigan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida salbiy o'zgarishlar paydo bo'lishi kuzatilgan. Oila ichidagi ajrashishlar, xiyonat, farzandlarga befarqlik, farzandlar tarbiyasidagi buzilishlar aynan uzoq muddat birga yashamaydigan oilalarda yuzaga kelishini ta'kidlab o'tgan.

Jumladan, ernaing uzoq muddatga ishga ketishi ayol uchun juda katta muammolarni yuzaga keltiradi. Ilgari erkak tomonidan oila ichida bajariladigan ishlar bir vaqtning o'zida ayolning zimmasiga qolgan. Hissiy zo'riqishlar, stress va asabiylik yuzaga kelgan. Bu esa turli ijtimoiy, psixologik, tibbiy muammolarni keltirib chiqargan.

A.V.Dmitriyeva tomonidan migratsiya nizolarining ijtimoiy-psixologik muammolari o'rganilgan. Migrant oilalarda nizolar turli xil ko'rinishlarga ega bo'lib, rivojlanish dinamikasi yangilanib bormoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Migrant oilalar muammolarini o'rgangan olimlardan yana biri O.Shevchenko o'z tadqiqotlarida transmilliy oilalarni o'rganishga e'tibor qaratgan. Tadqiqot davomida "transmilliy oila", "transmilliy ota-onalik", "transmilliy otalik", "transmilliy onalik" kabi tushunchalarga aniqlik kiritilgan. Transmilliy oila deganda, ota-onalari yoki bolalari turli mamlakatlarda istiqomat qilayotgan, zamonaviy aloqa vositalari orqali muvaffaqiyatli saqlanib turadigan oilalar tushuniladi. Transmilliy ota-onalik esa mehnat migranti sifatida ota-ona boshqa davlatda bo'lib, farzandlari boshqa hududda istiqomat qilib, ularni moddiy jihatdan ta'minlab turish bilan kifoyalanadigan oilalar hisoblanadi. Transmilliy

⁵ Zlotnik X. migration and the family: the female perspective // Asian and pacific migration journal. 2015 <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/12320101/>

oilalarda farzandlar ota-onalardan o'rnak olish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi. Ularda ota-ona va bolalar birgalikda yashaydigan yadroviiy oila modeli shakllanmaydi. Bunday oilalarda eng ko'p aziyat chekadiganlar kichik yoshdagi bolalar bo'lib, ular ko'proq salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishadi. Ota-ona qadriyati va ular bilan munosabatlardagi hissiy kechinmalar buziladi. Transmilliy oila, transmilliy ota-onalik mavjud bo'lgan oilalarda quyidagi xususiyatlar ustunlik qiladi:

- a) farzand bilan muloqot qilish vaqti qisqaligi;
- b) ota-onaning bolaga ta'siri kamligi;
- v) his-tuyg'ular va munosabatlarning sovishi⁶.

Bu xususiyatlar oilaviy psixologik bog'liqlik yo'qolishiga olib keladi. Migrant oilalarda ijtimoiy-psixologik muommolarning yechimiga qaratilgan bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Xususan, F.Laczko migrant ayollarda yuzaga keladigan psixologik salomatlik bilan bog'liq muommolar (yolg'izlik, stress, depressiya, qo'rquv) oilaviy aloqalarni yanada yomonlashtirishiga sabab bo'lishini isbotlagan. F.Laczko migrant ayollarni yangi jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, oilalarni qo'llab-quvvatlash va o'zlari bilan birga migratsiya qilgan yoki ortda qolgan oilalariga psixologik barqarorlikni saqlashga yordam berishga mo'ljallangan tavsiyalarni ishlab chiqqan bo'lib, quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

– migratsiya qilgan ayollar uchun stressni kamaytirish bo'yicha maxsus psixologik maslahat xizmatlari, meditatsiya va mindfulness mashg'ulotlari tashkil etish mumkin. Bu, o'z navbatida, ayollarning salbiy hissiyotlarini boshqarishga va yangi jamiyatda o'zini yaxshi his qilishga yordam beradi. Shuningdek,

⁶ Шевченко. И.О Транснациональное родительство: исследования и проблемы. 2016 . <https://cyberleninka.ru/article/n/transnatsionalnoe-roditelstvo-issledovaniya-i-problemy>

psixologik yordam oilaning barcha a'zolariga, ayniqsa, farzandlarga ham taqdim etilishi orqali ularning hissiy holati sezilarli o'zgarishi mumkin;

– ayollarni yangi jamiyatda iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida malaka oshirish kurslari, ish topish bo'yicha maslahatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini taqdim etish zarur. Bu yordam ayollarga o'z oilalari uchun iqtisodiy farovonlikni saqlashda yordam beradi va psixologik stressni kamaytiradi. Iqtisodiy barqarorlik ayollarga o'z oilalari bilan yaxshiroq aloqalarni o'rnatishga imkon yaratadi;

– madaniy moslashuv ham muhim ahamiyat kasb etgani bois borayotgan davlati haqida kelib chiqishi, urf-odati, madaniyati, bayramlari, an'alarini o'rganish muhimligini aytib o'tishgan. Bu ayollarda ijtimoiy izolyatsiyani kamaytirish va yangi jamiyatda o'zini qo'llab-quvvatlangan his qilish imkoniyatini yaratadi⁷.

Yakuniy qism. Bugungi kunda ayollar migratsiyasi bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega: oilaning iqtisodiy tomondan holatini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik, yangi sohalarni o'zlashtirish kabi. Shu bilan bir qatorda, ayollar va bolalarning ijtimoiy-psixologik holatiga salbiy ta'sir etishini inkor eta olmaymiz. Bilamizki, sog'lom farzandlar kelajak poydevoridir. Olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni aytish mumkinki, kelajak avlodning davomchisi, farzandlar tarbiyachisi hisoblangan ayollar, avvalo, ona ekanligini his qilishi har bir qarori natijasini chuqur anglashini bugungi kun taqozo qilmoqda. Buning uchun ayollarimizdan har tamonlama bilim, jismoniy va ruhiy sog'lomlik talab qilinadi.

⁷ Laczko F. The Migration of Women: An Exploration of Gender and Migration // Migration and Development Review, 10 (2), 212-228. https://publications.iom.int/system/files/pdf/migration_policy_practice_journal_30.pdf

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bo'riyeva M. Migrant oilalarda er-xotin emotsional munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. – T., 2024. – B. 100-115.
2. Full research report on “The impact of migration on children in Uzbekistan”, UNICEF (2019) <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2936/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-EN.pdf>
3. Women's Health In the North (2022). Unpacking the Determinants: Migrant and Refugee Women's Mental Health. https://www.whin.org.au/wp-content/uploads/sites/2/2022/11/mental-health-report_PDF.pdf.
4. Saipova M.L. Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari. Avtoref. diss. ... psixol. fan. dok. – T., 2022. – B. 30-32.
5. Zlotnik X. Migration and the family: the female perspective //Asian and pacific migration journal. 2015. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/12320101/>
6. Шевченко И.О. Транснациональное родительство: исследования и проблемы. 2016. – С. 84-91.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/transnatsionalnoe-roditelstvo-issledovaniya-i-problemy>
8. Laczko F. (2017). The Migration of Women: An Exploration of Gender and Migration. Migration and Development Review, 10 (2). https://publications.iom.int/system/files/pdf/migration_policy_practice_journal_30.pdf



Mavlonov Bahodir Biloljonovich,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

O'SMIRLARNING HUSHYORLIK VA OGOHLIK FAZILATLARI RIVOJLANISHIDA OILADAGI TARBIYA USULLARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda oilaviy tarbiya usullarining ahamiyati xususida so'z boradi. Bunda muallif tarbiya usullarining har biriga batafsil to'xtab, tahlilga tortgan va har bir tarbiya usuli o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda qay darajada xizmat qilishi yoxud ta'sirini yoritib bergan.

Tayanch so'zlar: oila, ogohlik, hushyorlik, oilaviy tarbiya, tarbiya usullari, avtoritar, liberal-ruxsat beruvchi, demokratik, xaotik (tartibsiz), beparvo (gipo-g'amxo'rlik, hissiy rad etilish) va haddan tashqari himoyalovchi (giper-g'amxo'rlik) tarbiya.

Annotation. This article discusses the importance of family upbringing methods in developing the qualities of alertness and awareness in adolescents. In this article, the author discusses and analyzes each of the upbringing methods in detail, and highlights the extent to which each upbringing method serves or has an impact on developing the qualities of alertness and awareness in adolescents.

Key words: family, awareness, vigilance, family upbringing, upbringing methods, authoritarian, liberal-permissive, democratic, chaotic (disorderly), unloving (intimidation, emotional rejection) and overprotective (intimidation).

Аннотация. В данной статье говорится о значении методов семейного воспитания в развитии качеств внимательности и осознанности у подростков. При этом автор подробно остановился на каждом из методов обучения, проанализировал их и выделил, в какой степени каждый метод обучения служит или влияет на развитие внимательности и качеств настроженности у подростков.

Ключевые слова: семья, осознанность, бдительность, семейное воспитание, методы воспитания, авторитарный, либерально-разрешительный, демократический, хаотичный (беспорядок), индифферентный (гирозабота, эмоциональное неприятие) и сверхопекающий (гирозабота).

Kirish. Qator ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oiladagi tarbiya jarayoni ko'p hollarda oiladagi tarbiya uslublariga bog'liqligi tizimli ravishda asoslab berilgan. Shunga ko'ra, oila a'zolari tomonidan farzandlariga berilayotgan bilim va ko'nikmalar, g'amxo'rlik va muhabbat tuyg'ulari oiladagi tarbiya uslublarini belgilab beradi. Shuning uchun o'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlanishida oiladagi tarbiya

uslubini hamda ota-onalarning farzandlari bilan o'zaro muloqot usullari asosiy o'rinni egallaydi.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar jarayonida ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida qaror topishi, erkin fuqarolik jamiyati asoslari mustahkamlanishiga alohida ahamiyat berilishi natijasida: bir tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-

ma'naviy dunyoqarash shakllanmoqda; boshqa tomondan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o'rtasida yangi munosabatlar uyg'unligi qaror topmoqda. Bu esa oila, oilaviy munosabatlarda, jumladan, oilaviy tarbiyada milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar asosida demokratik uslubda tarbiya qilish jarayonini taqozo qilmoqda.

Rus psixologi V.S.Muxina haqiqiy ma'noda oilaviy hayot har qanday tasnifga qaraganda qiyinroq bo'lishini ta'kidlagan¹. Uning fikricha, oilada bir vaqtning o'zida farzandga bo'lgan munosabatning bir nechta uslublari namoyon bo'lishi mumkin. Chunki to'g'ridan to'g'ri bolaga qaratilgan munosabat uslublari bilan bir qatorda uning tarbiyasiga katta yoshli oila a'zolari (ota-onalar, bobo, buvi va boshqa qarindoshlar) o'rtasidagi muloqot ham so'zsiz ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Oilaviy tarbiya turini quyidagi xususiyatlar asosida aniqlash mumkin:

- himoya darajasi – ota-onalarning tarbiya bilan bandligi o'lchovi, ota-onalarning o'smirlarga qanchalik kuch, vaqt va e'tibor berishini baholash;

- ehtiyojlarni (moddiy, maishiy, ma'naviy) qondirishning to'liqligi;

- talablarni taqdim etish darajasi, ya'ni o'smirlarga yuklangan vazifalarning miqdori, sifati va nazorati;

- taqiqlar darajasi – bolaning mustaqilligi, xulq-atvor yo'lini tanlash qobiliyatining o'lchovi;

- jazoning jiddiyligi – ota-onalarning tarbiya usuli sifatida qanday jazolarni qo'llashi;

- tarbiya uslubining barqarorligi – ta'lim usullarini o'zgartirish keskinligi.

Oilaviy tarbiya uslublarining 6 ta asosiy shakli mavjud: avtoritar, liberal-ruxsat beruvchi, demokratik, xaotik (tartibsiz), beparvo (gipog'amxo'rlik, hissiy rad etilish) va haddan tashqari himoyalovchi (giper-g'amxo'rlik). Ushbu uslublarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bolaning psixikasi hamda shaxsiy rivojlanishiga turli darajada va yo'llar bilan ta'sir qiladi².

¹ Мухина В.С. Возрастная психология. – М.: Педагогика, 1998. – 259 с.

² Стрельцов А.А. Новая Доктрина информационной безопасности Российской Федерации: информационно-правовые основы защиты от информационных угроз. Труды по интеллектуальной собственности, издательство Автономная некоммерческая организация Творческий центр ЮНЕСКО (Москва). – № 1. – С. 119-123.

Avtoritar tarbiya uslubi bilan ota-onalar bolaning fikrlari va harakatlarini qat'iy boshqaradi, uning tashabbusini bostiradi, nazorat qiladi. Avtoritarizm (lot. "auctoritas" – kuch, ta'sir) – munozaraga yo'l qo'ymaydigan, qarshilik ko'rsatish u yoqda tursin, e'tirozlarga toqat qilmaydigan hokimiyat sifatida ta'riflanadi³. Tarbiya jarayonida bu usulni tanlagan ota-onalar odatda eng kichik xatolar uchun ham jismoniy jazodan, ya'ni majburlash, baqirish, taqiqlash, itarish, turtishdan foydalanadilar. Bolalar ota-ona mehridan, g'amxo'rlikidan, hamdardligidan mahrum bo'ladi. Bunday oilalarda bolaning faqat itoatkor va ijrochi bo'lib o'sishi haqida qayg'uradilar. Ammo farzandlar ishonchsiz, qo'rqqoq, asabiy, o'zini himoya qila olmaydigan yoki aksincha, tajovuzkor, avtoritar, ziddiyatli bo'lib ulg'ayadilar. Bunday o'smirlar jamiyatga, atrofdagi dunyoga yaxshi moslasha olmaydi.

Bola o'sib-ulg'aygan sari avtoritar ota-onalarning talablariga toqat qilolmay qoladi. O'smirlilik davrida tez-tez to'qnashuvlar ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Oilaviy tarbiyaning avtoritar uslubi ota-ona va o'smirlar o'rtasida nizolarni keltirib chiqaradi, o'smirlarda boshqalarga dushmanlik munosabati shakllanadi. Ota-onalar har doim o'zlari bola uchun qaror qabul qiladilar, shu bilan uning tashabbusini bostirib, uni o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganish imkoniyatidan mahrum qiladi. Faol va kuchli o'smirlar qo'zg'olon, qarshilik ko'rsatishni boshlaydilar, tajovuzkor bo'lishadi, ular uydan qochishlari ham mumkin. O'zini past baholaydigan uyatchan va ishonchsiz o'smirlar esa aksincha, hamma narsada ota-onasiga bo'ysunishga odatlanib qoladilar, o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishga urinmaydilar va har doim ota-onalariga tayanadilar⁴. Shu shaklda tarbiyalangan o'smirlarning aksariyati o'z fikrida aniq tura olmasligi, o'z fikriga ega bo'lmasligi, qaror qabul qila olmasligi sababli turli ta'sirlarga berilish,

³ Кучурин В.В. Научно-педагогические взгляды С.М. Соловьёва: опыт историко-педагогической реконструкции // Вестник ОГУ. 2020. – №3 (226). – С. 19-27.

⁴ Атаманов Г.А. О необходимости новых подходов к исследованию феномена экономической безопасности. Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономические науки 1 (71). "Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого" 2009. – С. 320-325.

kimlargadir ergashishi va ta'siriga tushishi holati kuzatiladi.

Liberal-ruxsat beruvchi uslubda bola bilan muloqot ruxsat berish va past intizom tamoyiliga asoslanadi. O'zini tasdiqlash uchun bola injiqliklardan foydalanadi, "Ber!", "Men xohlayman!" qabilida talab qiladi, qattiq xafa bo'ladi. Bola "Mumkin emas!", "Imkonsiz" kabi so'zlarini tushunmaydi, kattalarning ko'rsatmalari va talablariga rioya qilmaydi. Bola bilan liberal-ruxsat beruvchi muloqot uslubiga ega bo'lgan ota-onalar bolani boshqarishga qodir emasligi yoki istamasligi bilan ajralib turadi. Oilaviy tarbiyaning bu uslubi avtoritar uslubga qarama-qarshi sanaladi.

Liberal ota-onalar g'amxo'r, e'tiborli va farzandlari bilan yaqin munosabatlarga ega bo'lib, farzandiga o'zini namoyon qilish, o'z qobiliyatlarini ko'rsatish, ijodiy qobiliyatlarni, individuallikni ochish imkoniyatini beradi. Ota-onalar shu tarzda ularni nima to'g'ri va nima "noto'g'ri"ni farqlashni o'rgatishlariga chin dildan ishonishadi. Liberal ota-onalar o'z farzandlarining ruxsat etilgan, maqbul xulq-atvoriga chegara qo'yishda qiynaladilar⁵. Natijada bola xudbin, ziddiyatli, doimo atrofidagi odamlardan norozi bo'lib ulg'ayadi, bu esa unga normal ijtimoiy munosabatlarga kirishish va odamlar bilan kuchli hissiy aloqalar o'rnatish imkoniyatini bermaydi. Maktabda bunday bola bo'ysunishga, qonun va qoidalarga rioya qilishga odatlanmagani sababli tez-tez janjallarga duch kelishi mumkin.

Liberal ota-onalar tomonidan tarbiyalangan farzand kelajakda hayot qiyinchiliklariga dosh bera olmaydi, ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat ushbu o'smirlarda o'zini hurmat qilish va qadrlashning yetarli darajada shakllanmasligiga va turli g'oyalarga, ta'sirlarga berilish ehtimolini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan oiladagi tarbiyaning mazkur usuli o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirishda optimal usul emasligini ko'rsatmoqda.

Haddan tashqari himoyalovchi tarbiya uslubi yoki giper-g'amxo'rlik orqali ota-onalar o'zlari istamagan holda bolani jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishda mustaqillikdan mahrum qiladilar, ularning rivojlanishini kechiktiradilar. Ular doimo farzandining yonida bo'lib, uning muammolarini

uning o'rniga hal qilishadi, farzandining o'rniga yashashadi. Bunday oilalarda farzandga haddan tashqari g'amxo'rlik qilish, sog'lig'idan qo'rqish va tashvishlanish odatiy hol sanaladi. Bunday bolalar o'smirlikida va katta bo'lganlarida ham ota-onalar unga haddan tashqari g'amxo'rlik qilishda davom etadilar, uning sog'lig'i va farovonligi uchun doimo tashvishlanadilar. Giper-g'amxo'rlikning fanda to'rt turi ajratib ko'rsatiladi: *inert, barcha so'rovlarni mutlaq qondirish, dominant, ko'rgazmali*⁶.

Giper-g'amxo'rlik bolaning tashabbusi, irodasi va erkinligini, uning energiyasi va kognitiv faolligini bostiradi, mustaqillikdan mahrum qiladi, unda kamtarlik, irodasizlik, nochorlik xislatlarini tarbiyalaydi. Haddan tashqari himoyalangan tarbiya uslubi bilan ota-onalar ongsiz ravishda bolada turli ko'nikma va qobiliyatlar shakllanishiga, maqsadga erishishda qat'iyatlilik, mehnatsevarlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladilar⁷. Natijada bola ojiz, o'ziga ishonchsiz, nevroz, xavotirli, yig'loqi holda o'sadi. Keyinchalik u ijtimoiylashuvda, jumladan, o'smirlik paytida qiyinchiliklarga uchraydi. Bu o'smirlar itoatkor, o'zlariga, kuchli tomonlariga hamda imkoniyatlariga ishonchsiz bo'lib o'sadilar va doimo noto'g'ri ish qilishdan, xato qilishdan qo'rqishadi. O'smirlik davridagi ba'zi bolalar ota-onalarning haddan tashqari nazorati hamda vasiyigidan qochishga intiladilar, tajovuzkorlik, o'zboshimchalik holatlarini ko'rsatadilar.

Giper-vasiylik, nazorat, cheklash va taqiqlar bolaning aldash hamda maxfiylik qobiliyatini rivojlantiradi. O'smirlar doimiy ravishda shaxsiy hayotini nazorat qilishga urinayotgan ota-onalarga qarshi yolg'on ishlatib, o'zini himoya qilishga harakat qiladilar. Bu esa oxir-oqibat ulardan begonalashishiga olib kelishi mumkin. Oilaviy ta'limning haddan tashqari himoya uslubi o'smirlarning erkin fikrlashi, qaror qabul qilishida to'sqinlik qiladi hamda ularning psixofiziologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi

⁶ Ёзиева У. Проблемы использования информационно-коммуникационных технологий для повышения эффективности дошкольного образования. электронный журнал "Общество и инновации". <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1465>

⁷ Кадиева М.Р. Педагогическое взаимодействие семьи и школы как условие социализации личности младшего школьника // Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – Махачкала, 2013. – № 2. – С. 57-61.

⁵ Магомедалиева А.М. Социализация подростка в современном обществе. <https://scienceforum.ru/2014/article/2014005573#>

nazardan tarbiyaning mazkur uslubi o'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda optimal usul emasligini namoyon qildi.

Oilaviy tarbiyaning *beparvo (hissiy rad etilish) uslubi* ota-ona tomonidan bolaning shaxsiyatiga chuqur befarqlik holati namoyon bo'lishini ifodalaydi. Oilaviy hayotda va munosabatlarda ota-onalar bolani "sezmaydilar", uning jismoniy rivojlanishi va ichki kechinmalari bilan qiziqmagan holda farzandi bilan muloqot qilishdan faol ravishda qochish, uni o'zidan uzoqroq tutishga harakat qiladilar⁸. Bolalar o'zlari bilan o'zlari ovora bo'lishadi. Odatda ota-onalardan biri yoki ikkalasi ham spirtli ichimliklarni yoki giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan disfunktsional oilalarda mazkur holat ko'proq kuzatiladi.

Yashirin hissiy rad etish yoki beparvolik deganda, ota-onalar tan olmagan holda farzandlarini hissiy rad etishi holati tushuniladi. Bunda ota-ona farzandiga g'amxo'rlik qilsa-da, o'smir munosabatlarda samimiylik va hissiy iliqlik yetishmasligini his qiladi. Mazkur oilalarda ota-onalarning shu kabi befarq munosabati farzandning o'zini yolg'iz va o'ta baxtsiz, ishonchsiz qilib qo'yadi. U muloqot qilish istagini yo'qotadi, odamlarga nisbatan tajovuzkorlik shakllanishi mumkin. O'smir yoshida bunday bolalarning deviant xulq-atvorni namoyon qilishi, turli salbiy ta'sirlarga berilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan oilada ota-onaning farzandlariga nisbatan beparvolik holati ularning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatini keskin kamaytiradi.

Ba'zi psixologlar *oila tarbiyasining xaotik uslubini* ajratib ko'rsatib, mazkur uslub bolani tarbiyalashda yagona izchil yondashuv yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ota-onalar o'rtasidagi ta'lim vositalari va usullarini tanlashda kelishmovchiliklar asosida xaotik uslub paydo bo'ladi. Oiladagi nizolar tez-tez takrorlanishi, ota-onalarning doimiy ravishda o'zaro munosabatlarni bola huzurida tartibga solishi ko'p holatda farzandda nevroitik reaksiyalar shakllanishiga olib keladi.

Bolaning barqaror va aniq ko'rsatmalariga ehtiyoji bor bo'ladi. Turli xil tarbiya va muloqot uslublaridan foydalanadigan ota-onalar bolani

bunday barqarorlikdan mahrum qiladi, tashvishli, ishonchsiz, impulsiv, ba'zi hollarda tajovuzkor, nazoratsiz shaxsni shakllantiradilar. Ota-onalarning oldindan aytib bo'lmaydigan harakatlari va reaksiyalari bolani barqarorlik tuyg'usidan mahrum qilib, noaniqlik, impulsivlik, tashvish, tajovuzkorlik, nazoratsizlik va ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatlarini shakllantiradi. Shunday oilalarda tarbiya olgan farzandlarning ruhiy barqarorligi yaxshi holatda bo'lmaydi, garchi ularning vaziyatga moslashish fazilati yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, hayotiy normalar, yaxshilik va yomonlik borasidagi tasavvurlari yetarlicha qat'iy bo'lmasligi mumkin. Bu holat ularning hushyorlik va ogohlik fazilatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demokratik tarbiya uslubida ota-onalar bolaning tashabbusini, mustaqilligini rag'batlantirishga, unga yordam berib, ehtiyojlari va talablarini inobatga olishga harakat qilishadi. Bunday oilalarda farzand ota-onasi uni yaxshi ko'rishini, xayrixohligini sezib, ular bilan o'zi uchun qiziq bo'lgan mavzularda erkin suhbatlasha oladi. Ota-onalar hatto farzandlariga oilaviy muammolarni muhokama qilishda ishtirok etishlari va qaror qabul qilishda ularning fikrini hisobga olishlari mumkin. Bu bilan ularning fikr bildirish va qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanishini e'tirof etish lozim. Shuningdek, ota-onalar, o'z navbatida, bolalardan mazmunli xulq-atvorni talab qilishadi, intizomga rioya qilishda qat'iylik va izchillikni namoyon qilishadi.

Oilada farzandning faol pozitsiyada bo'lishi uning kuchli tomonlarini, o'ziga bo'lgan ishonchini va o'zini boshqarish tajribasini beradi. Bunday oilalardagi bolalar ota-onalarning maslahatlarini tinglaydilar, "zarur" so'zini biladilar, o'zlarini qanday tartibga solishni va atrofdagilar, sinfdoshlari bilan munosabatlarni qanday o'rnatishni biladilar. Shuningdek, demokratik tarbiya uslubi ota-onalar va bolalar o'rtasida o'zaro tushunish, ular o'rtasida iliq his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi, tez-tez muloqot qilish va mo'tadil intizom bilan tavsiflanadi. Ota-onalar farzandiga e'tiborli bo'lib, uni hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, oilada mehr va g'amxo'rlik muhitini yaratadi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro tushunish yoki kelishuv ishonchirish, muhokama qilish, murosaga kelish orqali erishiladi. Ota-onalar har doim o'z farzandini tinglaydilar, bolaga sodir etilgan harakatlar uchun javobgarlikni olish imkoniyatini beradilar.

⁸ Кирилюк Е.Ф. Изучение чувства взрослости подростков // Гуманитарный научный вестник. – Смоленск. – 2016. – №1. – С.11-15.

Bu uslubda shakllangan o'smirlar faol, izlanuvchan, mustaqil, o'zlari va yaqinlari uchun qadr-qimmat va mas'uliyat hissi rivojlangan, har tomonlama rivojlangan shaxslar bo'lib yetishadi. Ular maktabda yaxshi o'qiydilar, tengdoshlarining salbiy ta'siriga kamroq moyil bo'ladilar va qanday qilib yaxshi munosabatda bo'lishni, odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishni biladilar. O'smirda mas'uliyatlilik, mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch, o'z xohish-istaklarini nazorat qilish ko'nikmalari shakllanadi hamda qoida tariqasida bunday farzandlar hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Shu nuqtayi nazardan oiladagi tarbiyaning demokratik uslubi o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish uchun optimal ekanligi namoyon bo'ldi.

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan o'smir bolalarda oila muhitida ogohlik va hushyorlik fazilatlarini rivojlantirish uchun bir tomondan, ularning bilish jarayonlarini sezgirlik tarafga qarab kuchaytirish, ikkinchi tomondan, aniqlangan, sezilgan narsa-hodisalarning o'tmish va kelajagi haqida bir necha bosqichga chuqurroq mulohaza yuritishga odatlantirish strategiyalarini tanlash samarali bo'lishi mumkin. Ana shu jihatni hisobga olib tadqiqot doirasida ota-onalar uchun mo'ljallangan ikkita mualliflik texnologiyasi ishlab chiqildi.

I. "Senzitivlik" texnologiyasi.

Atrof-muhitni bilish jarayonida obyektga nisbatan sezgirlikni rivojlantirish amaliyoti:

1-bosqich. Bolaga uni bevosita qurshab turgan muhit (shaxsiy xonasi, uy, hovli va h.k.)da so'nggi kunlarda bo'lgan eng kichik o'zgarishlarni e'tiborga olib qo'yib, har hafta so'ngida xabar berish vazifasini topshirish.

2-bosqich. Bolaga o'quv muassasasigacha bo'lgan yo'lda bir haftada ro'y bergan qandaydir noodatiy hodisalarni qayd etib, asosiysi ularning atrof-muhitidagi holatlarni maksimal aniqlik bilan tasvirlashni taklif etish.

3-bosqich. Bolaga muayyan joyda bir vaqtda ro'y bergan hodisalarni juft-juft qilib (ikkita bir vaqtda sodir bo'lgan hodisani juftlikda) keltirib berishni, hafta davomida uning e'tiborini tortgan shunday voqealarning ro'yxatini tuzib chiqishni o'ziga xos aqliy o'yin sifatida vazifa qilib qo'yish (keyinchalik buni uchtadan, to'rttadan va h.k. bir vaqtda ro'y beruvchi hodisalar misolida ham amalga oshirish mumkin).

4-bosqich. Bolani agar unda ma'lum narsa-buyum yoki muayyan xatti-harakatni odamlar ko'radigan ochiq joyda yashirishga qandaydir zarurat bo'lib qolganda, ularni qayerda, nimalar fonida joylashtirishi mumkinligi haqida o'ylatirish qo'yish.

5-bosqich. Bolaga hayot, salomatlik, mol-mulk va obro'ga xavf-xatar tug'dirishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning ro'yxatini tuzib berish lozim bo'lsa, uning tarkibidan qanday ogohlantirishlar o'rin olishi mumkinligi haqida bandma-band (har bir yo'nalishda, ya'ni hayotga, salomatlikka, mol-mulk va shaxsiy mavqe, obro'ga) yozib berishni taklif etish.

Ko'rinib turganidek, keltirilgan strategik chora-tadbirlarning negizida, birinchidan, asta-sekin bolani avval unga yaqin bo'lgan uy-joy sharoitidan kattaroq makondagi voqea-hodisalarni kuzatishga, sinchkovlik bilan ularni o'rganishga qaratilgan yondashuv tatbiq etiladi, ikkinchidan, bosqichma-bosqich, bolaga muayyan kuzatuvchanlik vazifasidan amalda o'z qo'li bilan o'sha sinchkovlikni namoyon etishini nazarda tutadigan topshiriqlarga o'tiladi.

II. "PXAB (Potensial xatarni adekvat baholash)" texnologiyasi.

Atrof-olamdagi narsa-hodisalardagi potensial xatarni adekvat baholash sifatini rivojlantirish amaliyoti:

1-bosqich. Bolaga o'zi ko'rgan kinofilmlardan yoki o'qigan kitoblaridan dastlab qahramonlar oshkora e'tiborga olmagan, mensimay qaragan, ammo keyinchalik ulkan talafotlar, olamshumul o'zgarishlarga olib kelgan hodisalar yuzasidan qiziqarli ma'lumotnoma tayyorlashni taklif etish.

2-bosqich. Bolaga o'zida yoki biror do'stida ro'y bergan kasallik, tan jarohati dastlab qanday alomatlarda namoyon bo'lgani, ammo bu ilk kichik alomatlar e'tiborga olinmaganda ko'p o'tmay qanday asoratlar yuzaga kelgani haqida o'ylanib ko'rish va so'zlab berish vazifasini topshirish.

3-bosqich. Bolaga vaqti-vaqti bilan o'ta-ketgan "vahimachi odam" rolida bo'lib ko'rishni, shu rolli pozitsiyadan turib qandaydir juda kichik, arzimmas hodisani, uning maksimal uzoq oqibatlarini izohlash topshirig'ini qo'yish.

4-bosqich. Bolani biror yaqin inson yoki do'st qandaydir xatti-harakat rejasini aytgan vaziyatni tasvirlab (masalan, do'sti qayergadir metroda borishni reja qilayotganini, qaysidir kitobni

kserokopiyadan chiqarib olishni o'ylayotganini va shu kabi boshqa oddiy kundalik ishlar haqida aytayotgan bo'lsin), shunday ishlardan oldin uni qanday qilib, qaysi so'zlar bilan ehtiyotkorlikka undash mumkinligi haqida o'ylantirib qo'yish.

5-bosqich. Bolani inson hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan turli omillarning (har safar bu mavzudagi muloqotda ulardan birini tanlab olib) xavfli tomonlarini, ayanchli oqibatlarini yaqinlar va do'stlarga qanday qilib tushuntirish mumkinligi yuzasidan mulohaza qilib ko'rishga chorlash.

Yakuniy qism. Zamonaviy yoshlar muloqot qilish, muammolarni muhokama qilish, fikr bildirish, ishlash, o'qish, yangi faoliyat modellarini

o'zlashtirishga imkon beruvchi maydon sifatida Internetdan faol foydalanadi. Shu sababli insonning ijtimoiy rivojlanishining maqsadli va yo'naltiruvchi jihatiga ustuvorlik beradigan ijtimoiylashuvning an'naviy agentlari (oilalar, ta'lim tashkiloti, mahalla, sotsium va boshqalar)dan farqli ravishda Internet noxiziq va nazorat qilib bo'lmaydigan jihatlari bilan ajralib turadi. Shunday ekan, o'smir yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ularni tarbiyalashda mos usullarni tanlash lozimligini ko'rsatmoqda. Tarbiya usullarini o'z o'rnida qo'llash nafaqat ogohlik va hushyorlik fazilatlarini rivojlantirishda, balki bolalarning dunyorashi kengayishida, yetuk shaxs bo'lib yetishishida muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мухина В.С. Возрастная психология. – М.: Педагогика, 1998. – 259 с.
2. Стрельцов А.А. Новая Доктрина информационной безопасности Российской Федерации: информационно-правовые основы защиты от информационных угроз. Труды по интеллектуальной собственности, издательство Автономная некоммерческая организация Творческий центр ЮНЕСКО (Москва). – №1. – С. 119-123.
3. Кучурин В.В. Научно-педагогические взгляды С.М. Соловьёва: опыт историко-педагогической реконструкции // Вестник ОГУ. 2020. – №3 (226). – С. 19-27.
4. Атаманов Г.А. О необходимости новых подходов к исследованию феномена экономической безопасности. Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономические науки 1 (71). "Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого" 2009. – С. 320-325.
5. Магомедалиева А.М. Социализация подростка в современном обществе. <https://scienceforum.ru/2014/article/2014005573#>
6. Ёзиева У. Проблемы использования информационно-коммуникационных технологий для повышения эффективности дошкольного образования. электронный журнал "Общество и инновации". <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1465>
7. Кадиева М.Р. Педагогическое взаимодействие семьи и школы как условие социализации личности младшего школьника // Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – Махачкала, 2013 – № 2. – С. 57-61.
8. Кирилюк Е.Ф. Изучение чувства взрослости подростков // Гуманитарный научный вестник. – Смоленск. 2016. – №1. – С. 11-15.



Nomozova O'g'iloj Akmaljon qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktranti,
Elektron pochta: ogiloy.nomozova@mail.ru

OILADA ER VA XOTIN NUTQIDAGI GENDER JIHALARNING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Annotatsiya. Muloqot inson hayotining barcha faoliyatida eng muhim va zarur jarayon hisoblanib, har bir faoliyatga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi. Shuningdek, oilada ham nutq odobi, muloqot jarayoni oilaviy munosabatlarga ham muhim ta'sir kuchiga ega omil sanaladi. Muloqotning gender, ya'ni jins bo'yicha farqli belgilari, xususiyatlari mavjud bo'lib, bu oilaviy muloqotda ham yaqqol aks etadi. Ushbu maqolada ham oilada er va xotin nutqidagi gender jihatlarning xususiyatlari hamda ularning oila a'zolar munosabatlariga, oila farovonligiga ta'siri yoritib berilgan. Mavzuni asoslash maqsadida o'zbek va xorij olimlarining bu boradagi fikrlari tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: oila, munosabat, gender, nutq, muloqot, oilaviy muloqot, gender lingvistika, nutqning gender jihatlari, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, muomala odobi, muloqot madaniyati, gender roli, nutq uslubi, ijtimoiy kutishlar, stereotiplar, empatiya, muloqotga ochiqlik, moslashuvchanlik.

Аннотация. Общение является важнейшим и необходимым процессом во всей жизнедеятельности человека и может оказывать существенное влияние на каждую деятельность. Также речевой этикет в семье, процесс общения считаются факторами, оказывающими важное влияние на семейные отношения. Общение имеет гендерные, то есть гендерные отличительные признаки и особенности, которые ярко отражаются и в семейном общении. В этой статье также освещены особенности гендерных аспектов в речи мужа и жены в семье и их влияние на отношения членов семьи, благополучие семьи. С целью обоснования темы были проанализированы мнения узбекских и зарубежных ученых по этому поводу.

Ключевые слова: семья, отношение, гендер, речь, общение, семейное общение, гендерная лингвистика, гендерные аспекты речи, женская речь, мужская речь, этикет общения, культура общения, гендерная роль, стиль речи, социальные ожидания, стереотипы, эмпатия, открытость к общению, гибкость.

Annotation. Communication is considered the most crucial and essential process in all aspects of human life and can significantly impact every activity. Similarly, speech etiquette and communication processes within the family are factors that have a substantial influence on family relationships. There are gender-specific characteristics and features of communication, which are also clearly reflected in family interactions. This article highlights the characteristics of gender aspects in the speech of husbands and wives within the family and their influence on relationships among family members and family well-being. To support the topic, the views of Uzbek and foreign scholars on this matter have been analyzed.

Key words: family, relationship, gender, speech, communication, family communication, gender linguistics, gender aspects of speech, women's speech, men's speech, communication etiquette, communication culture, gender role, speech style, social expectations, stereotypes, empathy, openness to communication, adaptability.

Kirish. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida insoniyat hayotida muhim o'rin tutadi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy hayotning barqarorligi va baxtiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu munosabatlarning muhim bir qismi – bu er va xotin muloqotidir. Bu o'rinda er va xotin nutqidagi gender farqlar oilaviy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maqolamizda ushbu masalalar tahlilga tortiladi.

Maqsad va uni asoslash. Oilaviy munosabatlarda eng muhim ta'sir kuchiga ega omillardan biri – bu nutq, muloqot hisoblanadi. Nutqning shunday nozik jihatlari, qirralari mavjudki, ular bevosita muloqot jarayonida yuzaga keladi. Nutqdagi o'ziga xosliklar gender jihatdan ham farqlanadi, ya'ni erkak va ayol nutqi bir xil deb ayta olmaymiz. Bu ikki jins vakillari fizologik, psixologik jihatdan bir-biridan farq qilishi bilan bir qatorda, shuningdek, ularning nutqida ham har jins bilan bog'liq o'ziga xosliklar kuzatiladi. Bu farqlar ilm-fanda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning tadqiqotlarida mazkur masala psixologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar bilan aloqadorlikda yoritib berilgan.

Ushbu maqolada muloqotning gender jihatlarini yoritgan holda erkak va ayol nutqining gender xususiyatlari orqali oila barqarorligini ta'minlash xususiyatini ochib berish maqsad qilingan. Oilaviy muloqot, gender lingvistika, nutqning gender jihatlarini borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlarni uchratish mumkin.

Ma'lumki, muloqot jarayonida so'zlovchi qaysi jins vakili bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatdagi barcha uchun yagona muayyan til va til tizimidan foydalanadi. Biroq shunday bo'lsa haam, har bir shaxsning nutqi va uning lisoniy qobiliyati turlicha bo'lishi mumkin. Bunday farqlilik insonning jinsi, yoshi, kasbi kabi ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

Muloqotning gender jihatlarini tilshunos olimlar tomonidan ham tadqiq etilayotgani holda bu tilshunoslikda alohida yo'nalish – gender lingvistika yo'nalishi sifatida kirib keldi.

Gender lingvistika yuzasidan dunyo tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar XX asrning 90-yillariga kelib qizg'in tus oldi. Xususan, bu borada rus tilshunosligida bir qancha ahamiyatli ishlar amalga oshirildi. Gender lingvistika o'zbek tilshunosligida ham o'rganilgan va o'rganilayotgan

yo'nalish bo'lib, bu borada ayrim olimlarning tadqiqotlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, S.Mo'minovning ko'pgina tadqiqotlari ham o'zbek muloqot xulqiga bag'ishlangan bo'lib, unda ham gender lingvistikaga oid ayrim ma'lumotlarga duch kelamiz. Xususan, olim gender lingvistikasini hudud jihatdan ham tahlil qilgan¹. Sh.Iskandarovning ilmiy ishlarida o'zbek nutq odatining muloqot shakllariga e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda olima muloqotning gender xususiyatlariga ham to'xtab o'tgan². Ayniqsa, olimaning “Ayollar nutqida undov so'zlarning qo'llanishi”, “O'zbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar” nomli maqolalarida ayollar nutqiga xos ayrim lingvistik xususiyatlar yoritib berilgan. Shuningdek, Z.Akbarovanning “O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi” hamda N.Ahmedovanning “O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishlarida jins anglatish maydoniga ko'ra murojaat so'zlar guruhining izohi haqida to'xtalib o'tilgan.

M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik ishida o'zbek va boshqa millat ayollarining qayg'uni ifodalovchi usullari aniqlangan. F.Musayevaning “O'zbek tilida biologik jinsni ifodalashning leksik-semantik usuli” nomli maqolasida erkak va ayol jinsi ma'nosini ifodalovchi leksemalar haqida ma'lumot berilgan.

Umuman olganda, o'zbek tilshunosligida gender lingvistika yo'nalishi yanada kengroq doirada tadqiq etilmoqda. Mazkur maqolamizda esa biz oilada er va xotin muloqotida, o'zaro munosabatlarida ularning nutqidagi gender jihatlar qanchalik ahamiyat kasb etishi, munosabatlarga ta'siri masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jarayonda ushbu qo'yilgan masalaga gender lingvistik jihatdan yondashuv maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oilaviy munosabatlarga, birinchi navbatda, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar ijobiy kechishida bir qator omillar mavjud bo'lib, bu o'rinda nutq, muloqot masalasi alohida ahamiyatga ega. Zero, nizoli vaziyatlarda ham birgina shirin so'z inson ko'ngliga yo'l topishi, nizolarni barataraf etishga yordam berishi mumkin. Albatta, mazkur masalada

¹ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатдан ҳосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Б. 64-66.

² Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Автореф. дисс. ... фил. фан. номз. – Самарқанд, 1993.

ularning nutq eng muhim vosita hisoblanadi. Ana shu jihatdan yuqorida qo'yilgan masalani tadqiq etish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir.

O'zbek xalqida er va xotinning oilada muomala odobi, o'zaro muloqot madaniyati xususida ba'zi qadriyatlar, gender stereotiplar mavjud. Masalan, o'zbek oilalarida ayol oilada o'z turmush o'rto'giga "siz"lab murojaat qilishi, turmush o'rto'gini ismi bilan emas, ma'lum so'zlar bilan murojaat qilishi (masalan, "begim, xo'jayin, azizim, dadasi" kabi so'zlar) xalqimizga xos milliy va ma'naviy qadriyat hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Oilada erkak va xotin o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha gender rollariga asoslanadi. Gender roli – bu jamiyat tomonidan erkak va ayollarga o'zlarining qadr-qimmatlari, vazifalari va mas'uliyatlari haqida berilgan kutishlar va me'yorlardir. Nafaqat oilaviy munosabatlarda, balki har bir faoliyatda har bir jinsning nutqi orqali o'ziga xos ifodasi va muloqot tarzini kuzatish mumkin. Jins jihatdan nutqning o'ziga xosligi oilaviy munosabatlarga ham sezilarli ta'sir qiladi. Quyida erkak va ayol nutqining gender jihatlarini keltirib o'tamiz.

1. Erkak va xotin nutqidagi gender jihatleri

- Nutq uslubi: erkaklar va ayollar o'rtasidagi nutq uslubi ko'pincha farq qiladi. Erkaklar ko'proq faktlarga asoslangan, konkret va mantiqiy nutq uslubini qo'llashadi, ayollar esa hissiy, empatik va qo'llab-quvvatlovchi, ya'ni badiiy nutq uslubini afzal ko'radilar. Bu farqlar ayrim holatlarda oilaviy munosabatlarda va oilaviy muammolarda to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Kuzatishlar asosida aytish muminki, ayol o'z his-tuyg'ularini, ehtiyojlarini va muammolarini bildirishni afzal ko'radi, erkak esa bu his-tuyg'ulariga nisbatan ko'proq ehtiyotkor yoki befarq bo'lishi mumkin.

- Hukmronlik va nazorat: Odatda erkaklar o'zlarining nutqi orqali oilada hukmronlikni ko'rsatishadi. Bu, o'z navbatida, xotinning so'zlashish imkoniyatlarini cheklashi va unga bo'lgan hurmatni kamaytirishi mumkin. Ba'zi hollarda, erkaklar ayollarga nisbatan ma'lum bir ustunlikni yaratish uchun nutqni manipulyatsiya qilishlari mumkin. Ushbu holatda ham muvozanat bo'lmasa, nizolarga, muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

2. Gender rollarining oila munosabatlariga ta'siri.

- Muvaffaqiyat va kelishuv: oila ichida erkaklar va ayollar o'rtasidagi nutq farqlari o'zaro kelishuv va muvaffaqiyatga ta'sir qilishi mumkin. Agar bir tomon o'z fikrini boshqalarga nisbatan ko'proq va aniqroq bildirish imkoniga ega bo'lsa, bu o'zaro kelishuvning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

- Emotsional farq: erkaklar ko'pincha o'zlarining hissiy holatlarini nutq orqali ifodalashda qiynalishadi, hattoki buni u gender bilan bog'liq stereotiplar tufayli buni o'ziga ep ko'rmaslik holatlari ham kuzatilgan. Ayollarda esa bu aksincha. Erkak nutqida o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalay olmaslik holati oqibatida ba'zida oilaviy munosabatlardagi empatiya darajasi pasayishi mumkin.

- Ijtimoiy kutishlar va stereotiplar: oilada erkak va ayolning nutqiga qarab ijtimoiy kutishlar va stereotiplar ham shakllanadi. Masalan, ayol o'ziga xos ravishda oila bilan bog'liq bo'lgan mas'uliyat hamda vazifalarni muhokama qilishga, bolalar tarbiyasi yoki uy yumushlariga oid gaplarni ko'proq gapirishga moyil bo'lishi mumkin. Erkak esa ko'pincha o'zini oilaning moliyaviy qo'llab-quvvatlovchisi sifatida ifodalaydi.

3. Oilaviy muammolar va tushunmovchiliklar.

Nutqdagi gender farqlari oilada ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Buni yuqorida keltirigan farqlar misolida ham qayd etdik. Erkaklar ba'zida xotinlarining his-tuyg'ularini to'liq anglamasliklari yoki o'zaro muloqotda maslahatlashuvdan ko'ra ko'rsatmalarni berish tendensiyasiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa ayolga o'zini ifodalashda cheklash va o'zgarishlarga qarshi qarshi turishga olib keladi.

4. O'zgarishlar va yondashuvlar

Zamonaviy jamiyatda gender rollari o'zgarishi va tenglikka erishishga bo'lgan intilish oilaviy munosabatlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat, tenglik va samarali muloqot ustun bo'lishi juda muhim. Bu, o'z navbatida, oilaviy tinchlik va farovonlikni ta'minlashga yordam beradi.

Oilada erkak va ayol nutqidagi, o'zbek ayollari va erkaklari nutqidagi gender farqlari bo'yicha bir qancha o'zbek olimlarining fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq. Xususan, filolog olimi Sh.K.Gulyamovning ilmiy ishlarida o'zbek tilidagi evfemizmlarning gender xoslanganligini, o'zbek

tilidagi aytilishi odob me'yorlariga zid bo'lgan, yoqimsiz ba uyat sanalgan birliklarning erkak va ayol nutqiy muloqotida evfemizatsiyalanishining kasb, tarbiya, fe'l-atvor va ruhiy holatga oid xususiyatlari tasniflab chiqilgan³.

Evfemizm – biror sababga ko'ra qo'llanishi taqiqlangan yoki qo'llanishi noqulay bo'lgan qo'pol, dag'al so'z, ibora o'rniga boshqa yumshoqroq so'z yoki ibora qo'llash⁴. Evfemizm hodisasi ko'proq ayollar nutqida uchraydi. Xususan, ko'p hollarda ayollar o'z fikrini uzoqdan boshlab, birma-bir tafsiloti bilan gapirsa, erkakalar esa qisqa va lo'nda so'zlashni afzal ko'radi⁵. Bu usulni barqaror deya olmaymiz, lekin aksariyat holatlarda uchratamiz. Bu ham oilada er va xotin o'rtasida tushunmovchilikni keltirib chiqarishi yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Bunday farqlarning o'zaro tushunishga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardandir.

Oila ichidagi erkak va ayol nutqining gender jihatlariga ta'siri haqida xorijiy olimlar turli nuqtayi nazarlarga ega. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar gender rollari, kommunikatsiya va oilaviy munosabatlarning qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Xususan, Deborah Tannen o'zining "You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation" kitobida erkaklar va ayollar o'rtasidagi nutq farqlarini tahlil qilgan. U ayollar va erkaklar o'rtasida kommunikatsiyaning "ayniy" (tartib va strukturaviy) farqlari borligini ta'kidlaydi. Tannenning fikriga ko'ra, erkaklar ko'pincha o'z nutqlarida ko'proq "tartib va hukmronlik" elementlariga ega bo'lib, bu o'zlarining oila ichidagi rahbarlik rolini ta'minlaydi. Ayollar esa ko'proq empatiya va muloqotga ochiqlikni namoyon etadi. Bu farqlar, ularning oiladagi rollarini va o'zaro munosabatlarini shakllantiradi⁶. Tannenning fikriga ko'ra, bu farqlar oilada tushunmovchiliklar va muammolarni keltirib chiqaradi, chunki erkaklar o'z nutqida hokimiyat va yaxshi natijaga erishishga e'tibor qaratadilar, ayollar esa o'z fikrlarini bir-

³ Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер чусусиятлари. Филолог. фан. б. фалс. док. ... дисс. (PhD). – Бухоро, 2020.

⁴ Evfemizm <https://izoh.uz/word/evfemizm>

⁵ Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер чусусиятлари. Автореф. филолог. фан. б. фалс. док. ... дисс. (PhD). – Бухоро, 2020.

⁶ Tannen D. (1990). You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. Ballantine Books https://www.goodreads.com/book/show/147222.You_Just_Don_t_Understand

biriga to'g'ri yetkazishga harakat qilishadi, lekin bu o'zaro teskari reaksiyalarga olib kelishi mumkin.

2. Robin Lakoff "Language and Woman's Place" asarida ayollar va erkaklarning nutqi o'rtasidagi farqlarni ta'kidlaydi. U ayollarning nutqi erkaklarnikiga qaraganda ko'proq kamtar va ilmoqli bo'lishini qayd etadi. Lakoffning fikriga ko'ra, ayollar o'zlarini aniq ifodalashda ehtiyotkor bo'lishadi, chunki jamiyatda ularning nutqi ko'pincha "zaif" yoki "kamchilik" sifatida qaraladi. Bu esa ayollarning o'zlarining oiladagi o'rini qayta baholashiga olib keladi⁷.

Xorijiy olimlarning fikrlariga ko'ra, erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlar oiladagi gender rollarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Nutqdagi gender jihatlarini faqat kommunikatsiya uslublari bilan bog'liq emas, balki ijtimoiy kutishlar, madaniy normativlar va iqtisodiy siyosatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu farqlar oilaviy munosabatlarda o'zaro tushunmovchiliklarga, konfliktlarga va ba'zan gender tengligi masalalariga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oilaviy munosabatlar tadqiqida oilaviy muloqot va ushbu muloqot ichida nutqning gender xoslanishi masalasini alohida tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Garchi o'zbek olimlaridan bir qancha tadqiqotchilar gender lingvistikasi, ayol va erkak nutqining o'ziga xos jihatlarini yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib brogan bo'lsa-da, biroq oilaviy muloqot tizimida bu masala er va xotin nutqi yuzasidan to'liq tahlilga tortilmagan.

Shunday qilib, oilaviy muloqotda gender farqlarning salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun quyidagi yechimlarni qo'llash mumkin:

- O'zaro hurmat: bir-birining nutq uslubini hurmat qilish, uni o'zgartirishga harakat qilmaslik.
- Empatiya: o'z sherigining nutqidan kelib chiqayotgan xabarlarini to'g'ri tushunishga harakat qilish, o'zini uning o'rniga qo'yish.
- Ochiq muloqot: muloqotda ochiq bo'lish, o'z fikrlarini va hissiyotlarini erkin ifoda qilish, bir-birini tinglash va tushunishga harakat qilish.
- Gender farqlarni anglash: erkak va ayol o'rtasidagi nutq farqlarini tushunish, bu farqlarning sabablarini anglash.

⁷ Robin Lakoff. Language and woman's place. Language in Society, Vol. 2, No.1 (Apr., 1973), pp. 45-80 Published by: Cambridge University Press.

- Moslashuvchanlik: o‘z nutq uslubini sherigining nutq uslubiga moslashtirish, muvozanatni topish.

- O‘z-o‘zini takomillashtirish: muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z nutqini tahlil qilish va takomillashtirish.

Yakuniy qism. Qayd etilgan fikrlardan xulosa qilib aytganda, oilada erkak va xotin o‘rtasidagi nutqidagi gender jihatlar oila munosabatlariga

katta ta’sir ko‘rsatadi. Nutq uslubini, kommunikatsiya tarzlari va ijtimoiy kutishlar oilaning ishlashida muhim omillardan biridir. O‘zaro hurmat, muloqot va empatiya oila ichidagi munosabatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayonni rivojlantirish uchun gender jihatlarni inobatga olgan holda munosabatda, muomalada bo‘lish va o‘zaro tushunish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулкининг жинс жиҳатдан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Б. 64-66.
2. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Автореф. дисс. ... фил. фан. номз. – Самарқанд, 1993.
3. Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер чусусиятлари. Филолог. фан. б. фалс. док. ... дисс. (PhD). – Бухоро, 2020.
4. Evfemizm <https://izoh.uz/word/evfemizm>
5. Tannen D. (1990). You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. Ballantine Books https://www.goodreads.com/book/show/147222.You_Just_Don_t_Understand
6. Robin Lakoff. Language and woman's place. Language in Society, Vol. 2, No.1 (Apr., 1973), pp. 45-80 Published by: Cambridge University Press.



Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna,
Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabalarni mustaqil ishlashga undaydigan motivlarni aniqlash, ularda mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish, eng avvalo, dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Chunki axborot va bilim doirasi shiddat bilan kengayib borayotgan zamonaviy sharoitda barcha ma'lumotlarni o'quvchilarga faqat dars vaqtida to'liq yetkazib bo'lmashligi ta'kidlanadi. Vazifalarning tabiatiga ko'ra, mustaqil ishning ko'proq turlari mavjud va ular turli xil ta'lim maqsadlariga ega: materialni oldindan o'rganish; ma'ruzalarni tinglash, eslatma olish; tavsiya etilgan axborot manbalari bilan ishlash.

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, topshiriq, ijodkorlik, axborot, pedagogik muammo, dars mashg'ulotlari, ta'lim maqsadlari.

Аннотация. Организация самостоятельного обучения в системе высшего образования, определение мотивов, побуждающих студентов к самостоятельной работе, и формирование у них навыков самостоятельного обучения, прежде всего, является актуальной педагогической проблемой. Потому что в современных условиях, когда спектр информации и знаний стремительно расширяется, подчеркивается, что вся информация не может быть полностью донесена до студентов только во время занятий. По характеру заданий видов самостоятельной работы больше и они имеют разные учебные цели: предварительное изучение материала; прослушивание лекций, составление конспектов; работать с рекомендованными источниками информации.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, задание, творчество, информация, педагогическая задача, деятельность урока, образовательные цели.

Annotation. Organization of independent learning in the higher education system, determining the motives that encourage students to work independently, and developing their independent learning skills, first of all, is an urgent pedagogical problem. Because in modern conditions, when the range of information and knowledge is rapidly expanding, it is emphasized that all information cannot be fully conveyed to students only during classes. According to the nature of the tasks, there are more types of independent work and they have different educational goals: preliminary study of the material; listening to lectures, making notes; working with recommended sources of information.

Keywords: independent education, assignment, creativity, information, pedagogical problem, lesson activities, educational goals.

Kirish. Hozirgi zamon ta'lim talablariga ko'ra, oliy o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – jahon standartlari

talablariga javob bera oladigan bilimli, zukko va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga

yuz tutishi mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada takomillashganiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Konsepsiyada "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan¹.

Yuqoridagilarni nazarda tutib, bugun talabalar faoliyatida mustaqil ta'limni joriy etish davr talabi hisoblanadi. Mustaqil ta'lim deyilganda o'quv materiallarini talabalar ongida ilmiy izlanishga o'xshata bilish vazifalari va ularning mustaqil fikrlari orqali izlangan, o'rganilgan va shakllantirilgan materiallar asosida ifoda etish sifatida tushunilgan. Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda so'ngi tendensiyalar va o'zgarishlardan xabardor bo'lish kasbiy faoliyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Buning eng yaxshi usuli – mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish, unda talaba mustaqil ravishda yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganish tashabbusini o'z zimmasiga olish.

Maqsad va uni asoslash. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ta'lim jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha respublikamiz olimlari B.Ziyomhammadov, J.G'.Yo'ldoshev, N.S.Sayidahmedov va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 sonli Farmoni.

H.Qarshiboyevlar; talabalarining mustaqil ishini tashkil etishning mazmuni va uni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha esa M.Barakayev, R.Jo'rayev, G.V.Zlotskiy, G.Izetayeva, O.A.Qo'ysinov, S.I.Qulmamatov, M.Tojiyev, N.RG'aybullayev va D.Yunusovalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Ma'lumki, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish bu ularning kelajakda o'z ixtisosligi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishining asosi hisoblanadi. Talaba ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda olgan bilimlar asosida mustaqil bir muammoni yechish rejasini tuzib, uni reja asosida amalga oshira olishi talabaning professional rivojlanishiga ijodiy yondasha olishiga va o'zini intellektual rivojlantirishiga asos bo'la oladi. Ko'pchilik hollarda talabalar har bir darsdan zaruriy darajadagi bilimni olishga harakat qilishadi. Lekin agar mustaqil ish jarayoni to'g'ri tashkil qilinsa, talabalarining mustaqil ish qilishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilsa, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati berilsa, talabalarining fanni mustaqil ravishda o'zlashtirishi talaba bilim olishining tub asosi bo'ladi.

Xo'sh, talabalarining mustaqil o'quv ishi deganda nimani tushunish kerak. Umuman olganda bu bo'lajak kasb egasining tafakkurini tarbiyalash bilan bog'liq xar qanday faoliyat desa bo'ladi. Xullas, talabaning bilish faolligini oshirib, mustaqil fikrlashga chorlaydigan auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari, shuningdek, o'qituvchining rahbarligida yoki uning ishtirokisiz bajaradigan mashg'ulotlar yig'indisiga aytish mumkin.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabani mustaqil ishlashga undovchi motivlarni aniqlash, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Chunki axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga to'liq yetkazib bo'lmaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba faqat mustaqil shug'ullanganda va o'z ustida ishlagandagina, bilimni chuqur o'zlashtiradi, ularda mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati shakllanadi hamda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shu sababli talabalarining mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha o'quv-uslubiy ta'minotni yaratish oily ta'lim

muassasasi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda jamiyat taraqqiyoti oliy ta'lim rivojlanishi bilan uzviy bog'langan bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalar zamirida fan va texnikaning rivojlanishi jamiyatda mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojini yana kuchaytiradi. Bu ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni mustaqil bilim olishlarini yangi pog'onaga ko'tarishni taqozo qilmoqda.

Talabalar mustaqil ishlarini rejalashtirish jarayonida hamda boshqarishda asosiy mas'uliyat fan o'qituvchisi zimmasiga yuklanadi. O'qituvchi tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsning modeli aniqlanadi, o'quv (o'qituvchining identiv o'quv maqsadlari) maqsadlari shakllantiriladi.

Talabalar mustaqil ishlarini bajarish jarayonini loyihalashtirilayotganda ularda o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishi e'tiborga olinadi. Talabalar mustaqil ishlarini o'qituvchining o'quv dasturi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar fanda to'la aks ettiriladi².

Moddiy-texnik va dasturiy ta'minotning talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilishda roli kattaligini e'tiborga olgan holda mustaqil ishlarni bajarishdagi samaradorlikni o'quv-metodik va axborot ta'minoti sifatiga aloqadorligi qonuniyatlarini ilmiy-metodik jihatdan o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda o'quv-metodik adabiyotlar, ma'ruza matnlar, o'quv-metodik majmualar me'yoriy o'quv metodik hujjatlar, topshiriqlar to'plami, ilmiy, ilmiy-metodik hamda davriy nashrlarning alohida e'tiborga olish zarur³.

Talabalar mustaqil ishlari samaradorligining fan o'qituvchilarning uslubiy nuqtayi nazardan puxta bilimiga egaligi va ularning pedagogik mahoratiga bog'lanishi ham o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardandir. Talabalar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligi ularda yuqori darajadagi faollik hamda mustaqillikning shakllanganligi muhim omillardan hisoblanadi. Ularda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishda mustaqil ta'lim katta ahamiyat va imkoniyatlarga ega ekanligi

² Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – Toshkent: “Fan”, 2009. – 92 b.

³ O'sha manba, – B. 43.

masalalari J.Tolipovning ilmiy-metodik ishlarida atroflicha tahlil etilgan. Talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o'quv fani mazmunining asosiy ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olgan holda, o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarni bayon etsihda eksperimental faktlar va ularning fan nazariyasi bilan bog'lanishi hamda qanday tajribalar asosida tasdiqlanishini to'la tushuntirish talab qilinadi. Mustaqil ta'lim olish talabalarda ijodiy faoliyatini faollashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar chuqurlashtirib boriladi, aqliy qobiliyatning takomillashishini taminlaydi. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunish qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bora oladi⁴.

O'qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o'quvchilar, odatda: «O'qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq-ravshan va tushunarli qilib berishida. Bunday o'qituvchining qo'lida maza qilib o'qiging keladi»; «Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o'qituvchi, hecham aniq tushuntirib bera olmaydi»; «O'quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq – mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o'qituvchilarni yoqtirmaymiz»⁵, – deyдилar.

Ilmiy muammoning tavsifi va asoslash.

Hozirgi tushunchamizdagi kasbiy mahorat shunchaki bilimlarni osonroq, hammabob va tushunarli qilib o'quvchilar ongiga yetkazib berish qobiliyatinigina emas, balki shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil ishlarini, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli tomonga yo'naltirib turishdan iborat qobiliyatni ham o'z ichiga oladi⁶.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlaydigan o'qituvchi eng avvalambor o'quvchilarda taqdim qilinayotgan o'quv materialiga qiziqish uyg'otishi zarur.

⁴ Ibragimova G.N. Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim. – № 4, 2017. – B. 30.

⁵ M.F.Xudoynazarova. Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodkorligini shakllantirish. “Science and Education” Scientific Journal. Aprel 2023, 4-son 863 b.

⁶ M.F.Xudoynazarova. Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodkorligini shakllantirish. “Science and Education” Scientific Journal. Aprel 2023, 4-son 863 b.

O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham ijodiy faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr "laboratoriyasi"ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1. U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik va ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

2. U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi.

3. U, odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan, ko'tarinki ruh hissini, o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil "kashf etilishi" olingan bilimlarni unutmazligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin⁷.

Mustaqil ta'limning yoki uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan talabalar mustaqil ishlarining reja asosida puxta ishlangan dastur asosida bajarilishi erkin fikrlashni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun dastlabki kurslarda talabalarning fanlardan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, kutubxonada adabiyotlardan va internetdan foydalanib turish zarur.

Mustaqil ta'lim turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan, onlayn kurslar, seminarlar va konferensiyalarda qatnashish yoki kitob va maqolalarni o'qish shular jumlasidandir. Albatta, mustaqil ta'lim intizom va o'z-o'zini rag'batlantirishni talab qiladi. O'qishni nazorat qilish talabning to'liq salohiyatini ochib beradi va shaxsiy va professional maqsadlariga erishishga yordam beradi⁸.

⁷ M.F.Xudoynazarova. Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodkorligini shakllantirish. "Science and Education" Scientific Journal. Aprel 2023, 4-son.

⁸ Yo'ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 15 b.

Universitetdagi mustaqil ishning boshqa ish turlaridan asosiy farqi nimada? Bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, talabning mustaqil ravishda topshiriqni bajaradigan faoliyati. Ushbu turdagi ishning qo'shimcha xususiyatlari quyidagicha namoyon bo'ladi: hal qilinishi kerak bo'lgan muammoli vazifaning mavjudligi; ishni bajarish uchun cheklangan vaqt; yechim topish jarayonida aqliy harakat; talabning ongli va mustaqil yondashuvi faoliyati⁹.

Ko'pincha talabalarning mustaqil ishlarining maqsadlari o'qituvchi tomonidan belgilanadi. O'rganilayotgan mavzuga va murakkablik darajasiga qarab, ular farq qilishi mumkin, ammo asosiylari, qoida tariqasida, quyidagilar:

– o'quv jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;

– ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot manbalari bilan samarali ishlash qobiliyatini shakllantirish;

– bilimlarni mustaqil ravishda olish va amaliyotda qo'llash;

– tanqidiy fikrlash, tahliliy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish;

– vaqtni rejalashtirish va tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

– o'z-o'zini nazorat qilish va ishni baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Mustaqil ish bilan qanday vazifalar hal qilinishi mumkin: berilgan materialni takrorlash; chuqurlashtirish va yangi bilimlarni egallash; nazariy ma'lumotlarni birlashtirish; o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish; amaliy ko'nikmalar va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish; bilimlarni amaliyotda qo'llash; muayyan vazifalar yoki holatlarni hal qilish. Lev Semyonovich Vygotskiy talabalarning mustaqil ishi uchun vazifalarning nafaqat turlarini, balki darajalarini ham hisobga olish muhimligini juda yaxshi tushuntiradi. Mustaqil ishning shunday asosiy uslubiy tamoyillari mavjud: maqsadlilik; izchillik; muntazamlik; mantiq; qulaylik; ilmiy xarakterga egalik.

Demak, o'qituvchi oldindan e'lon qiladigan, talaba ish jarayonida aniqlaydigan mustaqil ishning maqsad va vazifalari ana shu tamoyillarga mos kelishi kerak.

⁹ Karimova D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. – 15 b.

Mustaqil ish turlari joylashuvi, shuningdek, vazifalarning tabiati bo'yicha farq qilishi mumkin. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar joyiga ko'ra farqlanadi. Ammo topshiriqlarning tabiati bo'yicha mustaqil ishlarning ko'proq turlari mavjud va ular turli xil ta'lim maqsadlarini ko'zlaydi: materialni dastlabki o'rganish; ma'ruzalarni tinglash, eslatmalarni yakunlash; tavsiya etilgan axborot manbalari bilan ishlash; o'quv rejasi doirasida maxsus topshiriqlarni bajarish; testlar, seminarlarga tayyorgarlik; referatlar, insholar tayyorlash, ularni himoya qilish; konferensiyalar va seminarlarda taqdimot qilish uchun ma'ruzalar va ilmiy tadqiqotlar tayyorlash; mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar va monografiyalar tahlili shular jumlasidandir.

An'anaviy ravishda barcha turdagi vazifalar uch darajaga bo'linadi: reproduktiv; samarali; ijodiy. Reproaktiv daraja. Bu darajaning asosiy maqsadi va vazifalari mavjud bilimlarni mustahkamlash. Bu turli xil adabiy manbalarni o'qish, konspekti to'ldirish va o'rganish, talaba hal qila oladigan topshiriqlarni berish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Samarali shlab chiqish darajasi. Bu yangi material bilan bevosita ishlash. Ishlab chiqarish darajasining vazifalari oldida turgan asosiy maqsad va vazifalar bilimlarni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni amaliyotda mustahkamlashdir. Ushbu darajadagi vazifalar turlari: kitobning rejasini tuzish; bibliografik ro'yxat tuzish; diagrammalar tuzish; savollarga og'zaki va yozma javoblar tayyorlash; kursdoshlarning yozma ishlarini baholash¹⁰.

Ijodiy daraja. Ijodiy darajadagi mustaqil ishlarning maqsad va vazifalari mustaqil ravishda bilim izlash, fikrlash mustaqilligi va tahlil qilish qobiliyatini namoyon etish, shuningdek, katta va murakkab material bilan ishlashdir. Ushbu darajadagi vazifalar: referat tayyorlash; insho yozish; tadqiqot ishlarini olib borish; material to'plash va tezis yozish; hisobot tayyorlash va himoya qilish. Mustaqil ish uchun topshiriqlar darajasini tanlayotganda, u har safar ortib borishi kerakligini unutmaslik kerak. Bu o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va professionallikni

¹⁰ Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016. №4. – 25 b.

oshiradi. Talabalarni doimo mustaqil ishlashga o'rgatish uchun avtonom ishlarni boshqarish juda muhim bo'lib, bunda:

– talaba o'zining mustaqil izlanishlarini rejalashtiradi va ular o'qituvchi rahbarligida aniq o'quv topshiriqlari ustida muntazam va doimiy ishlaydi;

– mustaqil ishning har xil turlari mavjud bo'lib, ularning barchasi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.


Referat, kurs ishini yoki boshqa turdagi hujjatlarni yozish mustaqil ijodiy izlanishda o'ziga xos mavqega ega. Kurs ishi yoki ilmiy ma'ruza ijodiy mustaqil ish bo'lib, talabani qanchalik bilimli va malakali ekanligini ko'rsatadi. Bu talabalarning ko'p kuch va ijodiy izlanishlarini, shuningdek, ularning bilimlarini yozma ravishda aniq, tushunarli va mantiqiy taqdim etishni o'z ichiga oladi. U o'quvchi talabani naqadar bilimli, mas'uliyatli, o'z fikrini ifodalashga mohirligini ko'rsatadi. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalarning vaqtini to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun talabalar bajariladigan ishlarning muhimligi, muddati nuqtayi nazaridan ularni bajarish ketma-ketligini to'g'ri belgilash va rejalashtirishni o'rganishlari zarur¹¹.

Yakuniy qism. Talabani mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik xaritasi asosida olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talaba mustaqil ishning nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ta'lim olishda talabalar o'z ustida ishlashadi, o'z-o'zini rivojlantirish uchun harakat qilishadi. Bu harakatlari orqali talabalarning bilim olish darajasi oshib boraveradi. Keyichalik olgan bilimlarini hayoti davomida ham qo'llay oladigan darajaga yetishadi. Talabalarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olish talabalarda mustaqil fikrlashni, mustaqil ishlashni rivojlantiradi.

¹¹ Karimova D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. – 60 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 son Farmoni.
2. Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi: monografiya. – Toshkent: "Fan", 2009. – 92 b.
3. Yo'ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 41 b.
4. Karimova D.R.. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. – 126 b.
5. Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016. №4.
6. Ibragimova G.N. Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim. 2017. №4.
7. Xudoynazarova M.F. Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodkorligini shakllantirish. "Science and Education" Scientific Journal. Aprel 2023, 4-son.



Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi,
Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“UNEP” o‘qituvchisi
E-mail: dilnozaaxmedova933@gmail.com

INTERFAOL TA'LIM JARAYONIDA RAG'BATLANTIRISHNING GENDER YONDASHUVI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada interfaol rag'batlantirish usullarining gender farqlari kontekstidagi tahlili va bu yondashuvlarning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash samaradorligi haqida ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan. Maqolada interfaol rag'batlantirishning genderga bog'liq xususiyatlariga oid ilmiy yondashuvlar taklif etilgan.

Tayanch so'zlar: interfaol usullar, ta'lim, kollaborativ ta'lim, gender farqlar, rag'batlantirish, interfaol ta'lim, motivatsiya, vakolatlilik, atributsion nazariya.

Аннотация. В данной статье анализируются методы интерактивной стимуляции в контексте гендерных различий и влияние этих подходов на процесс обучения учащихся. Кроме того, проведены научные исследования по эффективности использования современных образовательных технологий в образовательном процессе. В статье предлагаются научные подходы к гендерным особенностям интерактивной стимуляции.

Ключевые слова: интерактивные методы, обучение, совместное обучение, гендерные различия, мотивация, интерактивное обучение, мотивация, компетентность, атрибутивная теория.

Annotatsiya. This article analyzes the methods of interactive stimulation in the context of gender differences and the impact of these approaches on the learning process of students. In addition, scientific studies have been conducted on the effectiveness of using modern educational technologies in the educational process. The article offers scientific approaches to the gender-related features of interactive stimulation.

Key words: interactive methods, education, collaborative education, gender differences, motivation, interactive education, motivation, competence, attributional theory.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida interfaol usullarning roli keskin oshib bormoqda, chunki bunday metodlar o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazib berish bilan birga

o'quvchilarni o'quv fanlarini yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlari va ta'limdagi faol ishtirokchi sifatida shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Jumladan, tarbiya jarayonida interfaol usullar asosida o'quvchilarni rag'batlantirish orqali ular bilan o'zaro muloqot qilish muhim o'rin tutadi.

Qator ilmiy tadqiqotlarda interfaol rag'batlantirish usullari o'quvchilarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'siri ta'kidlangan. V.Orlovning fikriga ko'ra, "interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi"¹. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularning motivatsiyasini oshiradi.

"O'quvchilarning rag'batlantirilishi jarayonida gender farqlari, gender stereotiplari va ijtimoiy rollar ko'p hollarda o'g'il va qiz bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki hamda qiziqishlariga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiz bolalar ko'proq jamoaviy ishlarga moyil bo'lishadi, o'g'il bolalar esa raqobatga asoslangan jarayonlarga qiziqadi"². Interfaol rag'batlantirish usullari gender xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Maqsad va uni asoslash. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lim jarayonida interfaol rag'batlantirish usullarining genderga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Bunda quyidagi yondashuvlarni ko'zda tutamiz:

1. Interfaol rag'batlantirishning gender farqlariga ta'siri – bu gender omillarining ta'limdagi motivatsiya va natijaviylikka qanday ta'sir qilishi bilan bog'liq. Tadqiqotda qiz va o'g'il bolalarni rag'batlantirishga bo'lgan turli xil reaksiyalari va javoblarining farqlari aniqlanadi.

2. Genderga xos samaradorlikni o'rganish – bu gender farqlari qanday qilib ta'lim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishini o'rganish. Xususan, qaysi interfaol rag'batlantirish usullari qizlar va o'g'il bolalar uchun eng samarali ekanligini aniqlash.

3. Eng samarali metodlarni aniqlash – turli interfaol usullarni baholash orqali ularning genderga nisbatan samaradorligini tadqiq qilish va qaysi yondashuvlarning maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatish.

¹ Orlov V. (2019). Interactive Learning Technologies and Their Role in Modern Education // Education Technology Publications.

² Zhonggen Y. (2019). Gender Differences in Cognitive Loads, Attitudes, and Academic Achievements in Mobile English Learning // International Journal of Distance Education Technologies. 17. 10.4018/IJDET.2019100102.

Ushbu tadqiqotning zarurati shundaki, gender farqlari pedagogik jarayonda alohida e'tibor talab qiladi. Ta'lim jarayonida rag'batlantirish usullari har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga va qobiliyatlariga mos ravishda tanlanishi kerak. Gender stereotiplari ta'limda o'quvchilarning rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun bu farqlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot, shuningdek, xalqaro tajribalar va ilmiy tadqiqotlar bilan mustahkamlanadi. O'qituvchilar gender jihatlarni hisobga olgan holda interfaol rag'batlantirish usullarini qo'llaganda o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari va shaxsiy rivojlanishlari yaxshilanadi. Hovard Gardner, Lev Vigotskiy kabi nazariyotchilarning kognitiv rivojlanish va ijtimoiy o'rganish modellari, shuningdek, gender farqlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar bu maqsadning ilmiy asosini tashkil qiladi.

Bu tadqiqot o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida rag'batlantirishning roli katta ekanligini va gender farqlarining inobatga olinishi ta'limning samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Interfaol usullarning genderga xos strategiyalarini tahlil qilish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini saqlab qolish va ularni faollikka undashda interfaol rag'batlantirishning genderga xos xususiyatlarini hisobga olish dolzarb masala bo'lib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar ilmiy ahamiyatga ega.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Interfaol ta'lim – o'quv jarayonini o'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqot orqali tashkil etishga qaratilgan zamonaviy yondashuv. Ushbu ta'lim turi o'quvchilarning faolligi, fikrlash qobiliyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, an'anaviy o'quv jarayonidan farq qiladi. Interfaol ta'lim o'zaro hamkorlik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va turli interaktiv usullarni qo'llashdan iborat.

Interfaol ta'limning asosiy nazariy g'oyalari:

1. Konstruktivizm nazariyasi – konstruktivizm o'quvchilar bilimlarni o'z tajribalari asosida mustaqil ravishda shakllantirishiga urg'u beradi. Bu

nazariyaga ko‘ra, o‘quvchi yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan integratsiya qilib, faol o‘rganadi. Interfaol ta‘lim konstruktivizm nazariyasiga mos keladi, chunki u o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida faollik ko‘rsatishga va bilish jarayonining faol subyekti bo‘lishga undaydi.

2. Sotsial o‘rganish nazariyasi – o‘zaro muloqot va kuzatish orqali o‘rganishni ta‘kidlaydi. Interfaol ta‘lim ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi, chunki o‘quvchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilib, o‘zaro fikr almashadilar va ijtimoiy muhitda o‘rganadilar .

3. Kollaborativ ta‘lim – interfaol ta‘lim kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) ta‘lim modeliga tayangan holda o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ishlashga undaydi. Bu usul o‘quvchilarga muammolarni birgalikda hal qilishga yordam berib, o‘zaro hamkorlik va muloqot orqali o‘rganish samaraliroq bo‘ladi.

4. Muammoli ta‘lim (problem-based learning) – o‘quvchilarni real muammolarni tahlil qilish va yechim topishga jalb qiladi. Interfaol usullar o‘quvchilarga o‘quv materiallarini faqat yodlashgina emas, balki tahlil qilish va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi .

5. Motivatsion nazariyalar – interfaol ta‘lim motivatsiya nazariyalariga tayanadi. Masalan, Deci va Ryanning “o‘zini o‘zi boshqarish” nazariyasi (Self-Determination Theory) o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga asoslanadi. Interfaol rag‘batlantirish usullari yordamida o‘quvchilarning mustaqilligi va mas‘uliyat hissi ortadi, bu esa ularni yanada faol ishtirok etishga undaydi.

Ta‘limda o‘quvchilarni rag‘batlantirish ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Rag‘batlantirish usullari, jumladan, o‘quvchilarni muloqot jarayonida faol ishtirok etishga undash, ularning yutuqlarini tan olish va o‘zaro baholash imkoniyatini berish, ularni ijtimoiy va bilim jihatidan qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. “Ta‘lim jarayonida rag‘batlantirishlar tanlovni ta‘minlash, o‘quvchilar va o‘quv muhiti o‘rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantirish orqali ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilishi kerak”³.

³ Akhmedova D., & Ahmadaliyeva D. (2024). Possibilities of the interactive encouragement method in increasing the vocabulary of primary class students // Science and innovation, 3 (B1). pp. 262-266.

Interfaol ta‘limda rag‘batlantirish ichki va tashqi motivatsiya orqali ta‘minlanadi. “Ichki rag‘batlantirish” o‘quvchilarning qiziqishi va bilim olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib, mustaqil fikrlash va kashfiyot qilish orqali amalga oshiriladi. “Tashqi rag‘batlantirish” esa baho, sovrin va maqtoov kabi tashqi omillarga asoslanadi.

Interfaol ta‘limda rag‘batlantirish o‘quvchilarning maqsadlarini amalga oshirishga qaratiladi. Masalan, guruh bo‘lib ishlashda qiz va o‘g‘il bolalar uchun alohida motivatsion yondashuvlar qo‘llanishi gender farqlarini hisobga olishni ta‘minlaydi.

Ta‘lim jarayonida gender farqlari o‘quvchilarning o‘zaro munosabati, bilim olishdagi zamonaviy yondashuvlar, motivatsiyalari va rag‘batlantirishga javob qaytarishlarida muhim o‘rin tutadi. Ushbu farqlarni inobatga olgan holda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish ta‘lim-tarbiya sifatini yanada oshirish imkoniyatini beradi. Gender farqlari nafaqat o‘quvchilar o‘rtasidagi individual o‘ziga xosliklarni, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarni ham aks ettiradi. Ko‘plab tadqiqotlar o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida bilim olish jarayonidagi turli psixologik va ijtimoiy jihatlarni aniqlagan. Ushbu farqlar quyidagi jihatlarda yaqqol seziladi:

Bilim olish uslubi: o‘g‘il bolalar ko‘pincha matematik va texnik bilimlarni o‘zlashtirishda yaxshiroq bo‘lishsa, qiz bolalar til, adabiyot va ijtimoiy fanlarga ko‘proq moyillik ko‘rsatadi. Ushbu farqlar o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlari va bilim olish uslublari bilan bog‘liq.

Motivatsiya: tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, qiz bolalar odatda o‘zlari yaxshi ko‘rgan yoki qiziqish uyg‘otgan mavzularga e‘tibor qaratishadi. O‘g‘il bolalar esa ko‘proq raqobatbardosh bo‘lib, ularga maqsad va raqobat motivatsiyasi kuchli ta‘sir qiladi. Shu sababli interfaol ta‘limda rag‘batlantirish uslublarini gender xususiyatiga xos ravishda tanlash zarur bo‘ladi.

O‘zaro munosabatlar: gender farqlari o‘quvchilar o‘rtasidagi kommunikatsiya va jamoaviy ishlarda ham namoyon bo‘ladi. Qiz bolalar guruh ishlari va hamkorlikni afzal ko‘rishsa, o‘g‘il bolalar ko‘proq individual yoki raqobatga asoslangan usullarni ma‘qul ko‘radi. Bu ta‘lim

jarayonida jamoaviy faoliyatlarni tashkil etishda hisobga olinishi kerak.

O'quvchilarga ularning jinsiga qarab rag'batlantirish usullari turlicha ta'sir ko'rsatadi. Rag'batlantirishning ichki va tashqi shakllari gender farqlari bo'yicha quyidagicha farqlanadi:

Ichki rag'batlantirish: qiz bolalar, odatda, ichki motivatsiyaga yaqinroq bo'lib, qiziqarli va mazmunli topshiriqlarga e'tibor qaratadi. Ular o'qituvchilar va do'stlari tomonidan e'tirof etilishni qadrlaydi. Shu sababli ularga yaratgan ishlarining ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ekani ta'kidlanishi motivatsiyani oshiradi.

Tashqi rag'batlantirish: o'g'il bolalar ko'pincha tashqi rag'batlantirishga, ya'ni mukofot, baho va sovrinlarga e'tibor beradi. Interfaol ta'limda ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun turli tanlovlar, baholash va sinovlar samarali hisoblanadi.

Raqobat va hamkorlik: o'g'il bolalar ko'proq raqobatbardosh bo'lib, ular o'zaro musobaqalashishdan zavq oladilar, bu esa ularda motivatsiyani oshiradi. Qiz bolalar esa guruhda ishlashni va hamkorlikka asoslangan faoliyatni afzal ko'rishadi. Shu bois gender farqlariga mos keluvchi rag'batlantirish usullarini tanlash ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Gender farqlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirish o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Masalan, o'g'il bolalar uchun dars jarayonida texnik topshiriqlarni ko'paytirish, qiz bolalar uchun esa hamkorlik va ijodiy faoliyatlar yaratish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchilar gender farqlariga ko'ra turli didaktik yondashuvlarni qo'llashi mumkin:

- Guruhli va individual ishlash: qiz bolalar uchun guruhli ishlarda muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatlarini ko'paytirish, o'g'il bolalar uchun esa individual ishlashda raqobat muhitini yaratish samarali bo'ladi.

- Qiziqishlarga asoslangan yondashuv: qiz bolalar uchun ijodiy va ijtimoiy loyihalarga asoslangan yondashuvlar, o'g'il bolalar uchun esa texnik va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan faoliyatlar ta'limni qiziqarli qiladi.

Interfaol ta'lim jarayonida gender farqlarini hisobga olish darslarda o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Ushbu

yondashuv ta'lim samaradorligini oshiradi, chunki o'quvchilar o'zlarining qobiliyatlari va qiziqishlariga mos tarzda ta'lim olishadi. Bu jarayonda rag'batlantirish usullarini tanlashda gender farqi muhim o'rin tutadi:

- Guruhli raqobat: o'g'il bolalar uchun raqobat muhitida ishlash orqali motivatsiya oshiriladi.

- Hamkorlik asosida loyihalar: qiz bolalar uchun guruh ishlari va hamkorlikka asoslangan loyihalar motivatsiyani oshiradi.

Ta'limda gender farqlarini hisobga olish bilan birga gender stereotiplarini ham yengish muhimdir. Ba'zida qiz va o'g'il bolalar orasida ta'limga bo'lgan turli qarashlar ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq bo'ladi, bu esa ularning imkoniyatlarini cheklaydi. Shuning uchun genderni asoslangan yondashuvlarni rag'batlantirish jarayonida kiritish orqali stereotiplarni bartaraf etishga erishiladi.

Ta'lim jarayonida qiz va o'g'il bolalar o'rtasidagi farqlar, ijtimoiy stereotiplar interfaol rag'batlantirishning samaradorligiga ta'sir qiladi. O'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlari farqli bo'lib, ular o'quv jarayonida teng ishtirok etmasligi yoki faollikda tenglik yo'qolishi mumkin. Masalan, qiz bolalar odatda guruhli ishlarni afzal ko'rsalar, o'g'il bolalar ko'proq raqobat muhitida ishlashni yoqtirishi mumkin. Bunday farqlarni inobatga olmaslik o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokini cheklaydi va rag'batlantirishni yetarli darajada amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Ta'limda gender farqlarini hisobga olish muhim. Rag'batlantirish usullari har bir jins vakilining ehtiyojlari va o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Guruhli va individual ishlash imkoniyatlarini to'g'ri tashkil etish, raqobatbardosh va hamkorlikka asoslangan metodlarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning faolligi oshiriladi.

Hozirga qadar pedagogika va psixologiya sohasida olimlarning o'quvchilarni rag'batlantirish mexanizmlari chuqur o'rganildi va ularning ta'lim jarayonidagi ta'siriga oid tadqiqotlar tahlil qilindi. Rag'batlantirish jarayoni o'quvchilarning ta'limdagi faolligini oshirish, ularni ilmiy faoliyatga rag'batlantirish, shaxsiy motivatsiyalarini

kuchaytirish bilan birga kognitiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

1. Motivatsiyaning ichki va tashqi nazariyalari.

Motivatsiya ta'lim jarayonidagi eng muhim omillardan biri bo'lib, bu ichki va tashqi omillarga asoslanadi. Ichki motivatsiya – o'quvchining o'z qiziqishidan kelib chiqib, bilim olish jarayoniga ixtiyoriy va faol qatnashishini anglatadi. Masalan, o'quvchi ma'lum bir fan yoki mavzuga qiziqqani sababli ko'proq o'rganishga intiladi. Tashqi motivatsiya esa tashqaridan keladigan rag'batlantirishga bog'liq bo'ladi – bu o'quvchi mukofot yoki baho olish, muayyan jazo yoki tanbehning oldini olish uchun ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatadi⁴.

Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan O'z-o'zini boshqarish nazariyasi (Self-Determination Theory – SDT) ushbu ichki va tashqi motivatsiyaning ahamiyatini tahlil qiladi. Ular ichki motivatsiyani rivojlantirish uchun o'quvchilarning uchta asosiy ehtiyojini qondirish zarurligini ta'kidlaydi:

- Avtonomiya – o'quvchilar o'z qarorlarini o'zlari qabul qilish imkoniga ega bo'lishi kerak.
- Vakolatlilik – o'quvchilar o'z qobiliyatlarini sinab ko'rishi va mahoratlarini oshirishi lozim.
- Bog'lanish – o'quvchilar jamoada faoliyat olib borishi va o'zaro munosabatlarda bo'lishi kerak.

2. Attributsion nazariya.

Bernard Vayner tomonidan ishlab chiqilgan Attributsion nazariya (Attribution Theory) o'quvchilarning muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga qanday sabablar ko'rsatishini tushuntiradi. Ushbu nazariya bo'yicha o'quvchilar o'z muvaffaqiyatlarini ichki (masalan, iste'dod yoki mehnat) yoki tashqi (masalan, omad yoki boshqa odamlarning yordamiga) sabablar bilan izohlaydilar. O'quvchilarni rag'batlantirish uchun ularning muvaffaqiyatlarini ichki omillar bilan bog'lashga yordam berish, masalan, o'z mehnatlari natijasida muvaffaqiyatga erishganliklariga ishora qilish muhimdir. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi⁵.

⁴ Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). [Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior](#) // Springer Science & Business Media. – 97 p.

⁵ Вайнер, Б. (1985). Атрибутивная теория мотивации достижения и эмоций // *Psychological Review*. 92 (4). – С. 548-573.

3. Ijtimoiy ta'lim nazariyasi.

Albert Banduraning Ijtimoiy ta'lim nazariyasi (Social Learning Theory) o'quvchilar bir-birlaridan va ularga ta'sir qiluvchi shaxsiy tajribalardan o'rganishlari haqida ta'lim beradi. Bandura: "O'quvchilar ko'pincha boshqalarni kuzatib, ularning harakatlaridan taqlid qiladilar va yangi bilimlarni o'zlashtiradilar", – deb hisoblaydi. Bu jarayon ko'pincha rag'batlantirish va jazo orqali boshqariladi. Masalan, bir o'quvchi ma'lum bir vazifani muvaffaqiyatli bajarganda rag'batlantirilsa, boshqalar ham bu xatti-harakatni kuzatib, unga ergashishga moyil bo'lishadi. Shuning uchun pedagoglar va ota-onalar o'quvchilarga yaxshi namunalarni ko'rsatishi va ularga taqlid qiladigan xulq-atvorlarni rag'batlantirishlari lozim⁶.

4. Ijobiy va salbiy rag'batlantirish nazariyasi.

B.F.Skinnerning Operant shartlashuv nazariyasi (Operant Conditioning Theory) ijobiy va salbiy rag'batlantirish orqali xatti-harakatlarni boshqarish haqida ta'lim beradi. Bu nazariya o'quvchilarning to'g'ri xatti-harakatlarini ijobiy rag'batlantirish (masalan, maqto'v, mukofot yoki yaxshi baho) orqali mustahkamlash mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, noxush xatti-harakatlarni salbiy rag'batlantirish orqali kamaytirish (masalan, jazo yoki salbiy baho) ham ta'lim jarayonida qo'llanadi⁷. Ushbu nazariya o'quvchilarni faol o'qish jarayonida rag'batlantirishda keng qo'llanadi, ammo ijobiy rag'batlantirish ko'proq samarali hisoblanadi, chunki bu o'quvchilarda doimiy motivatsiyani oshiradi.

5. Yutuq motivatsiyasi nazariyasi.

John Atkinson tomonidan ishlab chiqilgan Yutuq motivatsiyasi nazariyasi (Achievement Motivation Theory) o'quvchilarning yutuq va muvaffaqiyatga intilishini tahlil qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ba'zi o'quvchilar yutuqlarga erishish istagi bilan rag'batlanadilar, boshqalar esa muvaffaqiyatsizlikdan qochish istagi bilan boshqariladi. O'quvchilarni rag'batlantirish uchun ular yutuqlarga erishishga intilishini rivojlantirish, shuningdek, ularga muvaffaqiyatsizliklardan

⁶ Bandura, Albert. (1977). Self-Efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change // *Psychological Review*. 84. pp. 191-215.

⁷ Skinner, B.F. (1957). [Verbal Behavior](#). Prentice // Hall. Inc. – Cambridge, Massachusetts. – 103 p.

o'rganish imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu orqali o'quvchilar o'z bilimlarini kengaytirib, harakatlarining samaradorligini oshiradilar⁸.

Interfaol ta'lim usullarining turli yondashuvlarida qiz va o'g'il bolalarning reaksiyalari hamda natijalaridagi farqlar pedagogika va psixologiya sohasidagi bir qator tadqiqotlarda chuqur o'rganildi. Bu farqlar o'quvchilarning biologik va psixologik rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy stereotiplar va genderga oid kutilmalar bilan bog'liq bo'ladi. Quyida turli interfaol yondashuvlar bo'yicha qiz va o'g'il bolalarning reaksiyalari hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligiga to'xtalamiz:

1. Guruhli ishda reaksiyalar va natijalar.

Interfaol usullardan biri bo'lgan guruhli ishlarda qiz va o'g'il bolalarning xatti-harakatlari va munosabatlari turlicha namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiz bolalar guruhli faoliyatlarda ko'proq hamkorlik qilishga moyil bo'lib, ular jamoa manfaatlarini va muvofiqlikni ta'minlashga intiladilar. Qizlar odatda muloqotda bo'lish, muammolarni birgalikda hal qilish va boshqalarga yordam berish kabi ko'nikmalarni ko'proq namoyon etadilar. O'g'il bolalar esa guruhda raqobatchi bo'lishga moyildirlar va o'z natijalarini boshqa o'quvchilar bilan taqqoslash orqali o'z pozitsiyalarini mustahkamlashni maqsad qiladilar. Bu esa ularning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishi mumkin, lekin ayrim hollarda hamkorlikni cheklashi ehtimoli ham bor⁹.

2. Muammoni hal qilish usullari.

Interfaol usullarning muammoni hal qilishga qaratilgan shakllarida (masalan, rolli o'yinlar yoki muammoli vaziyatlar) qiz va o'g'il bolalar turli yondashuvlardan foydalanadilar. Qiz bolalar ko'pincha tizimli, batafsil va ehtiyotkorlik bilan muammoni hal qilishga intiladilar. Ular muammoga ijodiy yondashishdan ko'ra mavjud qoidalar va ko'rsatmalar asosida ishlashga moyildirlar. O'g'il bolalar esa muammo hal qilishda ko'proq ijodiy

va tezkor yechimlarni qidirishadi. Ular tavakkal qilishga va noan'anaviy yondashuvlarni sinab ko'rishga moyil bo'ladi. Bu esa ularning yechim qidirishdagi erkinliklarini oshiradi, lekin ayrim hollarda diqqatni bir joyga jamlashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin¹⁰.

3. Texnologiya va raqamli vositalardan foydalanish.

Interfaol ta'limning texnologiyaga asoslangan usullari (masalan, kompyuterli o'yinlar yoki dasturlar) qiz va o'g'il bolalarda turli natijalar berishi mumkin. O'g'il bolalar texnologik vositalarni tezroq va ishonch bilan o'zlashtiradilar, ular bu jarayonda ko'proq qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashadi. Texnologiyaga asoslangan faoliyatlar o'g'il bolalar uchun ko'pincha qiziqarli va raqobatchi muhit yaratadi, bu ularni faollashtiradi. Qiz bolalar esa texnologiyadan foydalanishda biroz ehtiyotkor bo'lib, unda ko'proq ko'rsatmalar va yordamga ehtiyoj sezadilar. Bu farq ba'zan jamiyatda mavjud bo'lgan gender stereotiplariga bog'liq bo'lishi mumkin, chunki qiz bolalar texnologiyani "o'g'il bolalar sohasi" deb qabul qilishi mumkin¹¹.

4. Liderlik va tashabbuskorlik.

Interfaol usullarni qo'llagan ta'limda qiz bolalar odatda jamoa ichida ko'proq muvozanatni saqlashga intiladilar va guruhda yaqin hamkorlikni ta'minlashni maqsad qiladilar. Shu bilan birga, ular ko'pincha liderlik pozitsiyalarini egallashga uyalishlari yoki boshqalarning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishlari mumkin. O'g'il bolalar esa ko'proq tashabbus ko'rsatadilar va liderlik rolini o'z zimmalariga olishga moyil bo'ladilar. Bu ularning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi va qobiliyatlarini namoyon qilishiga yordam beradi, lekin ba'zida guruhdagi boshqa a'zolar bilan hamkorlikni murakkablashtirishi ham mumkin¹².

⁸ Atkinson, J.W. (1978). *An Introduction to Motivation* // Van Nostrand Reinhold. – New York. – 67 p.

⁹ Бьянкини Ж.А. Где пересекаются построение знаний, справедливость и контекст: изучение науки студентами в малых группах // Журнал исследований в области преподавания естественных наук. 1997, 34 (10).


¹⁰ Тененбаум Х.Р. и Липер К. Беседы родителей и детей о науке: социализация гендерного неравенства? Психология развития. 2003, 39 (1). – С. 34–47. <https://doi.org/10.1037/0012-1649.39.1.34>

¹¹ https://www.researchgate.net/publication/314436988_Exploring_Gender_Differences_in_Computer-Related_Behaviour_Past_Present_and_Future

¹² Eagly, A.H., & Johnson, B.T. (1990). Gender and leadership style: A meta-analysis // Psychological Bulletin, 108 (2), pp. 233–256. <https://doi.org/10.1037/0033-2909.108.2.233>

5. Rag'batlantirishga bo'lgan munosabat.

Qiz va o'g'il bolalar rag'batlantirish va jazo tizimlariga turlicha munosabatda bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiz bolalar odatda ijobiy rag'batlantirishga (maqto'v, mukofot) ko'proq sezgirlik ko'rsatadilar va bunday rag'batlarga javoban o'z xatti-harakatlarini yaxshilashga harakat qiladilar. O'g'il bolalar esa ko'pincha raqobatchi muhitda rag'batlantirilgan va jazo tizimiga ham munosib javob berishlari mumkin. Ular ko'proq maqsadga erishish va mukofot olishga intilishadi, lekin ba'zida jazodan keyin xatti-harakatlarida qarshilik yoki reaktivlik kuzatilishi mumkin¹³.



Interfaol ta'lim usullari.

1. Guruhli ishda reaksiyalar va natijalar:

Qiz bolalar: hamkorlik, muvofiqlik.

O'g'il bolalar: raqobatchilik, natijalarni taqqoslash.

2. Muammoni hal qilish usullari:

Qiz bolalar: tizimli, batafsil yondashuv.

O'g'il bolalar: ijodiy, tezkor yechimlarni qidirish.

3. Texnologiya va raqamli vositalardan foydalanish:

Qiz bolalar: ehtiyotkorlik, ko'rsatmalarga ehtiyoj.

O'g'il bolalar: qiziqish, raqobatchilik.

4. Liderlik va tashabbuskorlik:

Qiz bolalar: muvozanat, ko'proq hamkorlik.

O'g'il bolalar: tashabbuskorlik, liderlik.

5. Rag'batlantirishga bo'lgan munosabat:

Qiz bolalar: ijobiy rag'batlantirishga sezgirlik.

O'g'il bolalar: raqobatchilik, jazoga javob.

Yuqoridagi diagrammada turli xil interfaol ta'lim usullarida qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi reaksiyalar va natijalarni taqqoslash tasvirlangan. Har bir toifa (guruhda ishlash, muammolarni hal qilish, texnologiyadan foydalanish, yetakchilik, tashabbus va rag'batga munosabat) qizlar va o'g'il bolalarning qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatadi, yuqori ball esa ijobiy tendensiyalarni ko'rsatadi.

Qizlar odatda guruhda ishlash, muammolarni hal qilish va rag'batlantirishga javob berishda muvaffaqiyat qozonishadi.

O'g'il bolalar texnologiyadan foydalanishda va yetakchilik qilishda kuchliroq tendensiyalarni namoyon etadilar.

Ushbu diagrammada interaktiv ta'lim kontekstlarida gender farqlari qanday namoyon bo'lishi aniq, vizual tarzda tasvirlangan.

Yakuniy qism. Interfaol ta'lim va rag'batlantirishning kombinatsiyasi o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undashning samarali usuli hisoblanadi. Interfaol usullarning turli yondashuv bo'yicha qiz va o'g'il bolalarning reaksiyalari va natijalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Qiz bolalar ko'proq hamkorlik va diqqat bilan ishlashga moyil bo'lsalar, o'g'il bolalar raqobatchilik va ijodiy tavakkalchilikka intiladilar. Ushbu farqlar inobatga olinsa, interfaol ta'limni yanada samarali tashkil qilishga erishiladi. Gender stereotiplarini yengib o'tish har ikki jinsdagi o'quvchilarning ta'limdagi motivatsiyalarini kuchaytirishga yordam beradi.

Gender farqlari va motivatsion jarayonlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki va natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Gender farqlarini hisobga olgan holda rag'batlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. Pedagoglar tomonidan o'g'il va qiz bolalar uchun mos keluvchi rag'batlantirish usullari va interfaol ta'lim metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarni yanada faol va qiziqarli o'quv jarayonida o'qitishni ta'minlaydi. Shuningdek, gender stereotiplarini yengish orqali teng imkoniyatlar yaratish va o'quvchilarning to'laqonli rivojlanishiga yordam beradi.

¹³ Pomerantz, E.M., Altermatt, E.R., & Saxon, J.L. (2002). Achieving success but feeling stressed: Gender differences in academic achievement and internal stress // Journal of Educational Psychology, 94 (2), pp. 396–404. <https://doi.org/10.1037/0022-0663.94.2.396>

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Orlov V. (2019). Interactive Learning Technologies and Their Role in Modern Education // Education Technology Publications.
2. Zhonggen Y. (2019). Gender Differences in Cognitive Loads, Attitudes, and Academic Achievements in Mobile English Learning // International Journal of Distance Education Technologies. 17. 10.4018/IJDET.2019100102.
3. Akhmedova D., & Ahmadaliyeva D. (2024). Possibilities of the interactive encouragement method in increasing the vocabulary of primary class students // Science and innovation, 3 (B1). pp. 262-266.
4. Deci, E.L., & Ryan, R.M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior // Springer Science & Business Media. – 97 p.
5. Вайнер, Б. (1985). Атрибутивная теория мотивации достижения и эмоций // Psychological Review. 92 (4). – С. 548-573.
6. Bandura, Albert. (1977). Self-Efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change // Psychological Review. 84. pp. 191-215.
7. Skinner, B.F. (1957). Verbal Behavior. Prentice // Hall.Inc. – Cambridge, Massachusetts. – 103 p.
8. Atkinson, J.W. (1978). An Introduction to Motivation // Van Nostrand Reinhold. – New York. – 67 p.
9. Бьянкини Ж.А. Где пересекаются построение знаний, справедливость и контекст: изучение науки студентами в малых группах // Журнал исследований в области преподавания естественных наук. 1997, 34 (10).
10. Тененбаум Х.Р. и Липер К. Беседы родителей и детей о науке: социализация гендерного неравенства? Психология развития. 2003, 39 (1). –С. 34–47. <https://doi.org/10.1037/0012-1649.39.1.34>
11. https://www.researchgate.net/publication/314436988_Exploring_Gender_Differences_in_Computer-Related_Behaviour_Past_Present_and_Future
12. Eagly, A.H., & Johnson, B.T. (1990). Gender and leadership style: A meta-analysis // Psychological Bulletin, 108 (2), pp. 233–256. <https://doi.org/10.1037/0033-2909.108.2.233>
13. Pomerantz, E.M., Altermatt, E.R., & Saxon, J.L. (2002). Achieving success but feeling stressed: Gender differences in academic achievement and internal stress // Journal of Educational Psychology, 94 (2), pp. 396–404. <https://doi.org/10.1037/0022-0663.94.2.396>



Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada farzand tarbiyasida ota-onalarning asosiy vazifalari va funksiyalari haqida so'z yuritilgan bo'lib, unda ota-onalar tomonidan milliy tarbiyani samarali yo'lga qo'yishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar yoritib berilgan. Bolalarni jamiyatning faol a'zosi sifatida tarbiyalash uchun ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va ota-onaning shaxsiy namuna ko'rsatishi zarurligi kabi muhim jixatlar asoslangan.

Tayanch so'zlar: oila, farzand, ota-ona, yoshlar, odob-axloq, jamiyat, tarbiya, mas'uliyat, intizom, rag'bat.

Аннотация. В данной статье говорится об основных задачах и функциях родителей в воспитании детей, а также выделяются аспекты, на которые родителям необходимо обращать внимание при эффективной реализации национального образования. В целях воспитания детей как активных членов общества закладываются такие важные аспекты, как развитие навыков социального общения и необходимость подачи родителями личного примера.

Ключевые слова: семья, дети, родители, молодежь, воспитание, общество, воспитание, ответственность, дисциплина, поощрение.

Annotation. This article discusses the main tasks and functions of parents in raising children, and highlights aspects that parents need to pay attention to in the effective implementation of national education. In order to raise children as active members of society, important aspects are laid down, such as the development of social communication skills and the need for parents to set a personal example.

Keywords: family, children, parents, youth, upbringing, society, upbringing, responsibility, discipline, encouragement.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda bolalarning ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan qator huquqiy asoslar va normativ hujjatlar ishlab chiqilgan. Ular oilada farzand tarbiyasini yanada takomillashtirish va ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish zaruratini belgilaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasi¹da ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi uchun javobgarligi alohida ta'kidlangan. Bu oilaning bola

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>

ijtimoiylashuvidagi o'rniga davlat miqyosida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori² maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqish zarurligini belgilab berdi. Ushbu qarorda ta'lim-tarbiya jarayonlarida ota-onalarning faol ishtirokini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3334234>

ta'minlash va ularning pedagogik savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Maqsad va uni asoslash. Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad ota-onaning farzand tarbiyasidagi asosiy vazifa va funksiyalarini yoritib berishdir. Hozirgi kunda zamonaviy ijtimoiy muhitda tarbiya masalalari murakkablashmoqda. Media ta'siri va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi ota-onalarning pedagogik roli va mas'uliyatini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bolaning axloqiy, manaviy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi avvalo oiladagi muhitga bog'liq. Oilaviy tarbiya bolaning kelgusidagi ijtimoiylashuviga mustahkam zamin yaratadi. Chunki jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti shaxsni har tomonlama rivojlantirishdir. Oila esa bolalar ijtimoiylashuvi jarayonida birlamchi va eng muhim ijtimoiy institut sifatida xizmat qiladi.

Bolani tarbiyalash – bu har bir ota-onaning eng muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, unda bolalar dastlabki ijtimoiy tajribalarni oladi, shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi va hayotiy qadriyatlarini o'zlashtiradi. Farzandning yaxshi tarbiya topishi uchun ota-ona nafaqat muayyan vazifalarni bajarmog'i, balki oila a'zolari bilan birgalikda maqsadga yo'naltirilgan faoliyat olib borishi zarur.

Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan mulqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir...”, deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: “Bola tug'ulgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi” degan fikrni ilgari suradi³. Bir necha asrlar oldin aytilgan ushbu fikrlar hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan.

Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash, ushbu jarayonda milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalaridan foydalanish, ota-onalarning milliy pedagogik madaniyatini takomillashtirish, tarbiya

jarayonining metodik asoslarini yaratish, ota-onalar tomonidan milliy tarbiyani samarali yo'lga qo'yish, ularga bu to'g'rida nazariy bilimlarni berish hamda ularda ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish⁴ dolzarb masalalar hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri oilada yoshi ulug' qariyalar – bobo va buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo'lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, barcha masalalarda ular bilan maslahatlashib, so'ng ish boshlashga amal qilinadi. O'zbek oilasiga xos mazkur xarakterli xususiyatlarni alohida e'tirof etib o'tishdan maqsad shuki, “oila tarbiyasi”ning o'ziga xos qirralari ana shundagina to'la-to'kis namoyon bo'ladi. Bu tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o'rin tutishi, salmog'i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo'ladi⁵.

Buyuk ajdodimiz Al-Hakim at-Termiziyning (820–932) ota-onasi hadis ilmining yetuk namoyondalaridan hisoblanib, xususan, otasi Ali ibn al-Hasan o'z davrida hadis ilmining taniqli olimlaridan biri bo'lgan. Hakim at-Termiziy: “Alloh taolo mening ustozim-validimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgu va vaqtixushlik bilan band bo'lar edilar. Validimning ijti hodlari tufayli men shu yoshimda “Ilm al-Osor”(hadis ilmi) va “Ilm ar-Ray”(xanafiy mazhabi fiqhi) bilimlarini to'liq egallab olgan edim”⁶, – degan fikrlaridan bilish mumkinki, uning buyuk olim bo'lib yetishishida otasining hissasi juda katta ekanligidan dalolat beradi.

Bola tug'ilganidan boshlab oila muhitida yashaydi, oilaga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlar

⁴ Мухсиева А.Ш. Оилада миллий тарбия жараёнининг методик асослари: пед. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 2005. – Б. 8. // <https://diss.natlib.uz/tanishish/7f676a7f-3b35-41e3-b3b5-1383206575cf>

⁵ “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2021. – 200 b. // https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_6_osd9d3c.pdf

⁶ Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Буюк юрт алломалари. – Тошкент, 2016. – Б. 53

³ Madaminova O'. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli // “Science and Education” Scientific Journal. February 2023. Volume 4. Issue 2. – B. 978-979.


uning dunyoqarashini shakllantiradi va shaxsini rivojlantiradi. Oilada bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash ijtimoiy pedagogik zaruriyat bo'lib, ota-onalar bu borada ma'lum bilimlarga ega bo'lishlari juda muhim. Kichik yoshdagi bolalar tarbiyasida ota-ona tomonidan turli qiziqarli o'yinlarni tashkil qilish, birgalikda dars tayyorlash va qiziqarli narsalarni o'qib, muhokama qilish, birgalikda sayrga chiqish va oilaviy dam olishlarni tashkillashtirish ijobiy samara beradi.

Bolaning kim bo'lib yetishishi, asosan, oiladagi muhitning ijobiy tarbiyaviy ta'siriga bog'liq. Bu to'g'rida atoqli pedagog A.S.Makarenko, "Agar biz farzandlarimizga yaxshi tarbiya bersak, bu bizning baxtimiz, shodligimizdir; yomon tarbiya bersak bu kelajakdagi achchiq ko'z yoshimiz, noqobil farzand tufayli qon-qon yig'lab yutadigan g'amlarimiz, alamlarimiz, deb ota-onalarni ogohlantirgan edi"⁷.

Oilaviy qadriyatlarni saqlash va ilg'or oilaviy an'analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etish, turmush tarzining bir bo'lagiga aylantirishdir. Bunda ota-onaning o'rni va roli bevosita xarakterga ega bo'lib, faqat sog'lom muomala va samimiyat muhitigina o'smirning dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasi va Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanadi. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining asosidir⁸.

⁷ Yusupov U., Ergasheva M. (2022). Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 442–445. // <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5167>

⁸ Norqulov H., Jumayev Sh. "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2021. – B. 48.



1-rasm. Farzand tarbiyasida ota-onaning asosiy vazifalari

Ota-onaning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *Farzandiga mehr ko'rsatish va uni qo'llab-quvvatlash.*

Ota-onaning birinchi va eng muhim vazifasi farzandga mehr va e'tibor ko'rsatishdir. Bola o'zini sevib ardoqlangan his qilsa, unda o'ziga bo'lgan ishonch shakllanib boradi. Ota-onaning o'z farzandiga vaqt ajratishi, uning gap-so'zlariga, his-tuyg'ulariga e'tibor qaratishi va fikrlarini qo'llab-quvvatlashi unda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

2. *Ta'lim va tarbiya jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish.*

Farzandning bilim olishida va intellektual rivojlanishida ota-onaning o'rni juda katta ahamiyatga ega. Chunki farzandning qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, sport bilan shug'ullanish, kasb o'rganishga yo'naltirish uning hayotda o'z o'rni topishiga yordam beradi. Uyda va uydan tashqarida farzand uchun o'quv muhitini yaratish, kitob o'qishga rag'batlantirish, maktab bilan hamkorlik qilish muhim hisoblanadi.

3. *Bolada ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish.*

Bolalarni jamiyatning faol a'zosi sifatida tarbiyalash uchun ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir. Jamiyatda o'zini tutish va odob-axloq qoidalarini o'rgatish, boshqa odamlarni hurmat qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish birinchi navbatda ota-onaning asosiy vazifasidir.

4. *Intizom va javobgarlikni o'rgatish.*

Bolada intizom va mas'uliyat hislatlarini shakllantirish uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Intizom va javobgarlik bolaga o'z hayotini tartibga solishga, o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondashishga va jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Ota-onalar farzandining har bir xatti-harakati uchun aniq qoida va mezonlar belgilashlari va ularni tushuntirishlari kerak. Misol uchun, uy ishlarini bajarish, kitob o'qish yoki dars tayyorlash vaqtlari, uyqu tartibi va boshqa kundalik ishlarni tartibga solishga doir qoidalar bola uchun muhimdir. Kundalik rejimni tartibga solish, farzandning qabul qilgan qarorlari uchun mas'uliyat his qilishini ta'minlash. Buning uchun, avvalo, ota-ona bergan va'dasini bajarishi va mas'uliyatli bo'lishni namoyish etishi kerak.

5. *Milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish.*

Bolalarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi ota-onaning unga berayotgan qadriyatlariga bog'liqdir. Bolalarda halollik, poklik, sahiylik kabi ezgu fazilatlarini shakllantirish uchun unga ushbu fazilatlarining ahamiyatini tushuntirish va misollar keltirish yaxshi natija beradi. Ota-ona farzandiga o'z xalqining tarixi, qadriyatlari va urf-odatlariga haqida hikoyalar aytib berish, o'z tarixiga nisbatan faxr va hurmatni oshiradi. Xalqning buyuk shaxslari, ularning yurt uchun qilgan xizmatlari va xalqning turli davrlarda ko'rsatgan qahramonliklaridan xabardor bo'lish bolaga milliy qadriyatlarni singdiradi.

Ota-onaning farzand tarbiyasidagi asosiy funksiyalariga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. *Himoya funksiyasi.* Farzandni jismoniy va ruhiy xavfsizlik bilan ta'minlash ota-onaning asosiy vazifalaridandir. Ota-ona farzandining yashashi uchun xavfsiz va ozoda muhit yaratishi, xavfli obyektlardan, zararli kimyoviy moddalar yoki tajovuzlardan himoya qilishi kerak. Farzandining uydagi va uydan tashqaridagi, o'yin maydonchalaridagi xavfsizligi, transport vositalarida xavfsiz o'rindiqlarda o'tirishi kabi masalalarga jiddiy e'tiborda bo'lishi talab etiladi. Ularni tashqi xavf-xatarlardan asrash va doimo qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bola maktabda, uyda va jamoat joylarida jismoniy va psixologik tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilinishi kerak. Ota-ona bola bilan doimiy suhbatlashib turishi, unga o'z xavfsizligini saqlash holatlarini o'rgatib borishi kerak.

Shu bilan birga, farzandlarni sog'lom turmush tarziga odatlantirish zarur. Ovqatlanish, uyqu tartibi, muntazam jismoniy faoliyat va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishga o'rgatish kerak. Shuningdek, ota-ona farzandining salomatligini nazorat qilish, zarurat bo'lganda tibbiy yordam olishlari lozim bo'ladi.

2. *Shaxsiy o'rnak bo'lish.* Farzand tarbiyasida ota-ona shaxsiy namuna ko'rsatib, unga o'rnak bo'lishi kerak. Chunki bolalar ko'pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o'rnak oladilar. Agar ota-ona tartibli bo'lsa, bolalar ham shunday bo'lishni o'rganadilar. Bolalar ota-onani kuzatib, ularga ergashadilar. Shu sababli ota-ona har bir harakatida bolalarga o'rnak bo'lishi kerak. Ota-ona stressli va tushkun vaziyatlarda o'zini nazorat qila olishi zarur, chunki farzandlar ham muammoli vaziyatlarni hal qilishni ota-onasidan o'rganadi. Agar ota-ona o'z vaqtini tartibli boshqarib, vaqtdan unumli foydalanishni yo'lga qo'ygan bo'lsa, farzand ham vaqtni to'g'ri taqsimlashni o'rganadi. Misol uchun, ota-ona ertalab belgilangan vaqtda turib, ishlariga yoki uy ishlariga kirishishlari, bu bolaga ham muntazam va tartibli hayot kechirishni o'rgatadi.

3. *Rag'batlantiruvchi rol.* Farzandning muvaffaqiyatlarini qadrlash va uni yangi yutuqlarga undash muhim. Ota-ona farzandining har qanday kichik yutug'ini ham maqtashi unda o'z kuchiga ishonchni oshiradi. Farzandni rag'batlantirish orqali uning yaxshi xulq-atvori, mehnatsevarligi, ijtimoiy faolligi va ta'lim olishidagi muvaffaqiyatlarini mustahkamlashga erishiladi. Rag'batlantirish orqali bola o'z harakatlaridan ijobiy natija kutishga o'rganadi va o'zini yanada rivojlantirishga harakat qiladi. Rag'batlantirish bolada motivatsiya uyg'otadi va bolaning rivojlanishini tezlashtiradi. Tanqid esa ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tanqidni to'g'ri yondashuv bilan amalga oshirish, farzandni o'z xatolaridan saboq olishga va ularni to'g'rilashga undaydi. Biroq haddan tashqari noto'g'ri tanqid farzandning o'ziga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi. Agar bola xato qiladigan bo'lsa, unga bu odatiy hol ekanligi, muhimi xatolardan xulosa chiqarishi lozimligini o'rgatish kerak.

Ota-onaning tarbiyadagi asosiy xatolari sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin:

- *haddan tashqari qattiqqo'llik yoki yumshoqlik:* Bolaga haddan tashqari qattiqqo'llik

yoki yumshoqlik bilan muomala qilish, uning ijtimoiy, psixologik va axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Har ikki holat ham bolaning o'zini anglashiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va ijtimoiy munosabatlarida muammolarni keltirib chiqarish ehtimoli yuqori. Muvozanatning yo'qligi bolaning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, masalan:

- *Farzandga e'tiborsizlik* bolani e'tiborsiz qoldirish, uning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. E'tiborsizlik uning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Bola o'zini e'tiborga loyiq deb hisoblamasa, o'zini qadrlamaydi va o'zining qobiliyatlariga ishonmaydi. Bu uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga katta to'siq bo'lishi mumkin.

- *Salbiy o'rnak bo'lish*. Farzandlar ota-onalarining xulq-atvori, so'zlari va kundalik hayotdagi amallari orqali ko'p narsalarni o'rganadilar. Ota-onaning nojo'ya xulq-atvori farzandning noto'g'ri yo'lni tanlashiga olib kelishi

mumkin. Ota-onaning farzandi yoki boshqalar bilan o'zaro muloqotda yolg'on gapirishi yoki haqiqatni yashirishga intilishi bola tomonidan yolg'onning normal holat sifatida qabul qilishiga olib keladi. Natijada bolaning axloqiy qadriyatlarini noto'g'ri shakllanadi.

Yakuniy qism. Farzand tarbiyasi ota-onadan sabr-toqat, donolik va izchillikni talab qiladi. Ota-onalar o'z vazifalari va funksiyalarini to'g'ri bajarib, farzandlarini jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashlari mumkin.

Farzandga to'g'ri tarbiya berish – bu murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, uning yuksak axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga asos yaratadi. Ota-onalar farzandlarining har bir qadamini diqqat bilan kuzatib borishlari, ular bilan o'zaro ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishlari kerak. Oilada yo'lga qo'yilgan to'g'ri tarbiya tizimi, farzandning nafaqat bugungi, balki kelajakdagi baxtli va muvaffaqiyatli hayotini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3334234>
3. Madaminova O'. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli // "Science and Education" Scientific Journal. February 2023. Volume 4. Issue 2.
4. Мухсиева А.Ш.Оилада миллий тарбия жараёнининг методик асослари: пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. // <https://diss.natlib.uz/tanishish/7f676a7f-3b35-41e3-b3b5-1383206575cf>
5. "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2021. // https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_6_osd9d3c.pdf
6. Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Буюк юрт алломалари. – Тошкент, 2016.
7. Yusupov U., M.Ergasheva (2022). Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1). // <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5167>



Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi,

Yaponiyaing O'zbekistondagi elchixonasi iqtisodiy hamkorlik bo'limi xodimi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: n.abdulazizova91@mail.ru

AYOLLARNING PENSIYA TA'MINOTI MASALASINI YECHISH YO'LLARI: ILG'OR TAJRIBA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Annotatsiya. Maqolada pensiya ta'minotining gender masalalari tahlil qilingan. Jahonda ayollarning pensiya ta'minotidagi mavjud muammolar hamda tendensiyalar yoritilgan. Shuningdek, ayollar pensiya ta'minotini yaxshilash borasida dunyo davlatlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va dasturlardan misollar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: ayollar pensiya ta'minoti, pensiya islohoti, gender pensiya tafovuti, demografik qarish, bola parvarishi, moslashuvchan ish tizimlari.

Аннотация. В статье анализируются гендерные вопросы пенсионного обеспечения. Особо выделяются современные проблемы и тенденции в пенсионном обеспечении женщин в мире. Приведены примеры мер и программ, реализуемых в странах мира по улучшению пенсионного обеспечения женщин.

Ключевые слова: пенсионное обеспечение женщин, пенсионная реформа, гендерный разрыв в пенсиях, демографическое старение, уход за детьми, гибкие системы работы.

Annotation. The article analyses gender issues of pension provision. Modern problems and trends in the pension provision of women in the world are highlighted. Examples of measures and programmes implemented in the countries of the world to improve women's pension provision are given.

Keywords: women's pension provision, pension reform, gender gap in pensions, ageing, childcare, flexible work systems

Kirish. Globallashuv davrida zamonaviy jamiyat bir qator jiddiy ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda, ulardan biri ayollarga munosib pensiya ta'minlashdir. Ijtimoiy himoya sohasidagi sezilarli yutuqlarga qaramay, ayollarning pensiyalari e'tibor talab qiladigan muammoli masala bo'lib qolmoqda. Ayollarning

umr ko'rish davomiyligi asta-sekin ortib bormoqda, bu esa umumiy aholi tarkibida keksa ayollar ulushi ko'payishiga olib keladi. Ushbu demografik omil xotin-qizlarning pensiya jamg'armalari miqdorini oshirish, pensiya ta'minoti sohasida yangi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi. Xotin-qizlarning pensiya ta'minoti

kompleks yondashuvni talab qiladigan dolzarb va murakkab vazifadir. Odatda ayollar pensiya uchun jamg'arishni qiyinlashtiradigan va pensiyaga chiqqanda munosib turmush darajasini kafolatlash bilan bog'liq bir qator to'siqlarga duch kelishadi. Bu to'siqlar gender tengsizligi, kasbiy rivojlanish uchun imkoniyatlar cheklangani, bolalar va keksa qarindoshlarga g'amxo'rlik qilishda ayollarning asosiy roli, shuningdek, umr ko'rish uzunligi bilan bog'liq.

Maqsad va uni asoslash. Ayollarning pensiya muammosini hal etish demografik o'zgarishlar sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlarning pensiya ta'minoti masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, pensiya tizimlarining qiyosiy tahlili, erkaklar va ayollarning pensiya jamg'armalaridagi nomutanosibliklari, ayollarning pensiya ta'minotiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar kabi muammoning turli jihatlariga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar mavjud. Biroq mavjud ma'lumotlarning katta hajmiga qaramay, ilg'or amaliyot va zamonaviy tendensiyalarga e'tibor qaratilgan ayollar pensiyasi muammosini hal qilish yo'llarining kompleks tahlili yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi xotin-qizlar pensiyasi muammosini kompleks tahlil qilish, uni hal qilishning eng samarali yo'llarini aniqlash, ilg'or tajribalarni o'rganish va O'zbekistonda xotin-qizlarning pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni shakllantirishdan iborat.

Global mehnat bozorida ayollar uchun gender tenglikni ta'minlash bo'yicha qator mamlakatlar chora-tadbirlarni amalga oshirganiga qaramay, hali-hanuz erkaklarga beriladigan imkoniyatlarning 2/3 qismi ham ayollarda mavjud emas. Kasbiy pensiya sxemalari bo'yicha to'lanadigan pensiya miqdori va bandlik tuzilishi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud. Yevropa va Markaziy Osiyoda o'rtacha ish bilan t'minlangan ayollarning deyarli 23 foizi yarim kunlik ishda ishlaydilar, erkaklarda bu ko'rsatkich atigi 7 foizga teng. Kuzatuvlarga ko'ra, to'liq ish kunida ishlaydigan holatlarda ham ayollar va erkaklar ish haqi o'rtasidagi farq OECD mamlakatlarida 14,8% ni tashkil etadi¹. Yevropada

¹ OECD.StatExtracts. nd..“Gender wage gap.”<http://stats.oecd.org/>(accessed 10 July 2014)

65 va undan katta yoshdagi erkaklarning o'rtacha mehnat staji 35–43 yilni tashkil etsa, ayollarda ushbu muddat o'rtacha 12,8 yilni tashkil etadi². Pensiya daromadlaridagi gender tafovuti esa dunyodagi deyarli barcha pensiya daromadlari tizimida mavjud. Xususan, bu farq Yaponiyadagi deyarli 50% dan, Estoniyadagi 5% dan kam bo'lgan darajani tashkil etadi³. Bugungi kunda bu ayollar va erkaklar ish haqidagi o'rtacha 8400 AQSh dollariga teng farqni ko'rsatadi⁴.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Ayollarning pensiya ta'minoti sharoitlarini yaxshilash maqsadida dunyo mamlakatlarida turli yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayollar uchun adolatli pensiya ta'minoti tizimini joriy qilish va genderga bog'liq masala yuzasidan kelib chiqqan farqlarni minimallashtirish tendensiyasi rivojlangan davlatlarda keng tarqalib bormoqda. Pensiya tizimida gender tengsizligini bartaraf etish ko'p qirrali yondashuvni, jumladan, teng haq to'lash, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirish va ijtimoiy me'yorlarni hal qilishni talab qiladi. OECDning 2021-yilgi hisobotiga ko'ra, a'o mamlakatlar orasida 65 va undan yuqori yoshdagi ayollar erkaklarga qaraganda o'rtacha 26% kamroq pensiya daromadini olishadi. Ayollar erkaklarniki kabi pensiya olishlari uchun esa 19 yil qo'shimcha ishlashlariga to'g'ri keladi. Gender Pensiya tafovuti 2024 (GGP) tadqiqotlari natijasiga ko'ra, qashshoqlikda yashayotganlarning 67 foizi ayollarni tashkil etadi. Ayollar mehnat bozorida ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lganda, u o'z kelajagini aniqlay oladi. U qabul qiladigan va hayotining har bir bosqichida unga qabul qilishga ruxsat berilgan qarorlar sog'lomroq va moliyaviy jihatdan xavfsizroq hayot uchun imkoniyat yaratadi.


Osiyo mintaqasida esa bu vaziyat yanada achinarli bo'lib, erkaklar va ayollar o'rtasidagi

² Camila Arza. The Gender dimensions of pension systems: Policies and constraints for the protection of older women. – Argentina: Interdisciplinary Centre for the Study of Public Policy and CONICET, UN 2015.

³ OECD. Joining Forces for Gender Equality: What is Holding us Back? 2023.

⁴ World Economic Forum. How to fix the gender pension gap. 2021. <https://www.weforum.org/stories/2021/09/how-to-fix-the-gender-pension-gap/>

pensiya tengsizligi mehnat bozori ishtirokidagi tengsizliklar, norasmiy bozorda nomutanosib ishtirok etish va ish haqidagi sezilarli farq, keskinlashib borayotgan demografik qarish jarayoni davom etishi bilan yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Quyidagi rasmda Osiyo va Tinch okeanining oltita mamlakati uchun yosh guruhi bo‘yicha to‘lanmagan parvarishlash ishlari va mehnat bozorida sarflangan o‘rtacha soatlar hisob-kitoblari keltirilgan. Barcha mamlakatlarda va barcha yosh guruhlarida erkaklar to‘lanmagan parvarishlash ishlaridan ko‘ra mehnat bozorida ko‘proq ish qiladilar, ayollar esa barcha yosh guruhlarida ko‘proq to‘lanmagan parvarish ishlarini bajarishadi. Ayollarning mehnat bozorida faoliyatiga qaraganda to‘lovsiz g‘amxo‘rlik ishlariga sarflagan davri 20 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida eng yuqori, aksincha, 20 yoshgacha va 60 yoshdan oshgan yosh guruhlarida esa minimal hisoblanadi. Bu ayollarning hayot sikliga bog‘liq.



1-rasm. Muayyan davlatlarda haftasiga sarflangan o‘rtacha vaqt (soatlar) ish turi, yosh va jins bo‘yicha⁵

Aslida, ayollar pensiya miqdori kamligining asosiy sababi ayollarning rasmiy va norasmiy mehnat bozorlarida to‘liq ish kunida ishlash ehtimoli kamligidir. To‘lanmaydigan bola parvarishi va uy ishlari ularning iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi va ishdan tez-tez yoki uzoqroq tanaffuslarga chiqishiga olib keladi, natijada pensiya badallari va nafaqalari kamayadi.

⁵ Image: ESCAP; Older Women and Men as Providers and Recipients of Unpaid Care Work in the Asia-Pacific Region (2020). Online Edition <https://www.unescap.org/sites/default/d8files/knowledge-products/Older%20Women%20and%20Men%20as%20Recipients%20of%20Care%20and%20Caregivers.pdf>

So‘nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlari ayollarning pensiya ta‘minotini yaxshilash borasida amalga oshirilgan islohotlar quyidagilardan iborat bo‘ldi:

Pensiya to‘lovlarini oshirish. Shvetsiya genderga sezgir pensiya qonunchiligiga ega yetakchi davlatlardan biri bo‘lib, u ayollar mehnat stajidagi uzilishlari sababli pensiya miqdoridagi kamayishni kompensatsiya qilish uchun ayollarga maxsus pensiya badallarini joriy qildi. Kanadada esa barcha 65 yoshdan kattalar uchun universal qarilik pensiyasi (Old Age Security) joriy qilindi. U minimal daromad darajasini kafolatlaydi va bu orqali ayollarning qarilikdagi kambag‘alliklari xavfini kamaytirishga erishish mumkin.

Ayollarning mehnat faoliyatini rag‘batlantirish dasturlari. Germaniyada “Bambini” dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur ayollarga farzand tug‘ilgandan keyin ularni farzand tarbiyasi subsidiyalari bilan ta‘minlash orqali ishlashni davom ettirish imkonini beradi⁶.

• *Bola parvarishi ta‘tili muddatini uzaytirish* bo‘yicha Kanadada bola parvarishi ta‘tili 18 oy deb belgilandi.

• *Moslashuvchan ish tizimlarini joriy etish* borasida Finlyandiyada ayollarga uydan, yarim kunlik, moslashuvchan soatlar bilan oilaviy vazifalarni ish bilan isloh qilish imkonini beruvchi moslashuvchan ish dasturlari ishlab chiqilgan. Fransiya esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yasli guruhlariga kirish imkoniyatlarini oshirish va bolalar bog‘chalari mavjudligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirdi, bu esa ayollarga bola ta‘tilidan keyin ish joyiga qaytishga imkon beradi. Bu borada Yaponiya maktabgacha ta‘lim sohasi mutaxassis ayollarini ishga taklif qilib, kichik yoshli farzandlarini ish joylari hisoblangan bog‘chada bepulga katta qilish imkonini yaratdi.

Germaniya esa erkaklar va ayollar ish haqi o‘rtasidagi farqni minimallashtirish bo‘yicha davlat siyosatini olib bormoqda.

• *“Norasmiy” ishga pensiya tayinlash* tajribasi Hindistonda qishloq xo‘jaligi va uy xo‘jaligida band ayollarga pensiya joriy qilish orqali namoyon bo‘ldi⁷.

⁶ <https://www.familienportal.nrw/en/0-bis-1-jahre/finanzielles-formales/pension-insurance>

⁷ Julia Constanze Braunmiller, Isabel Santagostino Recavarren, Aparna Mittal, and Tanvi Khatri. How Did India

- *Ayollarning pensiya bo'yicha huquqlari haqida xabardorlikni oshirish* maqsadida Janubiy Koreyada axborot kampaniyalari o'tkazilmoqda.

- *Ayollar uchun mustaqil pensiya fondlarini tashkil etish.* Argentinada bunday fondlar tashkil etilgan bo'lib, bu ularga erlari yoki oilalariga bog'liq bo'lmasdan pensiyaga chiqish uchun pul yig'ish imkonini beradi⁸.

- *Ayollarni siyosiy qarorlarda ishtirok etishga ko'maklashish.* Niderlandiya ayollarni siyosiy hayotda ishtirok etishga undash dasturini ishlab chiqdi. Bu esa ayollarga pensiya tizimiga oid qaror qabul qilishda ko'proq ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

- *Pensiyaning eng kam stavkalarini aniqlash.* AQShda ayollar uchun eng kam pensiya qonun bilan belgilanadi, bu esa ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lgan pensiya olish imkonini beradi⁹.

Ayollar pensiya ta'minoti borasida jahon tajribasida amalga oshirilgan salmoqli ishlarga qaramasdan, qator zamonaviy xavflarni ham muvozanatlashtirish zaruriyati mavjud. Xususan, raqamli pensiya tizimlariga o'tish ayollarning moliyaviy savodxonligini oshirishni, qulay va shaffof axborot resurslarini taqdim etishni talab qiladi. Bundan tashqari, ayollar migratsiyasi ular yashayotgan mamlakatda pensiya huquqi yo'qolishiga va kelgan mamlakatlarida pensiya olish imkoni mavjud emasligiga olib kelishi mumkin. Butun dunyoda 169 million mehnat muhojiri bo'lsa, shundan 99 millioni erkak, 70 millioni ayol hisoblanadi. Dunyo bo'yicha har sakkizinchi hamshira migrant sanaladi. Muhojir ishchilarning majburiy mehnatga tushib qolish ehtimoli milliy ishchilarga qaraganda uch baravar ko'proq.

Tadqiqotlarga ko'ra, pensiya ta'minotida gender tengsizligi muammosini hal qilish bo'yicha

Successfully Reform Women's Rights. Global indicators briefs №19. World Bank Publishing. 2023. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099950506282325566/pdf/IDU0c4c7e5b705c31049590a7de00a50244345ba.pdf>

⁸ Camila Arza. The Gender dimensions of pension systems: Policies and constraints for the protection of older women. – Argentina: Interdisciplinary Centre for the Study of Public Policy and CONICET, UN 2015.

⁹ <https://www.cfainstitute.org/about/press-room/2021/global-pension-index-calls-for-pension-system-reform-to-close-gender-gap-in-retirement-income>

amalga oshirilgan ishlar natijasida to'liq ish kunida ishlayotgan ayollar ulushi 1997-yilgi 36% dan 2023-yilda 41% ga ko'tarildi, erkaklarda esa to'liq bo'lmagan ishda ishlovchilar ulushi 16% dan 26% ga o'sdi. Bugungi kunda ayollarning o'rtacha yillik daromadi (31 000 AQSh dollar) erkaklarning 75% yillik daromadi (41 330 AQSh dollari)ga teng. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, mehnatga layoqatli erkaklarning 38,7 foizi pensiya rejasi bilan qamrab olingan bo'lsa, ayollarda bu ko'rsatkich faqat 26,3 foizga teng.

Pensiya ta'minotidagi ayollarning daromadlar tengsizligini uch yo'l bilan bartaraf etish mumkin:

1. Hayotning turli bosqichlarida ayollarning pensiya daromadlarida yetishmovchilikni oshiradigan tengsizliklarni aniqlash.

2. Tizimli tengsizlik, boylik, sog'lik, ijtimoiy mobilikka an'anaviy munosabatni o'zgartirish.


3. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga davlat va xususiy sektor tomonidan ustuvor e'tibor qaratish hamda ayollarning pensiyaga chiqishlari uchun yetarli tayyorgarlikni ta'minlaydigan innovatsion chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Hisob kitoblarga ko'ra, ayollarda bola parvarishi sababli mehnat faoliyatida uzilishlar bo'lib, bu o'rtacha o'n yilni tashkil etadi va taxminan, 48 845 AQSh dollariga teng pensiya jamg'armasi yo'qotilishiga sabab bo'ladi¹⁰. Xususan, O'zbekistonda ishga qiziqqan ayollarning 43 foizi farzand tarbiyasi tufayli ishlay olmaydi¹¹. Albatta, bu kelajakda ayollarning pensiya ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yetarlicha davomiy va bola parvarishi bo'yicha to'lab beriladigan ta'lining joriy qilinishi ularning ishga joylashish natijalarini yaxshilashi mumkin. Shu o'rinda davlat ularning huquq va manfaatlarini mustahkamlash maqsadida imtiyozli ravishda bola parvarishi ta'tili bilan bog'liq yo'qotilgan yillarni tiklash uchun uni qonuniylashtirishda tashabbus ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, bola parvarishi ta'tilini 1883-yilda qonuniylashtirgan

¹⁰ The Gender Pensions Gap Report 2024. <https://www.nowpensions.com/app/uploads/2024/02/gender-pensions-gap-report-24.pdf>

¹¹ Сокращение бедности станет общенациональным движением — президент Узбекистана <https://www.gazeta.uz/ru/2024/09/11/poverty/>

birinchi mamlakat Germaniya bo'ldi. Uning ortidan Shvetsiya 1891-yilda va Fransiya 1928-yilda xuddi shunday chorani amalga oshirdi. 1919-yilda esa XMT onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi va uni qabul qildi. Ular uchta fundamental tamoyil: bola parvarishi ta'tili, pul nafaqasi va ish o'rnini saqlab qolish tamoyillaridan kelib chiqadi. 2021-yilda XMT tomonidan so'ralgan deyarli barcha 185 ta davlat o'z qonunchiligida homiladorlik va bola parvarishi ta'tillari qoidalarini qabul qilgan. Biroq tug'uruq ta'tillari davrlari har doim ham pensiya maqsadlarida ish sifatida tan olinmaydi. Jahon Bankining "Ayollar, biznes va huquq" (2024) nomli tadqiqotida ko'rib chiqilgan 190 ta mamlakatdan atigi 107 ta mamlakatda bola parvarishi yillari pensiya ta'minoti uchun hisobga olinadi.



2-rasm. Bolalar parvarishi uchun pensiya krediti berilgan iqtisodiyotlar ulushi (189 ta davlat)¹²

Ushbu indeks ayollarning xavfsizlik, harakat erkinligi, bandlik, mehnatga haq to'lash, nikoh, ota-onalik, bola parvarishi, tadbirkorlik, mulkni tasarruf qilish va pensiya ta'minoti holatini baholaydi. 2022-2023-yil oralig'ida faqatgina 18 ta davlat gender tengligini yaxshilash uchun 47 ta islohotni amalga oshirdi. Xususan, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston, Armaniston, Ozarbayjon, Kipr va Moldova kabi beshta iqtisodiyotda to'qqizta shunday islohot amalga oshirildi. Shu jumladan, O'zbekiston Iordaniya, Malayziya, Syerra-Leone va Togo bilan birgalikda eng katta muvaffaqiyatga erishgan besh davlat qatoridan joy oldi.

O'zbekistonda ayollarga erkaklar bilan bir xil qiymatdagi mehnat uchun teng haq to'lashni kafolatlovchi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, ayrim sohalarda ayollar mehnatidan

¹² World Bank. 2023. Women, Business and the Law 2023. Washington, DC: World Bank.

foydalanishga qo'yilgan cheklovlar bekor qilindi. 2022-yil oktyabr oyida mehnat huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlar va konvensiyalarga mos keladigan ushbu qoidalarini o'z ichiga olgan yangi Mehnat kodeksi qabul qilindi. Bundan tashqari, O'zbekistonda ayollarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qiluvchi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi¹³.

Yakuniy qism. Xulosa qiladigan bo'lsak, ayollarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq muammolarini yechish pensiya tizimini isloh qilish, ayollarning ishchi kuchidagi ishtirokini rag'batlantirish, moslashuvchan pensiya variantlarini ta'minlash, norasmiy bandlik va migratsiyani hal qilishni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Ayollarning ijtimoiy ta'minotini yaxshilash ularning pensiyaga doir huquqlarini himoya qilish uchun yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xorijiy mamlakatlarda quyidagi rivojlanish yo'nalishlarini umumlashtirish mumkin:

1. Pensiya tizimini isloh qilish:
 - bola parvarishi va qarindoshlarga g'amxo'rlik uchun sarflangan yillarni mehnat stajiga hisoblash;
 - rasmiy mehnat munosabatlarida ishtirok etmayotgan ayollar uchun ham minimal kafolat tizimini joriy qilish.
 2. Mehnat bozorida gender tengligini oshirish:
 - mehnatga haq to'lashda gender tafovutini qisqartirish;
 - ishni va oilaviy majburiyatlarni bir vaqtda amalga oshira olish uchun imkoniyatlarni rivojlantirish.
 3. Ayollarning moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish.
 - ayollarning pensiya tizimi va jamg'arish dastaklari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun ta'lim dasturlarini joriy qilish.
- Shuni unutmash kerakki, ushbu yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish, o'z navbatida, har bir davlatning rivojlanish xususiyatlari, demografik tuzilmasi, mehnat bozori holatidan kelib chiqishi lozim.

¹³ The World Bank. Matbuot Xabari №:2024/ECA/072 <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/263b1dbd690c22dabcc12e9c7a4297da-0080012024/original/PR-UZ-s-progress-in-the-2024-WBL-UZ.pdf>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD (2022), OECD Pensions Outlook 2022, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/20c7f443-en>.
2. OECD (2021), "Gender pension gap in selected OECD countries according to different sources: Relative difference between men and women aged 65+ (among pension beneficiaries)", in Towards Improved Retirement Savings Outcomes for Women: OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/151ef088-en>.
3. The Gender Pensions Gap Report 2024. <https://www.nowpensions.com/app/uploads/2024/02/gender-pensions-gap-report-24.pdf>
4. World Bank. 2024. Women, Business and the Law 2024. Washington, DC: World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/bitstreams/9bc44005-2490-41f8-b975-af35cbae8b9a/download>
5. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 2019-yil 17-avgustdagi O'RQ-562-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4494849>
6. ISSA (2020). *Gender-Specific Challenges in Pensions*.
7. OECD (2023), Government at a Glance 2023, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/3d5c5d31-en>
8. Bettio, F., & Verashchagina, A. (2020). *Gender Equality and Pension Systems in the EU*.
9. European Commission (2022). *Gender Pension Gap in Europe*. EU Publishing.
10. International Labour Office, World Social Protection Report 2024-2026: Universal Social Protection for Climate Action and a Just Transition, Geneva: International Labour Office, 2024. <https://www.social-protection.org/gimi/Media.action?id=10982>
11. Стратегия ПРООН по обеспечению гендерного равенства на 2022–2025 годы. ПРООН. Нью-Йорк 2022. https://genderequalitystrategy.undp.org/downloads/UNDP_Gender_Equality_Strategy_2022-2025_RU_V2.pdf

“OILA VA GENDER” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT,
GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/4 (13)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.